

SAODAT KAMBAROVA



ADABIY TA'LIMDA ZAMONAVIYLIK
tajriba va motivatsiya



ISBN 978-9943-7804-3-9



9 789943 780439



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

SAODAT KAMBAROVA

**ADABIY TA‘LIMDA ZAMONAVIYLIK
tajriba va motivatsiya**

Uslubiy qo‘llanma

**“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 74.268.0

K 20

UO‘K: 821.512.133.09(072)

ISBN 978-9943-7804-3-9

Kambarova, Saodat.

ADABIY TA‘LIMDA ZAMONAVIYLIK tajriba va motivatsiya [Matn]:
uslubiy qo‘llanma / S. Kambarova. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 164 b.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 11-sinf, akademik litseylar 2-kurs “Adabiyot” o‘quv dasturida rejalashtirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillari asarlarini o‘rganish, shuningdek, 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” fanidan dasturda rejalashtirilgan badiiy asar ustida ishlash, epik, lirik, dramatik janrdagi asarlarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni, yozuvchi tarjimai holini o‘rganish hamda asarlar yuzasidan tuziladigan savol-topshiriqlardan foydalanish mazmuni yoritilgan bo‘lib, unda milliy va rivojlangan mamlakatlar adabiy ta‘limidagi ilg‘or tajribalarga tayanilgan.

Uslubiy qo‘llanma umumiy o‘rta ta‘lim maktablari adabiyot o‘qituvchilari, mustaqil izlanuvchilar, pedagogika oliy ta‘lim muassasalari magistrant va bakalavriat yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

Safo Matchonov – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Roza Niyozmetova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori

Husniddin Suyunov – Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish Navoiy viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021-yil 20-oktabrdagi yig‘ilishida (3-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

© **Kambarova S.**

© **“Nodirabegim” nashriyoti, 2021.**

KIRISH

Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak ishonch ruhida tarbiyalashda ta'lim mazmuni va sifatining xalqaro talablarga muvofiqligini oshirish, yuksak malakali kadrlar tayyorlashda fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanish, fan bo'yicha egallangan malakalar darajasini nazorat qilish muhim o'rin tutadi. Shu bois, "mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash"¹ maqsadi fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishni hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari mazmunini davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari mazmuniga mos holda takomillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi tezkor taraqqiyot o'qitishning samarali shakl va vositalarini talab etadiki, u bevosita egallangan bilimlarni kundalik faoliyatda qo'llashga yo'naltiruvchi didaktik ta'minotni takomillashtirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Bu borada o'qituvchilar uchun fan asoslarining amaliyot bilan o'zaro uyg'unligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarni individual faoliyatga undash, mustaqil bilim olish, mavjud imkoniyatlarini to'la namoyon etishga xizmat qiluvchi darslik, metodik qo'llanma yoki ularning multimediali ilovalarini yaratish dolzarbligini ko'rsatadi. Zamonaviy yondashuvlarga asoslanilgan o'quv-metodik adabiyotlar muayyan yo'nalishda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashi barobarida tabiat va jamiyatdagi muammolarni tushunish va hal qilishga doir ko'nikmlarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos didaktik va metodik tamoyillari mavjudki, ular ma'lum talablarda namoyon bo'ladi. Xususan, bunda ta'lim oluvchilarning fan yuzasidan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim sanalgan topshiriqlar: mavzu mohiyatini tushunishga yo'naltiruvchi yondashuvlar (sxema, chizma, jadval, diagramma va multimedia vositalari) muayyan samaradorlikni ta'minlashi, fan xususiyatlari hamda o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini ko'zlab yaratilishi maqsadga muvofiq. Shu maqsadga qaratilgan mazkur qo'llanma yosh avlodning intellektual salohiyati va ma'naviyatini yuksaltirish maqsadiga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so'zi. – T., 2019-yil 30-aprel. № 88 (7318).

O‘z ichiga muayyan adiblar umrbayoni, ijodiy faoliyatiga doir o‘quv materillarini noan‘naviy shakl va mazmunda qo‘yilishi bilan xarakterli bo‘lgan mazkur qo‘llanma foydalanuvchilar uchun amaliy faoliyatida bilim berish va ta‘lim subyektlarining fikrlashiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan turli usul va strategiyalarning qo‘yilishi bilan ham farqlanadi. Zero, obrazli va matn ko‘rinishidagi o‘quv materiallari ta‘lim oluvchi diqqatini tez jalb etishi bilan birga oson o‘zlashtirishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yozuvchi yoki shoir ijodini o‘rganishga oid savol-topshiriqlar tizimi, noan‘naviy dizayn, mavzuga doir vazifalarni bajarishga yo‘naltiruvchi grafik organayzerlarning keltirishi o‘quvchilarning badiiy asar mazmunini idrok etish, muallif g‘oyasini anglatish, bilimlarni esda saqlash va takrorlash kabi bilish jarayonlari rivojiga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda bunday materiallardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari o‘quvchilarning o‘quv materialini ko‘p kuch sarf qilmasdan o‘zlashtirish darajasini oshirishga, badiiy-estetik tafakkurining rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratadi.

O‘quv materillarini o‘zlashtirishga doir topshiriqlarni tuzishda quyidagi mezonlarga tayanildi:

1) topshiriqlarning aniq, puxta va muayyan maqsadga qaratilishi, bunda ta‘lim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, mavjud bilimlarining nazarda tutilishi;

2) topshiriqlarning qulay va oson bajarilishiga sharoit yaratish maqsadida mantiqiy ketma-ketlik asosida chizmalar, jadvallarning berilishi;

3) topshiriqlarning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan mezonlarga mos kelishi;

4) savol-topshiriqlar hajmining me‘yorida bo‘lishi;

5) o‘quvchilarning mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish va egallangna bilimlarni amalda qo‘llay olishi;

6) o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilishi;

7) o‘quvchilarda o‘zini o‘zi yoxud o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash imkoniyatini yaratishi;

8) o‘quvchilar topshiriqlarni bajarish orqali qo‘yilayotgan masalaning muhim jihatlarini anglab yetishi va h.k.

Xulosa qilganda, mazkur qo‘llanma ta‘lim oluvchilarning matnni o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish, fikrlarini asoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda mustaqil ishlarni bajarish orqali yozuvchi yaratgan badiiy olamni kashf etish, shu orqali ijodkor o‘quvchi darajasiga ko‘tarilishida o‘qituvchilarga zarur metodik manba vazifasini o‘tashi mumkin.

XALQ OG‘ZAKI IJODI “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARI TURKUMI

Eslang:

Doston nima? Uning qanday turlari mavjud?

O‘zbek dostonchilik an’analarida qanday turkum dostonlar mavjud?

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazda yashovchi turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Ayrim manbalarga ko‘ra, turkumga kiruvchi dastlabki dostonlar XI asrda shakllana boshlagan, XVII asrdan boshlab esa bir turkumga birlasha boshlagan. Shu bilan birga, turkumga kiruvchi har bir doston mustaqil asar sifatida ko‘riladi va asarlarni Go‘ro‘g‘li, uning doimiy yo‘ldoshi G‘irot, Soqibulbul, Hasan Ko‘lbar, Ahmad Sardor singari obrazlar va Chambil yurti birlashtirib turadi.

“Go‘ro‘g‘li”ning g‘arbiy turkumi asosida dostonning Ozarbayjon varianti yotadi. Bu turkumda bosh qahramon Ko‘ro‘g‘li deb ataladi va xalq ichidan chiqqan qasoskor sifatida gavdalanadi. U qirq yigitga bosh bo‘lib, otasining ko‘zini ko‘r qilgan zolim podshohga qarshi bosh ko‘taradi. Dushman savdogarlari karvoniga kutilmaganda hujum qiladi, turli qiyofalarda dushman ichiga kirib, asir tushgan yigitlariga tadbirkorlik bilan yordam beradi, o‘ziga va yigitlariga ma‘qul bo‘lgan go‘zal parilarni olib qochadi. G‘arbiy turkum dostonlarida tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog‘liqlikni kuzatish mumkin: Ko‘ro‘g‘li Eron shohi Abbos I ning (1585–1628) zamondoshi qilib ko‘rsatiladi. Chindan ham, arman tarixchisi Arakel Tavriziyning XVII asr boshlarida yozib qoldirgan ma‘lumotlariga qaraganda, XVI-XVII asrlarda Usmoniylar imperiyasidagi og‘ir ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat hamda Usmoniylar davlatining Eron bilan urushlari tufayli ko‘tarilgan “Jaloliylar qo‘zg‘oloni” boshliqlari orasida Ko‘ro‘g‘li degan shaxs bo‘lgan.

“Go‘ro‘g‘li”ning sharqiy turkumi bosh qahramoni Go‘ro‘g‘li (go‘rda tug‘ilgan) qonuniy hukmdor, o‘z xalqi, vatani uchun qayg‘uruvchi va uni dushmanlardan qimoya qiluvchi yengilmas bahodir, ko‘plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan murabbiy sifatida tasvirlangan. Bu dostonlarda qahramonona o‘tmish aniq tarixiy voqealar ko‘lamida emas, balki orzu darajasida, xalqning yuksak maqsadi ko‘lamida tasvirlangan.

Qiyoslang:

“Go‘rog‘li” dostonlarining g‘arbiy va sharqiy turkumlaridagi asosiy farqlari nimada?

G‘arbiy turkumdagi Go‘ro‘g‘li obraziga yaqin yana qanday qahramonlarni eslay olasiz (masalan, o‘rta asrlar Yevropa adabiyotida)?

Sharqiy turkumdagi Go‘ro‘g‘li obraziga-chi? Go‘ro‘g‘lining go‘rda tug‘ilishida qandaydir ramziy ishora bor deb o‘ylaysizmi?

O‘ylab ko‘ring:

“Go‘rog‘li”ning o‘zbekcha variantlari qaysi turkumga kiradi?

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining o‘zbekcha variantlarini ham ikki guruhga bo‘lish mumkin: Xorazm varianti va O‘zbekistonning boshqa hududlarida tarqalgan variantlar. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li kabi xalq shoirlaridan 200dan ortiq doston (variantlari bilan) yozib olingan. Ularni jami 60 dostonga birlashtirish mumkin. Birinchi doston Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi haqida hikoya qilsa, oxirgi doston – “Ero‘g‘li”da (boshqa nomlari – “Shahidnoma”, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi”, “Go‘ro‘g‘lining g‘oyib bo‘lishi”) uning keksaygan davri va Sulduzi tog‘ida g‘oyib bo‘lishi tasvirlanadi

Turkumda Go‘ro‘g‘lining bahodir qirq yigiti (Zamonbek, Shodmonbek, Xidirali, To‘lak botir, Xoldorxon va boshqalar) faoliyatiga alohida-alohida dostonlar bag‘ishlangan. Bu yigitlar Chambil yurtining ozodligi, xalqining farovonligi uchun Go‘ro‘g‘li bilan bir safda turib kurash olib boradilar. Yana bir qancha dostonlarda Go‘ro‘g‘lining asrandi o‘g‘illari (Hasan, Avaz), nevaralari (Nurali, Ravshan) va evarasi Jahongirning qahramonona sarguzashtlari hikoya qilinadi, bu dostonlar ham kichik turkumchalarni tashkil etadi.

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONIDAN

(Dostonning Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Po‘lkan aytgan variantidan qisqartirib olindi, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1967-yil)

Burungi zamonda Yovmit degan el, Taka turkman degan yurt, Mari degan yana bir qo‘rg‘on bor edi. Yovmit yurtining Odilxon degan podshosi bor edi. Odilxon podshoning ikki o‘g‘li bo‘lib, kattasining oti Urayxon, kichinasining oti Ahmadbek edi. Bibi Oysha degan bir qizi ham bor edi. Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bor edi. Qovishtixonning To‘liboy sinchi degan bir o‘g‘li bor edi. Ko‘p esli,

sinchi – otlarningzoti, nasi, fe‘l-atvorini yaxshi biladigan odam

aqlli, tamizli, farosatli odam edi. Marining begi Qovishtixon Yovmit elining xoni Odilxon podshoning bozorchi savdogarlarini yo'lda talab oldi. Shunda molini oldirgan odamlar "dod!" deb Odilxon podshoga arzga keldi. Odilxon podsho buni eshitib, achchig'i kelib, birdan sarboz askar chiqarib, to'p-to'pxonasi bilan

tamiz – fahm,
farosat

Mari yurtini tep-tekis qilib yubordi. Qovishtixon bekni to'pga solib otib yubordi. Haligi bozorchi savdogarlarning mollarini olib berdi. Qovishtixonning yetti yoshli o'g'li – To'liboy sinchini bandi qilib olib keldi. Lekin otasining qilgan ishidan buni gunohsiz bilib, o'z oldiga xizmatkor qildi. To'liboy sinchi xizmat qilib yuraverdi. O'n to'rt yashar bo'ldi. O'n to'rtga kirguncha o'qib, xat-savodi chiqdi. Lekin o'zi ajab bir odobli, chiroyli, yaxshi yigit bo'ldi. Otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi bo'ldi. "Bul otingiz yaxshi, bul otingiz yomon", – deb podshoning tablada turgan otlarini saralab, ajratib beradigan bo'ldi. Bir kunlari To'liboy sinchining xizmati yoqqanligidan: "Bu ham o'zimning suyagimda",

– deb Odilxon podsho Bibi Oysha qizini unga nikohlab berdi. Bibi Oyshaning bo'yida bo'lib, oy-kuni to'lib o'g'il tug'di, otini Ravshanbek qo'ydi. Shunda Ravshanbek besh yashar bo'ldi, uni maktabga berdi. Ravshanbek o'zi tengi bolalar bilan maktabda o'qib yuraberdi. Sakkiz yashar bo'lganda xat-savodi chiqdi. Taka turkman degan yana bir yurt bor edi. Bu yurtda Jig'alixon degan bek bor edi. Jig'alixonning Gajdumbek degan o'g'li, Bibi Hilol degan qizi bor edi.

Zargar shahrining Shohdorxon degan podshosi Yovmit yurtining podshosi Odilxonni yo'q qilmoqchi bo'lib lashkar jo'natdi. Lashkar uch oy yo'l yurib, uch oy deganda Taka-Yovmit Urganch yurtining Asqar degan tog'iga yetib qo'ndi. Shu kuni Ravshanbek boshliq bolalar Asqar tog'ni tomosha qilgani chiqqan edi. Shoxdorxonning askarlari bularni bandi qilib haydab Shohdorxon podshoga to'g'ri qildi. Shohdorxon qarasa, hammasi yosh bola ekan, ularni o'ldirmoqqa ko'zi qiymadi. Bolalarning kelmaganidan Taka-Yovmit eli qo'rqishib, axtarib, har tarafga qarab, bular ham shu tog'ga, qo'shinning ustiga kelib qoldi. Bularning kelganini bilib, Shohdorxonning qo'shini quvib yarmini bandi qilib oldi, yarmi qochdi.

Qochganlar qochib, Odilxon podshoning oldiga bordi. Odilxon podsho kelganlarning arzini eshitib, bu ham cherik lashkar yig'di.

cherik – qo'shin

Odilxon podsho ham, Shoxdorxon podsho ham urush nog'orasini chaldirib, lashkarlarini choqlab otga mindirib, urushmoqqa choq bo'ldi, ko'ngillari to'q bo'ldi. Ikki taraf podsholarining urush uchun qilgan shon-u

shuhratlariga yer tebrandi. Surnay-karnay, sibizg‘a tortganiga barcha polvonlar simobday erib, yo‘lbarsday g‘arqirab, g‘ayrati jo‘sh urib, bir-birlariga qarshi turdi.

sibizg‘a –
nayning bir turi

Birdan bir- birlariga ot qo‘yishib, tala-to‘p bo‘lishib, bir-birlari bilan aralashib qoldi. Ajal yomg‘iri yog‘di. Nayzabozlik, qilichbozlik, bir-birovining jazosini bermoq sarbozlarga bo‘ldi ermak. Hech kim ko‘rmagan, hech bir quloq eshitmagan katta urush bo‘ldi, o‘liklar to‘ldi, o‘liklarning ostidan sizot-sizot qon ketdi. Shu kun to‘qqiz soat urush bo‘ldi. Undan keyin urushni yotqizmoqqa nog‘ora chalindi. Urush yotib, har qaysi taraf lashkarlari o‘z taraflariga qarab qaytdi. Shunda Odilxon podsho Shohdorxon podshodan g‘olib keldi.

Odilxon podsho: “Asqar tog‘ida qo‘lga tushgan bolalarni qo‘yib yuborsin”, dedi. Shohdorxon podsho hammasini qo‘yib yubordi. Lekin Shohdorxonning Hamza degan bir odami Shohdorxondan yashirib, Ravshanni bir sandiqqa solib oldi, uni o‘g‘il qilib olmoqchi bo‘ldi. Tashqaridan Odilxonning beklaridan Jig‘alixonning o‘g‘li Gajdumbek bilan qizi Bibi Hilol ham bularning ichiga qo‘shilib o‘lja bo‘lib ketdilar. Shunda urush tamom bo‘ldi. Har ikki taraf podsholar o‘z taraflariga qaytdilar. Odilxon: “Ravshanxon o‘lgan ekan-da”, deb undan umidini uzdi, afsuslar qildi.

Shohdorxon uch oy yo‘l yurib, o‘z yurti Zargarga yetdi, taxtiga mindi. Erta bilan tong otdi, Shohdorxonning xos xizmatkori kelib arz qildi. “E podshohim, Odilxon odamlaridan bir ayol, bir erkak **bandi** bo‘lib kelibdi,” dedi.

bandi – asir

Bular Gajdumbek bilan Bibi Hilol edi. Shohdorxon Gajdumbekka mansab berdi. Gajdumbek kamsiz bo‘ldi, davlati juda katta, o‘ziga bir yaxshi joy solmoqchi bo‘lib, shahardan uzoqroq yerdan sakkiz oshyonlik imorat soldi. Imorat bitdi, oradan yetti yil o‘tib ketdi. **oshiyon** – qavat Gajdumbekning singlisi Bibi Hilol bo‘yi yetib qoldi.

oshiyon – qavat

mushk – hayvon
yoki o‘simliklarning
o‘tkir hidli moddasi

Bu orada Hamza Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman deb, har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o‘rib, har o‘rganda mushkning suvini berar edi. Ravshanxon ham bir bola bo‘ldiki, ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kamsiz, suluv-xushro‘y. Hamzabek Ravshanxonni har kuni tomoshaga olib chiqdi, bayramlarni ko‘rsatdi. Shuytib Ravshanbek har kuni o‘zi tomoshaga chiqmoqni o‘rganib qoldi.

Kunlardan bir kuni ko‘chalarda tomosha qilib yurib, bu yurtda yurganiga xafa bo‘lib, yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zidan yoshi oqib kelayotib

edi, yo‘li Gajdumbekning ko‘chasiga tushib qoldi. Shu vaqtda Hiloloy sakkiz oshyonlik imoratning yuqorisidan ko‘chaga qarab o‘ltirar edi. Ko‘zi Ravshanga tushdi. Farosat bilan bildi, bu yigit bu shahardan emas, musulmonga o‘xshaydi. Shunda Hiloloy Ravshanbekka qarab, to‘xta, deb bir so‘z dedi:

Suluv qizlar burab qo‘yar sochini,
Mard yigit g‘animdan olar o‘chini.
Bag‘ring kuygandayin bo‘zlab yig‘laysan,
Menga aytgin yig‘laganing vajini!

Qizil gul ochilar g‘unchadan g‘uncha,
Toqatim yo‘q shu kun gul ochilguncha.
Sen yig‘lading, menda toqat qolmadi,
Ot boshini picha to‘xtat, bekbachcha!

Shunda Ravshanbek qanday ekanini bilmay, u yoq-bu yoqqa qarab, asta-asta Hiloloyga bir so‘z dedi:

Quloq solgin, so‘zning yolg‘on-rostiga,
Quloq solgin, so‘zimning payvastiga!
Bu shaharda menda oshna yo‘q g‘ayridin,
Ko‘p dard qo‘shding yana dardning ustiga...

Ajal yetib shu vaqtlarda o‘lmadim,
Yovmit elning qadrini hech bilmadim,
Kim ham bo‘lsang bir ko‘rayin, qaddingdan,
Do‘stmi-dushmanmisan – seni bilmadim!

Shunda Bibi Hilol Ravshanbekning turkman ekanligini bilib, derazani ochib, tashqari ayvonga chiqdi. Ravshanbek tiklab qarasa, hur tal‘atli, maloyika kelbatli, shirin so‘zli, jodu ko‘zli, zulfi tol-tol bo‘lib betiga tarmashgan, latibasi labiga tushgan, munchoqlari kindikdan oshgan. Buni ko‘rib Ravshanbekning og‘zi angrayib, burni tangrayib, Bibi Hilolga qarab qoldi.

maloyika – “malak” (farishta, go‘zal) so‘zining ko‘plik shakli
zulf – soch, kokil

Shundan so‘ng Ravshanbek Hamzaning uyiga kelib, dod deb bo‘zlab yig‘lab, ovqat yemay, Hamzaga qarab bir so‘z dedi:

Eshitgin sen, Hamza, mening tilimni,
Yo javob ber, ko‘ray Yovmit elimni!
Yo bozor sol, etaklab ol pulimni,
Arqon bilan boylab olgin qo‘limni,
Ozod qilgin, Yovmit elga ketaman!..

Bu soʻzni Hamza eshitib, oh tortdi. Erta bilan tong otdi. Ravshanbekni qul bozoriga olib bordi... Gajdumbek bozorga borsa, qul bozorida Hamza bir qulni bozorga solib oʻtiribdi. Hamza qulning bahosini ming tanga deb aytdi. Hamzabekning ming tillasini sanab berdi. Gajdumbek qulni olib uyiga qaytdi. Gajdumbek Bibi Hilolni Ravshanbekka nikohlab berdi. Ravshanbek borligi uchun Gajdumbekning uyidan koʻngli toʻlib, yor-joʻra, oshna- ogʻaynisinikiga borib, sayr-tomosha qilib yura berdi. Qayoqqa borsa bora berdi. Xazina- dafinasini Ravshanbekka topshirib, xizmat ishlarini buyurib yura berdi.

Bu orada Gajdumbek bilan Ravshanbek Bibi Hilolni keyin olib ketish oʻyi bilan oʻz yurtlarini koʻrib kelishga ketishdi. Orqasidan Shoxdorxonning bir ming amaldori quvib ketgan edi, hammasi choʻlda otidan ayrilib, piyoda boʻlib oʻlibdi. Shoxdorxon Bibi Hilolni kuydirib, kulini elakdan oʻtkarib yubormoqchi boʻlibdi. Buni eshitgan Bibi Hilol xufton namozini oʻqib, “Meni Shohdorxon oʻldirar ekan”, deb boʻyniga kalom rabbonini solib, Xudodan oʻziga oʻlim tilab: “Meni Shohdorxon odamlarining qoʻlida oʻldirma, har nima qilsang oʻzing qil”, – deb Xudoga yolbarib, barcha paygʻambarlar, oʻtgan azizlarni shafe keltirib, yigʻladi. Ana endi azizlarning ruhi, paygʻambarlarning duolari mustajob boʻlib, Bibi Hiloloy Xoliqqa jonini topshirdi.

shafe – homiy
Xoliq - Xudo

Gajdumbekning xizmatkori Rustambek Bibi Hiloloyni goʻriga qoʻyib, Gajdumbekning hovlisiga keldi. Gajdumbekdan qolgan barcha hovli-haram, mol-pullarga ega boʻlib qoldi. Rustam: “Endi davlatga ega boʻldim, xotin olmasam sira ham boʻlmaydi”, deb Badgir deganning singlisini oldi. Xotinidan bir bola boʻldi. Otini Qoʻngʻirboy qoʻydi. Shuytib, bularni goh dimogʻ chogʻliklarda, goh xafaliklarda qoʻyib, endi soʻzni goʻrda oʻlib yotgan Bibi Hiloldan eshiting:

Bibi Hilolning oʻlganiga uch oy, toʻqqiz kun, toʻqqiz soat, toʻqqiz daqiqa oʻtdi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bib Hilol oʻlgan boʻlsa ham, bolasi oʻlmagan ekan. Xudoning rahmati bilan asrovda edi. Shunda vaqti tugʻmoqchi boʻldi. Momo Havo, Anbar ena, Fotma buvi keldi. Bibi Hilolning oʻligi goʻrda tebrandi, oʻlik badanini toʻlgʻoq tutdi. Shu toʻlgʻoq tutganiga, Bibi Hilol ahvoliga shoirlarning taʻriflab aytgan soʻzi:

gumona – homila

Mavj urib misli bir daryoday toshdi,
Hay attang-a, dardlar dardga ulashdi.
Chaqaloq qimirlab ena qornida,
Hiloloyning farzandi shu goʻrga tushdi.
Har ish, yoronlar, boshdan boʻladi,

Bachaning yuzining oydinlig'iga,
Barq urib go'r yop-yorug' bo'ladi,

bacha – bola
ul – o'g'il

Hilol bibi bir nozanin ul tug'di. Shunda turib yig'ilgan azizlar bolaning otini Go'ro'g'li qo'ydi. Barcha abdal, ovtar, qirq chiltanlar bir-bir olib suydi. Hazrati Xizr ham farzandim dedi. Har nima bo'lsa shu kuni Go'ro'g'liga yaxshilik bilan tamom bo'ldi.

Lekin Hiloloyga jon kirmadi, ammo bolaga sut kelib yotdi. Shu orada o'rtadan uch yil o'tdi. Uch yil o'tib tursin, endi Rustambekdan eshiting:

abdal – avliyo
qirq chiltan –
afsonaviykuchga
ega qirq ruh

Rustambek uylandi, xotini homilador bo'lib, oyi-kuni to'lib o'g'il tug'di. Otini Qo'ng'irboy qo'ydi. Qo'ng'irboy ikki yoshga kirdi. Bu ikkiga kirib turaversin, Go'ro'g'lidan eshiting:

Go'ro'g'li tug'ilgandan beri go'rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o'chib qoldi. Yana uch kun o'tdi. Hiloloyga sut kelmay, badani ko'mirday cho'ykab ketdi. Ana shunda Go'ro'g'li och qoldi, lekin shu vaqtgacha azizlar ham xabar olib yurgan edi. Ana endi Bibi Hilolning arvohinining dod, deb yig'lagan dovushini hazrati Xizr bilib, eshitib, go'r ustiga keldi. Asta go'rning tuprog'ini pichigina teshdi. Shu teshikdan go'rning ichiga kunning shu'lasini tushdi. Go'ro'g'li kunning tushganini ko'rib, qo'li bilan ushlab olaman deb kunga qo'l urdi, ushlay olmadi, ushlayman deb qo'li go'rning tepasiga yetdi. Tirmalab-tirmalab teshikni katta qilib, go'rdan tashqari chiqib, hayron bo'lib qoldi. "Bu nima degan sir bo'lur?" dedi. Och qoldim deb go'rga suyanib, yotib qoldi. Buni ochlikdan yig'lab yotmoqda qo'yib, endi gapni Rustambekning baytalidan eshiting:

bir baytalning bolasi o'lib, bolasining o'lganiga ichi kuyib, kishnab yurar edi. Hazrati Xizr bobo alayhissalom haligi baytalning bo'yniga qo'riq solib, Go'ro'g'lining oldiga olib keldi. Baytalning ko'zi Go'ro'g'liga tushib, mehri ko'kragiga joy olib, unga suykanib emiza berdi. Ana endi Go'ro'g'li shu baytalni emib, qorni to'yib-to'yimasday bo'lib yura berdi. Baytal har kuni Go'ro'g'lini uch vaqt emizib keta berdi. Buning bilan Go'ro'g'lining kuni o'ta berdi. Go'ro'g'li uch yasharida go'rlarning ustida o'ynab, u yoqdan chiqqa, bu yoqdan chiqqa, "Os!", "Bos!" deb go'rlarni tayoq bilan sanchib, o'ynab yura berdi.

baytal – urg'ochi ot

Rustambekning yilqichilari baytalning har kuni go'rga qarab ketganidan xabardor bo'lib yurar

yilqichi – otboqar

edilar. Bir kuni yilqibonlar: “Shu baytal har kuni mozorga qarab ketadi. Buni poylamoq kerak.

Mozorga borib nima qiladi?” dedilar. Shuytib o‘ttiz choqli yilqichi baytalning orqasidan poylab go‘ristonga keldilar. Haligilar go‘rning oldiga borib qarasa, bir bola baytalni emib turibdi. Bir-biriga: “Ko‘rdingmi? Arvoh ham yalang‘och yosh bolaga o‘xshar ekan, arvoh ko‘rgan kasal bo‘ladi”, deb, hammasi birdan, bizlar arvoh ko‘rdik, endi o‘lamiz, deb qo‘rqib, kasal bo‘lib qoldilar. Rustambek bundan xabardor bo‘ldi. Mozoristonda bir go‘rning oldiga borib aytdi: “Bibi Hilol singlimning qornida bolasi bor edi. Shu tug‘ib, bola shundan bo‘lganmikin? Shu go‘r singlim Bibi Hilolning go‘ri, o‘zim mana bu toshni qo‘yib edim. Shundan Bibi Hilolning go‘rini topdim”, dedi. Oqshom bo‘ldi. Rustambek sahar vaqtida kelib, go‘rni poylab yotdi. Qarasa, Bibi Hilolning go‘ri yop-yorug‘ bo‘lib ketdi. Shunda bir bola Bibi Hilolning go‘ridan chiqdi, juda suluv, quvi o‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshaydi. Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi. Sher nimta-nimta bo‘lib, tirqirab ketdi. Rustambek qo‘rqib arosat qilib: “Shunday sherni bir tarsaki urib o‘ldirib, maydalab yubordi, mening nima jonim bor”, dedi. Uyiga qaytib keldi, kelib o‘yladi. Bolani olib kelmoqchi bo‘ldi. Yig‘lay-yig‘lay, Go‘ro‘g‘lini olib keldi. Rustambekning xotini erining yuz-xotirini qilib, o‘rnidan turib, “voy bolam”, deb bag‘riga bosdi, quchoqlab ko‘kragiga oldi.

Oradan to‘rt yil o‘tdi. Go‘ro‘g‘li yetti yoshga kirdi. Ana shu kuni Go‘ro‘g‘li Rustambekning oldiga keldi, oqshom uning oldida yotdi...

Shunda Hazrat Xizr Go‘ro‘g‘lining tushiga kirib, Bibi Hilolning ovozida, xuddi o‘ngidagiday gapirgan bo‘lib aytgan so‘zlari:

Go‘ro‘g‘libek, g‘am sarg‘aytar yuzingni,
Chiroqqinam, dushman bosdi izingni,
Tura solib ketgin Yovmit yurtingga,
Farzandim, uyqudan ochgin ko‘zingni.

Sarg‘aygandir Hiloloyning siyog‘i,
Sening otang Yovmit shahrining begi,
Bora solib keta bergin Yovmitga,
Rozi bo‘lsin Hiloloyning arvohi,
Arvoh rozi, Xudo rozi, farzandim...

Yuzlari ho‘l ko‘zdan oqqan yoshiga,
Qonlar to‘lar Zargar elning dashiga,

Yaxshi odamdan farzand qolsin, yoronlar,
Ketar bo‘ldi otasining yurtiga,
Yig‘lab bordi Rustambekning qoshiga.

Go‘ro‘g‘libek zor-zor yig‘lab, mozorotdan
qaytib, Rustambek tog‘asiga qarab, gardanini
xam qilib, qo‘lini alif-lom qilib, fotiha bering,
deb bir so‘z dedi:

gardanini xam qilib –
bo‘ynini egib
Mavlon - Xudo

Barchaga mehribon qudratli Mavlon,
Zargarning elida bo‘ldim sargardon.
Tog‘a bo‘lsang, aytgin, avlod-ajdodim,
Urug‘imni bayon bergin, tog‘ajon!
Olisdan ko‘rinar bedovning bo‘zi
G‘anqillab uchadi ko‘llarning g‘ozi.
Ketar bo‘ldim endi Yovmit shahriga,
Tog‘a, bo‘ling Go‘ro‘g‘libekdan rozi!..
Go‘ro‘g‘liga, ketmagin, deb tarmashdi,
Yig‘lay-yig‘lay barin o‘pkasi shishdi.
Buni Rustambek Go‘ro‘g‘lidan eshitib,
Boshdan o‘tgan sirlarini aytdi.

Ana endi Go‘ro‘g‘li ketganday, oy botganday, Rustambek dunyodan
o‘tganday. Rustambek shunday qarasa – Go‘ro‘g‘li o‘n besh kunlik o‘yday,
qaddi-qomati, shoni- shavkati, har kishining bo‘lar ekan o‘ziga yarasha
hurmati. Buni bu ahvolda ko‘rib, Rustambek Go‘ro‘g‘liga bir so‘z dedi:

Bolam, ketsang, aqlimni shoshirdim,
Sirni aytmay g‘animlardan yashirdim.
Eson-omon borgin Turkman yurtiga,
Sog‘-salomat ko‘rgin ota yurtingni,
Safaring, chirog‘im, bexatar bo‘lsin!
Yig‘layman yaratgan Haqqa zor-zor,
Qaytayin, bandada yo‘qdir ixtiyor,
Otingdan aylanay, jami buzurglar,
Mag‘ribman Mashriqni kezgan eranlar,
Hiloloyning arvohi senga yor bo‘lsin,

buzurg – buyuk

Xudoga topshirdim, Ollohu akbar.

Barakalla himmatingga, Rustambek,
Yarim kecha yo‘lni o‘nglab Zargardan,
Go‘ro‘g‘lini eldan chiqarib ketdi,
Xush borgin deb, Go‘ro‘g‘lini jo‘natdi,
Rustambek jo‘natib uyiga qaytdi.
Alqissa, Rustambek yarim kechada
Go‘ro‘g‘lini jo‘natib, uyiga qaytib keldi.

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONINING XORAZM VARIANTIDAN

*(Urganch davlat universiteti tomonidan nashrga tayyorlangan,
Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 2004-yil)*

Doston Xorazm shevasida yozib olingan. Bilasiz, Xorazm shevasi o‘zbek adabiy tilidan va o‘zbek tilining boshqa shevalaridan ancha farq qiladi. O‘qish davomida tushunmagan so‘zlaringizning ma’nosini kontekstdan anglashga, ayrim so‘zlar ma’nosini chaqolmasangiz ham matnning umumiy ma’nosini tushunishga harakat qiling.

Qadim zamonda takali turkmanning Chamlibel viloyatida Jig‘olibek degan bek o‘tdi. Jig‘olibekdan uch o‘gil do‘radi. Ulli o‘glini Ganjimbek, o‘rtanjisini Mo‘minbek, kichkinasini Odibek deb od beraduvin adilar. Ammo bu farzandlarinnig uchisi uch toyfa odam bo‘lib do‘radi. Ganjimi dunyoparas chiqdi, o‘rtanchisi ap-kupsiz, salav bir bola bo‘lib do‘radi. Kichkinasi sal narsaga yumriq dugavaradigan, otorman, choparman bir bola bo‘lib yetishdi.

Gunlardan bir gun Jig‘olibek bir uyg‘onib qarasa go‘zinnan nur, belinnan quvvat getib qarib borayotir. Elina, yurtina egalik qiladuvin do‘g‘mam bormi dab qarasa, do‘g‘masi uch xiyli. Oxiri o‘ylab-o‘ylab yurtini kichkina o‘g‘li Odibekka topshiraduvin bo‘ldi.

Odibek otasini o‘rnina o‘tirgannan keyin el-yurtini g‘amini yeb, ishi-guchi ko‘payib, yoshlikdagi danjiqliklarnii tashladi. Mo‘minbek og‘asini ham uylantirdi, o‘zi ham uylandi. Ammo bu dunyola davron surish Odibekka nasib atmadi. Odibek kasal bo‘lib doril fanodan doril baqog‘a rixlat qilgach. sal o‘tmay xotini ham bu dunyodan ko‘z yumdi. Endi rohatga chiqarman deb yurgan Jig‘olibek bu armonli dunyoning ajab-ajab ishlarinnan g‘amgin bo‘lib. boshini nera urarini bilmadi. Shunda Ganjimbek uning oldiga kirib aytdiki: ey ota, o‘n kun bo‘ldi , so‘ridagi

gechilardan biri kunduzi yo‘qolib, gejasi qaytib galib yurvadi, bu ahvolni tekshirib go‘rsak, gechi Odibekning xotining mozorina qarab ketar akan. Borib qarasak, bir kichkina bola gechini amib duribdi, bizlarni go‘rib mozorni ichina girib getdi, dadi.

Jig‘olibek aytdiki, ammo o‘g‘lim, bu gapingda jon bor o‘xshidi. Odibekniig xotini qazo qilg‘anda homilasi bor adi, xudo inoyat qilib shu farzandni ikki doshni orasinda bargan bo‘lsa, bu ishdan Ollog‘a shukr qilmoq garak, dadi. Shunnan keyin ota bola sevinishib mozorni boshina qarab yo‘l oladilar.

Ganjimbek bilan otasi mozor yonina yetishganda, bola top mozorni yonboshinda o‘ynab o‘tirvadi. Bola bu odamlarni go‘rib, mozorni ichina girib g‘oyib bo‘ldi. Shunda elni kattalari, yoshulli, oqsoqollari aytdiki, bu bolani o‘g‘il, qizligini ballilamak uchun mozorning yonboshina bir oshiq bilyan bir qurjok qo‘ymoq garak, bola shularni qaysisini o‘ynasa, uning o‘g‘il, qizlig‘i ma‘lum bo‘ladi, dadilar. Darrov oshiq bilan qurjoq topib, mozorning yonboshina qo‘yib barida ondib durdilar. Bola birozdan so‘ng chiqib oshiqni o‘ynivardi.

Jig‘olibek bolaning o‘g‘il akanini bilib dim sevindi. Shundan keyin bu bolani na hiyli yo‘l bilan olmoqni maslahat etdilar. Birov duzoq quramiz dadi, birov yana bir gapni aytdi. Lekin bu usullar hech kima yoqmadi. Oxiri bir qarri aytdiki, bu bolani tutmoq uchun avvalambor bir egar yasamoq garak, shu egarni mozor yonboshinda qo‘yib sirish surtish garak, bola mozordan chiqib, egarga minganda yopishib qoladi, ana unnan keyin bolani tutavaramiz, dadi. Bu gap hammaga ma‘qul bo‘lib, egar yasab, sirish surtib, apkalib mozor yonboshinda qo‘yib o‘tirdilar. Bir vax bola chiqib, egarni go‘rib avval uni o‘ynab o‘tirdi, keyin ustina mindi, minib o‘ynag‘ansoyin sirish yopishib parch bo‘lib boravardi. Shu vaqtda borib bolani egar bilan birga go‘tarib oldilar. Jig‘olibek uni bag‘rina bosib o‘pib sevinganinnan yig‘lab yubordi. Bolani uyg‘a apkalib, giyim-gechak giydirib yasatib, Chamlibel viloyatiga jar chaqirtirib aytdiki, ey xaloyiq, Jig‘olibekni go‘zzina nur, belina darmon bo‘laduvin xudo bargan farzandini to‘yina galavaringlar dadi. Buni eshitgan xaloyiq enib galavardi. Elni katxudolarini yig‘nab bolaga od qo‘yishni maslahat atdi. Birov u dadi, birov bu dadi, oxiri bir oqsoqol aytdiki, bu farzandning yo‘li ravshan bo‘lsin qarong‘iliqdan yoqtiliqqa chiqdi. Shu sababdan odi ham Ravshan bo‘lsin dedi.

Yana bir kishi aytdiki, ammo xaloyiq, natasizlar tortishib o‘tirib, bu bolaga xudoni o‘zi od qo‘yibdi, axir bu bola go‘rda dug‘ildi, shuning uchun Go‘ro‘g‘li bo‘ladiku. Bu bolani odi o‘zi bilan dug‘ilg‘an dadi. Bu

kishining so‘zi katxudolarg‘a yoqmasa ham xaloyiq ko‘pincha bolani Go‘ro‘g‘li dap aytib boshladi. Go‘ro‘g‘lining asli odi Ravshanbek bo‘lsa ham bu od bilan hech kim uning odini tutmadi. Go‘rdan chiqqan go‘ro‘g‘li deb uni hamma Go‘ro‘g‘liga aylantirib, keyinchalik Ravshan dasa hech kim tanimaydig‘un bo‘lib qoldi. Gunlardan gun o‘tib Go‘ro‘g‘li o‘sib voyaga yetaverdi; Ammo Go‘ro‘g‘li yera ursa osmona sichriydovin, otormon chonormon, dinuvsiz bir bola bo‘ldi. Muni alinnan omona galib, dod damidovin bir-yarim odam qolmadi. Hech topmasa ko‘pir teyinda o‘tirib ot hurkizar, eshaklarning quyriqina jang‘al boylab tomosha go‘rsatar, dang-dushlari bilan go‘rash tutar, yoqalashar, ishqilib dinch guni bo‘lmas adi.



1. Dostonning ikkala variantidagi Go‘ro‘g‘lining nasl-nasabi, tug‘ilishi, go‘rdan chiqishi, xarakteridagi **farqlarni** solishiring. Doston variantlaridagi bu farqlarning sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

2. Go‘ro‘g‘lining **go‘rdagi hayoti** bilan bog‘liq qaysi muhim epizodlar Xorazm variantida mavjud emas? Bu epizodlar doston mazmuniga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

3. Doston variantlarida **tili** va **badiiy xususiyatlari** jihatidan qanday farqlar kuzatiladi?

4. Dostondan qadimiy **tasavvurlar** va **marosimlar** bilan bog‘liq epizodlarni toping.

QADIMGI TURKIY ADABIYOT VA XI-XIV ASRLAR ADABIYOTI

Turkiy xalqlar va qabilalarning qadimgi davr va ilk oʻrta asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklari **qadimgi turkiy adabiyotni** tashkil qiladi. Bu yodgorliklar qadimgi turkiylar ishlatgan yozuvlarda: dastlab runiy, keyinchalik uygʻur va monuy yozuvlarida bitilgan.

Eslang: Islom dinigacha turkiylar qaysi davlatlarda yashashgan va qaysi dinlarga eʼtiqod qilishgan?

Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari qadimgi turkiylarning tili, urf-odatlarini, madaniyati va tarixini oʻrganish uchun muhim manba hisoblanadi. “Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari” nomi ostida Sibirdagi Yenisey va Lena daryolari havzalaridan tortib Markaziy Osiy va Moʻgʻulistongacha boʻlgan katta hududda topilgan tosh bitiklari tushuniladi. Bu bitiklar runiy yozuvida yozilgan boʻlib, ulardan eng yiriklari VIII asrda Turk hoqonligini boshqargan Bilga hoqon va Kultigin hamda Turk hoqonligida maslahatchi boʻlgan Toʻnyuquq haqida hikoya qiladi.

Turkiy xalqlar yashagan hududlarga Islom dini kirib kelgandan keyin nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham katta oʻzgarishlar roʻy berdi. Din bilan birga arab yozuvi ham kirib keldi va XX asrgacha barcha ilmiy va adabiy yodgorliklar shu yozuvda bitildi. Markazlashgan davlatlarning paydo boʻlishi esa ilm-fan, adabiyot va sanʼat rivoji uchun zamin yaratdi. Ilmiy, diniy va didaktik asarlar bilan birga, badiiy adabiyotning dastlabki namunalari paydo boʻldi.

Eslang:

IX–XIV asrlarda turkiy xalqlar qaysi hududlarda yashashgan? Bu hududlarda qanday davlatlar mavjud boʻlgan?

“Musulmon Renessansi” nima edi? Musulmon Renessansining yurtimizdan yetishib chiqqan qaysi yirik namoyandalarini eslay olasiz?

Didaktik adabiyot – pand-nasihat yoʻnalishidagi adabiyot boʻlib, unda muallifning axloqiy va falsafiy qarashlari badiiy shaklda bayon qilinadi.

O‘ylab ko‘ring:

Didaktik adabiyot namunalarini o‘qiganmisiz? Qaysi asarlarni didaktik adabiyotning eng yaxshi namunalari sifatida e‘tirof etgan bo‘lardingiz?

XI–XIV asrlar turkiy va o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari nimada deb o‘ylaysiz? Bu davrda dastlab qanday mazmundagi asarlar yetakchilik qilgan? XIII–XIV asrga kelib adabiyotda qanday muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi?

MAHMUD KOSHG‘ARIY

(XI asr)

Qomusiy olim, fiqh va hadis ilmining bilimdoni, buyuk turkiy filolog va leksikograf Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Koshg‘ariy XI asrning 30-yillarda Qoraxoniylar davlatiga qarashli Barsg‘an shahrida (hozirgi Qirg‘iziston hududi) dunyoga kelgan. Ayrim olimlarning fikricha, u Qoraxoniylar sulolasining Bo‘g‘raxonlar urug‘idan bo‘lgan va ota-bobolari yuqori lavozimlarni egallashgan.

leksikograf – lug‘at tuzuvchi olim

Koshg‘arda (hozirgi Xitoyning Uyg‘ur avtonom respublikasi) o‘z davrining mashhur olimlari dars bergan Sajia madrasasida o‘qigan Mahmud Koshg‘ariy XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkiy xalqlar yashagan yerlar bo‘ylab sayohat qiladi. XI asrning 80-yillariga qadar “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar lug‘ati”) kitobu ustida ishlaydi. Bu asar Xitoy va Mo‘g‘ulistondan tortib to Vizantiyagacha bo‘lgan hududda yashagan 30ga yaqin turkiy qabilalariing o‘sha paytdagi tili, folklori, urf-odatlar va turmush tarzi haqida ma‘lumot beruvchi qimmatli manba hisoblanadi. Asarning asl nusxasi saqlanib qolmagan va undagi ma‘lumotlar kitobni XII asrning o‘rtalarida qayta ko‘chirgan xattot Muhammad ibn Abubakrning sharofati bilan bizgacha yetib kelgan.

xattot – qo‘lyozma kitoblarni ko‘chiruvchi

Asar 1904-yilda Vengriya Fanlar Akademiyasi tomonidan ilk bor nashr qilingandan keyin turli olimlar tomonidan o‘rganilgan va boshqa tillarga tarjima qilinib, nashr qilingan.

‘QISHGA TAYYORLANAMIZ ...

Siz o‘rganadigan asar – **“Devonu lug‘otit turk”** muallifning donishmandona kuzatishlari va boy faktik materiallar asosida turli qabila va xalqlarning tili, territorial dialektlari (shevalari) atroflicha tekshirib yoritilgan, til hodisalari va faktlarini bir-biriga chog‘ishtirib, leksika,



fonetika, morfologiya va dialektologiya masalalari yuzasidan nazariy ma'lumotlar chiqarilgan qimmatli manbadir.

Eslang:

XI asrda turkiy xalqlar qaysi hududlarda yashashgan?

Qoraxoniylar, keyinroq Saljuqiylar davlatlarining tashkil topishi ilmfan rivoji uchun qanday imkoniyatlarni berdi?

**“DEVONI LUG‘OTIT TURK”DAN
MEHNAT VA MAROSIM QO‘SHIQLARI**

Ma'nosi:

Yigitlarni ishlatu,
Yig'ach yamish irg'atu,
Qulan, kayak avlatu,
Bazram qilib avvalim.

Chag'ri berib qushlatu,
Toyg'on izib tishlatu,
Tilki, to'ng'iz toshlatu,
Ardam bila o'klagim.

Qora tunung kachursadim,
Og'ir uni uchursadim,
Yatikani qachursadim,
Saqish ichra kunum tug'di.

Yigitlarni ishlatib,
Daraxt(lar)dan meva (lar)ni qoqtirib, Qulon,
kiyik ovlating,
(So'ng) bayram qilib ovunaylik.

Yigitlarga chag'ri (ov qushi) berib ovlating,
Ov itini (qushlarning) izidan solib tishlatib,
Tulki, to'ng'iz(lar)ni tosh bilan urdirib,
Yaxshi ishlarimiz bilan maqtanaylik.

Qora tunning tez o'tishini istadim, Uyguga
yo'l bermaslikka tirishdim, Yetikan (Yeti
qaroqchi yulduzi)ni qochirmoq (tong
ottirmoq) istadim, (Yulduzni) sanay-sinay
tong ottirdim.

yig'ach – daraxt

yamish – meva

kayak – kiyik, ohu

bazram – bayram

chag'ri – ov qushi

Kecha turub yurir edim,
Qara-qizil bo‘ri ko‘rdum,
Qatig‘ yoni qura ko‘rdum,
Qoya ko‘rub baqu og‘di.

Kechasi turib (kezib) yurardim,
Qora-qizil bo‘ri ko‘rdim,
Baquvvat yoyni (otishga) hozirladim,
(U) qo‘rqib, qoyaning orqasiga yashirindi.

Uzu borib o‘kush evdim,
Talim yurib kuchi kavdim,
Otim birla tagu avdim,
Mani ko‘rub esi og‘di.

Shoshilinch (bo‘rining) ketidan tushdim,
Ko‘p quvlab borib kuchidan toliqtirdim,
Otim bilan tevaragida aylanib turdim,
Meni ko‘rib esi og‘di.

Itim tutib quzi choldi,
Oning tusin qira yuldi,
Boshin olib quiz soldi,
Bug‘oz olib tugal bug‘di.

Itim tutib olib, yotqizdi,
Uning junini yuldi (terisini shilib oldi),
Boshidan tishlab, quyiga sudradi,
Bo‘g‘zidan tishlab butunlay
bog‘di(o‘ldirdi).



1. Mehnat qo‘shiqlari **qanday jarayonning** in‘ikosidir?
Bunday mazmundagi asarlarning ruhiga mos geometrik
shakllar chizing.

2. Qadimda mehnat qo‘shiqlarining **yoshlar**
tarbiyasidagi o‘rni nimalardan iborat bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

4. Ov haqidagi to‘rtliklar o‘tmish kishilarning qanday **orzu-ideallarini**
ifodalagan?

5. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va bog‘dorchilikning bir-biriga
yondoshligi, odamlarning pishiqchilikdagi **kayfiyati** aks ettirilgan
o‘rinlarni belgilang.

6. Qadimgi odamlarning **mehnat jarayonini** tasavvur qilib rasm
chizing.

QISH VA YOZ MUNOZARASI

Ma'nosi:

Qish yoy bila to'qushti, Qing'ir ko'zin baqishti, Tutushqali yaqishti, Utg'alimat o'g'rashur.	Qish yoz bilan to'qnashdi, Qing'ir (yomon) ko'z bilan bir-biriga qarashdi, (Bir-birini) tutib olishga intilishdi, (Bir-birini) yutishga tirishar edi.
Yoy qish bila qarishdi, Ardam yosin qurishdi, Charik tutib ko'rushti, O'qtag'ali o'trushur.	Yoz bilan qish qarshima-qarshi bo'lishdi, (Ularning har biri) maqtanish yoyini qurishdi, Qo'shin tuzib, (bir-birini) ta'qib qilishdi, (Yoy) otish uchun (bir-biriga) yaqinlashishdi.
Turluk chachak yarildi, Barchin yazim karildi, Uchmoq yari ko'rudli, Tunlug' yana kalgusuz.	Turli chechaklar ochildi, (Yerga xuddi) chiroyli gilamlar to'shalganday, Jannat yeri ko'rindi, Sovuq qaytmas bo'lib ketdi.
Og'di bulut ko'krayu, Yag'mur to'li sakrayu, Qaliq ani ugrayu, Qancha barir bilguso'z.	Bulut (shuncha) quyruqki, qayoqqa borishi bilinmaydi, Yomg'ir, do'l tushmoqda, Shamol ularni tebratadi, Bulut (shuncha quyruqki) qayoqqa borishi bilinmaydi.
Ko'kshin bulut urishdi, Qayg'uq bo'lib akrashur, Yashin otib yashnadi, Tuman turib tushnadi.	Ko'kimtir bulutlar paydo bo'lib, (Ular) qayiqday tebranishadi. Chaqmoq chaqib yoritadi, Tuman (yerga tomon) yoyilib kelmoqda.

ADABIYOT NAZARIYASI: MUNOZARA JANRI

Mumtoz adabiyotda keng tarqalgan, fikrlar kurashi shaklida yozilgan badiiy asar **munoza** deyiladi. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishiladi. Obrazlar ko'pincha ramziy mohiyat kasb etib, munoza qiladilar. Ayrim munozaralarda maqtov (panegerik) qism ham bo'lishi mumkin – unda mazkur asarni yozishga turtki bergan odam maqtaladi.

Munozaraning qissadan hissa chiqarish yoki muallifning muayyan

masala haqidagi xulosasi bilan tugallangan shakllari ham bo‘ladi. Asadi Tusiyning (XI asr) “Kecha va kunduz munozarasi”, “Nayza va yoy munozarasi”, Amiriyning “Bang va chog‘ir orasidagi munozara” (XV asr), Yaqiniyning (XV asr) “O‘q va yoy”, Fuzuliyning “Bangu boda”, “Sihat va maraz” asarlari munozaraning namunalari.

Hozirgi zamon o‘zbek she‘riyatida ham bu janrda asarlar yaratilgan (Sulton Jo‘ra, “Tinish belgilar majlisi”).

“O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”dan



1. Asarda asosan **mavsum va peyjaz lirikasiga** oid janrlarning uchrashi nimadan dalolat beradi?

2. Qadimda qishga **salbiy**, yozga **ijobiy** munosabatda bo‘lingan. Bunday munosabatni keyingi davrlar adabiyotida ham ayrim o‘rinlarda kuzatish mumkin, masalan, Cho‘lpon she‘rlarining aksariyatida qish xalq uchun talofot, mustamlakachilar ramzi sifatida berilgan. Bunday munosabatning sababi nimada deb o‘ylaysiz? Bugungi kunda ham odamlarda shunday holatlar kuzatiladimi?

3. Qish bilan yozning qarshilantirilishi zamirida qanday **ma’noni** uqish mumkin?

4. Yoz bilan qish munozarasi yakunidan qanday **xulosa** kelib chiqadi?

5. Siz yozning “g‘alaba”si yoki qishning “mag‘lubiyat”ini **ranglarda** qanday akslantirar edingiz?

6. Munozarada unumli qo‘llanilgan **badiiy tasvir vositalariga** doir quyidagicha jadval tuzing:

Badiiy tasvir vositalari	Misollar
Jonlantirish	Qaqlar qamug‘ ko‘lardi
Sifatlash	Bulnar meni ulas ko‘z

ALP ER TO‘NGA MARSİYASI

Eslang:

Afrosiyob obrazi ishtirok etgan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki kinofilmlarni ko‘rgansiz?

Afrosiyob – mifologik obraz. Turkiy yozma yodgorliklarda Afrosiyob epik qahramon Alp Er To‘nga bilan bir shaxs qilib ko‘rsatilgan. Ba’zi olimlar Afrosiyobni tarixiy shaxs deb hisoblaydilar. Turkiy xalqlar bobokaloni, turkiylar podshosi, bahodir, jahongir yo‘lboshchi sifatida

ulug‘lanadi. Qoraxoniylar va saljuqiylar o‘z shajaralarini Alp Er To‘ngadan boshlaganlar.

“O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” dan

Alp Ar To‘nga o‘ldimu,
Esiz ajun qaldimu,
O‘zlak o‘chin aldimu,
Amdi yurak jirtilur.

O‘zlak yarag‘ kuzatti,
O‘g‘ri tuzaq uzatti,
Baglar bagin azitti,
Qachsa qali qurtilur.

O‘zlak kuni tavratur,
Jalnguq kuchin kavratu,
Ardin ajun savritur,
Qachsa taqu artilur.

O‘grayugi mundag‘ o‘q,
Munda azin tandag‘ o‘q,
Atsa ajun og‘rab o‘q,
Tag‘lar bashi kartilur.

Baglar atin arg‘urib
Qazg‘u ani turg‘urub
Mangzi yuzi sarg‘arub
Kurkum angar turtulur.

Ulishib eran bo‘rlayu
Jirtin jaqa urlayu
Siqrib uni jurlaju
Sig‘tab ko‘zi o‘rtilur.

Ko‘nglum ichun o‘rtadi
Yatmish bashig‘ qartadu
Kachmish o‘zug irtadi
Tun kun kachib irtalur.

Aziz Qayumov tarjimasi:

Alp Er To‘nga o‘ldimi,
Yomon dunyo qoldimi,
Zamon o‘chin oldimi,
Endi yurak yirtilur.

Dunyo fursat ko‘zladi,
O‘g‘ri tuzoq sozladi,
Beklar begin izladi,
Qanday qochib qutulur.

Dunyo kunin pastlatur,
Inson kuchin sustlatur,
Eldin erni chetlatur,
Qochgan bilan kim qolur.

Odatdan zo‘r narsa yo‘q,
Boshqa bahona ham ko‘p.
Otsa zamon poylab o‘q,
Tog‘lar boshi yanchilur.

Beklar oti charchadi,
G‘am beklarni yanchadi,
Yuzga za‘far sanchadi,
Chehralari sarg‘ayur.

Bo‘ri bo‘lib uldilar,
Yoqa yirtib turdilar,
Yig‘lab-siqtab yurdilar,
Ko‘z yoshlari mo‘l bo‘ldi.

Ko‘nglimni chok qildi,
Bitgan yaramni tildi.
Kechmish xotirga keldi
Tun-kun uni istarman.

ADABIYOT NAZARIYASI: MARSIYA JANRI

Biror kishining vafoti munosabati bilan g'am-alam, hasrat va qayg'uni ifodalagan lirik she'r yoki qo'shiq **marsiya** (arabcha "yig'lash", "yig'i berish" so'zidan) deyiladi. Xalq og'zaki ijodidagi marsiyalar *yig'i* deb ham ataladi.

Marsiyada inson ruhiy kechinmalari chuqur va dardli aks ettiriladi. Marsiya turli she'riy shakllarda yozilishi mumkin. Adabiyotimizning keyingi bosqichlarida g'azal, qasida, murabba', muxammas, musaddas, tarji'band, tarkibband shakllarida yozilgan marsiyalar uchraydi.



1. Muallif qahramonning o'limiga qanday **munosabatda** bo'ladi?

2. Satrlardan Alp Er To'nganing qanday **sifatlarga** egaligini bilib oldingiz?

3. Nima uchun odamlar uning o'limidan **chuqur qayg'uga** tushgan?

4. Alp Er To'nganing qahramonligini qaysi **vatanparvar ajdodlarimizning** fazilatlari bilan qiyoslasak bo'ladi?

5. Marsiya qaysi **shakl va vaznda** yozilganini aniqlang.

6. Misralarning **qofiyalanishi, bo'g'ini va turoqlar** tartibini ko'rsating.

7. Siz mumtoz musiqadagi qaysi **kuyni** mazkur marsiyaga mengzar edingiz?

MAQOLLAR

Er so'zi bir.

It isirmas, ot tepmas dema.

Ekmagincha unmas.

Suv ichirmasga sut ber.

Emgak ekinda qolmas.

Kur o'g'li kuvaz bo'lur.

emgak – mehnat

*kur – mard,
kuvaz- mag'rur*

Osh totig'i tuz.

Uma kelsa qut kelar.

uma – mehmon

Birin-birin ming bo'lur,

Qul savi qolmas, qag'il bag'i yazilmas.

Toma-toma ko'l bo'lur.

*qul – qari,
savi – so'zi, qag'il – ho'l novda*

Qut bilgusi bilik.
qut – baxt

Yig‘ach uchina yel tegir, ko‘rkluk
kishiga so‘z kelir.

yig‘ach – daraxt, **yel** - shamol

Keng to‘n ubramas,
Kengashlik bilik artamas.

Qo‘rqmish kishiga qo‘y boshi qo‘sh
ko‘rinur.

1. Yuqoridagi maqol va qo‘shiqlar qanday **masalalarni** o‘z ichiga qamrab olgan?

2. Maqollarda qanday **badiiy san’atlar** qo‘llanilgan? Ularning vazifasi nima?

3. Mahmud Koshg‘ariy keltirgan maqollardan qaysilari hozirgacha ham deyarli **o‘zgarishsiz** qo‘llanilmoqda? Qaysilari hozirgi zamonda ishlatilmaydi? Maqollarning iste‘moldan chiqib ketishi qanday **omillarga** bog‘liq deb o‘ylaysiz?

Mustaqil ishlaymiz:



“Devonu lug‘otit-turk” va turkiyshunoslik

1. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari va “Devonu lug‘otit-turk” asari o‘rtasida qanday **mushtarakliklarni** kuzatdingiz?

2. O‘rta Osiyoning qadimgi aholisining qo‘shiq va lirik she‘rlaridan ayrim namunalar **qaysi manbalar** orqali bizgacha yetib kelgan?

3. Asarda xalq orasida mavjud bo‘lgan qanday **afsona va rivoyatlar** uchraydi?

4. “Devonu lug‘otit-turk”dagi **an’analar** keyinchalik kimlarning asarlarida davom ettirilib, rivojlantirilgan?

5. “Devonu lug‘otit-turk”ning tilini o‘rganing. Koshg‘ariy davridagi turkiy tilning hozirgi o‘zbek adabiy tilidan **farqli jihatlarini** quyidagi jadvalga tushiring.

	“Devonu lug‘otit turk”dan misollar	Hozirgi o‘zbek tilidagi ifodalanishi
Fonetikadagi farqlar		
Leksikadagi farqlar		
Morfologiyadagi farqlar		

YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)

Yusuf Xos Xojib taxminan 1015–1020 yillarda Bolasog‘un shahrida (hozirgi Qirg‘iziston hududi) tug‘ilgan. U zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o‘rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan, shu bilan birga turkiy tilning mavqeyini oshirish, uning madaniy-adabiy hayotdan o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun kurashgan. Uning 1070-yillarda yozib tugatilgan “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari islomiy turkiy adabiyotning ilk namunasi hisoblanadi. Unda o‘z davrining ilg‘or ijtmoyiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilinadi. Shuningdek, asarda turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urfodat va an‘analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma‘lumot berilgan. Bu asari uchun unga Qoraxoniylar hoqoni Tavg‘ach Bug‘roxon binni Arslonxon tomonidan “xos hojib” (eshik og‘asi) lavozimi berilgan.

O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ ...



Siz o‘rganadigan asar – “**Qutadg‘u bilik**”da davlat va jamiyat qurilishi masalalari, komil inson va ilm-ma‘rifat targ‘iboti to‘rt ramziy qahramon – Kuntug‘di (adolat), Oyto‘ldi (baxt), O‘gdulmish (aql) va O‘zg‘urmish (qanoat) timsollari orqali ifoda qilingan.

O‘ylab ko‘ring:

Nega muallif aynan shu timsollarni tanlagan deb o‘ylaysiz?

“QUTADG‘U BILIG”DAN

(Asarning hozirgi o‘zbek tilidagi nasriy bayoni Boqijon To‘xliyev tayyorlagan nashrdan olindi, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-yil)

Kitobga “Qutadg‘u bilig” deb nom qo‘ydim. U qut keltirsin, o‘quvchining qo‘lidan tutsin. So‘zlarimni so‘zladim, bitig bitdim. Bular ikki jahonni tutishga ham yo‘l ochsin.

So‘zimning boshida Kuntug‘di elig nomini atadim, buning sababini aytib beraman. Keyin Oyto‘ldini sanadim. U tufayli muqaddas, qutli kunlar yorishadi.

Kuntug‘di deganimiz to‘g‘ri, odil Adolatdir. Oyto‘ldi esa qut-baxtdir. Undan keyin O‘gdulmish keladi. O‘gdulmish uquv-idrokning nomi. U kishini ulug‘laydi. Bo‘lagi O‘zg‘urmishdir. Uni Ofiyat dedim.

Barcha so‘zimni shu to‘rt narsa haqida aytdim. Ularni o‘qisang, ko‘zing ochiladi.

Sevinchda yuruvchi ey ezgu yigit, so‘zimni behuda ko‘rma, chin dildan eshit. Irodali bo‘l, to‘g‘ri yo‘ldan yanglishma, yigitlikni behuda o‘tkazib yuborma, uning nafini olib qol. Yigitlikni, yoshlikni aziz tut, u qushdek tez uchib ketadi. Qanchalik qattiq ushlamagin, baribir, yigitlik qochib ketadi.

O‘zim yigitlikni sog‘inaman, uni qo‘ldan berganim uchun o‘kinaman. Ammo endigi o‘kinchdan naf yo‘q.

Kimning yoshi qirqdan oshsa, unga yigitlik yillari xayrlashish uchun qo‘l uzatadi.

Menga ellik yoshim qo‘l tegizdi. U qora quzg‘undek boshimni oqqushga aylantirdi. Ellik yosh meni o‘ziga chorlamoqda. Agar pistirma bo‘lmasa, u tomon boraman.

Kim oltmish yoshga yetsa, undan halovat ketadi, yozi qishga aylanadi.

O‘ttiz yosh yig‘ib berganini ellik yosh qaytarib oladi. Agar oltmish yosh qo‘l tegizsa, kishining ahvoli nima kechadi?

Ey ellik yosh, men senga nima qilgan edim. Nega o‘ch olish uchun menga yuzlanding?!

Totli edi barcha yigitlik ishim,
Og‘u qildi endi mening yer oshim.
Bo‘yim edi o‘qdek, ko‘ngil edi yoy,
Ko‘ngil bo‘ldi o‘qdek, bo‘yim bo‘ldi yoy.
Neki bergan bo‘lsa yigitlik menga,
Qarilik naqd oldi, u kelgay senga.
Oyoqlarim kishansiz ham chalishyapti.
Ko‘ruvchi qaroq yorishmayapti.
Totli damlar ketdi, bag‘ir o‘ti so‘ndi.
Yigitlik oti mendan uzoqlashyapti.

* * *

Kuntug‘di ismli elig (podsho) bo‘lib, u dono va adolatli ekanligi bilan dong taratgan edi. Uning himmat va muruvvati ham chek-chegara bilmas edi. Elig mamlakatni obod, el-yurtni esa shod-xurram qilish istagi bilan yonardi. Uning shuhrati butun olamga yoyiladi. Ishlarini oliyjanoblik va saxovat bilan yuritganidan mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar edi. Podsho mamlakatdagi barcha donishmandlami ham ezgulik ishlariga jalb etadi.

Jam etdi olamning saralarini,
Bilimdon, odamning saralarini.

Mamlakatni boshqarish ishi kundan-kunga mushkullashadi. Shuning uchun u tadbirkor va oqil, hozirjavob va ishning ko'zini biladigan yordamchilarga, bir so'z bilan aytganda, komil va yetuk, faol kishilarga muhtojlik sezadi.

Eligning yuritayotgan ishlari el-yurt olqishiga sazovor bo'ladi. U haqdagi gap-so'zlar mamlakat tashqarisiga ham yetadi. Xuddi shu paytda Oyto'ldi ismli donishmand yigit elig xizmatiga kirishni istab poytaxtga keladi. Uning:

O'zi yosh edi-yu, qilig'i ravon,
Bilimli, uquvli, og'ir, navqiron.
Yuzi ko'rkli edi, ko'rib ko'z qamar,
Tili totli edi, go'yo bol tomar.

Oyto'ldi o'zidagi san'at-hunarlarining hech kimga naf bermay qolib ketayotganini o'ylab, elig xizmatiga chog'langan edi. Axir:

Uquv qadrini ham uquvli bilar, Bilim sotsa dono, bilimli olar.

Chunki bilimning otini bilimligina biladi. Bilimsiz kishi bilimning qimmatini qayerdan bilsin. Zar qadrini zargar biladi-da!

Shu o'ylar bilan Oyto'ldi otini mindi, to'n va boshqa kerakli narsalarini olib yo'lga chiqdi. U yoshligidanoq turli bilimlarni egallagan, san'at-hunarlar bilan ziynatlangan kishi edi. Biroq u musofirlikda ko'p aziyat chekadi, qiynaladi. Xushmuomala va tadbirkorligi uchun tezda yaqinlar ham orttiradi. U Kusamish ismli yigit bilan do'stlashib, poytaxtga kelishdan maqsadini bayon etadi. Kusamish eligning Ersig degan Xos Hojibi bilan uchrashadi va unga Oyto'ldini tanishtiradi. Ersig Oytoldining qayerdan kelgani, qanday joylashgani, sog'lik-salomatligini surishtirgach, uning maqsadlari bilan qiziqadi. Mana Oyto'ldining javoblari:

Bu Oyto'ldi aytdi: ey qudi Hojib,
Sevindim Kuntug'di nomin eshitib.
Eshitdim yiroqdan uning nomini,
Bilim-u uquvi, zako, shonini.
Uning dargohiga yuz burdim o'zim.
Elig orzusida yugurdi ko'zim...

Ersig Oyto'ldidan xursand bo'ldi. Yigitdagi qobiliyat va zakovatga o'zi shaxsan ishonch hosil qilgach, uni Kuntug'di elig suhbatiga yo'llaydi.

Oyto'ldining o'zini tutishi, fe'l-atvori, so'z-fikri va bilim darajasini ko'rgan elig ham yigitni yoqtirib qoladi va o'z yoniga – saroyga taklif etadi.

Xizmatda og'ishmasligi, sadoqati va har bir ishda bilimga tayanishi tufayli Oyto'ldining martabasi kundan kunga ortib boradi.

Kishi xizmat etsa og‘ishmay agar,
Bu xizmati singsa, tilagin topar.
Oyto‘ldi har damda o‘rinlatdi ish,
Bera berdi unga elig ham ulush.
Bo‘la bordi o‘zi kundan kun ulug‘,
Alami yo‘q bo‘ldi, sevinchi to‘liq.
Ishiga berildi Oytoldi tamom,
Elig ham himmatin oshirdi tamom.
Butun ishlarida uni sinadi,
O‘zin baxtiyor deb elig sanadi.

Elig Oyto‘ldini turli ish va topshiriqlar berib sinab ko‘radi. Jumladan, bir kuni u yigitni o‘z yoniga chorlaydi. Uni o‘tirishga undaydi. Oyto‘ldi yonidan bir to‘p (koptok) chiqaradi-da, o‘shanga o‘tiradi. Elig unga ko‘plab savollar beradi, yigit javob qaytaradi. Kuntug‘di bundan shodlanadi, chehrasi ochiladi. Buni ko‘rib, Oyto‘ldi ko‘zlarini yumib oladi. Elig hayratga tushadi:

G‘azablandi elig, yuzi ko‘p qaro,
Dedi: Shoshqaloqlik kishiga balo!
Ishonchda yanglishdim chog‘i men o‘zim,
Nima deb ochayin kishiga so‘zim?!
Nima der, eshitgin, bilimliga boq,
Shoshilinch yumushning o‘kinchi uzoq.
Shoshilinch yumushlar yaramas bo‘lar,
Shoshib pishgan ovqat bo‘ladi zahar.
Shoshilish – adashgan kishilar ishi,
Bosiqlik qilishi kerak har kishi.
Xatoyim shu bo‘ldi: men o‘zim shoshib,
Seni yaqin tutdim tamom adashib,
Xizmatni etmasa kishi to bajo,
Hech odam unga ish ko‘rmasin ravo.
Chiniqtirsin avval yumushda uni,
Ardoqlasa arzir keyin tun-kuni..
Yumushingni ko‘rmay bilibman a’lo,
Tugalroq sinamay qilibman xato.

Eliging bu mulohazalariga Oyto‘ldi shunday deb javob beradi:

– Ey elig, sen mening qiyofamda davlat va boylikni ko‘rmoqchi eding. Men ularni aniqroq tasavvur qilgin, deb shu ishlarni qildim. To‘p (koptok) davlat (boylik)ga juda o‘xshaydi. Ularning ikkalasi ham bir joyda to‘xtab turmaydi, yumalab ketaveradi. Menga kulib boqqaningda ko‘zlarimni

yumib olishimga sabab, davlatning ko‘zi ko‘r ekanligini senga uqtirish edi. Boylik bilan davlat ko‘zi ko‘r odamlarga o‘xshaydi. Kim boylik va davlatning qo‘lidan tutsa, o‘shanga ergashib ketaveradi: bu yaxshi, mana bunisi esa yomon, deb ajratib o‘tirmaydi. Oqar suv, yo‘riq til va qut bir joyda to‘xtab turmaydi. Olam kezuvchilar yo‘l yurib tinmaydi. Baxt-davlat ham bir joyda qo‘nim bilmaydi.

Kichik guruhlarda ishlang. Har bir guruh bir yo‘nalishdagi savol va topshiriqlar asosida taqdimotga tayyorlaning.

Tayyorlanish jarayonida asarning hozirgi o‘zbek tilidagi to‘liq matni (*Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-yil*) va boshqa manbalardan foydalaning.



“Qutadg‘u bilig” va davlat boshqaruvi

1. Asar qaysi davr ijtimoiy-siyosiy masalalarini o‘z ichiga oladi? Asarda ta’kidlangan masalalar qanday obrazlar qiyofasida mujassamlantirilgan va qay shaklda bayon etiladi?

2. Yusuf Xos Hojib jamiyatni ijtimoiy tabaqalarga ajratishda nimalarga e’tibor qaratadi? Har bir tabaqaga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

3. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi boshqaruv tizimida qay darajada ahamiyat kasb etadi?

“Qutadg‘u bilig” va ilm-fan

1. Dostonda O‘rta Osiyo olimlarining ilmiy yutuqlari haqida fikr yuritilgan joylarini toping va umumlashtiring.

2. Muallif astronomiya va tibbiyot sohalari haqida nima deydi?

3. Muallifning o‘zi ko‘proq fanning qaysi sohasiga qiziqar edi? U inson tanasini chiniqtirishga doir qanday falsafiy qarashlarni ilgari suradi?

“Qutadg‘u bilig” badiiyati va obrazlar

1. Lirik she’rlarda keltirilgan bahor mavsumi va keksalik ayyomi tasviridagi majoziy ma’noga munosabat bildiring.

2. Asardagi maqol va hikmatli so‘zlarni mavzusiga ko‘ra umumiy nom ostida guruhlashtirib jadval tuzing.

3. Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish va O‘zg‘urmishga xos fazilatlar modelini yarating.

NOSIRUDDIN RABG‘UZIY (XIII asr oxiri – XIV asr boshi)

Nosiruddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy Xorazmning Raboto‘g‘uz mavzeyidan bo‘lgan. Sharq xalqlari og‘zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, payg‘ambarlar va avliyolar to‘g‘risidagi qissalarni chuqur o‘rgangan. O‘zi ham ko‘pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib nasrda rivoyatlardan hikoyat, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan.

O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ ...



Siz o‘qiydigan asar – **“Qisasi Rabg‘uziy”** Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur‘oni Karimdagi ayrim ma‘lumotlar va payg‘ambarlar hayotlari haqidagi qadimiy manbalar asosida yozilgan. Asarda Sharq xalqlari og‘zaki ijodining ta‘siri ham seziladi.

O‘ylab ko‘ring:

Islom dinida dunyoning yaralishi, zamin va koinot hamda tabiat hodisalari qanday talqin qilinadi? Bu haqida nimalarni eshitgansiz yoki o‘qigansiz?

“QISASI RABG‘UZIY”DAN UZUM HIKOYATI

Kattalardan shayton dastlab kim bo‘lganligi, uning qanday sifatlarga ega bo‘lgani haqida eshitganmisiz?

Xato qilgan odamlarning qilmishlarini shaytonga ag‘darishini to‘g‘ri deb bo‘ladimi? Bunday odamlarning ruhiyatni qanday baholash mumkin?

Hikoyat kelturubdurlarki, shaytoni mal‘un uzumni urug‘ini o‘g‘irladi. Hech vajah bila topolmadilar. Hamma hayvonlardan so‘radilar. Hech qaysisi bilmadi, oxiri shaytonni tuttilar.

Mal‘un –
la‘natlangan

vajh – vaj,
narsa

Shayton aytti: – Uzumga uch marta suv quymoqni manga bersangiz, topib beray, dedi. Nuh alayhissalom qabul qildilar.

Uzumni urug‘ini topib berdi. Vaqtiki kemadin chiqdilar, barcha urug‘ini ektilar, uzumni uch suvini shaytoni layin sug‘ordi: avval tulki qoni birla, andin sherni qoni birla, andin to‘ng‘izni qoni birla sug‘ordi. Aning bergan suvidin chog‘ir bo‘ldi, har kim chog‘ir ichsa, avval tulki bo‘lub, ko‘rmagan kishi birla do‘stluq og‘oz qilur. Andin mast bo‘lg‘onda yo‘lbarsdek bo‘lur, himmati jo‘sh bo‘lib, har kimga bir nimarsa berur. Andin mastroq bo‘lsa, to‘n‘izdek yuraklik bo‘lub hech ishdan qo‘rqmas, bir qism yomon ishlar sodir bo‘lur, shayton bergan suvlar fe‘lidir.

Andin so‘ng, Nuh alayhissalom ikki marta suv berdilar, biri behishti zanjabilin erdi, andin shinni paydo bo‘ldi. Biri salsabilin, andin sirka paydo bo‘ldi. Bu nimarsalar har uyda bo‘lsa, uydin farishta kam bo‘lmas, deydurlar.

behisht – jannat

Zanjabil (imbir) – ziravor o‘simlik, qon tomirlari faoliyatiga yaxshi ta‘sir ko‘rsatadi

Salsabil – janatdagi bitmas-tuganmas buloq



1. Shaytonning uzum urug‘ini o‘g‘irlashdan **maqsadi** nima edi?

2. Nima uchun shayton uzumni aynan **tulki, sher va to‘ng‘iz** qoni bilan sug‘ordi?

3. Nima deb o‘ylaysiz, Nuh alayhissalomning shaytondan so‘ng uzumni sug‘orishi zararli illatlarga **barham** bera oldimi?

4. Sizingcha, nima uchun **zanjabil va salsabil** bor uy farishtali bo‘lar deyilmoqda?

5. Mast odamning o‘zini **turli qiyofalarda** ko‘rsatishini qanday izohlaysiz?

6. Hayotingizda hikoyatda tasvirlanganday **odamlarni** kuzatganmisiz? Ularning taqdiri qanday kechadi?

7. Sizingcha, **razolatning** asl ildizi nimalarga borib taqaladi?

8. **Zararli odatlarga** berilmaslik uchun inson qanday yo‘l tutmog‘i zarur?

ILON VA QARLUG‘OCH HIKOYATI

Qaldirg‘ochning dumi nima uchun ayriligi haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Sizningcha, ilon faqat yovuzlik timsolimi? Ilon ijobiy timsol sifatida tasvirlangan asarlarni eslay olasizmi?

Muqaddas kitoblarga ko‘ra, Nuh alayhissalom davrida kofirlar ko‘payib ketganidan Alloh Yer yuziga to‘fon yuborgan. To‘fondan faqat Nuh alayhissalom va uning kemasidagilar omon qolgan.

Hikoyatda kelturubdurlarki, kemani ichida uch nimarsa yo‘q erdi: biri mushuk, biri sichqon, biri qo‘ng‘iz. Bu uch nimarsa kemada paydo bo‘ldi... Sichqon qochib yurib kemani teshdi, suv chiqa boshladi, kema to‘lib keladur, hammalaridan hushi ketti... Munojot qildilar, xitob keldiki, bu sichqon ishidur. Yo‘lbasni peshanasini silagil deb. Ani peshanasini siladilar, burnidin mushuk tushdi, sichqonni tutib yedi. Andin so‘ng, Nuh alayhissalom aytdilar:

–Bir kimarsa bo‘lg‘aymu, kemani teshigini topib berkitgoy?

Yilon aydi: – Agar ushbu xizmatni bajo keltursam, nima berursiz?
Nuh alayhissalom aytdilar:

–Nima tilasang, berurman.

–Nimani go‘shiti shirin bo‘lsa, shuni bersangiz. Nuh alayhissalom qabul qildilar.

Yilon kirib izlab, teshikni topib, halqa bo‘lib yotti, suv to‘xtadi, kirgan suvni sochib ado qildilar. Teshikni mum birla berkitib xotirjam bo‘ldilar. Vaqtiki, kemaga kirdilar... Kema ravon bo‘ldi... Olti oy suvni ichida yurdilar...

Vaqtiki, kemadin chiqdilar. Yilon keldiki:

–Yo Nuh, manga qilg‘on va‘dangizni bering, – dedi. Nuh alayhissalom oruni buyurdilar, borib har nimarsani go‘shitini totg‘il, qaysi nimarsani go‘shiti shirin bo‘lsa, yilong‘a beraylik.

Ul borib, odamni go‘shitidan totlig‘ go‘shit yo‘q ekan, deb kelur edi. Qarlug‘och borib so‘rdiki: – Nimani go‘shiti totlig‘ ekan?

Oru aydi: – Odamni go‘shitidan totlig‘ go‘shit yo‘q ekan.

Qarlug‘och aydi: – Ey birodar, tilingni chiqorg‘il, man totib boqay, – dedi. Tilini chiqorg‘on hamon uzub oldi. Oru gung bo‘lib, g‘ingishlab bordi. Qarlug‘och ham orqasidan kelib turdi. Harchand so‘z so‘rsalar g‘ingshib Qarlug‘ochga qaraydur. Qarlug‘och aydiki: – Biyobonda manga uchrab: “Baqani go‘shitidin totlig‘ nimarsa yo‘q ekan”, – deb holo kech

kelganiga so‘zlayolmas.

Nuh alayhissalom yilonga baqani buyurdilar. Ul zamondin bu zamong‘acha yilon topsa baqa yer, bo‘lmasa tuproq yer. Yilon bildiki, Qarlug‘och odam farzandiga yaxshilik qildi. Oru manga bo‘lishdi, deb yilon Qarlug‘ochga dushman bo‘ldi.

Ul sababdin Qarlug‘och odam farzandi birla bir uyda debdur.



1. Hikoyatga nega aynan **sichqon, yo‘lbars, mushuk** kabi hayvonlar kiritilgan deb o‘ylaysiz?

2. Siz **Ari** timsolida qanday insonlar qiyofasini ko‘rdingiz?

3. Sizningcha, hayotda Ari kabi **ilojsiz vaziyatga** tushib qolmaslik uchun qanday yo‘l tutmoq kerak?

4. Hikoyatning xulosasiga monand **maqol yoki hikmatli so‘zlardan** toping.

5. Agar ilonning **istagi amalga oshganida** hikoyat qanday davom etishi mumkin edi?

6. Hikoyani o‘zingiz tasavvur qilganday davom ettiring.

NAMRUD HIKOYATI

“Kibr”, “kibrli” so‘zlarini qanday izohlaysiz? Atrofingizda kibrli kimsalarni uchratganmisiz? Kibrning sabablari nimada va u qanday oqibatlariga olib keladi deb o‘ylaysiz?

Namrud Ibrohimning tangrisi bilan jangga astoydil hozirlana boshladi, yirtqich qushlarning bolalarini tarbiyalay boshladi. Ular ulg‘aygandan keyin bir sandiq yasattirdi: ikki qopqoqlik – biri ostida, biri ustida. Uning ustiga to‘rtta, ostiga ham to‘rtta ustun o‘rnatdilar. Ustki ustunga yirtqich qushlarni bog‘ladi. Namrud egniga sovud kiyib, yashiq to‘la o‘q solib, xizmatkori bilan birga sandiq ichiga kirdi. Ustun ichiga bog‘langan go‘shlarni ko‘rgan och-nahor qushlar unga talpindilar, sandiq ham ular bilan birga havoga ko‘tarilidi.

sovud – sovut, tanani himoya qiluvchi kiyim

Bir kecha-kunduz uchgach, xizmatkoriga buyurdi:

- Ustki qopqoqni ochgil, nima ko‘rinarkan?
- O‘sha-o‘sha holni ko‘rarman, – dedi u ustki qopqoqni ocharkan.
- Ostki qopqoqni ochgil, nima ko‘rinarkin? – buyurdi yana Namrud.

– Ostki qopqoqni ochgil, ne ko‘rinadir?

– Yer avval qanday ko‘ringan bo‘lsa o‘shanday, dedi. Hali yetmabmiz, deya yana bir kecha-kunduz uhdilar.

– Tapa qopqoqni ochib qarachi, nima ko‘rinadur? – buyurdi Namrud.

– Hamma yoq tuman ichida qolibdi, dedi xizmatkor. – Hech nima ko‘rinmaydir. So‘ngra pastki qopqoqni ochdi.

– Pastda ham tumandan bo‘lak narsa ko‘rinmas, dedi xizmatkor.

– Endi yetib kelibmiz, dedi Namrud va osmonga qarata o‘q otdi. Shunda Jabroil alayhissalomga farmon bo‘ldi:

– O‘qni olib baliqqa sanchgin-da, qonga belab sandiqqa tashla! (Baliqning bo‘g‘izlanmasligiga sabab shunda deydilar).

Qonga belgan o‘q Namrudga qaytib kelgach:

– Osmon tangrisini o‘ldirdim! – deb o‘yladi va go‘sht bo‘laklarini yuqori ustundan olib pastki ustunga bog‘ladi. Oллоh dedi: (Oyat) “Ular yomon makrlarni qilib ko‘rdilar va ularning yomon tadbirlari Xudo qoshida edi”.

Aytishlaricha, Namrud qavmida yuz ming odam Ibrohim payg‘ambarga hayrixoh edi. Namrud osmondan tushgach, “Ko‘k tangrisini o‘ldirdim”, deya qonli o‘qni ko‘rsatgach, bu so‘zga ishonib yana kofir bo‘lib ketdilar. (Oyat) “U (Alloh) xohlagan odamini gumroh qilib qo‘yadi va xohlagan odamini to‘g‘ri yo‘lga solib qo‘yadi”.

Ibrohim alayhissalomga farmon bo‘ldi: “Borgil! Namrudga aytgil! Jang qilishga mayli bo‘lsa, qo‘shin hozirlasin!” Ibrohim alayhissalom bu farmonni Namrudga yetkazdi. Shundan keyin Namrud yurtlariga kishi yuborib qo‘shin to‘plashga kirishdi. Soni-sanog‘i yo‘q qo‘shin yig‘ildi. Ular boshdan-oyoq sovut kiygandi. Alloh taolodan chivinlar qo‘shiniga farmon bo‘ldi. Shunchalik ko‘p chivinlar chiqib keldiki, osmonni qorong‘ulik qopladi. Ular Namrud qo‘shinlariga yopishib, ularni kiyimlarini, etlarini, otlarining eti-yu suyaklarigacha yeb bitirdilar.

Namrud la‘in saroyiga qarab qochib qoldi.

Saroyga kirib hamma eshiklaru tuynuklarni berkitib **la‘in** – la‘natlangan oldi. Alloh taolo bir zaif va oqsoq chivinga ilhom berdi. U teshikdan kirib kelib, Namrudning yanog‘iga qo‘ndi, u yerini chaqib, qon so‘rgach, og‘zi atrofida aylanib, so‘ng

burniga kirdi, miyasiga yetganda uni yeya boshladi. Qirq kungacha Namrudning miyasini chivin yeb turdi.

Ka‘b ul-Axborning rivoyaticha, Alloh taolo Namrud la‘inga to‘rt yuz yil podishohlik berdi va chivin to‘rt yuz yil miyasini kemirdi. Namrudning oldiga kim kirsam unga avval shapaloq bilan, unda ham tinmasa ensasiga

musht bilan urushni buyurar edi.

HIKMAT. Namrudga berilgan azoblar shuning uchun ediki, u to'rt yuz yil tangrilikni da'vo qildi va odamlarni o'ziga sajda qildirdi. Shuni unutmangki, ensalariga mushtlar yegan kimsa qanday qilib tangrilikka yarasin.

Bu choralar bilan og'riqlar to'xtamadi. To'qmoqlar bilan urdira boshladi, ammo bundan ham og'riq bosilmadi, holdan ketaverdi. Nihoyat bir pahlavon xizmatchisiga to'qmoq urish navbati keldi.

– Men borib, hammani bu balodan qutqarayin! – dedi-da ertasi kuni saroyga kelib, to'qmoq bilan Namrudning boshiga chunonam soldiki, boshi yorildi, u chivin kabutar suratida uchib chiqdi.

Shundan keiyn Jabroil alayhissalom qanotlari bilan u saroyini ko'tarib yerga bir urgandi, osti ustiga chiqib ketdi. Namrud do'zaxga borib tushdi. Uning o'rniga Zul-arsh nomli podishoh taxtga o'tirdi.



1. Rabg'uziy suvda yashovchi hayvonlar, xususan, baliqlarning **bo'g'izlanmasdan** yeyilishi sababini qanday izohlaydi?

2. Namrudning Allohni yengish rejasi zaminiga qanday **g'oya** singdirilgan deb o'ylaysiz?

3. Namrud nega “la'in” – “**la'natlangan**” deya ta'riflangan?

4. Kufrga berilib, Allohning payg'ambariga qarshi chiqqan va ayanchli o'lim topgan yana qaysi hukmdorlar haqida eshitgansiz?

5. Hikoyat syujetiga doir rasm ishlang.

SULAYMONNING QARINCHG'A BILA SO'RASHGANI

Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq qanday afsona va rivoyatlarni eshitgansiz?

“Takabbur” so'zini qanday izohlaysiz? **Takabburlik** qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin? O'zbek adabiyoti namunalarida takabburligi sabab fojiga yuz tutgan obrazlarni eslay olasizmi?

Quyida hikoyaning qadimgi o'zbek tilidagi matni berilgan. Matnni o'qish davomida siz uchun tushunarsiz bo'lgan so'zlarning ma'nosini kontekstdan (yon-atrofidagi so'zlar ma'nosidan) chiqarib olishga harakat qiling.

Sulaymon bir kun taxt uzra o'lturur erdi, yel taxtini ko'tardi. Cheriki taxt ostinda yurur erdilar. Bir ulug' qo'lg'a tegdilar. Ul qo'l ichi to'lug' qarinchqa erdi. Ul qarinchqalarning ulug'i ohsoq erdi. Mindir otlig'. Un qildi: "Ey qarinchqalar, qoching, evlaringizga kiring. Sulaymon cheriki sizlarni bosib halok qilmasun". Sulaymon ul so'zni eshitti. Kulimsib aydi: "Iziyo, manga tavfiq

yel – shamol
cherik – lashkar
qarinchg'a – chumoli
ohsoq – oqsoq
un – ovoz, xitob
ev – uy
Izi – Xudo
tavfiq – diyonat

bergil. Manga bergan taqi otang'a bergan ne'mat uza shukr qilayin. Taqi tavfiq bergil. Sen xushnud bo'lg'ungtek ezgu ishlar qilayin". ... Sulaymon taxtdin indi, qarinchqani undadi. Aydi: "Ey qarinchqa, qarinchqalarni naluk qochurding?" Qarinchqa aydi: "Sen maliksen, men ham malikmen. Mavlo taolo manga qirq tabaq, yer, mulk berdi. Tekma tabaq yerda sarhanglarim bor. Tekma bir sarhang birda qirq ming qarinchqa cherik bor. Mavlo taolo yorlig'i bo'lsa yer yuzida bir dushmani qo'ymagayman». Sulaymon aydi: "Andog' cherikingni naluk qochirding?" Aydi: «Sening cheriking kecharda bilmayin bosqaylar. Ular halok bo'lg'aylar deb qochurdim". Sulaymon aydi: "Sen naluk qochmading?" Aydi: "Men bularning ulug'iman. Ulug' ra'iyatlarg'a mushfiq kerak. Balo kelmishda o'zini balog'a qarshu tutg'u kerak". Sulaymon aydi: "Bu bilikni qandin o'granding?" Qarinchqa aydi: "Qamug' olamning biligi mandamu turur teyursan? (Butun olamning bilimi faqat menda deb o'ylaysanmi?)" Aydi: "Izi azza va jalla bilikni biraguga bermadi. Emdi dastur bersang necha mas'ala savol qilayin". Sulaymon aydi: "Qilg'il". Qarinchqa aydi: "Mavlodin ne tilading?" Sulaymon aydi: "Andog' mulk tiladimkim, mandin o'zga kim ersada bo'lmasun". "Bu so'zdin hasad isi kelur, menga bo'lgun, o'zgalarga bo'lmagan. Taqi ne tilading?" Sulaymon aydi: "Yelni tiladimkim manga musaxxar qildi, minib yururman. Asthardin Shomg'a, Shomdin Astharg'a bir oylik yer turur. Kunda borurman ham kelurman". Qarinchqa aydi:

dastur – ruxsat

musaxxar qilmoq
– bo'ysundirmoq

"Ma'nisi ul bo'lur: Sening ilkingdagi mulkning qamug'i yel turur. Ani minguncha ma'rifat markabini mingsang senga yaxshiroq bo'lur. Ko'z yumub ochg'uncha bir soatda Arshg'a tekkay erding. Yana ne tilading?" Aydi: "Yag'an so'ngukindin taxt berdi". Qarinchqa aydi: "Mavlo taolo yorliqar: Val arza farashnaha fa ni'mal mahidun. (Ma'nosi:

ilk – qo'l

Va Biz yerni to'shadik, qanday yaxshi to'shovchilarmiz Biz. Qur'oni Karim, 51-sura, 48-oyat). Bu keng yer kifoyat bo'lmadimu?" Yana so'rdi:

“Taqi ne berdi?” Aydi: “Uchar qushlarg‘a hukm qildi. Boshim uza ko‘laka qilurlar”. Qarinchqa aydi:

ko‘laka – soya

“Adiz ko‘k ko‘lakasi sanga bas ermasmu erdi! Taqi ne berdi?” Aydi: “Bir yuzuk berdi. Qamug maxluqot aning birla musaxxar tururlar”.

Qarinchqa aydi: “Mavlo taolo senga ko‘rgizmishkim, yerdin ko‘kqa tegi, mag‘ribdin mashriqg‘a tegi senga berdim. Aning bahosi bir kesak tosh turur, xaloyiq bilsunlarkim aning qiymati yo‘q. Mulk – ujmoh mulki turur. Kim ersa aning qiymatini qilmas”.

Qarinchqa aydi: “Taqi ne berdi?” Aydi: Dev, parini manga musaxxar qildi”. Qarinchqa aydi: “Bu sahl mulk turur. Sabr qilsang erdi farishtalarni sanga musaxxar qilur erdi. Netak oxir uz-zamonda Muhammad otlig‘ payg‘ambar bo‘lg‘ay. Mavlo taolodin hech narsa qo‘l mag‘ay. Qamug‘ farishtalar anga musaxxar kelgaylar”. Sulaymon aydi: «Bu bilikni kimdin o‘granding»? Aydi: “Izim o‘gratti”.

Chumolilarni hech kuzatganmisiz? Ulardan insonlar o‘rnak olishi mumkin bo‘lgan qanday fazilatlarni payqagansiz?



1. Chumolilar boshlig‘ining Sulaymon payg‘ambarga **haq gapni** tortinmay aytishi sizda qanday taassurot uyg‘otdi?

2. Chumolilar boshlig‘i va Sulaymon payg‘ambar o‘rtasidagi savol-javobdan qanday **haqiqat** ufurib turibdi?

3. Sulaymon payg‘ambardagi **kibr-u havo** qaysi epizodlarda aniq ko‘zga tashlanadi?

4. Chumolilar boshlig‘i va Sulaymon payg‘ambar o‘rtasidagi **farqlar** nimada?

5. Muallif bu hikoyatni keltirish orqali **nima demoqchi?**

6. Suhbat sujeti asosida o‘zingiz ham masal yoki hikoya tuzing. Unda asosan bugunning **dolzarb ijtimoiy-axloqiy muammolari** o‘z aksini topsin.

LUQMONI HAKIM HIKOYATI

Rivoyat va hikoyatlarda donoligi, hozirjavobligi bilan tanilgan qanday obrazlarni eslay olasiz? Nega ayrim hollarda niyat natijadan muhimroq deyishadi?

Bir kun Luqmon ekin ekmakka borur erdi, xojasi aydi: “Bug‘doy ekkil”. Luqmon bordi, arpa ekti. Xojasi aydi: “Bug‘doy nechuk ekmading?”

Luqmon aydi: “Arpa eksam, ul bug‘doy bo‘lmazmu?” Xojasi aydi: “Hargiz arpa ekib, bug‘doy bo‘lmadi”.

Luqmoni hakim aydi: “Bas, gunoh qilursen, ul xayr yerin tutormu?”

* * *

Yana bir hikoyatda aytmishlar, Luqmon qarz berur erdi, tanuqsiz, bitiksiz. Biragu kelib ming oltun oldi, bermas niyati uza. Borurda yarog‘ing‘a o‘lturdi. Oltunni qizil o‘proq birla chulg‘ab qo‘ydi. Qush havodin ko‘rub, et xayol qilib uchti. Luqmon evi to‘shung‘a keldi ersa oltunni tumshuqidin tushurdi. Luqmon oltunni tanib evinda qo‘ydi. Ul kishi kelib yana ming oltun oldi. Hamul niyat uza. Suvdin kecharda oltunni suvg‘a tushurdi. Ul suv Luqmon evinga borur erdi. Luqmon suvda ko‘rub, oltunni tanub oldi. Ul kishi uchunchi kelib yana ming oltun oldi, hamul niyat birla, Ani ham yitardi. Sabab birla Luqmon qo‘lig‘a kirdi. To‘rtunchi kelib ming oltun oldi. Bu niyat birlakim, sotig‘ qilayin. Mavlo taolo foyda bersa, to‘rt ming qilib, oltunni Luqmong‘a berayin teb. Telim foydalar ko‘rdi. To‘rt ming oltunni kelturub Luqmon o‘rninda qo‘ydi. Luqmon ming oltunni oldi, o‘zgalarin olmadi, haqiqat manga tegdi teb.

biragu – bittasi,
bir kishi
et – go‘sht
ev – uy

* * *

Luqmoni hakimning xojasi bir kun aydi: “Yaxshi et kelturgil, yiyayin”. Luqmon bir qo‘y o‘lturdi, tilini, yurakini pishirib kelturdi. Yana bir kun xojasi aydi: “Manga qo‘yning yamon etlaridin pishurub kelturgil”, tedi. Luqmon yana qo‘yning tilin, yurakin pishurib keltirdi. Xojasi aydi: “Yaxshi et keltur desam, til, yurakni pishurub kelturursen, yamon et desam ham muni kelturursen?” Luqmon aydi: “Qo‘y etining yaxshisi ham til taqi yurak turur, yamoni ham til taqi yurak turur”, tedi.



1. Luqmonning bug‘doy o‘rniga arpa ekishdan **maqsadi** nima edi?

2. Nega Luqmondan qarz olgan kishining puli uch marta Luqmonga qaytib kelib, to‘rtinchi marta qaytib kelmadi?

To‘rtinchi martada nima **o‘zgargan** edi?

3. Til va yurak haqidagi hikoyat bilan muallif **nima demoqchi?**

4. Har bir hikoyatga (voqeaga) uning mazmunini ochib bera oladigan **maqol** tanlang.

TAKRORLAYMIZ ...



Siz XI-XIII asrlar turkiy adabiyotining ayrim namunalari bilan tanishdingiz. Endi bu davr adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz.

1. O‘qilgan uch asar bo‘yicha **ma‘lumotlarni** quyidagi jadvalda umumlashtiring.

	“Devonu lug‘otut-turk”	“Qutadg‘u bilig”	“Qisasi Rabg‘uziy”
Janri			
Mazmuni			
Tili va badiiy xususiyatlari			
O‘z davri uchun ahamiyati			
Hozirgi davr uchun ahamiyati			

2. Oldingi sinflarda o‘rganganlaringiz va mustaqil o‘qigan asarlaringiz asosida XI – XIII asrlar adabiyotining keyingi davrlar o‘zbek adabiyotidan **farqlarini** umumlashtiring.

XI–XIII asrlar adabiyoti	XI–XIX asr adabiyoti	XX asr adabiyoti va zamonaviy adabiyot

3. O‘qilgan uch asardan **hozirgi davrgacha yetib kelgan** qadriyatlarni (fikrlar, maqollar, hikoyat va rivoyatlar) topishga harakat qiling.

O‘ylab ko‘ring: XVIII–XIX asrlarda jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar mumtoz adabiyotning rivojlanish tendensiyalarida (qonuniyatlarida) qay darajada aks etdi?

MUMTOZ O‘ZBEK ADABIYOTI

ALISHER NAVOIY (144–1501)

“Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she‘r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon ermas”

Zahiriddin Muhammad Bobur

“Mir Alisher turk tilining o‘lik jasadig‘a Masih nafasi ila jon ato etdi”

Husayn Boyqaro

BILIMLARIMIZNI UMUMLASHTIRAMIZ

1. Alisher Navoiy haqida yuqorida berilgan fikrlarni o‘qib chiqing. Masih kim? Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni nega **Masihga** o‘xshatgan?
2. Navoiy **siymosi** aks etgan qanday asarlarni o‘qigansiz, tomosha qilgansiz? Bu asarlarda Navoiy qanday inson sifatida gavdalangan?
3. Alisher Navoiy faoliyati tufayli XV asrning ikkinchi yarmida Hirotning **siyosiy, ijtimoiy va madaniy** hayotida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
4. Bilasiz, Alisher Navoiy o‘zidan ulkan **meros** qoldigan. Navoiy asarlari haqidagi bilimlaringizni quyidagi jadvalda umumlashtiring.

Asar nomi	Janri, yo‘nalishi	Ahamiyati

O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ ...

“Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) – “Xamsa”ning beshinchi, yakunlovchi va hajm jihatdan eng yirik dostoni. Mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf (fauvlun fauylun fauylun faul V – – V – – V – – V –) vaznida yozilgan. Dostonda ma’rifatli shoh Iskandar

Zulqarnaynning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.



Eslang:

Iskandar Zulqarnayn haqida qanday asarlarni bilasiz? Bu asarlarda Iskandar qanday gavdalanadi?

Quyida ensiklopediyadan olingan ma'lumot bilan tanishib chiqing.

Zulqarnayn (arab. – ikki shoxli) – musulmonlar orasida tarqalgan qadimiy rivoyatlarga ko'ra, dunyoning bir qancha yerlarini zabt etgan, Sharqda yovuz Ya'juj va Ma'juj qabilalari yo'lini to'sish maqsadida ulkan devor qurgan podshoh. Ayni vaqtda ham Sharq, ham G'arb hukmdori ekanligi yoki tojining ikki cheti shoxsimon bo'lganligidan shunday deb atalgan, deb taxmin qilinadi. Qur'oni Karimning 18-surasida Zulqarnaynning yer yuzida haqni qaror toptirish uchun qilgan sa'y-harakatlari bayon etilgan Tadqiqodchilar orasida Zulqarnayn kim ekanligi bo'yicha turlicha farazlar mavjud. Masalan, ayrimlar uni makedoniyalik Aleksandr (er. av. 356–323) yoki Eron shohi Kir II (er. av. 593–530) deb hisoblashsa, ayrimlar Hazrat Ibrohim alayhissalom davrida yashab o'tgan butunlay boshqa bir shaxs deb talqin etishadi.

Asarni o'qish davomida o'ylab ko'ring:

Alisher Navoiy nega bu sujetga murojaat qilib, o'z talqinini yaratgan bo'lishi mumkin? Asarni o'qib bo'lgach, sinfda shu savolni muhokama qiling.

Doston muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat.

14 bobdan iborat muqaddimada Allohga hamd, munojot, Muhammad sallolohu alayhu vassalam vasfi (na't), "Xamsa"ning yozilish tarixi, ustozlar madhi, Sulton Husayn Boyqaro va uning o'g'li shahzoda Badiuzzamon ta'rifi hamda qadimgi Eron shohlari tarixi keltirilgan.

Dostonning asosiy qismi – Iskandar voqealari bayoni 15-bobdan boshlanadi. Asosiy qism o'ziga xos tuzilishga ega. Iskandar hayoti bilan bog'liq har bir voqea bayonidan so'ng muayyan axloqiy muammoning ta'rifi bayon qilinib, shu axloqiy masalaga doir hikoyat keltiriladi va hikmat – Arastu va Iskandarning suhbatini bilan yakunlanadi.

Rum mamlakatining shohi Faylaqus tangridan farzand so'raydi. Bir kuni ovdan qaytar ekan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi tug'ilgan chaqaloq va o'lik onani uchratadi. Shoh o'likni dafn ettirib, chaqaloqni o'ziga farzand qilib oladi va unga Iskandar deb nom beradi. Shoh Iskandarning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor beradi va Arastuning otasi Naqumojisni unga ustod qilib tayinlaydi. Iskandar toj-taxt va boylikka emas, balki ilm-fan va olijanob fazilatlariga muhabbat ruhida ulg'ayadi.

Faylaqus vafot etgach, valiahd sifatida taxtni Iskandar egallashi kerak edi, lekin u taxtga chiqishga oshiqmaydi. Xalq uning shoh bo'lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiygizadi. Iskandar

xalq oldiga shart qo'yib, kimning arz-dodi bo'lsa, shohni o'zi bilan teng ko'rib, ahvolini aytishini so'raydi. Iskandar taxtga o'tirgach, adolat bilan mamlakatni boshqara boshlaydi. Xalqni ikki yillik xirojdan ozod etadi.

Iskandar adolat mezoni asosida ko'plab mamlakatlarni egallaydi, ko'p mamlakatlar shohlari unga xiroj to'lashga rozi bo'lishadi. Eron shohi Doro esa bunga rozi bo'lmaydi va xiroj mojarosi bu ikki shoh o'rtasida ixtilofning paydo bo'lishiga olib keladi. Urush boshlanadi. Ammo tez orada Doroning noiblari xiyonat qiladilar va Doro yarador holda Iskandar qo'lga asir tushadi. O'limi oldidan xiyonatkorlarni jazolash, uning qarindosh-urug'lariga ozor bermaslik va qizi Ravshanakka uylanishni Iskandarga vasiyat qiladi. Iskandar Doroning barcha vasiyatlarini ortig'i bilan ado etadi, Doroni izzat-ikrom bilan dafn qiladi.

Iskandar Eronni egallagach, jahonni fath etishga kirishadi. Ko'plab o'lka podsholariga xat yozib, mamlakatda adolat va osoyishtalik o'rnatmoqchi ekanligini va shunga mos holda o'z ixtiyorlari bilan unga taslim bo'lishlarini so'raydi. Aksariyat podshohlar unga bo'yin egib keladilar. Faqat Kashmir, Hind va Chin xoqonlarigina unga bo'ysunishni istamaydilar. Iskandar Kashmirga yurish qilishga majbur bo'ladi va mamlakat shohi Malluni bo'ysundiradi. Uning vasiyatiga binoan qizi Mehrnozga uylanadi, o'g'li Feruzni Kashmirga podsho qiladi. Hirot va Samarqand shaharlarini barpo qiladi. Tez orada Hind va Chin xoqonlari ham Iskandarning sha'nu shavkatiga tan berib, unga jangsiz taslim bo'ladilar.

Iskandar yer yuzini egallagach, dengiz sirlarini ham bilish uchun uzoq safarga chiqadi. Shishadan sandiq yasab, ummon tubiga tushadi va ko'plab ajoyibotlarni ko'radi. Ammo safardan qaytishda xastalanadi va tutingan onasi Bonuga o'g'illikni o'rniga qo'ya olmaganidan uzr so'rab, maktub yozadi. Mazkur maktub butun dunyoni zabt etsa-da, oxir-oqibat u dunyoga hech bir narsasiz, ochiq qo'l bilan ketayotgan, bu olamga shoh bo'lgandan ko'ra onadek buyuk zotga qullik qilish sharafi yuksakroq ekanligini anglagan ulug' jahongirning iqronomasi edi. Yetti faylasuf hakim – Aflotun, Suqrot, Balinos, Buqrot, Hurmus, Farfinyus va Arastu Iskandarning onasiga ta'ziya bildirgani keladilar va shu bilan Iskandar voqeasi poyoniga etadi.

Doston xotimasi 6 bobdan iborat bo'lib, unda Alisher Navoiy nafaqat dostonga, balki "Xamsa"ga ham yakun yasaydi, ukasi Darveshaliga nasihatlar qiladi. Dostonning so'nggi bobida "Hayrat-ul abror" dostoni yozilishidan boshlab "Saddi Iskandariy" yakunlanguncha bo'lgan jarayonlarni birma-bir eslab o'tadi. Ustozi Abdurahmon Jomiyning Navoiy

“Xamsa”siga munosabati, taxayyul (xayolot) olamida o‘zidan oldingi buyuk shoirlar va xamsanavislar bilan uchrashgani bayon qilinadi.

(Dilnavoz Yusupovaning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri)” o‘quv qo‘llanmasidan, Toshkent, 2012)

“SADDI ISKANDARIY”

XXV

Iki jahondor muxolafatidin jahon ahli xirmanig‘a balo barqi etgani va iki yor muvofaqatidin ul tutashqon o‘tqa rahmat yomg‘uri yog‘ib, shu‘lasin past etgani

Mazmuni: Ikki jahondor kelishmovchiligidan jahon ahli xirmoniga balo chaqini tushgani va ikki do‘st iitifoqligidan u yongan o‘tga rahmat yomg‘uri yog‘ib, urush alangasini so‘ndirgani

	<i>nasriy bayoni (Inoyat Maxsumov nusxasi asosida Mavjuda Hamidova to‘ldirib nashrga tayyorlagan)</i>
Eshittimki, Chingizu Xorazmshoh, Adovatqa chun bo‘ldilar kinaxoh. Buzuldi jahon ulcha maqdur erur, Netay sharhin aytib, chu mashhur erur. maqdur – imkon, kuch, qudrat	Eshitishimcha, Chingiz va Xorazmshoh bir-biri bilan dushmanlik urushini boshlagan ekanlar. Qudratlari yetgancha jahonni buzdilar. Bu hammaga ma‘lum va mashhur bo‘lgani uchun sharhini yozib o‘tirmayman.
Eslang: Chingizxon kim edi? Tarixda Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasidagi ixtiloflar qanday dahshatli oqibatlariga sabab bo‘lgan?	
Hamonoki Chingiz topib zafar, Aning mulkini qildi zeru zabar. Ne kishvar arokim maqom ayladi, Chekib tig‘i kin, qatli om ayladi.	Bu jangda Chingiz zafar qozonib, Xorazm o‘lkasini ostin-ustun qilib tashladi. Qaysi shaharni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, u yerdagi odamlarning hammasini tig‘dan o‘tkazdi.

kishvar – mamlakat qatli om –
ommaviy qatl

Tushub mavjg‘a bahri jabborliq,
Ayon aylabon mavji qahhorliq.

Jabbor – jabr qiluvchi,
g‘azab qiluvchi;
Allohning sifatlaridan biri

Qahhor – qahr qiluvchi,
g‘azab qiluvchi;
Allohning sifatlaridan biri

Ato o‘g‘lig‘a yig‘labon: “hoy-hoy!”
Qizig‘a ano tortibon: “voy-voy!”
Hayot uyiga marg solib xalal, Amon
raxnasin mahkam aylab ajal.

marg – o‘lim

U zulm dengizini mavjlantirib,
qahru g‘azabini avjga chiqazdi.

O‘lim kishilarning hayot uyiga
kirishlariga to‘sqinlik qilar, ajal esa
omonlik yo‘lini bekitib tashlagan
edi.

Chingizxonning tushi lavhasi berilgan quyidagi misralarga alohida e‘tibor
qarating.

Magar Shom mulkida erdi bu hol Ki,
iki rafiqi mavaddat xisol.

mavaddat – 1) muhabbat; 2) do‘stlik
xisol – “xislat” so‘zining ko‘pligi

Qazodin birov dastgiri bo‘lub, Birov
yo‘qki, kofir asiri bo‘lub.

Ko‘zidin oqar qonlaridin ikov,
Yudilar ilik jonlaridin ikov.

Tilab har biri aylamak ibtido
Ki, jonin yana birga qilg‘ay fido.

Bu holatda qotil chekib tig‘i qatl
Birisiga qildi ayon big‘i qatl.

Shom mamlakatida bo‘lsa kerak,
shunday bir voqea yuz berdiki,
do‘stlik fazilatiga ega bo‘lmish ikki
o‘rtoq tasodifan birovga bandi
bo‘lib, birov emas, kofir qo‘liga
asir tushib qoldilar. Ikkovining
ko‘zlaridan yosh o‘rniga qon oqar,
ikkovlari ham jonlaridan umidlarini
uzgan edilar. Zero, zolim bularning
har ikkisini qatl etmoqchi edi.
Lekin biri ikkinchisidan avvalroq
qurbon bo‘lishni istar edi. Maqsad
– jonni o‘z do‘stiga fido qilmoq
edi.

Bir mahal qotil tig‘ini qinidan
sug‘urib, birinchisiga urmoqchi
bo‘lgan edi, ikkinchisi boshini
yalang qilib, o‘limdan qo‘rqmay:

Yana bir boshin ochib, etmay haros,
Ayon ayladi yolborib iltimos.

haros – qo‘rquv

Ki: “Avval mening boshima tig‘ sur,
Chu men o‘ldum, ul dam aning
bo‘ynin ur!”

Munga chunki mayl etti o‘lturgali,
Boshig‘a jafo tig‘i tekurgali.

Ochib boshin ul bir ham aylab havas,
Nekim erdi avvalg‘ig‘a multamas.

multamas – iltimos

“Avval mening boshimga tig‘ sol,
meni o‘ldirgach, uning bo‘ynini
choparsan!” – deb yalbordi.

Ikkinchisini o‘ldirmoqchi bo‘lib,
uning boshiga jafo tig‘ini ko‘targan
edi, avvalgisi o‘limni havas
qilgandek boshini ochib: “Avval
meni o‘ldir!” deb yaliia boshladi.
Bularning har biri o‘z do‘sti uchun
qayg‘uda ekanida Chingiz uyquda
bo‘lib, yuqoridagi voqea uning
tushiga kirdi.

*Bular har bir – ul bir uchun
qayg‘uda, Bu holatda Chingiz emish
uyquda.*

*Tushiga kirar bu ikki yor ishi, Muni
ko‘rgach aytur anga bir kishi*

*Ki: “Kechgil xaloyiqqa ozordin,
Vafo o‘rgan ushbu iki yordin.*

*Sanga kinavar bo‘lsa Xorazmshoh,
Ul ishtin jahon ahlig‘a ne gunoh?”*

*Iki shah kini jahonni buzub,
Iki zor mundoq vafo ko‘rguzub.*

*Chu uyg‘ondi uyqusidin qahramon,
O‘lumdin xaloyiqqa berdi amon.*

*Shunda, voqea guvohi bo‘lgan bir
kishi Chingizga:*

*– Ushbu ikki do‘stdan vafo
o‘rganib, xaloyiqqa ozor
berishdan voz kech! Xorazmshoh
senga dushman bo‘lsa, bu- ning
uchun jahon xalqining nima
gunohi bor? – dedi.*

*Ikki shohning xusumati jahonni
buzib turganda, darhaqiqat, bu
ikki do‘st bir- biriga shu xilda
vafo ko‘rsatdi.*

*Shu asnoda uyqusidan uygongan
Chingiz xaloyiqqa o‘limdan
omonlik berdi.*

Muallifning tasvirda bunday yo‘l tutishi (ikki do‘st haqidagi lavhani kiritishi) boisini qanday izohlaysiz?

Iki yoru qotilda ul mojaro
Ki, om o‘ldi baxshish so‘zi xalq aro,

Ikki do‘st bilan qotil o‘rtasida
bo‘lgan bu mojaro xalq ichida
yaxshilik timsoli bo‘lib qoldi.

Qilib erdi kofirg‘a dog‘i asar,
Etishti qulog‘iga chun bu xabar.

Bu xabar kofirning qulog‘iga
yetib, ko‘ngli yumshadi-da, ozor
berishdan qo‘l silkib, ikki
do‘stning oyoq-qo‘lini yechib,
ularni ozod qildi.

Qilib raf‘ ko‘nglidin ozorni,
Eshib qildi ozod iki yorni.

raf‘ – 1) yuksaltirish; yuksalish.

2) (ko‘chma ma’noda) yo‘q qilish,
yo‘qotish, oradan
ko‘tarish, ko‘tarish

Iki shoh chun bo‘ldilar kinaxoh,
Jahon ahli bo‘ldi sarosar taboh.

Ikki shohning bir-birlariga qilgan
adovatidan jahon ahli boshdan-
oyoq xarob bo‘lib turganda, ikki
darveshning himmati va ahilligi
hamda o‘z hazin jonlarini birlarini
bnr-birlariga nisor qilishga
tayyorligi tufayli, jahon ahlining
boshidan dushmanlik tig‘i
ko‘tarildi.

sarosar – 1) boshdan oyoq,
butunlay, to‘liq, hammasi.

2) ustma-ust, birin-ketin, ketma-ket

Vale iki darveshning himmati,
Muvofiqlig‘i yumni xosiyati.

Ki, qildilar nisor joni hazin,
Ko‘tardi jahon ahlidin tig‘i kin.

nisor – sochish, bag‘ishlash

Kishi aylasa rifq yumnin havas,
Anga to abad ushbu tamsil bas.

Agar, kishi do‘stlikni havas qilsa.
unga ushu masal mangu o‘rnak
bo‘lib qolajak.

rifq – lutf, mehribonlik tamsil –
misol keltirish, o‘xshatish

Sizningcha, Navoiy bu xulosa orqali nima demoqchi?

MUTOLAADAN SO‘NG ...



Bobni tahlil qilamiz:

1. O‘tmishda feodal hukmdorlar o‘rtasidagi nizolar qanday **oqibatlariga** olib kelgan?

2. Nima uchun hikoyada Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasidagi kelishmovchiliklarga **o‘rin** berilgan, deb o‘ylaysiz? Bu ixtilofning Iskandar va Doro munosabatlariga qanday **aloqasi** bor?

3. Doro va Iskandar o‘rtasidagi ixtiloflarga Arastu qanday **javob** beradi? Dostonning to‘liq matnidan Arastuning javoblarini topib o‘qing. Sizningcha, Arastuning fikrlarini hozirgi zamon uchun ham qabul qilish mumkinmi?

4. Ikki do‘stning **sadoqatiga** qanday baho berasiz? Do‘stlik siz uchun qanday tuyg‘u?

LXVIII

Iskandarning Mag‘rib diyori fathidin so‘ngra Rung‘a azm etganida Ya‘juj zulmidin Qirvon navohisi xalqining tazallum qilg‘oni va aning ul balo raxnasini berkitgali sad tarhi solg‘oni va muhandisvash me‘morlar va handasaoyin sangkorlar shihobkirdor raja bila sad o‘rnig‘a rang to‘kmak va Atoridxayol ustodlar va Zuhalosor haddodlar ganch o‘rnig‘a ro‘yi mahlul va ohak eriga po‘lodi masqul quyub sad uchin falak toqig‘a etgurganlari

Mazmuni: *Iskandariing mag‘rib diyori fathidan so‘ng Rumga azm etganida, Qirvon o‘lkasining xalqlari Ya‘juj zulmidan shikoyat qilgani va uning balo rahnasini bekitish uchun sad chekish rejasini tuzgani. Muhandisvash me‘morlar, handasa asosida tosh bosib, temir erituvchi olovkorlar sad chekiladigan yerga reja bilan rang to‘kib, Atorud xayol ustozlar va Zuhali monand temirchilar ganch o‘rnida eritilgan rux va ohak o‘rniga yaltiroq po‘lat quyib, sadning boshini falak toqiga yetkizganlari*

sad – g‘ov, devor

handasa – geometriya

Atorud – Merkuriy sayyorasi

Zuhali – Saturn sayyorasi

Qirvon – qadimiy Eron viloyatlaridan biri.

Iskandarning Mag‘rib sarhadida odamxo‘r vahshiylar posboni bo‘lgan chumolisimonlar bilan jangidan keyingi sarguzashtlari tasviriga diqqat qiling.

Dabiri raqamsanji farxundaroy,
Bu nav’ o‘ldi kofur uza mushksoy

Ki, chun oldi shohi sipehrihtishom,
Bori mulki mag‘ribni andoqki kom.

Hamul bul’ajab xaylu nodir guruh
Ki, fikridin erdi xaloyiq sutuh.

Alar sarfarozikim erdi asir
Ki, shah lutfi bo‘ldi anga dastgir.

Mute’ o‘ldiyu qulluq etti qabul,
Yo‘q ulkim, bori xayli ham bo‘ldi qul.

Shah ul mo‘rlarni qilurg‘a halok
Dedi: “Otlanib xalq bevahmu bok,

Tuzub charga, solsunlar ul nav’ sho‘r
Ki, ul dasht aro qolmasun jinsi mo‘r”.

Tabarruk fikrli donishmand oq qog‘ozga qora siyoh bilan shunday yozadi: Shunday qilib, falak hashamatli shoh butun mag‘rib yerlarni o‘z muddaosidek fath qilib oldi. U hammani hayron qoldirgan, hech yerda ko‘rilmagan g‘aroyib insonlar xayli – guruhini ko‘rdi. Ularning boshlig‘ini asir qilib oldi. Shohning lutfi-marhamati bilan ozod etilgan yovvoyilar boshlig‘i tobe bo‘lib, shohga o‘zini xizmatkor deb e‘lon qildi. Ugina emas, uning butup qavmi ham shohning qullariga aylandi. Shundan so‘ng, shoh chumolilarni qirib tashlash haqida buyruq berdi: “Butun xalq shijoat bilan otlanib, saf tortib, shunday bosqin yasasin va ur-yiqit ko‘tarsinki, u dashtda bironta ham chumoli qolmasin!” dedi.

Sizningcha, Iskandar nima uchun keyinroq chumolisimon hayvonlarni yo‘q qilish haqidagi farmonini bekor qiladi?

Hamul xayli vahshiy qilib iltimos,
Dedilarki: “Ey shohi gardunasos!

Alar bo‘lmay, emin emas jonimiz
Kim, ul mo‘rlardur nigahbonimiz

Ki, og‘irdurur bizga uyqu base,
Quloq solki, a’jubadur bu base

Ki, o‘n kecha-kunduz taku po‘dabiz,
Yana o‘n kecha-kunduz uyqudabiz.

Chu uyqug‘a bordur alardur hisor,
Yovutmaslar elni yaminu yasor”.

Buni eshitib, haligi vahshiylar
guruhi iltimos qilib aytdilarki:

“Ey, falakmaqomli shoh! Ular
bo‘lmasa bizning jonimiz
xatarda qoladi, chunki
chumolilar bizning
qo‘riqchimizdirlar. Axir
bizlarning uyqumiz odatdan
tashqari og‘ir bo‘ladi, bu juda
ham ajoyib, quloq solsangiz,
aytib beramiz. Biz o‘n kecha-
kunduz yugur-yugur qilamizu,
o‘n kecha-kunduz uyquda
bo‘lamiz. Biz uxlagan
paytimizda chumolilar qo‘rg‘on
bo‘lib, atrofimizni o‘rab
yotadilar; o‘ngdan ham, so‘ldan
ham hech kimni yaqin
keltirmaydilar”.

Devsifatlarning vazifasi va shohga iltimosini qanday baholaysiz?

Chah ul nuqtadin barmog‘in tishladi,
Alar qatlin ul elga bag‘ishladi.

Yana istadi ko‘rmak aylab yurush,
Iki tog‘kim erdi oltun-kumush.

Dedilar hamul qavm aylab duo
Ki: “Bo‘lsa unut yaxshi, bu muddao

Kim, ul tegraga bormoq oson emas,
Ne oson emas, balki imkon emas

Ki, o‘n kunchilik yo‘ldur ul iki tog‘,
Bu erdinki, holo, qilursen surog‘.

Vujudi aning bizga bordur yaqin,
Vale ko‘rmamishbiz, desak so‘zni
chin.

Shoh bu gapni eshitib,
barmog‘ini tishladi, u mana shu
el tufayli chumolilarni qatli om
qilish niyatidan qaytdi. Yana
ikkita oltin-kumush tog‘ni
ko‘rish maqsadida yurish
qilmoqchi bo‘ldi. Bu gal ham
haligi qavmlar duo qilib:
“Bu muddaoning unut bo‘lgani
yaxshi! – dedilar, – u atrofga
borish oson emas, oson u yoqda
tursin, borishning hech
imkoniyati ham yo‘q. U ikki
toqqacha bu yerdan o‘n kunlik
yo‘l bo‘lib, u joyni topmoq
uchun yana surishtirish kerak
bo‘ladi. Uning qandayligi bizga
ma‘lum, lekin to‘g‘risini

Ne biz ko‘rmagi birla toptuq murod,
Ne bizdin ulug‘lar dog‘i berdi yod.

Nedinkim, yo‘lida xatar ko‘pturur,
Yuz urg‘on kishiga zarar ko‘pturur.

Topilmas eti kunchilik yo‘lda suv,
Giyohiki butmishdur – erur og‘u.

Isiq xayli ul nav’ aylar hujum
Ki, esgach nasim anda aylar samum.

Qilur qaysi elkim esar mu’tadil,
Agar bor esa ajdahoz muzmahil.

Yana qolg‘on uch kunchilik yo‘lki
bor,
Yilondur hamul dasht aro ulki bor.

Erur kafchau, af‘iyu ja’fari,
Bo‘lub har bir ul ganjning ajdari.

Alarg‘a tuman mingdin ortuq adad,
Tuman ming demay, balki behaddu
ad.

Agar pashsha bo‘lsa alarg‘a zalil,
Bo‘lub etsa bir nish, andoqki pil.

Yilon bordur anda – eshitgil bu so‘z
Ki, odam o‘lar, chun anga solsa ko‘z.

Erur bu baliyatdin o‘tmak mahol,
Nekim ayladuk sharh, bu erdi hol”.

Shah ul so‘zni chun istimo’ ayladi,
Hamul yon borurg‘a vido’ ayladi.

aytganda, biz ham uni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rmaganmiz. Na biz ularni ko‘rib maqsadga erishdik va na bizdan avvalgi kattalarimiz bu haqda bizga ma‘lumot berdilar. Chunki u yo‘lda juda ham xatar ko‘p bo‘lib, unga kirgan odam ziyon-zahmatsiz chiqmaydi. Yetti kunlik yo‘lgacha suv topilmaydi; vodiya bitgan o‘simliklar esa butunlay zaharlidir.

Bu yerda garmisel shamollar shunday hujum bilan esadiki, bu shamol tekkan zahoti kishi halok bo‘ladi. U yerning hatto mo‘tadil hisoblangan shamoli esganda ham ajdahoz bo‘lsa mahv etadi. U dashtning qolgan uch kunlik yo‘li esa hammasi ilonzordan iboratdir. Ular kafcha, af‘i, ja’fariy kabi zaharli ilonlar bo‘lib, har biri u yerdagi xazinalarni poylaydigan ajdahozlardir. Ularning soni ming, o‘n mingdan oshadi, o‘n ming qayoqda, balki u ilonlarning son-sanog‘i yo‘q. Agar ular pashshaga andak zahar soladigan bo‘lsalar, shishirib fildek qilib yuboradilar. Eshitib qo‘ying, u yerda yana shunday ilonlar ham borki, unga ko‘zi tushsa, odam o‘ladi. Mana shu balolardan omon o‘tib ketmoq ko‘p maholdir. U yerda qanday ahvol bo‘lsa, biz shunigina sharhladik, xolos”.

Shoh bu so‘zlarni eshitarkan, u

Dedi: “Ul taraf azm etardin murod,
Tamoshodin etmak edi o‘zni shod.

Emas erdi maqsud oltun-kumush
Ki, bo‘lg‘ay kishi muncha mehnatqa
to‘sh.

Tamoshog‘a yo‘l chunki
bog‘liqdurur, Aning azmi tarki
yarog‘liqdurur.

Tamoshodin ar bo‘ldi qat‘iy nazar,
Ne himmat bo‘lurkum, tilab siymu
zar.

Bu naqd istay o‘lmoq ravon ul taraf,
Vale naqdi jonini qilmoq talaf”.

Chu ul azmdin forig‘ o‘ldi bilkul,
Ul el iltifotig‘a qo‘ydi ko‘ngul.

Karam aylab etti rioyat base,
Bori topti shahdin inoyat base.

Alarni makonig‘a ozim qilib,
Necha kimsa lekin mulozim qilib.

O‘z ollinda asrab g‘arobat uchun,
Eshikda shukuhu mahobat uchun.

Chu mag‘ribni osudahol ayladi,
Yana azmi savbi shimol ayladi.

Tengiz aylabon qat‘u tog‘ artilib,
Yurur erdi yo‘l Rum azmi qilib.

Hamul turki chin, yo‘qki chiniy
g‘izol Ki sherafkan erdi qilurda jidol.

tarafga borishga xayr-ma‘zur
qilib aytdi:

“U tomonga borishdan
maqsadimiz tamosho qilib,
o‘zimizni shodlantirish edi.
Oltin-kumush uchun bormoqchi
emas edikki, tag‘in shunchalik
zahmatlarga o‘zimizni duchor
qilsak. Modomiki tamoshoning
yo‘li berk ekan, u tarafga
borishni tark etmoq
ma‘qulroqdir. Agar tamoshodan
kechiladigan bo‘lsa, oltin-
kumush uchun u tomonga borish,
mol-dunyo istab har tarafga
o‘zni urish jonni halokatga
uchratish bo‘ladiki, bu tabirli
odamning ishi emas!”

U tarafga borish xayolidan
batamom voz kechgan shoh u
elning iltifotiga minnatdorchilik
bildirdi. Hammasiga izzat-
hurmat ko‘rsatdi va lutf-karamlar
qildi: ularning barchasi shohdan
ko‘p inoyatlar ko‘rdi. Shoh u
qavmni o‘z makonlariga
jo‘natdi. Eshikda haybat bilan
savlat to‘kib turishi va ularning
qo‘rqinchli ko‘rinishidan
odamlar ajablanishi uchun
vahshiylardan bir qanchasini
Iskandar o‘zi bilan birga olib
qoldi.
Mag‘rib yerlarini tinchitgach,
Iskandar yana shimol tomonga
qarab yo‘l oldi. U dengiz kechib,
tog‘ oshib, Rumba tomon yo‘l

<p>Hamul turki chin – Chin xoqoni Iskandarga tortiq qilgan go‘zal ayolga ishora.</p>	<p>bosar edi. Haligi, jang-jadalda sherlarni zabun qiladigan go‘zal Chin qizi, balki Chin ohusi shohning ko‘ngliga o‘z shavqi-muhabbatini, bo‘yniga esa zulfining zanjirini solib qo‘ygan edi.</p>
--	--

Chin go‘zali kim? Dostonning to‘liq matni yoki nasriy bayonidan uning jasorati aks etgan lavhalarni topib o‘qing.

<p>Bo‘lub shoh matlubu marg‘ubi ham, Ne matlubu marg‘ub, mahbubi ham.</p>	<p>Shohning matlubu marg‘ubi ham, sevgan mahbubi ham shu bo‘lib qolgan edi. O‘sha bilan tunu kun may ichar, o‘z mamlakatiga tomon shodu xurramlik bilan borar edi. Rus va Farang yerlarini bosib o‘tarkan, hech qayerda to‘xtamadi. G‘arb bilan Shimol yerlarining oralig‘idan o‘tish chog‘ida u yerning odamlari parishon holda kelib, shoh haqiga duo qilarkan, nolayu zor bilan shohdan adolat va marhamat so‘radilar. Shoh ularga tarahhum aylab, hol-ahvol so‘radi.</p>
<p>Aning birla tun-kun bo‘lub jur‘akash, Borur erdi o‘z mulkiga shodu xush.</p>	
<p>Guzargohi Rusu diyori Farang, Qayu erga etgach, o‘tub bedarang.</p>	
<p>O‘tar chog‘da mobayni g‘arbu Shimol, Tilab dod jam‘e parokandahol.</p>	
<p>O‘kush nola aylab tazallum bila, So‘rub shoh alarni tarahhum bila.</p>	

G‘arbi Shimol oralig‘ida yashovchi aholining Iskandarga arz-holi bilan tanishing:

<p>Dedilarki: “Shoho, jahondor bo‘l, Qadar qudratu charxmiqdor bo‘l!</p>	<p>Shunda ular dedilarki: “Ey, shoh! Jahonning hukmroni bo‘l! Qismatdan hukm yurgizib, qudratda falak darajasiga yet! Jahon yerlarini obod qilding, dunyo kishilariga adolat va shodlik bag‘ishlading. Lekin hali sening adolating yetmagan</p>
<p>Jahon mulkiga berding obodlig‘, Jahon ahlig‘a adl ila shodlig‘.</p>	
<p>Diyoreki adling anga etmamish, Diyor ahlini shodmon etmamish.</p>	

Hamonoki bu marz ila bum erur,
Dog‘i bu necha zoru mazlum erur”.

Dedi shah: “Bu kishvar nedindur
xarob, Eliga nedin tushti bu iztirob”.

Dedilarki: “Bu mulkning bir hadi,
Hamonero erur Qirvon sarhadi.

Kim, ul mulk g‘arbig‘a moyildurur,
Aro erda bir tog‘ hoyildurur

Kim, ul tog‘din nari ofot erur,
Ul ofotdin nari zulmot erur.

Bu nav‘ etti voqif xabar berguchi
Ki, zulmatning andindurur bir uchi.

Erur tog‘u zulmat aro vodiy
Ki, yo‘l eltmas ul taraf hodie.

Ne zulmat – jahannam, ne vodiy –
saqar
Ki, ya‘juj xaylig‘a bo‘ldi maqar.

Ne ya‘juj kim, yuz tuman, ming balo,
Biz ul yuz tuman ming balodin jalo.

Alarni Haq o‘z qahridin xalq etib
Ki, ko‘p elga bedod alardin etib.

Erur ishlarin vasf qilmoq mahol
Kim, ul vasfdin nutq erur gungu lol.

Taaddud aro yo‘qturur sonlari,
Yana sonsiz oyini nuqsonlari.

joylar, adlingdan shodmon
bo‘lmagan ellar ham bor.
Masalan, mana shu joy va shu
joyning bechora – ezilgan
xalqlari o‘shalar jumlasidandir”.
“Bu mamlakat nima sababdan
xarobalikka uchragan?” dedi
shoh. – “Xalqi nima uchun
bunchalik iztirobda?”

Ular aytdilarki:

“Bu mamlakatning bir cheti
o‘zing ko‘rgan Qirvon o‘lkasi
chegarasiga tutashadi. O‘sha
chegaraning g‘arbrogida ikki
o‘rtada bir tog‘ qad ko‘targan.
O‘sha tog‘ning orqasi ko‘p ofatli
joylardir. U ofatlarning nari
yog‘i butunlay zulmot

– qorong‘ulikdan iboratdir. Bu
masaladan xabardor odamlarning
aytishicha, dunyodagi
qorong‘ilikning boshi o‘sha
yerda emish. Bu tog‘ bilan
zulmot o‘rtasida bir vodiy
bo‘lib, yo‘l boshlovchilar u
tarafga bora olmaydilar. U
zulmot emas – jahannamdir,
vodiy emas – do‘zaxdir. Qisqasi,
u yer – ya‘juj degap
maxluqlarning qarorgohidir. Bu
ya‘juj deganimiz yuz ming
tuman balodan iborat bo‘lib, biz
shu behisob balolardan
qochganlarmiz. Ular xudoning
g‘azabidan yaratilgan, juda ko‘p
xalqlarga ulardan zulm yetgan.
Ularning qilmishlarini aytib
tugatish qiyin, ularni bayon
qilishga til ham gung va loldir.

	Ularni hisoblamoqchi bo‘lsangiz, son-sanog‘i yo‘q, zarar va shikastlari esa, behisobdir”.
Qirvon o‘lkasidagi vahshiylar tashqi qiyofasi tasviridan ularning xalqqa yetkazadigan jabr-zulmi qandayligini ko‘z oldingizga keltiring.	
<p>Qad uzra yoyilmish parokanda soch, Biri bir qarishdur, biri o‘n quloch.</p> <p style="padding-left: 40px;">Bu baytda ajoyib sifatlash – parokanda soch, kichraytirish – bir qarish, mubolag‘a – o‘n quloch ishlatilgan.</p> <p>Dema soch, xoshoku xas ma‘dani, Libos andin aylab borining tani.</p> <p>Quloq iki yondin bo‘lub birga juft, Najas tanlarin ko‘zdin aylab nuhuft.</p> <p>Kelib g‘ul barmog‘i barmog‘lari, Vale dev tirnog‘i tirnog‘lari.</p> <p>Yomon yuzlari rangi behad sarig‘, Qizil tuklar anda safodin arig‘.</p> <p>Biaynih ko‘z andoqki – maymun ko‘zi, Vale shum har qaysi mal’un ko‘zi.</p> <p>Burun ichlarin til bila pok etib, Topib lazzat, o‘zni tarabnok etib,</p> <p>Aningdekki, mabraz ariturda el, Solurlar ani xoli aylarga bel.</p> <p>Og‘izdin to‘ng‘uzdek chiqib iki tish, Vale erni qozmoq alar birla ish.</p>	<p>“Ularning parishon va parokanda sochlari butun badanlariga yoyilgan bo‘lib, biri bir qarich bo‘lsa, ikkinchisi o‘n quloch keladi. U soch emas, xas-xashak uyumi, hammasining tanasidagi liboslar ham shu sochlardangina iboratdir. Bir juft quloqlari ikki yondan jirkanch tanalarini yopib turadi. Barmoqlari alvasti barmog‘iga, tirmoqlari esa dev tirnog‘iga o‘xshaydi. Xunuk yuzlari sap-sariq bo‘lib, qizil tuklaridan poklik hazar qiladi. Ko‘zlari baayni maymunning ko‘zini eslatadi, lekin har biri shayton ko‘zidek shumshuk.</p> <p>Burunlarining ichini tillari bilan yalab “tozalab” lazzatlanganlaridan o‘yin-kulgi qiladilar. Ularning bu harakatlari xalojoyni tozalash vaqtidagi kishilarning kurak solishiga o‘xshaydi. Og‘zidan to‘ngiz tishlariga o‘xshagan ikki tish chiqib turadi, ular bu tish bilan yer ham qaziydilar. Ular qayerni tishlari bilan qazisalar, qiyomatgacha u joydan giyoh unmaydi. Gap-so‘zlari boshdan-</p>

Ne yerniki ul tishlar etti taboh,
Qiyomatqacha butmay andin giyoh.

Takallumda hashv ulcha imkon kelib,
Og'iz barchasida zanaxdon kelib.

Tushub har birining iki emchagi,
Va gar xud tishisi, va gar erkagi.

Hamul tog' undur, aningdekki, vahm
Qila olmoyin ko'ktin avjini fahm.

Iki yuz anga sof u yilmon qayo,
Nima butmay andin nechukkim iyo.

Iki yonikim hech topmay gusil,
Bo'lub Qof atrofig'a muttasil.

Bu mobayn alarning tarabxonasi,
Bu tog' o'ylakim Qof domonasi.

Vale davrakim bo'yla ko'rguzdi
Qof, Topib nasx qofi kibi har shikof.

Bo'lub fosil ul toqqa bir dara,
Ubur etgali ul guruhi shara.

Alar yilda solib iki qatla sho'r,
Chiqib tog' shikofidin andoqki mo'r.

Bizing shahru vodi y sori yoyilib,
Ne bedodkim mumkin o'lg'ay, qilib.

Kelur chog' alar, biz firor aylabon,
Vatandin jalo ixtiyor aylabon.

Borimizg'a ul nav' bechoraliq, Solib
tog'u vodi yda ovoralig.

oyoq g'avg'oyu surondan iborat bo'lib, og'izlari xuddi o'raga o'xshaydi. Erkagining ham, urg'ochisining ham ikki emchagi osilib yotadi.

Ularning makoni bo'lmish tog' shu qadar vahimaliki, uning balandligini osmondan farq qilib bo'lmaydi. U tog'ning ikki yoni taqir, qoyasi qilichdek o'tkir, qiya toshlardan iborat bo'lib, u yerlarda hech narsa bitmaydi. Ikki yoni uzluksiz cho'zilib borib, Qof tog'iga tutashadi. Shu o'rtalik bularning makoni, bu tog' xuddi "qof" harfining etagiday tutash, lekin "qof" shu xilda aylanma bo'lsa-da, nasx xatidagi "qof" harfi kabi bir yoriq joyi bor.



U tog'ning orasida bir dara bo'lib, bu ochko'zlar guruhi shu yerdan o'tib yuradi. Ular har yili ikki marta-shu tog' oralig'idan chiqib, xuddi chumolidek hammayoqni bosib, g'ala-g'ovur qiladilar. Bizning shahar va dalalarimizga yoyilib, hech kutilmagan jabr-jafolarni qiladilar. Ular keladigan chog'da biz qochib, vatanni tashlab ketishga majbur bo'lamiz.

<p>Nekim topib ul qavm talon etib, Bori shahru kishvarni vayron etib.</p> <p>Kishi topsalar aylab oni halok, Taloshib emakka etin zavqnok.</p> <p>Mavoshini elturga yaksar surub, Vatangahlarig‘a degin etkurub.</p> <p>Zaxira emakdinki mavjud o‘lub, Alar zulmidin barcha nobud o‘lub.</p> <p>Emak birla xud mutlaqo to‘ymayin Va gar to‘ysa ham donae qo‘ymayin</p> <p>Borin aylabon naql bungohqa; Budur arzimizkim, deduk shohqa.”</p> <p>Dedi shahki: “Ul nopisandida xayl, Qachonkim qilurlar sizing sori mayl,</p> <p>Nechuk sizg‘a ma’lum o‘lur ul balo Ki, andin burunroq qilursiz jalog‘”.</p>	<p>Bizning hammamiz qiyinchilikka tushamiz va tog‘ cho‘llarda sarson-sargardon kezamiz. U qavm nima ko‘rsa, shuni talab, butun shahar va mamlakatni vayron qiladi. Odamni qo‘lga tushirsalar, uni o‘ldirib, go‘shini zavq bilan talashib yeydilar. Qoramollarning hammasini haydab, o‘z yurtlariga olib ketadilar. Yeyishga g‘amlagan hamma zaxiralarimizni ham talon-taroju nes- nobud etadilar. Ular yegan bilan mutlaqo to‘ymaydi, agar to‘ysa ham qolgan ozuqalarning hammasini bir dona qoldirmay, o‘z omborlariga tashib olib ketadi. Podshohga arzimiz shuki, bizni ana shu ofatdan qutqarsang”.</p> <p>Shoh aytdi: “U yoqimsiz to‘da sizning tarafingizga kelmoqchi bo‘lganda, u baloning kelayotgani sizga qanday ma’lum bo‘ladiki, ular yetib kelmasdanoq siz qochib qolasiz?”</p>
---	---

Xalq nimadan aziyat chekardi? Xoqonga ya’jujlar to‘dasining qanday qilmishlari ayon bo‘ldi?

<p>Dedilar: “Bu tog‘ekim ul qavmi shum, Aning ul yuzida qilurlar hujum.</p>	<p>Ular dedilar: “U shum maxluqlar mana bu tog‘ning narigi yuzidan bosib kela boshlaganlarida, sahroni kezib o‘tmaslaridanoq osmon</p>
---	---

Bu sori bo‘lur chog‘da sahronavard,
Qilur charx oyinasin tiyra gard.

Qachon bo‘lsa ul tiyra gard oshkor,
Bo‘lur tiyra bizlarga ham ro‘zgor”.

Dedi shah: “Qachon bo‘lg‘ay ul ish
chog‘ig‘”

Dedilar: “O‘tub bir necha kun dog‘i”.

Eshitgach bu so‘z dovari choraras,
Alar chorasin qilmoq etti havas.

Topib berk manzil, tusharga panoh,
Hamul marz aro qildi oromgoh.

Dedilar ul el yuz tazarru‘ bila,
Janobida ushbu tavaqqu‘ bila

Ki: “Bizga necha baxtdin yo‘q navo.
Nechuk ko‘rgabiz el gazandin ravog‘

Shah ar munda maskan qilur,
qilmasun,
Alarni jahon ahlidek bilmasun

Ki, nogah biri etsa ul qavmning,
G‘anim o‘trusida ne yuzu, ne ming,

Bataxsiskim yuz tuman ming balo
Ki, bu kishvar o‘lgay alardin to‘lo.

Etishgay borining boshida g‘azab,
Bori el qonin ichgani tashnalab”.

Dedi shahki: “Siz bizga
qayg‘urmangiz
Va lekin bu kishvararo turmangiz.

oyinasini qop- qora chang-to‘zon
bosib ketadi. Qachonki shunday
qora to‘zon ko‘rinsa, bizning
kunimiz ham shunday qora
bo‘ladi”.

Shoh aytdi:

“U ish yana qachon bo‘lishi
mumkin?” “Bir necha kun
o‘tgandan so‘ng yuz beradi”, –
dedilar.

Tadbirli hakam bu so‘zni
eshitgach, maxluqlarning
chorasini ko‘rishga bel bog‘ladi.
Qo‘nish uchun bir yopiq joy
topib, o‘sha yerga joylashdi. U
xalq yuz
iltijo bilan shoh janoblariga
dedilarki:

“Bizga baxtdan hech umid yo‘q
ekan, boshqa kishilarning
zararlanishini qanday ravo
ko‘ramiz? Agar shoh bu yerda
maskan qilmoqchi bo‘lsa,
qilmasin. U maxluqlarni jahon
xalqidek, deb bilmasin. Agar
banogoh u qavmdan birontasi
kelib qolsa, uning qarshisida yuz
va ming g‘anim pisand emas.
Xususan, bu balo yuz ming
bo‘lib, ko‘pligidan bu
mamlakatni boshdan-oyoq bosib
kegadi. Hammasining miyasi
g‘azab bilan to‘la, hammasi xalq
qonini ichishga tashnalabdirlar.”

<p>Toshing har neyngiz bo‘lsa aylab shitob Ki, bu mulk aro qolmasun rishtatob</p> <p>Ki, Tengriga ul dam tavakkal qilay, Alar fikrin aylay, nechukkim bilay”.</p> <p>Alar chiqtilar mulkdin xonako‘ch, Vale qilmadi shohi farzona ko‘ch.</p>	<p>Shoh aytadi: “Siz bizga qayg‘urmangiz, lekin o‘zingiz ham bu o‘lkada turmangiz. Nima narsangiz bo‘lsa, hammasini shitob bilan tashib olingiz; bu mamlakatda bir uzuq ipingiz ham qolmasin. Tavakkalni xudoga qilib, qo‘limdan kelgancha ularni yo‘q qilish chorasini ko‘raman”. Odamlar o‘z joylaridan bud-shudlarini ko‘chirib ketdilar. Lekin qahramon shoh ko‘chmadi.</p>
---	--

Iskandar vahshiylar zulmiga qarshi qanday siyosat qo‘lladi? Voqealar rivojini kuzatishda davom eting.

<p>Dedi, davrig‘a qozdilar har fariq, Ochuq xandaq, ammo bag‘oyat amiq.</p> <p>Kishilar yibordiki, har marzu bum, Farang o‘lsunu Rus, yo Shomu Rum.</p> <p>Nekim bo‘lsa me‘mori chobukxayol, Yana dog‘i ustodi nozuxayol.</p> <p>Yana korgarlar, bori charbdast, Balo raxnasin qilg‘udek sangbast.</p>	<p>Uning buyrug‘i bilan u joyning atrofiga bir qator ochiq va g‘oyat chuqur xandaqlar qazildi. Farangdanmi, Rusdanmi, Shomdanmi, Rumdanmi – qaysi o‘lkadan bo‘lmasin, o‘tkir fikrli me‘morlarni, nozik tushunchali ustalarni, chapdast va baquvvat ishchilarni, toshdek mustahkam balo raxnasi qura oladigan kishilarni topib kelish uchun vakillar jo‘natdi.</p>
--	---

Ya’juj-ma’jujlardan himoya taktikasi zamirida qanday g‘oya mujassam deb o‘ylaysiz?

<p>Misu ro‘yu qal‘i, birinju temur, Yana qo‘rg‘oshun birla tolu ko‘mur.</p> <p>Qilib necha yuz ming teva uzra soz, Yana necha ustodi ohangudoz.</p>	<p>Mis, qalay, birinj (bronza), temir, qo‘rg‘oshin va tol ko‘mirmigacha tayyorlab, ularni necha yuz ming tuyalarga ortib va qancha temir erituvchi ustalarni topib – muhayyo qilib,</p>
---	---

Muhayyo qilib ehtimom aylabon,
Borin jahd ila tezgom aylabon.

Eturgaylar ul erga borini bot, Bori
butti shoh aylagach iltifot.

Chu nekim keraklik edi, bo'ldi rost,
Aningdekki doroi davrong'a xost.

Anga tegru har kun o'zi o'tlanib,
Hamul tog' domonasin aylanib.

Solib iki ming sangburi bedarang,
Kamar uzra kesmak uchun taxta
sang.

Bori zo'rdast ichra po'loddek,
Qotig' xora kesmakda Farhoddek.

Alar xorani bemadoro kesib,
Madorosiz ul tog'da xoro kesib.

Yig'ib oncha asbob bog'larg'a sad
Ki, taxminidin ajz topib xirad.

Chu har ne keraktur muhayyo bo'lub,
Hamul tiyra gard oshkoro bo'lub.

Ki, ya'juj azmig'a erdi nishon,
Bo'lub mehr nurig'a zulmatfishon.

Yig'ishturdilar elni taklif ila,
Kivurmakka xandaqqa taxvif ila.

Suruldi gala dog'i xandaq sari
Ki, jonliq nima qolmadi tashqari.

Kamingahda besh ming
nabardozmoy, Nihoni qo'yub shohi

g'ayrat bilan hammasini tez va jadal bu yerga yetkazishlari kerak edi. Xuddi shunday bo'ldi: hamma ish davron shohi buyurgandek bajarildi va tayyorlandi. Ungacha har kuni shohning o'zi o'tlanib, u tog' etaklarini ko'zdan kechirib kelar edi. Ikki ming toshkesar usta sur'at bilan tog' orasidagi yaxlit toshlarni kesishga kirishdi. Ularning har birining qo'li po'latdek kuchli, qattiq toshlarni kesishda Farhoddek zabardast edi. Ular bu tog'dagi toshlarni tinmay- tinchimay kesar edilar.

G'ov solish – sad bog'lash uchun shu qadar ko'p asbob-uskuna yig'ildiki, ularning qanchaligini bilishga aql ojizlik qilar edi. Nimayiki kerak bo'lsa, hammasi muhayyo qilingach, xuddi kutib turgandek, haligi aytilgan qora to'zon namoyon bo'ldi. Bu o'sha ya'jujlarning kelayotganidan nishona bo'lib, quyosh yuzini ham qorong'ilik qoplagan edi.

Binobarin, xavfdan saqlanish

farxundaroy

Ki, bir dastburd aylabon oshkor,
Qilurg'a hamul saydlardin shikor.

Alar ichra o'n vahshiyi mag'ribiy,
Qamish xayli ichra teraklar kibi.

Bu savdo alarni chu marbut etib,
Kelib xandaq ahlini mazbut etib.

Bu holatda chiqti guruho guruh
Ki, ya'jujdin to'ldi sahrou ko'h.

Chiqib bo'yla holatda ahli kamin,
Aningdekki, titrab zamonu zamin,

Alar xaylig'a o'zlarin urdilar
Ki, tig' ostida ko'pni o'lturdilar.

Bu yanglig' chu ko'rdi alar dastzo'r,
Xayol aylakim, tushti daryog'a sho'r.

Qo'yub borcha to'sh-to'shdin ul elga
yuz Ki, kasratlaridin to'lub tog'u tuz.

Aningdek nabard oshkor ettilar
Ki, ul xayl ishin iztiror ettilar.

Ne o'qu qilichdin birisiga bok,
Ne o'qu qilichkim bo'lurdin halok.

Itik tig'din har nechakim o'lub,
Hamul tig'din ham itikrak bo'lub.

Alar ham ko'p elni halok aylabon,
Halok aylaganni xo'rok aylabon.

uchun hamma kishilarni yig'ib,
xandaqlarga kirishga taklif
qilindi. Barcha podalarni ham
haydab kelib, xandaqqa qamaldi,
tashqarida hech bir jonivor
qolmadi.

Saodatli shoh pistirmaga besh
mingta mardi maydon jangchini
kiritib qo'ydi. Ular to'satdan
hujum qilib, haligi keladigan
maxluqlarni ovlashi kerak edi.
Bu jangchilar orasida yuqoridagi
Mag'rib vahshiyzodlaridan ham
o'ntasi bo'lib, bularning har biri
boshqa askarlarga nisbatan
qamishzordagi terakdek gavnali
edi. Bo'lajak mojaro
mag'ribiylarni g'oyat qiziqtirgan
holda, ular xandaqda yashiringan
kishilarni muhofaza qilar edilar.
Shu payt birdan guruh-guruh
bo'lib kelayotgan ya'jujlardan
tog' ham, sahro ham to'lib ketdi.
Ana shu zamonda to'satdan
pistirmadagi polvonlar chiqib,
butun yeru ko'kni larzaga solib,
o'zlarini u maxluqlarga urdilar;
tig' bilan chopib, birmunchasini
halok qildilar. Ya'jujlar bunday
zo'ravonlikka duch kelgach,
hammayoq xuddi daryodek
to'lqinlanib ketdi, ya'ni ular ham
birdan qarshi hujumga o'tdilar.
Lekin ular shunchalik ko'p ediki,
tog' ham, cho'l ham –
hammayoq ular bilan to'la edi.
Bu maxluqlar shunday urush

Otidin muborizni yiqqon zamon,
Yiqilg'och, talashib tugatmak
hamon.

Demonkim ebon jismu qolabni ham,
Ne jismu ne qolabki, markabni ham.

Ajabroqki, ne xasmu ne o'z debon,
Yiqilg'onni filhol uzushub yebon.

Bu yanglig'ki aylab nabard ul sipoh,
Ko'p el bo'ldi oqshomga tegru taboh.

Base ul jamoatdin o'lturdilar
Ki, to o'zni xandaqqa etkurdilar.

Chu parxoshdin qolmayin jonlari,
Kirib jon arosig'a qo'rg'onlari

O'kush rev ila hisn azmi qilib,
Hamul devvash xalqdin ayrilib.

Bular aylagach rev ila tarki razm,
Alar ham qilib tog'u sahrog'a azm.

Tong otquncha oshubu g'avg'o bila,
Qalin it masallik alolo bila.

Bori og'zida telba itdek yolin,
Adadda vale it tukidin qolin.

Chu hozir bo'lub shah qoshig'a sipoh,
Musibat tutub xayli g'oyibqa shoh.

Qabul aylagan ish ko'runub qatig',
Pushaymonlig'i hech qilmay asig'.

Chu ko'shish sori topmayin hech
yo'l,

boshladilarki, tezda Iskandar
jangchilarini esankiratib
tashladilar. Ular o'q va qilich
kabi qurollarga parvo qilmas,
o'q-qilichgina emas, halok
bo'lishdan ham qo'rqmas edilar.

O'tkir tig'lar zarbidan
qanchadan-qanchasi qirilishiga
qaramay, borgan sari dami
qaytmas tig'dan hujumga
tashlanar edilar. Ular ko'p
kishilarni halok qildilar, halok
bo'lganlarni esa talashib yer
edilar. Jangchi – muborizni
otidan ag'dargan zamon,
o'nggaltirmay, talashib-tortishib
yeb bitirar edilar. Yiqilganning
go'shti va ichak-chanog'ini
yebgina qanoatlanmay, uning
otini ham yeb bitirardilar. Eng
qizig'i shunda ediki, yiqilgan
kim bo'lmasin – dushmanmi
yoki o'zlaridanmi, bari bir,
darhol tortqilashib yer edilar.

Shoh askarlarii shu xilda kurash
qilib, kechgacha ko'plari halok
va majruh bo'ldilar. To
xandaqqa kirguncha u jamoatdan
ham ko'pini o'ldirdilar.
Urushaverib jonlari qolmagan
edi, nihoyat, jonlarga
qo'rg'onlari ora kirdi. Turli hiyla
va tadbir bilan amallab
qo'rg'onga kirib olib, bu
devvashlar hujumidan o'zlarini
qutqardilar. Bular ustalik bilan

Zarurat urub chora zaylig‘a qo‘l.
Bilibkim, necha kun tahammul kerak,
Qilur ishda ko‘prak taammul kerak.
Emakdin chu xolidur ul marzu bum,
Magar topmayin tu‘ma ul xayli
shum,
Yonib o‘z makonig‘a azm etsalar,
Qilib avd, kelgan sari ketsalar.
Etib ishga ul lahza nazzorae,
Qila olg‘ay ul qissag‘a chorae.
Ham ushbu deyilgan kibi ul guruh
Nima topmog‘ondin bo‘lub chin
sutuh.
Bori qildilar avd kelgan sari,
Dara ichra sig‘may kirib ichkari.
Alarg‘a chu yuzlandi ovoralig,
Zamona unutti sitamkoralig.
Shah otlandi ul xayli dono bila,
Razin royu aqli tovonno bila.
Rikobida san‘atgar el behisob,
Qilib ul dara sori bori shitob.
Chu ettilar, ermas edi ul dara,
Ochuq julgae erdi xo‘bu sara.
Va lekin iki jonibi iki tog‘,
Nechukkim berib erdi ul el surog‘.
Iki tog‘ arosida massohi chust,
Yaqinroq yerin ayladi bozjust.

urushni tugatgach, ular ham
tog‘u sahroga qarab yo‘l oldilar.
Tong otguncha g‘avgo-to‘polon
bilan xuddi it singari uvlashib
chiqdilar. Hammasining og‘zi
xuddi quturgan itning og‘zidek
ochiq bo‘lib, it tukidan ham ko‘p
edilar.

Omon qolgan askarlar shoh
qoshiga kelganlarida, shoh
o‘lgan va yo‘qolgan kishilarga
ta‘ziya izhor qildi. Bu
boshlangan ish benihoya
qimmatga tushgan bo‘lsa-da,
ammo pushaymon qilgan bilan
befoyda edi. Ular bilan urushib,
g‘alaba qozonishning hech
qanday oson yo‘li topilmagach,
zarur choralardan biri sifatida,
qancha vaqt sabr qilish, amalga
oshiriladigan tadbirlarni ko‘proq
o‘ylash kerak, degan qarorga
kelindi. Bu joylarda yeyishga
yaraydigan hech narsa bo‘lmasa,
u yirtqich to‘dalar ovqat
topolmagach, o‘z makonlariga
qaytib ketsalar ajab emas.

Ana shu paytda diqqat-e‘tibor va
tadbir bilan bu ishga qo‘l urilsa
va ularga qarshi chora ko‘rilsa
bo‘ladi, dedi shoh. Haqiqatan, u
maxluqlar xuddi aytilgandek,
yeyishga hech narsa
topilmagach, ojiz qolib, kelgan
tomoniga qarab ketdi. Ular
ko‘pligidan dara ichiga sig‘mas
edilar. Ular shu tarzda ovora

	<p>bo‘lib qaytgach, birmuncha vaqt bu taraflarga kelib, talon-toroj qilishni unutdilar.</p> <p>Bu paytdan foydalanib shoh o‘z bilimdon kishilari, fikri o‘tkir, aqli to‘la olimlari bilan maslahatlashib, ishga kirishdi. Behisob hunarmand – san’atkorlarni atrofiga olib, dara tomonga qarab jadal yo‘l soldi. U yerga yetgach, ko‘rdilarki, juda go‘zal – ko‘rkam va keng vodiy ekan. Lekin ikki tomonida, xuddi u yurtning odamlari aytganidek, ikki tog‘ bor edi.</p>
<p>Iskandar devorining bunyod etilishi bilan bog‘liq lavhalarda o‘sha davrning qaysi sohalariga oid tajribalar umumlashgan?</p>	
<p>Tanob onchakim chektilar har sari, Yaqinroq eri erdi o‘n ming qari.</p> <p>Nujum ahli soat qilib ixtiyor, Kezib markab uzra shahi baxtiyor. Buyurdiki to‘ktilar ul erga rang, Tushub qo‘ydi soat bila xora sang.</p> <p>rang to‘kmoq – qurilish rejasini tortmoq, ma’nosida.</p> <p>Gudozandalig‘ ichra ming korgoh, Qilib, o‘ylakim ko‘ra tayyorgoh.</p> <p>Muhandislar aylab fusunsozliq, Masohat bila korpardoqliq.</p> <p>Bo‘lub korgarlar dog‘i ishda chust, Raja jadvali birla poku durust.</p>	<p>Tanob bilan yer o‘lchovchilar hammayogini tanob bilan o‘lchab ko‘rganlarida, eng yaqin yeri o‘n ming qari (o‘n kilometr ga yaqin) ekanligi ma’lum bo‘ldi.</p> <p>Munajjimlar yulduzlarga qarab, xosiyatli soatlarni aniqladilar. Baxtiyor shoh esa ot ustida yelib-yugurib, o‘sha yaxshi soatda u yerlarga rang to‘kib, reja solishga buyurdi va boshlab, o‘zi poydevorning birinchi xarsang toshini qo‘ydi. Minglab qadoq ma’dan erptadigan korxonalar tayyorlanib qo‘yilgan edi. Muhandislar o‘z bilimlarini ishga solib, ham mayoqni yaxshilab o‘lchab, reja solgan edilar. Ishchilar ham tuzilgan</p>

Gach oʻrnigʻa mahlul etib haftjoʻsh,
Quyub erga sanʻatgari saxtkoʻsh.

Solib haftjoʻsh ustiga taxta tosh,
Bori jonibi tez boʻlgʻon tarosh.

Qoʻpub yona ustodi Boniyhasab,
Qoʻyub toshni toshqa lab-balab.

Chu bir sath ul tosh hamvor oʻlub,
Yana ustida ish namudor oʻlub.

Chu tuligʻa oʻn ming qari erdi arz,
Binosigʻa besh yuz qari boʻldi arz.

Birinchi arz – yer, ikkinchisi en
maʻnosida
ishlatilgan.

Necha ming bu ish uzra ustod edi
Ki, sanʻatda bannou haddod edi.

Qoʻyub ul sifat darz-bardarz tosh
Ki, boʻlmay sari moʻy anga darz fosh.

Yana erdi muzdur sondin fuzun,
Nechakim qiyos etsa ondin fuzun.

Boʻlub olame boʻyla sanʻatnamoy,
Kecha-kunduz ish qildilar olti oy

Ki, necha ming ustodu sanʻatgari,
Tamom ettilar Saddi Iskandariy.

Muarrixdin ettim bu navʻ istimoʻ
Ki, topti sad uch yuz qari irtifoʻ.

Iki zina dogʻi yasab el sori
Ki, chiqqay quyidin ulus yuqori.

reja va jadval asosida ishga kirishib, chaqqonlik bilan oʻz hunarlarini koʻrsata boshladilar. Hunarmand ustalar ganch oʻrniga yetti xil maʻdan qotishmasini biriktirib yerga quydilar. Uning ustiga taxlangan toshlarni bosib, har tomonini tekislab, tarashladilar. Boniy shogirdlariga oʻxshagan ustalar ishga kirishib, tosh ustiga toshlarni labba-lab qilib silliqlab terar edilar. Toshlar bir qator tekislab terilgach, yana boz ustiga tosh bosar edilar. Devorning uzunligi oʻn ming, eni esa besh yuz quloch tengligida qurildi. Bu ishlarni bajarishda necha minglab temirchi va binokor ustalar oʻz hunaru sanʻatlarini namoyon etdilar. Shu xilda tosh ustiga tosh qoʻyib, unda bir soch tolasidek darz qoʻymay ishlandi. U yerda mardikor boʻlib ishlaganlarning son-sanogʻi yoʻq, kishining xayoli qancha taxminlay olsa, shundan ham koʻp edi. Butun olamning sanʻatkorlari (hunarmandlari) yigʻilib, bu yerda olti oygacha kecha-kunduz tinmay ishladilar. Bular orasida bir necha ming ustoz hunarmandlar ham bor edi, shular hammasi bir boʻlib, Saddi Iskandariyni (Iskandar devorini) tamom bitkazdilar.

Tarixchidan eshitishimcha – sadning balandligi uch yuz qari

Yana kunguru burj etib qal'avor,
Temurlar bila aylabon ustuvor.

Yasab iki manzil nigahbon uchun,
Tashib tosh ko'p sangboron uchun.

Qilib anda ta'yin necha yuz kishi
Ki, sad hifzi bo'lg'ay alarning ishi.

Chu sad bo'ldi andoqki charxi kabud,
Jahonofaring'a shah etti sujud.

Bu holatda ul xayli muhliksitez,
Solib dashtu vodi y aro rustaxe z.

Etishtilar andoqki, ma'hud edi,
Burung'icha un-shayn mavjud edi.

Balo raxnasin toptilar, o'yla rust
Ki, tish birla tirnog'lari bo'ldi sust.

Dedi shohkim: "Sangboron qiling,
Balo xaylig'a toshni parron qiling!"

Aningdek alar boshig'a yog'di tosh
Kim, ul toshdek tushti tuproqqa bosh.

Chu yo'q erdi g'avg'olaridin asig',
Bo'lub qatl toshidin andeshalig'.

Yonib bir-birisiga aylondilar,
Chu sud etmadi jahdu jidd – yondilar.

Er ahlig'a har zulmkim surdilar,
Falakdin borig'a evaz ko'rdilar.

Bu bedodkim aylab ul qavm fosh,
Ne tong osmondin agar yog'sa tosh.

bo'lgan. Sadning odamlar yashaydigan tomoniga sad ustiga chiqish uchun ikkita zinapoya ham ishlandi. Sadning tepasiga yana qal'alarniki singari qubba va kungiralar ham yasalib, ular temir bilan mustahkamlandi. U yerga posbonlar uchun ham ikkita joy qilindi va dushmanni toshbo'ron qilish uchun yuqoriga ko'p toshlar yig'ildi. Sadni muhofaza qilib – qo'riqlab turish uchun ham bir necha yuz kishi tayinlandi. Sad xuddi osmondek bir inshootga aylangach, shoh buning shukronasi uchun yaratgan tangriga sajda qildi. Ish shu yerga yetganda, haligi halokatli maxluqlar yana dashtu vodiylarga g'ala- g'ovur solib kela boshladi. Ular odatdagidek keldilaru ammo ovozlari zaiflik mavjud edi. Ular balo rahnasining sad bilan bekutilganini ko'rgach, tish bilan tirnoqlari susayib tinkalari quridi. Shoh shu paytda: "Toshbo'ron qiling, balo to'dasiga toshlarni oting!" – deb buyruq berdi. Ularning boshiga shunday tosh yog'dirdilarki, boshlari xuddi shu toshlar kabi tuproqlarga tushaverdi. Ular qiy-chuv va to'polon bilan ish chiqazolmagach, o'lim toshlarining zarbidan tashvishlanib, hammalari bir-birovlariga o'ralashgan-chuvalashgan holda, shoshib-

Necha qatla mundoq topib go‘shmol,
Yana ul taraf boqmog‘ etmay xayol.

Bu oyin ila chun shahi purxirad
Ki, ya’juj daf’i uchun chekti sad.

Qilib xotirin jam’, qildi xirom,
Sipah birla yod aylab asli maqom.

Necha kun chu qat’ ayladi marzu
bum,
Yana bo‘ldi manzilgahi taxti Rum.

Ketur soqiy, ul jomi taqvishikan
Ki, ko‘nglumga tushmish havoi
vatan.

Tilarmen kezib rub’i atlolni,
Desam ranji g‘urbatdagi holni.

Mug‘anniy, chu toptim maqomimda
kom,
Tuzat kom ila sen dog‘i bir maqom.

Qilib fahm ul ohangning rangini,
Yana tark etay sayr ohangini.

Navoiy, vatan bo‘ldi manzil manga,
Bu manzildin ammo ne hosil manga

Ki, har kimki bor erdi yoru qarini,
Bo‘lubtur adam sori g‘urbatguzin.

pishib, kelgan taraflariga qarab
jo‘nab qoldilar.

Yirtqichlar u yerning odamlariga
qancha zulm qilgan bo‘lsalar,
shu zulmlarning hammasi
o‘zlarining ham boshlariga
tushdi. Bu maxluqlar tomonidan
qilingan bezoriliklarga
qaraganda, ular boshiga
osmondan toshlar yog‘ilsa,
ajablanarli emas! Necha marta
shunday ta’zirlarini yegandan
keyin, qaytib bu tomonga
qarashni ham xayol qilmaydigan
bo‘ldilar.

Donishmand shoh ya’jujlarni daf
etish uchun tadbirkorlik bilan
shunday sad chekdi. Bulardan
xotiri jam bo‘lgach, o‘z vatanini
eslab askarlari bilan yo‘lga
ravona bo‘ldi. Bir necha vaqt
yo‘l yurgach, o‘z manziliga
yetib, yana Rum taxtida maqom
ayladi.

Ey soqiy, parhezdorlikni
buzadigan may keltir! Zero,
ko‘nglimga vatan ishtiyoqi
tushib qoldi. Endi men bu
vayrona dunyoni kezib,
g‘urbatda chekkan ranj-
mashaqqatlarimni bayon
qilmoqchiman.

Ey, mug‘anniy! Men o‘z

maqomimga kelib murodimga yetdim. Sen ham shu orzuga muvofiq bir maqomni kuyla! U kuyning mazmuni shunday ta'sir qilsinki, men bundan buyon jahongashtalikni mutlaq tark etay.

Ey, Navoiy! O'z vataningda manzil tutding, lekin senga bu manzildan nima hosil? Axir qancha yor-do'stlaring bo'lsa, hammasi yo'qliq, g'urbat xonasiga ketdi- ku!

Sizningcha, yovuzlikni mahv etishdagi asosiy kuch nimada?



MUTOLAADAN SO'NG ...

Bobni tahlil qilamiz:

1. Mazkur bo'limdan asar konfliktlarining **kulminatsion nuqtasi** berilgan o'rinlarni aniqlang.
2. Berilgan matndan doston **yechimi** aks etgan epizodlarni toping.
3. **Sad (devor)** nimaning ramzi deb o'ylaysiz? Dunyodagi qaysi mashhur inshootlarni Iskandar devoriga tenglashtirish mumkin? O'zingiz Iskandar devorini qanday tasavvur qildingiz?
4. **Yovuzlik** qaysi obrazlar mohiyatiga singdirilgan? Asarda **yovuzlik va yaxshilik kurashi** qanday tasvirlangan?
5. Globallashuv davridagi qaysi **urinishlarni** ya'juj-ma'jujlar zulmiga tenglashtirish mumkin?



ASARNI TAHLIL QILAMIZ ...

1. Sizningcha, Iskandar **qanday** obraz? Navoiy bu obraz orqali nimalarni ifodalamoqchi bo'lgan? Asardan bosh qahramon xarakter xususiyatlarining **kurash va to'qnashuvlardagi** dinamikasiga (rivojlanishiga) misollar keltiring.
2. Navoiy Iskandar obrazini yaratish orqali bugungi kun uchun ham muhim bo'lgan qanday **global muammolarni** qo'yadi?
3. Iskandarning onasi va hamrohlariga **vasiyati** berilgan lavhalarini

o‘qing. Navoiy bunday tasvir orqali butun insoniyatni nimaga da‘vat etgan?

4. Olimlar obrazi dostonning g‘oyaviy motivlari rivojida qanday o‘rin tutadi? Ularning doston xotimasidagi fikrlarini izohlang.

5. Iskandarning bir necha yillik ummon va dengizlardagi **ilmiy kashfiyotlari**

tasvirida muallifga xos qanday xususiyatlar seziladi?

6. Dostondagi yetti daryo, **yetti** dengiz tasviri, **yetti** olim obrazi mohiyatida qanday g‘oya mujassam?

7. Asarda tasvirlangan **geografik joylar** (mamlakatlar, shaharlar, orollar, dengizlar) nomlarini aniqlab, jadval tuzing. Ular bugungi kunda qaysi davlat hududida joylashganini toping. Iskandarning sayohati marshruti aks etgan xarita tuzing.

8. Dostondan Navoiy zamonasining **maishiy hayoti** aks etgan rasm-rusumlar va urf-odatlarini aniqlang.

9. Quyidagi maqollarning bugungi kundagi o‘xshashini toping.

Taammul bila kom paydo bo‘lur,

Tahammul bila g‘o‘ra paydo bo‘lur.

Ulus chehrai olam afro‘zidin,

“Bilur yil kelishin navro‘zidin”.

9. Dostondan berilgan parchalar matnida uchragan **izohtalab so‘zlar** lug‘atini tuzing. Bunda “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”dan va kitobda berilgan nasriy bayondan foydalaning.



UMUMLASHTIRAMIZ ...


1. “Xamsa” asari haqidagi bilimlaringizni quyidagi jadvalda **umumlashtiring**.

Bunda quyi sinflarda o‘rganganlaringizga tayaning va manbalar bilan mustaqil ishlang.

Dostonlar nomi	Yozilgan yili	Hajmi	Vazni	Tuzilishi (kompozitsion xususiyatlari)	Ko‘tarilgan mavzular	Asosiy obrazlari
“Hayrat-ul abror”						
“Farhod va Shirin”						
“Layli va						

Majnun”						
“Sab’ ai sayyor”						
“Saddi Iskandariy”						

1. Sizningcha, shahzodalar Farhod va Iskandar obrazlarining **o‘xshash va farqli** jihatlari nimalarda ko‘rinadi? Ulardagi qaysi xususiyatlar bir nuqtada birlashadi? Quyidagi diagrammani to‘ldiring.



2. Adabiyot darslarida Navoiy “Xamsa”siga kiruvchi bir qancha dostonlar, ulardagi obrazlar bilan tanishgansiz. Sizningcha, zamonamiz yoshlari Navoiyning qaysi qahramonlaridan **o‘rnak** olsa arziydi? Ularning qaysi jihatlari sizga ma’qul bo‘lgan?

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483– 530)

“Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san‘atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan”.

Javoharlal Neru

*XX asr Hindiston milliy ozodlik harakati yetakchilaridan biri,
Hindistonning birinchi Bosh vaziri*

BILIMLARIMIZNI UMUMLASHTIRAMIZ

Boburiylar imperiyasi hozirgi qaysi davlatlar hududlarini qamrab olgan edi?

1. Sizningcha, Neru Boburni nega “dilbar shaxs” deb ataydi? Quyidagilarda o‘rganganlaringiz, Bobur haqida o‘qigan va ko‘rgan asarlaringiz asosida Boburga siz qanday **ta’rif** berasiz?

2. Bobur **adabiy va ilmiy merosi** qanday asarlarini o‘z ichiga oladi? Ular qanday masalalarga bag‘ishlangan?

3. Bobur devoni **lirik turning** qaysi janrlarini o‘z ichiga oladi?

BOBUR G‘AZALLARI



Bobur g‘azallari mumtoz adabiyotimizning boshqa vakillari, masalan, Navoiy g‘azallaridan farq qiladi. Bobur she’riyatida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzulari bilan birga, shoirning Vatan sog‘inchi bilan bog‘liq shaxsiy kechinmalari ham katta o‘rin tutadi.

O‘ylab ko‘ring:

Bobur lirikasida **shikoyat, umidsizlik, badbinlik** kayfiyatlar seziladi. Bu kayfiyatlar qanday omillar ta’sirida vujudga kelgan, deb o‘ylaysiz?

Bobur **Vatan va undan ayrilqni** qaysi obrazlar timsolida gavdalantiradi?

“Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim...”

Manba bilan ishlaymiz:

“Boburnoma” sahifalaridan “Topmadim” radifli g‘azalning yozilishiga sabab bo‘lgan voqealarni topib o‘qing. Boburning o‘sha paytdagi imkoniyatlarini tahlil qiling. **Ruhiyatiga** ta’sir qilgan omillarni belgilang.

G‘azalni o‘qiymiz:

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,
Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim.

mahram – yaqin sirdosh,
ulfat; xizmatkor, kanizak.
asror – sirlar

*Matla’da qanday timsollar qo‘llanilgan?
Nechun oshiqning vafoli yor va yaqin sirdosh ko‘yidagi harakatlari
beiz ketmoqda?*

Jonimdek o‘zga jonni dilafgor ko‘rmadim,
Ko‘nglum kibi ko‘ngulni giriftor topmadim.

dilafgor – g‘amgin,
qayg‘uli, o‘ychan

Jon dilafgor, ko‘ngul giriftorligi sabablari nimada?

Usruk ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi muftalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.

usruk – mast, maston, mastona

*Yorning qaysi jihatlari oshiqni o‘ziga ohanraboday tortadi?
Insonlik xususiyatlari qalbga qaysi she’riy san’at vositasida
ko‘chirilgan?*

Nochor furqati bila xo‘y etmisham, netay,
Chun vaslig‘a o‘zumni sazovor topmadim.

furqat – judolik, ayriliq
xo‘y – odat, ko‘nikma

Oshiqning yordan ayri yashashga ko'nikishi va bunga majbur ekanligiga munosabat bildiring.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.

Yor qalbiga yo'l topa bilmaslik, qayta-qayta noumid qaytish sabablarini izohlang.

Bobur, o'zungni o'rgatako'r yorsizki, men Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.

Maqta'dagi zohiran yordan shikoyat ohangidagi mazkur misralar mazmuniga e'tibor qiling. Unda yana qanday fikr haqida so'z bormoqda?

Boburning qismat yoziqlariga ko'nikib, fatalizmga berilishiga munosabat bildiring.

Fatalizm (lotincha “*fatalis*” – “*taqdirga oid*” so‘zidan) – hamma voqealarning azaldan belgilab qo‘yilganligiga, taqdirga ishonish. Fatalistlarga ko‘ra, hamma narsa – insonning hayoti, undagi voqea-hodisalarning rivojlanishi oldindan belgilangan bo‘ladi, demak, yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishi mumkinligi inkor etiladi.

G‘azalni tahlil qilamiz:

1. Nima deb o‘ylaysiz, lirik qahramon **izlaganlarini topa oldimikan?** Fikrlaringizni g‘azal nomlanishiga tayanib bildiring.

2. Shoir mavzu, obraz, holat va his-tuyg‘ularini qaysi usul va **badiiy til vositalari** orqali aks ettiradi? G‘azaldan misollar topib, jadvalga joylashtiring.

	G‘azaldan misollar	Izohi
Parallelizm		
Tazod		
Tashxis		

3. Misralar ravonligi va ohangdorlikni ta‘minlashda qo‘llanilgan **ichki qofiyalarni** aniqlang.

4. “Topmadim” so‘zi **takrori** qanday vazifalarga xizmat qilgan?

5. Shoir lirikasi mazmuniga tayanib **poetik mahorati modelini** yarating.

“Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sorg‘ordim...”

G‘azal tahliliga tayyorlanamiz:

1. Inson umrining **yil fasllariga** qiyoslanishidagi bog‘liqlikni izohlang.

2. **Ranglarning** inson ruhiyati, turmush tarzi, jamiyat hayoti yoki tabiat tasviridagi funksiyasini qiyoslang.

3. Inson qanday vaziyatlarda **yolg‘iz** qolishni istaydi va o‘z qalbiga murojaat qiladi?

4. Ruhan mahzun odamlar botinidagi **g‘am-qayg‘u** tashqi qiyofasida qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

G‘azalni o‘qiymiz:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sorg‘ordim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim.

xazon – kus fasli
yanglig‘ – singari, o‘xshab
rux – yuz, chehra, bet
zard – sariq

Baytda oshiqning qanday ruhiy holati ifodasi mujassam? Oshiqning gulyuzga iltijosi sabablari nimada?

“Xazon yaprog‘i”, “sorg‘ordim”, “chehrayi zardim” misralari o‘rtasida qanday uyg‘unlik bor?

Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayoqingg‘a tushub, bargi xazondek muncha yodbordim.

sarkash – o‘jar, qaysar; bebosh, itoatsiz;
ko‘chma ma‘nosi: tik o‘sgan, adil
sarv – tik o‘sadigan, qishda ham yashil
bo‘lib turadigan chiroyli bir daraxt
hargiz – hech, aslo, sira
ayoq – oyoq; kosa

*Nima uchun yorning itoatsizligi sarv obrazi zimmasiga yuklanmoqda?
Yaratuvchisi poyida sarsari yaproqlar bilan oshiqning zabun holi o‘rtasidagi mushtaraklikni bayon qiling.*

Latofat gulshanida gul kibi sen sabz-u xurram qol,
Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.

xurram – shod, quvnoq
dahr – dunyo, olam, jahon

Sarg'aygan yaproqlarning uzilib yerga tushishi tasvirida qaysi hayot qonuniga ishorani sezdingiz?

Oshiqning hatto olam uyini tark etar chog'ida ham baxshida tilaklari mazmuniga to'xtaling.

Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Bahar rangi, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim.

tanaffur – nafrat, jirkanish
bihamdillah – Xudoga shukur

Ko'z yoshining xazonga qiyoslanishida qanday mantiq bor? Bu o'rinda "xazon" so'zining mohiyatidagi zalvorni belgilang.

El nima uchun oshiqni tushunmaydi? Uning odamlardan o'zini olib qochishga intilishi sabablarini aniqlang.

Ne toledur mangakim, axtari baxtim topilmaydi,
Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.

axtar – yulduz
falak – osmon, samo
avroq - varaqlar

Sizningcha, lirik qahramon umr daftaridan nimani qidirmoqda? Nega uning izlaganidan hanuzgacha darak yo'q?

Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

ulus – xalq
ta'n – ta'na
ta'rif – tavsif, tasvir

Atrofidagilarning fikri bilan hisoblashmaslik lirik qahramon tabiatidagi qaysi sifatlarni namoyon etadi?

So‘nggi misralar mazmuni Boburning murakkab va ziddiyatli hayot yo‘liga qay darajada mos keladi? **G‘azalni tahlil qilamiz:**

1. Lirik qahramonga **tinchlik bermayotgan** holatlarga o‘xshash holatlarni boshingizdan o‘tkazganmisiz? Sizdagi shunday holat bilan oshiq ruhiyatidagi evrilishlarni qiyoslang. Qanday o‘xshashlikni tuydingiz?

2. Oshiqning **tashqi** qiyofasidan uning **ichki** dunyosiga xos qanday belgilarni payqash mumkin?

3. G‘azalda qo‘llanilgan **she’riy san’atlarni** topib, quyidagi jadvalni davom ettiring:

She’riy san’atlar	Misollar
istiora (metafora, so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noda, ya‘ni majoziy ma‘noda qo‘llash san‘ati)	latofat gulshani, dahr bog‘i
tashbeh (biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga o‘xshatish)	gul kabi, xazon yaprog‘idek
tanosub (ma‘no jihatdan bir-biriga bog‘liq, bir-birini taqozo qiladigan tushunchalarni qo‘llash san‘ati)	gulshan, gul, bog‘, yaprog‘

4. G‘azalning qaysi **vaznda** yozilganini aniqlab, ritmik bo‘laklarga ajrating va chizmada aks ettiring.

“Xating aro uzoring – sabza ichinda lola...”

G‘azal tahliliga tayyorlanamiz:

1. Lola gulining tashqi ko‘rinishiga e’tibor qarating. Botanikadan olgan bilimlaringizga tayanib, gul kosachasi ichidagi **manzarani** ko‘z oldingizga keltiring.

2. Gul va yor chehrasida qanday **o‘xshashlik** borligini qiyoslang.

G‘azalni o‘qiymiz:

Xating aro uzoring – sabza ichinda lola,
Ul chashmi purxumoring loladagi g‘azola.

xat – chiziq, iz, lab ustidagi tuklar

uzor – yuz, chehra, bet

chashm – ko‘z

g‘azola – kiyik, ohu

Baytda asosan yorning qaysi a'zosi madh etilmoqda?

Barcha parilar, ey jon, girdingda zor-u hayron,
Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola.

gird – tevarak, atrof, aylana

Oy atrofidagi gardish bilan go'zalga parvona qizlar o'rtasidagi uyg'unlik ta'rifiga munosabat bildiring.

Mehr-u vafoni, ey yor, ko'p ko'rdi sendin ag'yor,
Javr-u jafoni bisyor qilding manga havola.

ag'yor – raqiblar
bisyor – ko'p

Yor latofati bilan jabr-jafosi teng qo'yilishi sabablarini izohlang.

Hajringda, ey pariyo, ko'zumdin uchdi uyqu,
Har kecha tongga degru ishimdur oh-u nola.

Ishq oshiqni qay ko'ylarga soldi?

Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor,
Ishqingda Bobur aylar bu nav' yuz risola.

Maqta'dagi so'z o'yini zamiridagi ma'noni aniqlang. Yor vaslida ovora oshiq qanday ishlarga tayyor?

G'azalni tahlil qilamiz:



1. G'azalning O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ijrosida qo'shiq qilingan variantini tinglang. She'r va kuydagi **ohangdorlikni** his qildingizmi?

2. G'azal **tuzilishiga** xos xususiyatlarni belgilang. Muallifning **so'z qo'llash** mahoratini baholang.

3. **Shoir lirikasi mazmuniga tayanib** poetik mahorati **modelini yarating.**

TAKRORLAYMIZ ...

Mana, mumtoz adabiyotimizning ayrim namunalari bilan tanishdik.

Endi bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz.

1. O'qilgan asarlar bo'yicha **ma'lumotlarni** quyidagi jadvalda umumlashtiring.

Nomi	“Saddi Iskandariy”	Bobur lirikasi
Janri		
Mazmuni		
Tili va badiiy xususiyatlari		
O‘z davri uchun ahamiyati		
Hozirgi davr uchun ahamiyati		

2. Adabiyot darslarida va mustaqil o‘qigan asarlaringiz asosida XIV-XIX asrlarda o‘zbek adabiyoti **lirik va epik janrlarining** asosiy xususiyatlarini umumlashtiring.

Lirik janrlar: o‘ziga xos xususiyatlari	Epik janrlar: o‘ziga xos xususiyatlari	Lirik va epik janrlar: umumiy xususiyatlari

RAUF PARFI (1943–2005)

*O, ilhom, axtardim seni dunyoda,
Qismat yelkasida yugurdim, yeldim,
Goho shavq qanotida, goho piyoda
Yukunib men senga sig‘inib keldim.*

Rauf Parfi (Tursunali Parfiyev) 1943-yil Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida tug‘ilgan. Ota-onasi Parfi Muhammad Amin va Sakina Isabek qizi mustabid tuzum davrida ona yurti Farg‘onaning Vodil hududidan quvg‘in qilingan edi. 1960–1965 yillarda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)da tahsil olgach, Rauf Parfi turli nashriyotlar hamda gazeta va jurnallarda faoliyat ko‘rsatdi.

Uning “Karvon yo‘li” nomli birinchi kitobi 1968-yilda nashr etildi. Shundan so‘ng “Aks sado” (1970), “Tasvir” (1973), “Xotirot” (1975), “Ko‘zlar” (1978), “Qaytish” (1981), “Sabr daraxti” (1986), “Sukunat” (1991), “Tavba” (2000) kabi she‘riy majmualari e‘lon qilindi. Vafotidan so‘ng “Sakina” (2013), “Turkiston yodi” (2013) singari saylanmalari bosilib chiqdi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Hamid Olimjon nomidagi yillik mukofoti (1986) va Xalqaro Mahmud Qoshg‘ariy mukofoti (1992), “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni (1999) bilan taqdirlangan.

MEN SUVMAN, HALI HECH KIM ICHMAGAN...

“Undan she’riyat qoldi. Bir she’riyatki... uning yurt qayg‘usida yongan, yaqin salaflari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosiriylardan meros olgan go‘zal iztiroblari, bosqinchilarga o‘chi. Faqat bu tiniq tuyg‘ular izlanishlar bois yillar o‘tgan sari tobora ochildi, tashbehlari quyuqlashdi, fikri o‘ziga xos yangicha va baland avj, betakror shakl oldi. Yuksak ruhda maromiga yetdi. Asr boshida Cho‘lponlar boshlagan yangicha tajribalar asr oxirida Rauf Parfi kashfiyotlari bilan takomil topdi. Bu XX asr dunyo she’riyatining o‘rganilishli voqeasi. Uning yangiliklari (fikir tarzi, quyuq metaforalarida, sonet guldastalari shakli va ma’nosida) e’tirofga molikdir. Avvalo bu izlanishlar shaklda ham, ma’noda ham o‘zbek she’riyatiga yangi qon, yangi jilo berdi. Uning ijtimoiy mavzudagi she’rlari ham shaxsiy dard, kechinmadek qalbga yaqin va ta’sirchan. Turkiston fojiasi va iqboliga bag‘ishlangan she’rlar esa millat ziyolilarini turtib uyg‘otgan ruhi rangin, naqshin-nigorli otashin qo‘shiqlardir.

Uning she’riyatidagi ohorli So‘z, yangicha va har xil ohang, ramziylik va ishoralar, turlicha topilgan ritmika-sur‘at, fikr va hislarning qatlam-qatlamligi, eng achchiq va katta haqiqatlarni ochiq va timsoliy shamoyili favquloddadir. Shu ma’noda boshqa ma’ni va ishoralari, ong osti qochirmalari bo‘lishidan qat’i nazar “men yolg‘izman, ovozim yolg‘iz” satri, avvalo, o‘zi haqida o‘zining bahosi hamdir” .

(*Vafo Fayzulloh. “Men suvman, hali hech kim ichmagan. / Rauf Parfi: Turkiston ruhi. Saylanma. – Toshkent: “Sharq”, 2013-y. 15-16-b.)*



O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ ...

Siz bilan Rauf Parfining “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon” deb nomlangan she’rini mutolaa qilamiz.

O‘ylab ko‘ring:

Rauf Parfi she’riyatining asosiy mavzusi nima deb o‘ylaysiz? Savolga javob topish uchun “Men suvman, hali hech kim ichmagan ...” maqolasiga yana bir marta murojaat qiling.

Eslab ko‘ring:

1. Qadimda mamlakatimiz hududida qanday **davlatlar** bo‘lgan?
 2. O‘zbek millati va o‘zbek xalqi tarkibi qanday **etnik qatlamlardan** tashkil topgan?
 3. Chor Rossiyasining O‘rta Osiyo xalqlarini o‘z **ildizlaridan** ayirishidan asosiy maqsad nima edi?
 4. Qanday “ayb”lari uchun Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi jadid bobolarimiz **qatag‘onga** uchragan edi?
-

O‘ylab ko‘ring:

Millat va xalqning shakllanishida qanday **tuyg‘u** asosiy omil hisoblanadi?

She‘rni o‘qiymiz:

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon

Shu ojiz holimda shoirmanmi men?

Cho‘lpon

1. Ona tilim, sen ruhimning qanoti,
Abut-turk nafasi, Oltoy chechagi.
Xun davridan omon kelgan G‘iroting,
Qutlug‘ Enasoyning ezgu ertagi.

Urxun bo‘ylarida toshga aylanding,
Ko‘klarga sanchilding, Turon bo‘lding Sen.
Mangulik safarga qachon shaylanding,
Qachon bu alamga – kuchga to‘lding Sen.

Abut-turk (“turklar otasi”) – Nuh payg‘ambarning kenja o‘g‘li Yofasning laqabi
Oltoy (turkiy va mongol tillarida “altan” – oltin) – Osiyodagi tog‘ tizimi, Rossiya, Mo‘g‘uliston va Xitoy hududlarida joylashgan

Xunlar (xunnular) – qadimda markaziy Osiyoda shakllangan ko‘chmanchi xalq

G‘irot (G‘irko‘k) – “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi afsonaviy ot obrazi

Onasoy (Yenisey) – Osiyodagi daryo

Turon (forscha “turon” – turkiylar degan ma‘noni anglatadi) – turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama

Shoir nega “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon” deb nomlangan she‘rini Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Yofas va xunn qabilalarini, Oltoy va Enasoy singari geografik nomlarni eslashdan boshlaydi deb o‘ylaysiz?

Porloq osmoningda quzg‘unlar uchdi,
Evoh, yog‘iylarning soldi yag‘moni.
Yog‘iylarning jigar – qoningni ichdi.

yog‘iy – dushman
yag‘mo – talon-taroj,
buzg‘unlik

Quzg‘unlar deyilganda kimlar nazarda tutilmoqda? O‘tgan asrlarda o‘zbek millati, uning erksevar, fidoyi va ma‘rifatparvar farzandlari boshidan qanday ko‘rgilikliklarni kechirdi?

Jigar – qon jaranggi tutdi jahonni,
Onasen. Kechirding. Qonidan kechding.
Biroq kechirmading aslo yolg‘onni.

“Jigar – qon jaranggi tutdi jahonni” deyilganda nimalar ko‘z oldingizga keldi? Yolg‘ondan boshqasini kechira olgan Ona timsolida kimni ko‘rdingiz?

2. Dunyo oq emasdir, yo‘q, qorabardosh,
Kuyib yodimizdan kechganlar aytsin.
So‘zlarida zahar, ko‘zlarida tosh,
Elidan, tilidan kechganlar aytsin.

“Kuyib yodimizdan kechganlar”, “Elidan, tilidan kechganlar” tasvirlaridagi ma‘noni uqdingizmi? Bu yerda nima haqida gap boryapti?

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,
Kunlar gizli tug‘yon, bosib kelar she‘r.
Nechuk qismat erur shoir qismati,
Tushlarimni buzar hazrat Alisher.

Navoiy hazratlarining lirik qahramonni tushlarida ham tinch qo‘ymay, bezovta bo‘layotgani sabablarini aniqlashga harakat qiling.

Yillar bahorimni uchirdi chalqib,
Muzlarga ko‘chirdi o‘tluq yozimni.
Axtardim muhitda xas kabi qalqib –
Men o‘z Yulduzimni, o‘z Quyoshimni.

Yulduz sen. Quyosh sen. Sen ona xalqim,
Sen uchun sindirdim sinmas sozimni.

Aslida sinmas sozni qanday qilib sindirish mumkin? Misralar qatidagi tag ma'noni aniqlang.

3. Oh shoir qismati yarqiroq, gulgun,
Zavqlarga to'lar u, Bir So'zni izlar,
Dunyoda hech bir zot bilmas, ne uchun,
Ayricha kular u, ayricha bo'zlar.

*She'rdagi har bir So'zdan uning ohangi va ruhi borligi seziladimi?
Umrbod So'zni yengib, So'zga yengilib yashash shoirlik qismatimi?*

Yo'lsizlik yo'ldoshi, toleyi negun,
Hech qachon to'yarmi axir yovuzlar.
Bu – xalq dushmani, deb tutsalar bir kun,
Baribir, u xalqning nomidan so'zlar.

Boshida qora qish, oppoq bahorlar,
Yuragi yarimu butun iymoni,
Talotum olamni shivirlab chorlar.

Qora qish, oppoq bahor kabi ifodalar qanday vazifani bajargan?

Tani omonatdir, naqd erur joni,
Ko'krak qafasida lovullab porlar
Buyuk muhabbatning qonli nishoni.

Sizningcha, she'r nega aynan shunday yakunlangan?

She'rni tahlil qilamiz:

1. Erksevar shoir nomi bilan ataluvchi mazkur she'rda nima sababdan **ona tilining tarixi** haqida so'z yuritilgan deb o'ylaysiz?
2. Cho'lpon hayoti va o'zbek tili taraqqiyoti o'rtasida qanday **o'xshashlik** bor?
3. Lirik qahramonning ona tiliga bo'lgan **muhabbati** qaysi satrlarda bo'y ko'rsatadi? She'rda **ritorik murojaat** qanday maqsadga xizmat qilgan?

4. Asardan **yaxlit obrazga** aylangan soʻzlarni aniqlang.

5. Raur Parfi sheʼriyatining boshqa shoirlar ijodidan **farqlanuvchi** qaysi jihatlarini ilgʻadingiz?

Mushohada uchun mavzu:

XIX asrdagi Fargʻona general-gubernatori M.D.Skobelev shunday degan edi: “Millatni yoʻq qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, sanʼati, tilini yoʻq qilsang bas, tez orada oʻzi adoyi tamom boʻladi...”

Bu fikrga nima deya olasiz? Mulohazalaringizni milliy tariximiz va jahon tarixidan misollar bilan asoslang.

MUSTAQILLIK DAVRI OʻZBEK ADABIYOTI

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalar qatorida adabiyot sohasida ham muayyan oʻzgarishlar yuzaga keldi. Endi ijodkorlar adabiy turning romanchilik, hikoyachilik, sheʼriyat va dramaturgiya kabi barcha yoʻnalishlarida shoʻro mafkurasi qoliplarisiz, emin-erkin ijod qila boshlashdi. Realizm, simvolizm, modernizm, post- modernizm, neorealizm, sinkretizm kabi turli xil yoʻnalishlarga xos, mazmun va shakl nuqtayi nazaridan biri ikkinchisini takrorlamaydigan badiiy asarlar yaratildi.

Eslang:

Oʻzbekiston SSSR tarkibida boʻlganda hukmron boʻlgan shoʻro mafkurasi adabiyot va sanʼatga qanday taʼsir qilgan edi?

Istiqlol davrining birinchi bosqichida yaratilgan **sheʼrlarning** aksariyatida mustamlaka davrda toptalgan inson qadr-qimmatini, mustaqillik neʼmati, Vatanga muhabbat, sadoqat va shukronalik hissi aks etgan mavzular yetakchilik qildi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Rauf Parfi, Azim Suyun, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlar sheʼrlarida ozod inson, ona yurt, erk va hurriyat mavzulari har bir ijodkorga xos individual tuygʻular orqali talqin etildi.

Keyinchalik mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyati mavzu mundarijasi jahon adabiyotidagi yangiliklarga hamohang boyitib borildi. Xususan, modern sheʼriyatiga xos noanʼanaviy tashbehlar va koʻchimlar Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Ikrom Otamurod, Xurshid Davron, Farida Afroʻz, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Roʻzimuhammad, Faxriyor, Zebo Mirzayeva, Xosiyat Rustamova kabi ijodkorlar sheʼriyati mazmunini

kengaytirdi.

Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatining yana bir sara namunalari sifatida Rauf Parfining “Adashgan ruh”, “Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon”, “Sensiz”, Halima Xudoyberdiyevaning “Dorilomon kunlar keldi...”, “Muqaddas ayol”, “Yo‘ldadirman”, Azim Suyunning “Ey do‘st” (qayirmalar), Usmon Azimning “Baxshiyona”, Muhammad Yusufning “Lolaqizg‘aldoq”, “Biz baxtli bo‘lamiz”, “Iqror”, Sirojiddin Sayyidning “Ilinj”, “Alamli dunyoda”, Zulfiya Mo‘minovaning “Ayolga baxt bering”, Abduvali Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at”, “Oq va qora”, Faxriorning “Ayolgu” kabi ko‘plab asarlarini tilga olishimiz mumkin.

Bu avlod she‘riyati adabiyotdagi boy va turfa ijodiy tajribalar asosida shakllanib, original qiyofa va mazmun kasb etdi. Ular ichida, ayniqsa, Shavkat Rahmon she‘rlari o‘ziga xos ifoda uslubi bilan ajralib turadi.

Uning “Turkiylar”, “Tungi manzara”, “Tong ochar ko‘zlarin...”, “Minorai kalon”, “Sulaymon tog‘i etagida o‘ylaganlarim”, “Iqror” kabi she‘rlarida ramziy-majoziy timsollarning o‘ziga xos talqinlari nuqtayi nazaridan san‘at darajasidagi ijod namunalari sifatida ko‘rsatish mumkin.

Yangilanish davrida lirik janrda ijod qilgan shoirlardan yana biri Ikrom Otamurod bo‘lib, uning she‘rlarida so‘zlarni tejab qo‘llash, tuyg‘ular tasviri aksariyat hollarda ko‘p nuqtalar zimmasiga yuklatilishi bilan individual sanaladi. Xususan, bu usul “Yarador umid otlari”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, “Ichkari... Tashqari”, “Aning umidi”, “Sopol siniqlari”, “Ko‘pchilik yurgan yo‘l...”, “O‘rin” kabi doston va she‘rlarida ohangdorlik va kompozitsion ixchamlikni vujudga keltirgan.

Shoirning “O‘rin” dostonida olam va odamning yaralishi, hayotda har kimning o‘z o‘rni borligi yoki aksinchaligi, kun va tun, yer va osmon, botin va zohir, sobitlik va lafzsizlik, diyonat va nafs, toqatsizlik va chidam kabi mazmunan zid tushunchalarni yonma-yon qo‘llash orqali inson hayotining dramatik holatlari aks ettiriladi. Masalan: *Andisha* nochor *kibor* tovidan. *Qadr* dog‘lanadi ilahsa *jabr*. *Burd* yo‘qolgaydir *beburd* sovidan. Dilga madaddir dildagi sabr....

Belgilarni qo‘llash usuli – sukut ko‘pincha qalb iztiroblarining so‘zsiz izhori chog‘ida qo‘l kelgan. Har bir kitobxon bu belgilar ma‘nosidan o‘zi uchun zarur hayotiy va ma‘naviy ehtiyojni topishga intiladi. Masalan:

...Xoksorgina keksa bir odam,
tiqilinch ahvolin unutdi.
Manziliga mushtoq xos chidam
o‘ylovining og‘rig‘in yutdi...

.....
.....
.....

O‘ylab ko‘ring:

Mustaqillik davri she‘riyatining XX asr boshlaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davr she‘riyatiga nisbatan ham shakl, ham mazmun jihatdan rang-baranglik kasb etishi sabablari nimada?

Mustaqillik davrida yaratilgan **nasriy asarlarda** ham har jihatdan turli xil yo‘nalishlar kuzatilmoqda. Globallashuv jarayonlari o‘zbek yozuvchilarini jahoniy miqyosda fikrlashga da‘vat etmoqda. Bugun jahon adabiyotiga xos muhim xususiyatlar Erkin A‘zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Rahimjon Rahmat, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlar asarlarida to‘la aks etmoqda. Folklor namunalaridan ijodiy oziqlanish hodisasi kuzatilishi barobarida milliy xarakter yaratish, ruhiy poklanishi muammosi ramzlar vositasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shaxs suvrati va siyratining badiiy-falsafiy talqini Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam”, XurshidDo‘stmuhammadning “Bozor”, “Jajman”, A.A‘zamning “Soyasini yo‘qotgan odam”, “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”, Nazar Eshonqulning “Qora kitob”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar”, “Qo‘noq”, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Bir piyola suv”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Qismat”, Nurulloh Otaxonovning “Oq bino oqshomlari” singari asarlarida to‘laligicha o‘zini namoyon etadi.

Nazar Eshonqul milliy nasr taraqqiyotida salmoqli o‘rin egallagan so‘z san‘atkoridir. U insonni anglashda xalqning zamona zayli, soxta mafkuralarga ishonchsizlik tufayli paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqlar, erkka intilish kayfiyati hamda ruhiyatidagi evrilishlarni ramzlar, ishoralar orqali gavdalantirishga intiladi. Bu jihatlar uning “Maymun yetaklagan odam”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Tun panjaralari”, “Qora kitob”, “Yalpiz hidi”, “Bevaqt chalingan bong”, “Ochilmagan eshik”, “Ajr”, “Muolaja”, “Xayol tuzog‘i”, “Ozod qushlar” asarlari mazmun-mohiyatida mujassamlanadi.

Jahon prozasining ilg‘or an‘analarini o‘zlashtirish misolida yangi obrazlar yoki g‘ayriodatiy hodisalar tasviri X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, “Nigoh”, “Panoh”, “Kuza”, “Hijronim mingdir mening”, “So‘roq”, “Jajman” singari asarlari mavzu ko‘lamini tashkil etadi.

Xususan, yozuvchining “Panoh” asari sujeti va kompozitsiyasi xuddi mozaikaga o‘xshash turfa shakl va ranglardan uyg‘unlashadi. Qahramon ongida ostin-ustun, aralash-quralash tus olgan chigal manzaralar, hodisalar, quroq xotiralar tasviridan yaxlit ko‘rinish oladi. Sirdan mantiqsizdek tuyulgan voqea-hodisalar zamirida teran ma’no, ichki tartib mavjudligi oydinlashadi.

Qissada bosh qahramon Ahmadali shuuridagi mudroq tuyg‘ular Kimsan qiyofasidagi o‘zligi ta’sirida uyg‘ona boshlaydi. Kitobxonning dastlab Kimsan kim, u qayerdan paydo bo‘lib qolganini “hazm qilishi” oson kechmaydi. Qahramon ruhiyati voqealar rivojida Kimsan bilan xayoliy tortishuvlar samarasi o‘laroq yuksala boradi. Ahmadali ichki va tashqi “men”idagi qarama-qarshiliklar ta’sirida sobiq kuzatuvchi o‘rni boshqasi egallaydi. Natijada qahramon o‘z borlig‘ini anglay boshlaydi. Jur’at, isyon va g‘urur tarzida bo‘y ko‘rsatgan yangi Kimsan obrazi Ahmadalini hayotga o‘zgacha nigoh bilan qarashga, insonga panoh bo‘luvchi qadriyatlar haqida tafakkur yuritishga majbur etadi.

Eslang:

Zamonaviy o‘zbek yozuvchilaridan kimlarning qaysi asarlarini o‘qigansiz? Bu asarlarda qanday mavzular ko‘tarilgan?

Istiqlol yillarida o‘zbek milliy **dramaturgiyasi** sohasida ham ko‘zga tashlanarli evrilishlar yuz berganligini A.Oripovning “Sohibqiron”, U.Azimning “Bir qadam yo‘l”, “Alpomishning qaytishi”, E.Samandarning “Arabmuhammad Bahodirxon”, A.A’zamning “Dugohi Husayniy”, “Djek London hikoyasidan so‘ng”, O.Yoqubovning “Bir koshona sirlari”, “Fotihi muzaffar yoki bir parivash asiri”, T.Mirzoning “Amir Temur”, I.Hasanning “Bir kam dunyo”, H.Rasulning “Piri koinot”, I.Rahimning “Farg‘ona farzandi”, Y.Sulaymonning “Al-Farg‘oniy muhabbati”, K.Avazning “Ogahiy” kabi asarlari misolida ko‘rish mumkin.

O‘ylab ko‘ring: Mustaqillik yillarida dramaturglarimizning tarixiy mavzularga va milliy urf-odatlariga ko‘p murojaat qilishlari sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

So‘nggi yillarda shakl va mazmundagi badiiy-estetik yangilanishlar hosilasi sifatida G‘.Shermuhammad, X.Safarov, A.Suyunov, M.Tilavova, Go‘zal Begim, Oydinniso, Gulbahor Said G‘ani, Zulfiya Qurolboy qizi singari qalamkashlar ijodini e’tirof etish mumkin.

FAXRIYOR (1963)

Faxriyor (Faxriddin Nizomov) 1963-yil Samarqand viloyati Xatirchi tumanidagi (hozirda bu tuman Navoiy viloyatiga qarashli) Sangijumon qishlog'ida tug'ilgan. 1988-yilda Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatgan. "Dardning shakli", "Ayolg'u", "Geometrik bahor" she'riy to'plamlari, "Yangilanish an'analari" publisistik maqollar to'plami nashr etilgan.

Shoirning "Amerika hikoyalari" kitobidagi qator asarlar, rus olimi Mixail Epshteynning "Yuksak poeziya va alpodam" maqolasi, T.Uinter (Abdulkhakim Murod)ning "21-asrda islom: postmodern dunyoda qiblani topish" kabi diniy-falsafiy kitobi, "Saroy javohiri" nomli koreys seriali hamda chililik Pablo Neruda va latviyalik Maris Chaklays she'rlaridan tarjimalari muxlislar e'tiboriga havola qilingan.



O'QISHGA TAYYORLANAMIZ ...

Siz bilan shu paytgacha o'qigan she'rlarimizdan boshqacharoq she'riyat olamiga sayohat qilamiz.

O'ylab ko'ring:

She'r nima uchun yoziladi? Nima uchun o'qiladi?

Xayol

Mushohada yuritamiz:

1. Aziz o'quvchi, xayol surish yoki orzu qilish insonlarga xosligini yaxshi bilasiz. **Xayol va orzu** o'rtasida qanday chegara bor?
2. Nimalar haqida xayol surishni xush ko'rasiz? Xayolga cho'mgan paytingizda o'zingizni qanday **his etasiz**?
3. Xayolning **reallikka** aylanishi uchun nimalar qilish kerak?

She'rni o'qiymiz:

Derazadan yopilib kiradi shamol – uy yutoqib oladi nafas
Dimqisma chol kabi.

Siz xayolni qanday tasavvur etasiz? O'zingiz va ijodkorning fantaziyasini solishtiring. Qanday farq sezdingiz? Siz xonaga shamol kirish lavhasini qanday akslantirar edingiz?

Shamol ko‘zguga borib urilar,
chayqatib yuborar sathini.
To‘fon turar ko‘zgu sathida.

Ko‘zgu sathida ko‘tarilgan to‘fon shaklini chizib bera olasizmi? Bu yerda qanday tasviriy vositalar tanlangan?

Loyqalana boshlaydi ko‘zgu.
Loyqalar sachraydi uy devoriga,
yerga oqib tushadi loyqa,
pardalarga sachraydi betin.

Loyqa nimaning ramzi? Bu so‘z takrori qanday san‘atni yuzaga keltirgan?

Ko‘zguga qarab
sochlarini tarayotgan ayolning
hammayog‘i shalabbo bo‘lar.

Shoir ayolning shalabbo bo‘lish tasviri orqali nima demoqchi?

She’rni tahlil qilamiz:

1. Nima deb o‘ylaysiz, she’rga **semiot kalit** (bayon qilinyotgan madaniyat, voqea- hodisani tushunishga yordam beruvchi asosiy vosita) to‘g‘ri tanlanganmi? Matnga asoslanib javob bering.

2. Qaysi bitiklarda bir o‘qishda **singishmaydigan** misra-iboralar uchraydi? Banddan-bandga **tasvir dinamizmi** yuksalib borgan satrlarni aniqlang.

3. She’rdan fikr, rang va harakat plastikasi **garmoniyasiga** (uyg‘unligiga) misollar toping.

* * *

Mushohada yuritamiz:

1. Inson kayfiyati ma’lum ma’noda tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarga ham bog‘liq, degan fikrlarni qay darajada to‘g‘ri deb hisoblaysiz?

2. Umrning yil fasllariga qiyoslanishida qanday bog‘liqlik bor?

3. Siz qaysi faslni intiqib kutasiz? Yil fasllaridan o‘zingiz uchun qanday hikmatni kashf qilgansiz?

Lug‘at:

Quyida berilgan so‘zlarning ma‘nolari bilan tanishib chiqing. Bu so‘zlar sizga she‘rni tushunishga yordam beradi.

to‘rkunlash – boshqa uyga kelin bo‘lib tushgan qizning ilk marta ota uyiga mehmon bo‘lib borishi

zamburug‘ – tarkibida xlorofill bo‘lmaydigan, spora bilan ko‘payadigan, ildizsiz va urug‘siz tuban o‘simliklarning nomi.

chaqin – o‘t, o‘t uchquni, chaqmoq.

tul – eri yoki xotini o‘lib yolg‘iz qolgan; beva, yesir.

jigarxun – (forscha “*jigari qon*”) ezilgan, qiynalgan, xunob bo‘lgan

She‘rni o‘qiymiz:

Bahor kelar dalalarga to‘rkunlab,
Qushlar ham qaytadi olis-yaqindan.
Qishki uyqusidan uyg‘onar millat,
Zamburug‘lar bola ko‘rar chaqindan.

Tasavvur qiling, zamburug‘ qanday qilib chaqindan bolalashi mumkin?

Shoir millatning qishki uyqudan uyg‘onishi tasviri orqali nima demoqchi? Chaqin nimaning ma‘joziy ifodasi?

Daralar gumburlar – qah-qah urar gul –
bog‘larni uyg‘otar momoguldirak.
Dalalar ko‘k kiyar – ayoq qolar tul,
quyoshni qitiqlab maysa kuldirar.
Jilg‘alar daryoga olib enadi
bahor daragini – boychechak aytgan!
Qish zahri toshlarga tegib sinadi.

She‘rdagi qaysi lavhalarda tabiat hodisalari badiiy gavdalantirilgan?

Ko‘ksingni yoradi g‘am kurtaklari,
Yonib yozging kelar jigarxun baytlar,
Yurakni aldaydi ishq ertaklari.

Lirik qahramon kayfiyatiga aynan qaysi holat ko‘tarinkilik bag‘ishlagan? “Yurakni alqagan ishq ertaklari” ifodasi she‘r mazmunini qay darajada o‘zida aks ettiradi?

She'rni tahlil qilamiz:

1. Siz she'rni qanday **nomlagan** bo'lar edingiz?
2. Borliq, undagi **yangilanishlar** tasviri orqali muallif qanday g'oyani ilgari surgan? She'r sizga qanday **kayfiyatni** yuqtirdi?
3. Sherda tilning maxsus **tasviriy vositalaridan** qaysilari ishtirok etganligini aniqlab, ularni jadval shaklida qayd eting.

* * *

Mushohada yuritamiz:

Affekt (lotincha “*affectus*” – “*ruhiy holat, ehtiros*” so‘zidan) – tashqi yoki ichki ta’sirlar tufayli tez paydo bo‘lib, qisqa muddatli, aksariyat hollarda “portlash” tarzida bo‘ladigan, odatda tez o‘tib ketadigan kuchli hissiy holat. Affekt holatida inson o‘zini boshqara olmay qoladi, hatti-harakatlariga javob bermaydi.

Sizningcha, insonning affekt holatda ekanligini belgilaydigan eng muhim xususiyat nima?

O‘qish davomida e’tibor bering:

Assotsiativ obraz (lotincha “*associatio*” – “*birlashmoq*” so‘zidan) narsa-hodisa va tushunchalar o‘rtasida ilg‘ab olinishi qiyin bo‘lgan aloqalarga asoslangan, ularni kutilmagan tarzda biriktirish (qiyoslash, qarshilantirish) orqali voqe bo‘luvchi va shu tufayli yuksak darajada metaforiklik, subyektivlik kasb etuvchi obraz.

1. Matnda assotsiativ so‘zlar qanday holatlarni ifodalaydi?
2. Har bir parchaning tugal ma’no anglatishi yoki bir-biriga bog‘liq emasligiga e’tibor bering.
3. O‘qish chog‘ida faxriy orona ohangdagi yangicha poetik ixtirolarni topib, daftaringizga yozib boring.

Lug‘at:

Quyida berilgan so‘zlarning ma’nolari bilan tanishib chiqing. Bu so‘zlarning ko‘pi sizga tanish, lekin ularning ma’nosini yana bir marta eslab olish she'rni tushunishga yordam beradi.

sirqimoq – sizib o‘tmoq, tomchilab oqmoq

ibtido – (arabcha) biror narsa, ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning avvali, boshlanish davri

intiho – (arabcha) oxir, nihoya

ovushgan – (sheva so‘z) alishmoq, alishtirmoq

to‘zim – kishining qiyinchilik, og‘riq, kulfat va shu kabilarga chidash qobiliyati; chidam, bardosh

pari – 1. Sharq xalqlari folklorlarida juda go‘zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins- jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz; go‘zallik ramzi. Ilhom parisi poet. Ijodkorga ilhom beruvchi kimsa yoki narsa

2. ko‘chma ma’noda: juda go‘zal, xushro‘y ayol, nozanin

tovon – I. 1. Oyoq kaftining orqa qismi. 2. Oyoq kiyimining shu yerga to‘g‘ri keladigan qismi

II. (forscha “*jarima, penya, haq to‘lash*” so‘zidan) keltirilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan yoki olinadigan haq

losh – (forscha “*o‘lik tana, murda*” so‘zidan) (sheva so‘z) jonsiz gavda; murda; o‘laksa

oyli – 1. oy chiqib, yog‘du sohib turgan; oydin

2. oy shaklidagi guli, naqshi bor

She’rni o‘qiymiz:

Bo‘g‘zimdani sirqirar tovush – qon,

gul – mening eng so‘nggi so‘zimdir.

Ibtido, intiho ovushgan,

muhabbat sen bergan to‘zimdir.

Bo‘g‘izdan qon sirqishi yoki gul so‘ngso‘z ifodasi ekanligini qanday tushundingiz? Banddagi kontrast holatlarni aniqlang va ular nimaga xizmat qilgan?

Men uni qadayman ko‘ksimga,

yuragim tovondir – yorilar.

Sen meni sevmagin, o‘ksima,

toshbag‘ir bo‘ladi parilar.

Yurak nega tovonga qiyoslanmoqda? Yorilgan yurak nimaga ishora? Aynan qaysi satrlarda lirik qahramon o‘zini inkor etmoqda?

Men seni gunohkor etmasman,
suyarman, kuyarman, boshimga
yetar ishq, men senga yetmasman.

Lirik qahramon murojaati kimga qaratilgan?

Yuragim tovondir – to‘layman
oyligim, boyligim – loshimni.
Ko‘zimni so‘zimga ulayman .

Ko‘zni so‘zga ulab bo‘ladimi? Bu o‘rinda muallif nima demoqchi?

She’rni tahlil qilamiz:

1. She’rdan muallif **nuqtayi nazarini** aniqlang.
2. . She’r qanday **yakunlanadi?**
3. Matndan **shakldosh so‘zlarni** toping va ulardagi ma’noni izohlang

* * *

Umumlashtiramiz:

1. Faxriyor she’rlarini o‘qiganingizda dastlab hafsalangiz pir bo‘lib, zerikish hissini tuydingizmi? Qanday **manzaralar galereyasiga** kirib qolganingizni chizib ko‘rsating.

3. O‘zlikni anglash, borliqni badiiy-estetik idrok etishda Faxriyor ijodida ma’lum darajada turkona yo‘nalishdan **chekinish** mavjudmi? Fikringizni turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganish davomida olgan bilimlaringiz asosida izohlang.

4. Ruhiyat, so‘z, musiqa va tasviriy san’at **sintezi** (birlashishi) ijodkorning aynan qaysi asarlarida ko‘zga tashlanishini aniqlang.

5. Cho‘lpon, Rauf Parfi va Faxriyor she’riyatidagi **mushtaraklik va tafovutlarni** qiyoslang.

NAZAR ESHONQUL (1962)

Nazar Eshonqul 1962-yil Qashqadaryoda tavallud topgan. O‘rta maktabni bitirgach, Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetida, keyinchalik mazkur oliygoh aspiranturasida tahsil olgan. U bir necha yillar davomida Yozuvchilar uyushmasi, turli adabiy gazetalar, Toshkent davlat universiteti, “Jahon

adabiyoti” jurnallarida faoliyat yuritgan. 1997-yildan bugungi kunga qadar O‘zbekiston teleradiokompaniyasida ishlab kelmoqda.

Nazar Eshonqul “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq”, “Tun panjaralari”, “Qora kitob”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Yalpiz hidi”, “Bevaqt chalingan bong”, “Ochilmagan eshik”, “Ajr”, “Maymun yetaklagan odam”, “Muolaja”, “Xayol tuzog‘i”, “Ozod qushlar” kabi qator qissa va hikoyalar muallifidir. U o‘zbek hikoyachiligiga o‘z uslubi, ovozi bilan kirib kelgan adiblardan biri.

Nazar Eshonqul o‘z ijodida xalq og‘zaki ijodi motivlariga murojaat qiladi, shu bilan birga, unda Sharq va G‘arb adabiy jarayoni an‘analarining birlashishi, xususan, XX asrning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari ta’siri sezilib turadi. Bu jihatlar shakl va mazmun jihatidan ifoda xususiyatlarining muayyan darajada yaqinligi, hayotning umumlashma in’ikosini miqlarga murojaat qilish, ramzlar vositasida ifodalashida ko‘zga tashlanadi.

*“San’at qalb va ruhni
qutqaradi”. Nazar
Eshonqulning bu
falsafasida qanday haqiqat
mujassam deb o‘ylaysiz?*

Har bir odamning o‘ziga xos ma’naviy olami, tafakkur tarzi bo‘lganidek, ijodkor ham takrorlanmas individ sifatida o‘zligini asarlari orqali namoyon etadi. Nazar Eshonqul ijodida bu jihatlar axloqiy-estetik masalalar ustuvorligi hamda shaxsning suvrati va siyratini badiiy-falsafiy talqin etishdagi tamoyillarning yangilanishida farqlanadi. Yozuvchi insonni anglash va tushuntirishda xalqning zamona zayli, soxta mafkuralarga ishonchsizlik tufayli paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqlar, erkka intilish kayfiyati hamda ruhiyatidagi evrilishlarni ramzlar, ishoralar orqali gavdalantirishga intiladi.

O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ ...



Siz o‘qiydigan asar – **“Maymun yetaklagan odam”** hikoyasida voqelik timsoliy-ramziy detallar, ishoralar asosiga qurilgan bo‘lib, unda urg‘u asosan ramziylashgan inson hayotiga qaratiladi.

Eslang:

Maymun timsoli ishtirok etgan qanday asarlarni o‘qigansiz? Bu asarlarda maymun nimaning ramzi sifatida gavdalanadi?

Hikoyada rassom cholning umr lavhalari suratlar shaklida akslanadi, rassom chizgan suratlar zamiridagi ma’no mohiyatini ramzlar orqali ochishga harakat qilinadi.

Asarni o‘qish davomida quyidagi savolga javob izlang:

Muallifning rassom obraziga murojaat qilishining sababi nimada deb o‘ylaysiz? Mulohaza yuritishda adib hayoti va ijodi yoritilgan manbalarga tayaning.

MAYMUN YETAKLAGAN ODAM

Bu voqea uch yillar oldin bo‘lgan edi. Shu ko‘chadan bir uyni ijaraga olib ko‘chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi: u ko‘chaning muyulishida men egallagan uyga qo‘shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o‘rindiqda chuqur o‘yga tolgan holda ko‘rgan edim. U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo‘lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko‘rimsiz yuzi tarix kitoblarida tasvirlangan badjahl ma‘budlarning haykaliga o‘xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortardi. Ko‘zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o‘ychan o‘tirardi. Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda - go‘yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo‘ygandek, hech narsaning qizig‘i qolmagandek menga e‘tiborsiz bir ko‘z tashlad-ida, so‘ng yana o‘sha holatida yerga qarab o‘tiraverdi.

Hikoya sarlavhasini qanday tushundingiz? Kim kimni yetaklayapti?

Sizningcha, hikoya nega cholning yoqimsiz tasviri bilan boshlangan?

Bir necha kundan so‘ng uy bekasidan bu cholning bir paytlar tuzukkina rassom bo‘lganini va hozir ham surat chizib turishini eshitib, hayron qoldim. Uni hayotda omadi chopmagan biron amaldor bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgandim. Keyinchalik cholni tez-tez o‘sha kitelida go‘yo necha qadam umri qolganini o‘lchab yurgandek og‘ir qadamlar bilan uyiga yoki ko‘cha boshidagi oziq-ovqatlar do‘koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrab-qaqshab yeb o‘tirganini, qoboqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo‘yganini ko‘rib qolardim. Zaharli, odamni bo‘g‘ib, holsiz qilib qo‘yadigan bu adovat menga o‘shanda uning butun tanasidan, vujudidan, qoqshol bo‘lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimli qo‘rg‘on kabi menga noma‘lum bo‘lgan umr qal‘asidan ufarayotgandek tuyulgandi. Uni ko‘rsam, negadir yuragim g‘ash tortadigan, ko‘nglim behuzur bo‘ladigan, kayfiyatim buziladigan bo‘lib

kitel – odatda harbiylar kiyadigan ust kiyim

Choldagi bunday adovatning sababi nimada deb o'ylaysiz?

qolgandi, vaholanki, hali u bilan salom-alikdan nariga o'tmagandik. Menga, avvalo, uning turqi yoqmasdi: nochor holiga qaramay, odamlarga kibr aralash dimog'-firog' bilan qarar, hammaga yotsirab, shubha bilan tikilar, go'yo o'zini bir umr har bir kishiga shunday tikilib o'tgandek tutardi. Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki ovqat chiqarib berishni iltimos qilib qoldi. Cholning sovuq yuzini esladim-u istihola qildim; biroq yo'q deya olmadim. Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda savat kursida o'tirgancha oldidagi suratromga egilib olgandi. Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman, hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo'yi saqlab kelgan bo'lsa kerak, degan fikr kelib qoldi. Hiddan ko'nglim ayniguday bo'lib chol o'tirgan ayvonga yo'l oldim. Chol menga e'tibor ham bermadi, ajabsinib bir qarab qo'ydi-yu, o'z ishini davom ettiraverdi; u qandaydir bo'yog'i ko'p surat chizayotgan edi. Nariroqda turgan kichkina xontaxtani keltirib cholning oldiga qo'ydim: u shunda ham e'tibor bermadi: u o'ziga ovqat keltirib berishlariga ko'nikib qolgan edi, shekilli. Shunda uning qo'llari qaltirab, bo'yoqlarni chaplab yuborayotganini sezib qoldim. Cholning oldiga ovqatni ham qo'yganimdan so'ng, u chizishdan to'xtab, xontaxtaga o'girildi va bo'yoqli qo'llari bilan nonni bemalol sindirdi, og'ziga tutdi; yorilib qolgan lablari orasidan chirigan ko'm-ko'k tishlari ko'rindi. Shunda men yana uning qandaydir badjahl ma'budning haykaliga juda o'xshab ketishini sezdim. U bu yerdaligimni ham unutganday, xo'rillatib, imillab, chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va og'zining ikki chetidan lag'monning suyug'i yana kosaga oqib tushar, boshi qalt-qalt titrar, bo'yinlarida tirishib qolgan tomirlar yutinganda bo'rtib, ko'karib ketar, ko'zlari horg'in yoshlanib turar, har dam – har damda qansharini o'ng qo'li bilan qashirdi. Bu unga odat edi, chog'i – qanshari turli bo'yoqlarga

qanshar – burunning ikki qosh o'rtasidagi yuqori qismi

belanib qolgandi. Qo'llari qoshiqni madorsizlik bilan ko'tararkan, uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan

Sujet chizig'ida o'ta quyushlashtirib tasvirlangan mavhumlik va chirkin hid tagzaminida qanday maqsad yashirin deb o'ylaysiz?

yuziga qarab, ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va ro‘dapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmasdi.

– Suratlarinigizni ko‘rsam bo‘ladimi? Yigirmanchi yillardagi suratlarinigizni, – deb so‘radim undan shubhamni bildirmaslikka tirishib. Chol bamaylixotir kavshandi-da, menga qaramasdan, o‘ziga buning aloqasi yo‘qday, go‘yo bir uyum axlatni ko‘rsatayotganday, ijirg‘anib, qo‘li bilan ayvonning to‘rini ko‘rsatdi.

– Hammasi tartib bilan terib qo‘yilgan, u tomondan boshlanadi, – dedi hirqiroq, tovushda. Uning tovushi ham shunchalik sovuq ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi; indamay ayvonning to‘riga qarab yo‘l oldim.

Cholning yigirmanchi yillardagi suratlarini shu ko‘chadagi bir-ikkita san‘atdan xabardor kishilar maqtashgandi; muzeyda ishlaydigan o‘rtog‘im ham cholning suratlari ko‘rgazmaga qo‘yilganini aytgandi. Chol yigirmanchi yillarda komsomol bo‘lgan va bosmachilarga qarshi kurashgan, yangi hayot qurishda faol ishtirok etgan, deyishgandi.

komsomol – kommunistik partiyaning quyi tashkiloti a‘zosi

Yigirmanchi yillarning shiddatli shamoli uni yuksak parvozlarga ko‘targan; o‘ttizinchi yillarda mas‘ul vazifalarda ishlagan, deb hikoya qilishardi. U o‘sha amalida toki iste‘foga chiqarib yuborishgunlaricha uzoq yillar ishlagan ekan. Ko‘chadagilar uning o‘sha davr faoliyatini mish-mishlar bilan qo‘shib-chatib hikoya qilishardi. Chol ishdan ketgach, mana shu eski uyga qamalib olgan, hech kimga qo‘shilmaydi, bir vaqtlar o‘zi ozor bergan kishilarni ko‘rgisi kelmaydi, deyishardi. Cholning xotini elliginchi yillarning oxirida o‘lib ketgan, faqat istarasi o‘zinikidan ham sovuq yolg‘iz o‘g‘li bor edi. O‘g‘li avvallari kissavur bo‘lgan, keyin qotillik qilgani uchun qamalib ketgan, endi esa qimorning orqasidan kun ko‘rar ekan. U juda jizzaki yigit edi.

kissavur – cho‘ntakkesar o‘g‘ri

Uni ikki marta ko‘chada ko‘rgandim. Aytishlaricha, u shaharning chekkasida bir beva bilan yashar va oyda-yilda otasiga bir ko‘rinish berar, shunda ham har doim janjal bilan jo‘nab ketar edi. U cholning oldiga ko‘pincha birdan-bir maqsad bilan – pul so‘rab kelar, agar topib bermasa, g‘avg‘o ko‘tarar, hatto ikki marta otasini urib ketgan, deb aytishardi. Ko‘plar “cholning puli bor, lekin hech kimga, hatto o‘g‘liga ham ravo ko‘rmaydi, juda xasis”, deyishardi. Kim biladi, o‘g‘li ham otasi haqida shunday o‘ylasa kerak; u otasini zarracha hurmat qilmasdi. Uning ovozi ko‘chadan o‘tib borayotib eshitib qolgandim. “Hech narsani bilmayman, – deb baqirardi u qandaydir qirindi tovushda, – agar topib bermasangiz,

sizga qo‘shib uyga ham o‘t qo‘yaman”. So‘ng taraqa-turuqlar, ihrashlar, cholning nimadir deb so‘kingani eshitildi. Kechqurun uy bekasi o‘g‘li cholni yana urib ketganini aytgandi.

Cholning ayvoni – unga ustaxona vazifasini o‘tasa kerak – oldi oynali, yozda derazalarini lang ochib salqinlatib qo‘ysa bo‘ladigan, keng go‘sha edi. Cholning yigirmanchi yillardagi suratiga juda qiziqardim, umuman, cholga qarab turib qiziqishim yana ham ortgandi. Bu yerda har xil keraksiz ashqol-dashqol – sun‘iy gullar, tuvaklar, turli bo‘yoqlar, sarg‘ayib ketgan kitoblar, olov ko‘tarib borayotgan bola tasvirlangan haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to‘rlar, zanjirlar qalashib yotar va bu yerdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko‘ra besamar o‘tgan umrni eslatadigan besarishta qaznoqqa o‘xshab ketardi. Ayvon uzun bo‘lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko‘rgazmaga qo‘yilgandek terib qo‘yilgan, to‘g‘rirog‘i, bor-yo‘g‘i qirqqa yaqin surat va eskizlar “1957”, “1947”, “1937”, “1928”, “1926” va hokazo tartibda terib qo‘yilgandi. Suratlarini oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo‘rg‘on tomon ko‘tarilib borayotgandek his etdim o‘zimni. Oxirgi, ayvonning burchagiga osib qo‘yilgan suratning tagiga “1921” sanasi yozib qo‘yilgan

*1957, 1947, 1928, 1926
kabi sanalar tarixdagi qanday
g‘oyalarni yodgasoladi?*

edi: chol shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo‘lsa-da, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuq o‘rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko‘zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo‘yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo‘lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg‘ish va javdari bo‘yoq yigitning ko‘nglidagi hissiyotni to‘la aks ettira olgan edi. Keyingi suratlarda cholning qo‘li ancha kelishib, bo‘yoqlar tiniq, o‘z o‘rnini topgan, tabiat manzaralari tobora go‘zallashib borardi, ranglar ham turfa xil edi. Biroq bir lahzada osmon-u falakni qoplagan kuzgi qarg‘alar kabi suratlariga qandaydir mavhumlik - qora rang yopirilib kirgandi. Qora bo‘yoqning suratdan suratga ortib borishi meni hayratga soldi: mavhumlik tasvirda ham, bo‘yoqda ham sezilardi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o‘rnini qora ranglar olayotganining guvohi bo‘ldim. O‘ttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarini qora rang butkul qoplab olgandi. Suratlar bilan birga sizning ko‘nglingizga ham

*Sizningcha, suratlardagi
qora rangning quyuqlashuvi
nimaga ishora?*

mavhum bir tuyg‘u yopirilib kirardi.

Chol suratlarni palapartish chizgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim o‘shanda, chunki cholning mas‘ul xizmat davri mana shu yillarga to‘g‘ri kelardi. Men suratlarga qarab turib, ularning maqsad-u maslaksiz chizilganini his qildim. Faqat birinchi suratdagi yigitning ko‘zidagi qat‘iyat va ishonch beixtiyor har qanday kishini o‘ziga rom qilib qo‘yardi, siz ham mana shu yigit izidan nomsiz, isyonkor safarga otlanginiz, vahimali, zim-ziyo o‘rmondan xurofot hamda bid‘atni yakson etajak ajdodlaringizni nur va kenglikka boshlab chiqib, hur qarashlar-u alg‘ov-dalg‘ov hayot qo‘yniga tashlagingiz kelib qolardi. Siz yigitning ko‘ziga qarab tursangiz, uning tantana qilishiga ishonardingiz. Muzeydagi do‘stim ham ana shunday hislarni boshidan kechirgan bo‘lsa kerak, cholni rosa maqtagandi. Ana shu suratida chol o‘zini qobiliyatli va istiqbolli rassom sifatida namoyon eta olgan edi. Agar cholning birinchi o‘n yillikdagi suratlariga e‘tibor bersangiz, sizni ham beixtiyor cholning navqironlik davridagidek ulug‘vor kayfiyatlar chulg‘ab olardi.

Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo‘l chiqib ketmaslik uchun chizilgan bo‘lsa kerak, degan fikrga kelgandim; bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko‘chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig‘layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qandaydir qo‘rquvdan (xuddi “Pompeyaning so‘nggi kuni” kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim), bazm-u jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, yalang‘och ayollar, ma’suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi. Bu suratlar ilhom yo maqsad bilan chizilganiga ishonish qiyin edi.

Bironta suratda ham aks ettirilgan manzaraga tushunmay, cholga qaradim. Chol ovqatini yeb bo‘lgan va menga teskari o‘tirgancha, matoga yana qo‘ng‘irroq tus berardi. U go‘yo mening bu yerdaligimni unutganday edi. Cholning keyingi suratlarida bironta ham mukammal tasvirlangan odamni ko‘rmadim. Hamma suratlar bo‘yoqlarning mato yuziga chaplab tashlanganidan iborat edi. Bu suratlarga xos mavhumlikdan hayratga tushdim. Chunki bilishimcha, chol bularni eng yaxshi suratlari ichidan tanlab, terib qo‘ygan edi. O‘sha kuni men cholning mahalladoshlari maqtaganchalik rassom ekanligiga sira ishonmadim va uning suratlarini ko‘rib, yana ham hafsalam pir bo‘ldi. Bu suratlar menga umid qo‘shinlari

tashlab ketgan umrning tashlandiq qarorgohlariga o'xshab tuyuldi. Endi uni shunchaki nomiga maqtashgan bo'lsa kerak, deb o'ylay boshladim.

Suratlardagi mavhumlik negadir yuragimni g'ash qilgandi. Biroq cholning hayoti bir paytlar bir kechada porillab ochilgan guldek to'siq bilmaz shiddat bilan boshlanganini, so'ng bu shiddat hayotning mavhum irmoqlariga xuddi yoz yomg'iri jazirama sahroga singgani kabi qo'shilib ketgan, degan xulosaga keldim. Uning o'sha navqironlik davrini eslatadigan nigoh qontalash va shilpiqlanib qolgan bo'lsa ham, hali tiyraklik bilan tikiladigan ko'zlaridagina qolgan edi. Bu ko'zlar ham har qanday ishonch va umiddan mahrum edi.

*Chol suratlaridagi
mavhumlik nimaning
ramziy ma'nosi deb
o'ylaysiz?*

Cholning yoniga qaytar ekanman, u chizayotgan suratga bir zum ko'z tashladim: ustiga chang tushmasin deb, doka yopib qo'ygan suratda odamning va qandaydir hayvonning oyoqlari tasvirini ko'rdim. Va bu hol meni bir oz hayratga soldi - polotnoda nihoyat ko'p yillardan keyin odam surati paydo bo'lgan edi. Surat hali chala edi. Munkayib qolgan chol surat qarshisida tiz cho'kib turganga o'xshardi, bo'yoqlar ham cholga zo'rg'a bo'ysunar, go'yo ular ham bu behuda va mavhum manzaralarni aks ettirishdan butkul charchaganday edi.

– Xo'sh, – dedi u mening idish-tovoqni yig'ishtira boshlaganimni ko'rib, – suratlar sizga yoqdimi?

Yelka qisdim va suratlarga tushunmaganimni aytdim. U charchaganidan milklariga yosh sizib chiqqan horg'in ko'zlarini menga achingandek, bir zum qadab turdi-da, keyin bosh silkidi.

– Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, – dedi g'amgin tusda, – har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz. U xuddi odamning ustidan

*Sizningcha, chol nima
demoqchi? Nega
suratlaridagi
suhbatni hayotiga burdi?*

kulayotganday yoki kinoya qilayotganday istehzo bilan gapirar, har bir so'zi asablarni zirqiratib, arralab o'tardi. Kim biladi, balki menga shunday tuyulgandir? Endi gap tamom deganday qo'lga mo'yqalam oldi. U men bilan boshqa gaplashgisi kelmayotgan, agar men bu yerda kechgacha qolsam ham uning biron og'iz gapirishi gumon edi. Idishni olib, tezda chiqib ketdim. Chol menga qayrilib ham qaramadi. Uzoq, vaqtgacha uning gapini o'zimcha mulohaza qilib yurdim.

Biroq menga nima uchun shunday deganiga hech tushuna olmadim. Cholning suratlari ichida menga faqat maymun yetaklab borayotgan yigit

surati yoqqan edi. To'g'ri, men tasviriy san'at sohasida yomon muxlis edim, lekin yigitning ko'zlaridagi ishonchdan hayajonga tushar va uning qat'iyatli chehrasi tez-tez ko'z oldimda namoyon bo'lib turardi. Qolgan suratlari esa alog'- chalog' esimda qolgandi. Ikki kunlardan so'ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, so'ng yo'l- yo'lakay daraxtga bir zum qo'nib o'tgan qushlar kabi xotiram daraxtlaridan butkul uchib ketdi.

*Rasmni tasavvur qilib
ko'ring. Nega muallifga
aynan shu rasm yoqdi deb
o'ylaysiz?*

Boshqa bir kuni cholning oldiga ovqat olib kirganimda yana o'sha shilta hididan ko'nglim ozib ketayozdi. Lekin men endi har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo'lansa hidga ko'nika boshlagan edim. Biz bu gal ancha suhbatlashib qoldik. Qizig'i shundaki, u juda savodli edi va shu vaqtgacha nimaiki qilgan bo'lsa, hammasini bilib, anglab turib qilganga o'xshardi. U Titsianni ham, Pikassoni ham, modernizmning hozirgi namoyandalarini ham, muzeydagi do'stim maqtaydigan Jorj Brak va Umberto Bachanini ham bilar va ularning ijodidan juda yaxshi xabardor edi. Biroq biz o'sha kuni u bilan mutlaqo boshqa narsalar haqida gaplashgandik. U hayotda nima yaxshilig-u nima yomonlik, hech qachon farqlab bo'lmaydi, yaxshilik - ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo'lib tuyuladi, mening umrimda anglagan xulosam shu, degandi.

*Asarda nomlari keltirilgan
rassomlarning ijod
namunalarini internetdan
topib tomosha qiling.
Sizningcha, muallifnega
aynan shu rassomlarni eslab
o'tadi?*

Yo'q, – dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo'lishi kerak degan ohangda gapirishidan g'ashim kelib. – Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchalar. Yomonlik yaxshilik bo'lishi sira ham mumkin emas, nimaiki hurlikka, erkka, ezgulikka zid bo'lsa, u yomonlikdir, – dedim. U hali yosh bola ekansan ku, degandek dimog' aralash kuldi.

So'ng jiddiy tortib, nelarnidir eslaganday gapira boshladi:

– Men umr bo'yi yomonlikka ham, ezgulikka ham teng xizmat qildim. Chunki nima ish qilsam, o'sha ishik ikki qismga bo'linar edi. Siz bilan tortishmoqchi emasman, faqat bitta misol keltirmoqchiman. Bir vaqtlar juda martabali bir do'stim bo'lardi, o'zi sofdil edi-yu sal obro'talab edi. U yigirma yetti yil amal kursisini hech kimga bermadi; usta odam edi. U nima qilardi, deng? Yuqoridan shuncha xomashyo ber, deb buyruq,

kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo‘lmasdi, - biz ana shunday ruhda tarbiyalanganmiz, - uni bajarish kerak! Bajarish uchun butun korxonalar ishchilari o‘n to‘rt-o‘n olti soatdan ishlashlari kerak. Bu esa – bilasizki, rasman mumkin emas. To‘g‘rirog‘i, mumkinu, ya‘ni turli-tuman tashabbuslar tashkil qilib bajarsa bo‘ladi, biroq o‘n ikki oy bunday qilib bo‘lmaydi. Odam mashina emas. Bu minglab odamlarni mayib qilishi mumkin. Yo‘q desang, kursini topshiraver; boshqasi, albatta, shunday qiladi. Bitta sen halol bo‘lganing bilan hayot go‘zal bo‘lib qolmaydi. Shunda mening do‘stim eng maqbul yo‘lni tanlagan. Ta‘kidlayman, o‘zi juda sofdil, oqibatli odam edi. U hamma ishni bajarildi deb, qog‘ozga qo‘l qo‘yib beravergan. Boshqa korxonalarni ham bu ishga tortgan, ular “bizdan bu gina, sizdan u gina” deb yozib beraverishgan. Azbaroyi odamlarning taqdirini o‘ylab shunday qilgan. Do‘stim shu yo‘l bilan o‘zicha buyruqlar mustabidligiga qarshi kurashgan.

Yigirma yetti yil odamlarni qog‘ozlar bilan himoya qilgan. Oxir-oqibatda uning ajali yetib o‘ldi. Keyin uning go‘riga tosh otish boshlandi; u himoya qilgan ming-minglab odamlar unga birinchi bo‘lib tosh otdilar – o‘rniga boshqani saylashdi, bu boshliq buyruqni qanday bo‘lsa, shunday bajarish uchun qo‘lidagi hamma narsadan foydalandi - hatto kuchdan ham. Daromad kamaygan, sadaqa so‘rash ko‘paygan, bora-bora odamlar oldingi boshliqni afsus bilan eslashgan, uning to‘g‘ri yo‘l tanlaganini anglashgan. Xo‘sh, ayting-chi, bu yerda nima yaxshilig-u nima yomonlik. Buni qanday farqlasa bo‘ladi. Biri odamlarni o‘ylab, qonunni suiste‘mol qildi, ikkinchisi qonunni o‘ylab, odamlarni xarob qildi. Men bu yerda qaysi biri yomonlik, qaysi biri yaxshilik, hech farqlay olmayman. Umrim davomida ham buni farqlay olmadim.

Sizningcha, cholning bu hikoyasiga muallif munosabatidan tashqari yana qanday mohiyat yashiringan?

– E‘tiqod-chi? – dedim uning salmoq bilan gapirishidan achchiqlanib, to‘g‘risi uning dalillari meni bir oz dovdiratib qo‘ydi; u o‘z umri haqida juda ko‘p o‘ylagan edi, aftidan, shuning uchun qat‘iyat va ishonch bilan gapirardi. – E‘tiqodli odamlar, to‘g‘rirog‘i, e‘tiqodi mustahkam odamlar yaxshilik bilan yomonlikni juda teran anglaydilar, – dedim va gapimdagi balandparvoqlikdan o‘zim uyaliq, to‘xtab qoldim.

– E‘tiqod! – dedi u g‘ussali ohangda, – agar bir umr e‘tiqod qo‘yib, shunga ishonib, kurashib, yonib-kuyib yashasangiz-u, bir kuni e‘tiqod qo‘ygan narsangiz puch, yolg‘on va puflab shishirilgan shunday omonat, siz ezgulik deb sig‘ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz, bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning

farqi qolmagan, xuddi yo‘ldan chiqib ketgan shaldir-shuldir, bo‘m-bo‘sh aravaga aylanardi. Siz esa bo‘shliqni to‘ldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi e‘tiqod?! Men bu so‘zni ishlatmay qo‘yganimga ham qirq yildan oshib ketdi. Bu so‘z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam ko‘nglim ayniydi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “e‘tiqod” so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan: E‘tiqod [arabcha – ishonch, ishonish; ko‘ngilda tasdiqlash; iymon, maslak].

- 1. Qattiq ishonch, dildan e‘tirof etiluvchi tushuncha, nuqtayi nazar, qarash.*
- 2. Biror kimsaga yoki narsaga bo‘lgan ishonch; ishonch va ixlos bilan qarash.*
- 3. Xudoga yoki umuman biror g‘ayritabiiy kuchga ishonish; iymon*
Sizningcha, muallif va chol “e‘tiqod” so‘zini qaysi ma‘noda ishlatishyapti?

U alam bilan xirillab to‘xtab qoldi. Uning jahli chiqqan, negadir ko‘ngli to‘lib ketgandi, hozir biron narsa desam, jerkib tashlashi aniq edi. O‘zining fikrini ma‘qullamaganlarni yoqtirmasdi, aftidan. Uning butun umr yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligini izlay-izlay, javob topolmaganini o‘zimcha tasavvur qilib, dahshatga tushdim, hatto uning o‘sha kuni tushunmagan rasmlariga ham andak tushunganday bo‘ldim; bu suratlar o‘z-o‘ziga ishonmagan, umrini turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o‘tkazgan odamning hayot haqidagi o‘ylari, uning mavhumlikka mustahiq qalbining parcha-parchalari edi. Umri poyoniga yetgan sayin dunyoning beshafqat xulosalaridan qochib, u mana shu mavhumlik va yolg‘izlikning quyuq o‘rmoniga yashiringandi. O‘zining o‘tgan umriga mana shu yolg‘izlik qo‘ynidan turib nazar solmoqchi, o‘z umriga ham xulosalar yasamoqchi edi shekilli, uning gaplaridan bu sezilar, lekin, menimcha, o‘ziga zarur xulosani hanuz topolmagandi. Uning yolg‘iz hayoti menga chirigan daraxtning birdan emas, yilma-yil yemirilishidek mudhish bo‘lib tuyulgandi. Aftidan, yolg‘izlik uning so‘nggi boshpanasiga aylangandi. Uning gaplarida odamning vujudini zaharlovchi nimadir bor edi. U bilan chorak soat gaplashib, o‘zimni yomon his qila boshladim. Nimagaki ishonsam, chol hammasini chilparchin qilib tashlagan, meni ham o‘zining ishonchsizligi bilan zaharlab ulgurgandi. O‘sha kundan so‘ng men ichimga kirib olgan cholning qiyofasidagi shaytonni vujudimdan quvib chiqarguncha, uzoq vaqt o‘z ko‘nglimni o‘zim ko‘tarib, faqat quvnoq hikoyalar o‘qib yurdim.

Cholning oldiga boshqa qaytib chiqmadim, hovlidagi chirkinlik va

shilta hididan, cholning qo'lansa gaplaridan hamon o'zimga kelolmayotgandim. Eslasam, ko'nglim aynir, birdan hamma narsaga qiziqishim yo'qolar edi. Uy bekasi haftada bir marta cholga ovqat kiritib turar, uning berilib qandaydir surat chizayotganini aytardi. U suratga tushunmasdi, shuningdek, cholni ham yomon ko'rar, lekin qarovsiz cholga butun ko'cha ovqat kiritib turgani uchun ulardan ayrilgisi kelmasdi. Umuman, beva ayollarda tabiiy shafqat hissi bo'ladi. Ularning ko'ngli yumshoq, tez ta'sirlanib, tez xafa bo'lishadi.

Men bora-bora cholning suratlari bilan ham, uning taqdiri bilan ham qiziqmay qo'ydim, o'sha payti Onettining hikoyalarini tarjima qilayotgandim. Chol kamdan-kam esimga kelardi, esimga tushgan onlari esa ko'z oldimda qora sharpa kabi paydo bo'lar va bu sharpa meni tinmay ta'qib qilardi. Ba'zan birinchi suratni eslab, xayollarga tolardim, xayollarim ham suratdagi yigitning ko'zlari kabi huzurli edi. Meni faqat chol chizayotgan so'nggi suratgina ozroq qiziqtirib turardi, chunki, sezishimcha, chol oxirgi suratini chizmoqda edi. Uni ba'zan yo'lda - oziq-ovqat do'koniga chiqib kelayotgan holatda ko'rib qolardim va kunma-kun hayot asari yo'qolayotgan yuz-ko'zlariga, o'z umri uchun ayanchli xulosalar to'lib yotgan va uni masxara qilgandek ko'klam bilan birga tobora go'zallashib, yasharib borayotgan atrofidagi olamni ko'rmaslik uchun yerga yana ham ko'proq egilib qolgan qaddi- qomatiga qarab, shu mudhish fikrimga ishongim kelardi.

Butun qish davomida cholni ikki marta – darvoza yoniga kursi qo'yib, o'zini chuvoqqa toblab o'tirgan holda ko'rdim. Uy bekasi ko'p javraydigan ayol edi. U butun mahallani g'iybat qilib chiqar, so'ng yana cholni "taftish" qilardi. U chol haqida ijirg'anib gapirardi, lekin ovqat kirgizishni kanda qilmasdi: unga, ayniqsa, cholning mahalla-ko'ynikiga o'xshamagan odatlari yoqmasdi.

Bahorning boshlarida hordiq oyidan qaytib kelib, uyga kirishim bilan uy bekasi ko'zida yosh bilan qarshi oldi va uch kun burun cholning qazo qilganini aytdi. Vujudimga sovuq, shilimshiq narsa o'rmalaganday junjikib ketdim va birdan xayolimga cholning suratlari keldi. "Uy hali qarovsiz, – dedi menga uy bekasi, – o'g'lini hech qayerdan topisholmadi, yana qo'lga tushgan bo'lsa kerak".

Kechqurun cholning hovlisiga o'tdim. Hovli huvillab yotardi. Shilta hidi cholning o'zi bilan birga yo'qolgan, biroq chirkin hid hali gupillab dimog'ni kuydirardi. Suratlar bir chekkaga yig'ishtirib qo'yilgandi. Cholning so'nggi suratini izlay boshladim. Chol suratni chizib ulgurganmi, yo'qmi, meni juda qiziqtirardi. Sariq matoni nihoyat topdim va uning

yuzidagi qog‘ozni yulib olib shosha-pisha suratga tikildim. Ko‘zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi - bu surat qirq yil ichida chizilgan mavhum suratlarga sira o‘xshamas edi. Men rasmdagi manzaradan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o‘rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu suratda maymun umidsiz, ko‘zlariga g‘am cho‘kkan, yuz-ko‘zida hayotdan nishona qolmagan, munkaygan bir cholni o‘rmon sari yetaklab ketardi.

Suratning shoshib chizilgani ko‘rinib turardi. Ko‘p joyiga bo‘yoqlar nomiga chaplangan edi. Cholning o‘zi ham umri oxirlashganini bilgan va shuning uchun shoshgandi. Rasmning orqa fonidagi ranglar me‘yoriga yetmagandi.

Cholning birinchi va oxirgi suratlarni solishtiring. Qanday farqlarni sezyapsiz? Sizningcha, bufarqlarning sababi nima?

Bu quyosh botib, atrofga cho‘kkan xira qorong‘ulikni eslatardi. Biroq ana shu qo‘ng‘ir rang fonida maymun va odamning qiyofasi ravshan aks etgan, odamning yuzidagi umidsizlikni yana ham kuchaytirgan edi.

Men o‘shanda beixtiyor hayot kabi san‘atning ham kirish va chiqish eshiklari borligi haqida o‘ylagandim. Cholning suratlari go‘yo sirli qo‘rg‘on edi; cholning ilk suratini ko‘rgan daqiqadayoq bu

“San‘atning kirish va chiqish eshiklari borligihaqida o‘ylagandim” Muallif bu bilan nima demoqchi?

qo‘rg‘onga kirib qolgandim va uning suratlardan qolgan sovuq hissiyot bilan birga yuragim g‘ash bo‘lib yurishining sababini topganday bo‘ldim. Shu kungacha cholning qo‘rg‘onida yashagan edim va hozir bu qo‘rg‘on eshigidan biyday kimsasiz dalaga chiqib qolganday his etdim o‘zimni. Vujudimni shilimshiq, jirkanch narsa o‘rniga bir narsasini yo‘qotib qo‘ygan odamday cholning suratlardan qolgan xavotir egalladi.

O‘zim yashaydigan uyga qaytib kirganimda beka mahalla kengashida ishlaydigan keksa bir kishi bilan gaplashib o‘tirardi.

Sizningcha, muallif nega uyni olishdanbosh tortdi?

“Mahalla keksalari yig‘ilishib, uyni kimgadir bermoqchi bo‘lishibdi, – dedi u menga, – uy olaman deb yurgandingiz, mana shu uyni ola qoling”.

Birdan dimog‘imga hovlidagi dov-daraxtlardan tortib, gullar- u har bitta g‘ishtgacha o‘rnashib qolgan chirkin hid gup etib urildi; ko‘nglim behuzur bo‘lganday ijirg‘anib ketdim.

–Yo‘q, – dedim men o‘z xonamga ketar ekanman. – Hozircha uysiz yashab turaman.

O‘ylab ko‘ring:

Tasviriy san‘at va adabiyotda **ranglar** qanday vazifalarga xizmat qiladi?

Tasviriy san‘at va adabiyotda **obrazning** vazifasi nima? Bu hikoyadagi maymun va o‘rmon obrazlari qanday funksiyani bajargan?

MUTOLAADAN SO‘NG ...

Asarni tahlil qilamiz:



1. Asarni o‘qishdan oldingi **tasavvuringiz** va o‘qishdan keyingi

taassurotlaringizni gapirib bering.

2. Qariya umrining **so‘nggi daqiqalarini** xayolingizda jonlantiring. U nimalarni istadi ekan?

3. Roviylar (voqeani bayon qilayotgan shaxs) obrazi **ichki dunyosini** qanday tasavvur qildingiz? U qanday inson?

4. Asar qahramonlari **nomsizligining** insoniyat fojiasi talqiniga aloqasi bormi?

Nazariy bilimlarimizni rivojlantiramiz:

1. Nazar Eshonqul ijodida **ranglar** qanday ramziy ma‘nolarni anglatadi?

2. Sizningcha, yozuvchi **kitobxon** darajasida yozishi kerakmi yoki kitobxon yozuvchi darajasiga ko‘tarilishi kerakmi?

Yozma nutqimizni rivojlantiramiz:

1. Siz hikoyachi yigit, uy bekasi, chol va uning o‘g‘li nutqini qanday **tonda** ifodalagan bo‘lar edingiz? Tasavvur qiling, to‘rt qahramon bir joyga yig‘ildi. Ularning dialogini tuzing.

Hayot bilan bog‘laymiz:

1. Mutolaa jarayonida guvohi bo‘lganingizdek, cholning o‘g‘li noqobil chiqdi. Buning tub ildizlari nimada deb o‘ylaysiz? Shaxs **tarbiyasidagi** tanazzulni davr, mafkura, mavjud tuzum yoki egallab turgan lavozimga bog‘lashni oqlab bo‘ladimi?

2. O‘zingizni qariya rassom obrazida ko‘rishga harakat qiling. Hayotingizda nimalarni **o‘zgartirgan** bo‘lar edingiz?

3. Siz **bugungi kun** odamlari taqdiri kelajakda qanday gavalantiriladi, deb o‘ylaysiz?

4. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidan cholning uyini **sirli va**

mifologik makonga aylantirgan detallarni toping.

5. Rassom **ichki dunyosini** ifodalashda foydalanilgan tasviriy vositani aniqlab, unga ta'rif bering.

ADABIYOT NAZARIYASI: DETAL, MIF, RAMZ

Detal – obrazdagi muhim, ajratib ko'rsatilgan element. Detal asar voqealarini birlashtirib, muallif maqsadiga urg'u beruvchi vosita sifatida ham ishlatiladi.

Mif (yunoncha “*afsona, rivoyat, asotir*” so'zidan) qadimiy odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi. Masalan, qadimgi yunon xalqining dunyo haqidagi tasavvuri Olimp xudolari va ularning insonlar hayotiga ta'siri haqidagi miflarida o'z aksini topgan.

Ramz – anglanishi murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy sifatlarning shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalanishi.

ERKIN A'ZAM (1950)

Erkin A'zam (Erkin Azamov) 1950-yil Boysunda tug'ilgan. 1972-yil Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) bitirgan. Faoliyati davomida radioda, bir qancha jurnallarda, O'zbekiston milliy axborot agentligida ishladi, Oliy Majlis deputatligiga saylandi. Bir qator nasriy va dramatik asarlar, kinossenariylar muallifi. “Alvido, ertaklar” nomli kitobi ingliz va fransuz tillarida nashr qilingan.



O'QISHGA TAYYORLANAMIZ ...

Siz o'qiydigan asar “**Jannat o'zi qaydadir yoxud Jiydalidan chiqqan Jo'raqul**” deb nomlanadi.

O'ylab ko'ring:

1. Siz **jannatni** qanday tasavvur qilasiz? Bu dunyoning jannatini nimalarda ko'rgan bo'lardingiz?”
 2. Jannat va do'zax haqidagi tushunchalarning **ramziy ifodasi** qaysi milliy yoki jahon adabiyoti namunalarida uchraydi?
 3. Sizningcha, “Jannat o'zi qaydadur” asari **nima haqida** bo'lishi mumkin?
-

Bilasiz, siyosiy tuzumning o'zgarishi jamiyatda boshqa o'zgarishlarga, xususan, mafkuradagi o'zgarishlarga ham olib keladi. 1991-yilda O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan 70 yilcha humkron bo'lgan kommunistik mafkura barham topdi.

O'ylab ko'ring:

1. Insonning o'z **e'tiqodiga** sodiqligi nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz? E'tiqodda sobitsizlikni davr mafkurasiga bog'lashni qay darajada oqlash mumkin?

2. **Ilojsizlik** yoki **o'tkinchi hoyu havaslar** insonni qay ko'ylarga soladi? Siz hayotingizda hech ilojisiz vaziyatda qolganmisiz? O'sha paytda qanday yo'l tutgansiz? "Ilojsizlik"dan qutulish uchun siz qanday tavsiyalar bergan bo'lardingiz?

3. **O'zga yurtlarni** orzulagan zamondoshlarimiz bilan **vatan firoqida** kuygan ajdodlarimiz qismatidagi yoziqlarni tarixga bog'lab qiyoslang. Qanday kontrastni sezdingiz?

1. Asar **epigrafiga** e'tibor bering. Epigraf asar mazmuniga qanday bog'langan deb o'ylaysiz?

2. Dramaning "Tomosha ko'rsatuvchilar" qismiga ko'z yugurtirib chiqing. "Tomosha ko'rsatuvchilar" ro'yxatida muallifga xos qanday **ifoda uslubi** seziladi?

3. Sizningcha, nima uchun qahramonlar **ikki xil** nom bilan atalgan?

4. Boshqa dramaturglar bilan qiyoslaganda Erkin A'zamning qanday **o'ziga xos**

uslubi bor deb o'ylaysiz?

5. Badiiy adabiyotda qahramon **nutqi** muhim rol o'ynaydi, chunki qahramon nutqi orqali ham uning xarakteri ochib beriladi. Asarni o'qish davomida har bir qahramon nutqiga xos xususiyatlarga e'tibor bering. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Qahramon	Nutqiga xos xususiyatlar	Misollar	Qahramonni qanday xarakterlaydi

JANNAT O‘ZI QAYDADIR

yoxud

Jiydalidan chiqqan Jo‘raqul va uning xonadonida kechgan savdolardan naql etuvchi ikki qismli dramatik qissa

“Lyubov Andreyevna!.. Agar yana Parijga borgudek bo‘lsangiz, meni ham olib keting, baraka topkur. Men aslo bu yerda qololmayman... O‘zingiz ko‘rib turibsizki, bu yurt g‘irt qoloq, xalqi nodon, to‘pori, buning ustiga — juda zerikib ketdi odam, ovqatlari ham jonga tekkan... Meni albatta birga olib keting, xudo xayringizni bersin!”

A.P.Chexov, “Olchazor”

TOMOSHA KO‘RSATUVCHILAR:

D o m l a yoki **U s t o z** – sobiq markschi olim, akademiklikka da’vogar, e’tiqodidan qaytmaydigan odam, 60-65 yoshlarda

X o n i m yoki **Y a n g a m u l l o** – Domlaning xotini, “oyoq chiqargan” tijoratchi, orzusi – yana-yana yaxshi yashamoq, 55-60 yoshlarda

aspirant – fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun o‘qigayotgan shaxs

T u r s u n i y yoki **Sh o g i r d** – Domlaning shogirdi, “qirq yillik” aspirant, endi fan nomzodi, doktorlikka havasmand, 35- 40 yoshlarda

R a h m a t u l l o h J i y d a l i y yoki **B o y o t a** – amerikalik o‘zbek, “vatanparvar”, xonadonning doimiy mehmoni, rosa tetik ko‘rinsa-da, 60-65 yoshlarda

K l a r a yoki **K o m i l a x o n** – Domlaning qizi, aridek chaqishga usta, hayotidan norozi, arosatda, 35-40 yoshlarda

M e l i s yoki **M e l i v o y** – Domlaning asl merosxo‘ri, lekin “Kapital”ni qo‘liga ham olib ko‘rmagan, “ting‘ir-ting‘ir” musiqachi, “darvesh”, 28-30 yoshlarda

A s a l x o l yoki **A m m a s h k a** – benavo oqsoch kampir, tili zahar, o‘zi mehribon, 70 yoshlarda

“O q k a p t a r” yoki **O p e r a c h i q i z** – Melisga tegib olishga qattiq ahd qilgan, bu yo‘lda moshinaning yukxonasida dimiqib o‘lmoqqa ham tayyor unvonparast qayliq, 25-26 yoshlarda

S a r d o r – “otasi deputat bo‘lsa-da”, o‘zi repetitor yigit, 22-23 yoshlarda

L u i z a x o n yoki **“A y l a v y u”** – Klaraning erkatoiy qizi, o‘zbek bo‘lmoqqa orzumand, 17-18 yoshlarda

E r - x o t i n – bularning kimligi hali noma'lum, 35-40 yoshlarda
Bu manzaralar yangi asr boshidagi tahlikali kunlarda Toshkent va shahar atrofidagi soya- salqin chorbog'lardan birida kechadi.

BIRINCHI QISM TALVASA yoxud SHAHARDA NIMA SHOVQIN? MUQADDIMA

Sahnaning parda oldidagi xilvat burchagi. Yengil halinchak-kursiga yastanib olgan X o n i m, burnining uchida jimjimador ko'zoynak, qo'lida kalkulyator, allanimani hisoblamoqda. Oyog'ining tagida sandiqdek keladigan bahaybat jomadon. Undan olingan kiyim-kechak, lash-lushlar yemak stolining ustida uyilib yotibdi.

X o n i m. To'rtta "bukle" kostyumchik – yetmish olti dollardan

baks, "qo'qon" –
Amerika dollari

– uch yuzu to'rt dollar. Olti jemper – yigirma sakkiz baksdan

– bir yuzu oltmish sakkiz qo'qonga tushdi. Besh juft "lodochka" tufli – oltmish olti... Qimma-at. Qirq dona

kolgotka, yo'g'-a, qirq to'rt dona – yigirma ikki dollar. Tuzu-uv. Haligi savillar qayoqqa ketdi ekan-a? (*Engashib jomadonni titkilaydi, nihoyat bir to'p yaltiroq gilofli siynaband chiqadi. Birini g'ilofidan sug'urib tomosha qiladi.*) Zo'r ketadi ammo! Necha baksdan desamikin?..

Tashqarida moshina kelib to'xtagani eshitiladi. Eshigi qarsillab yopilib, zum o'tmay M e l i s paydo bo'ladi. G'irt mast, oyog'ida turolmaydi.

M e l i s. Ma-a-ma, privet!

X o n i m (*qo'lidagini apil-tapil jomadonga tashlab*). Melischik, jonim, qayoqlarda yuribsan? Aeroportga chiqib bizlarni kutib oladimi desam... Sog'indim! Ke, bir o'pay!

M e l i s (*gandiraklab uning boshiga keladi*). Ma-ma! X o n i m (*ta'naomuz ohangda*). Oyi!

M e l i s (*battar g'ashiqib*). Mama!

X o n i m (*koyinib*). Oyi! Endi "oyi" bo'ladi, jinnivoy! Birov eshitsu nima deydi? Bular haliyam... (*O'ptirishga engashgan o'g'lining gardaniga lab urib qo'yadi.*) Endi u yog'idan... Melisginam, erkatoyim!

M e l i s (*g'o'ddayib*). Melivoy! Endi Melivoy bo'ladi, oyivoy! X o n i m. Ha, mayli-mayli. Melivoy, voy-voy!

Sizningcha, Melisning
Boyotaga munosabati
qanday?

M e l i s. Va-abshe, endi Melivoy bo'ladimi,

Melisqul bo‘ladimi – bari bir go‘r! Qachon kelindi? Boy otam ham keldilarmi?

X o n i m. Boya... U ham keldi. Hamma shu yerda, Melischik. Kutgani chiqmading?

M e l i s. Bu yoqda nima gap-u... Yana xotin ovlaganimi? Yoki bu gal hovli ko‘rganimi?

X o n i m. Unaqa dema, toychoq! Eshitsa, xafa bo‘ladi. O‘zi qandoq mirovoy odam! Bizlarga qandoq yordamlar qilyapti!

M e l i s (*stol ustidagi lash-lushni titib ko‘rib*). Voy-bo‘, Turkiyani ko‘chirib kelmadingizmi ishqilib? Kojinka qani? Kamera qani?

**kojinka –
charm kurtka**

X o n i m. Kelasi safar-da, Melischik. Bu gal xarajat ko‘payib ketdi. Xo‘pchik?

M e l i s. Xo‘pchik! Papam qani?

X o n i m. Papang... Dada degin, uyat bo‘ladi! Dom-la-a ishlayaptilar. Qattiq ishlayaptilar! Muhim maqola ustida! (*Kingadir, aftidan, Domlaga taqlidan.*) Ustida, bilding! O‘zing qalaysan, jujunchik? Mensiz qiynalib qolmadingmi? Klara... iya, Komila opang ovqat- povqatingga qarab turdimi ishqilib? Unikiyam kasha-pashadir-da? Maza-matrasiz o‘rischa allambalolar degin! U kishimning fikr-xayollari haliyam o‘sha yoqda, Leningradda!

**Leningrad – Sankt-
Peterburg shahrining
SSSRpaytidagi nomi**

Peterburgmi endi? Yer yutsin! Baloga yo‘liqqur Viktor! Guldek bolamni... Shuni anovi Rahmatjonga bir...

M e l i s. Qo‘ysangiz-chi, mama! Boy otam naqd o‘n yetti yasharini ko‘zlab yuribdilar. O‘n sakkiz yashari bo‘lsa ham – qaramaydilar. O‘zlari aytgan. Shaxsan menga!

X o n i m. Hazilingni qo‘y, jonim. Rang-ro‘yingga nima bo‘ldi, tuzukmisan o‘zi? M e l i s. Rasvo!

X o n i m (*tashvishlanib*). Nima bo‘ldi, jonim? Yo‘lda melisa-pelisaga tushdingmi, nima balo? Nima dedi, nima qildi?

M e l i s. Nima qilardi, chest berdi! Ko‘zi ko‘r emas, ko‘rib turibdi – “inomarka”! X o n i m. Ha-a, tuzu-uv... Tag‘in nima dedi?

M e l i s. Millioner mamashkangga salom ayt, dedi! Aytginki, bu arava urinibroq qopti, durustrog‘ini olib bersin, “volvo”sidan bo‘lsa, yana yaxshi, dedi! Shunday dedi, chestniy pionerski, shunday dedi! (*Kaftining qirrasini peshonasiga tirab “salyut” yasaydi.*)

**“chestniy pionerskiy
– “chin pionerlik
so‘zim”, SSSR paytida
bolalar orasida urf
bo‘lgan “qasam”**

X o n i m. Mayli-mayli, maynavozchilikni qo‘y. Qorning ochdir, nima yeysan? Ammashkang bir balo qilayotuvdi, jizza-pizzasidan tatinib turasanmi? Asal xola-a, huv Asal xola!.. (*Bo‘ynini cho‘zib chaqira boshlaydi.*)

M e l i s. Kerakmas! Shu tobda ovqat o‘tadimi tomoqdan!

X o n i m. Bunaqa odating yo‘q edi-ku, jujuq! Yana deng – ro‘lda! Shunaqa qilaversang, kojinka ham yo‘q, “volvo” ham yo‘q, bilib qo‘y, bola!

M e l i s. Men ichmay kim ichsin, mama! Hammasi rasvo! Hammayoq bardak! X o n i m (*jonsaraklanib*). Nima qildi, bolam?

M e l i s. Nima qilardi, o‘sha – papamning...

X o n i m. O‘zingdan ko‘rgin-da, jonik! Unisi o‘poq, bunisi – so‘poq, deysan. Papangning ham joni achiydi-da. Yoshing o‘ttizga qarab borayotgan bo‘lsa!.. Charchabsan. Kir, yotib damingni ol. Ammashkanga ayt, ichkari uyga joy qilib bersin.

M e l i s. Yotaman! Uyg‘otganni – otaman! (*Ketadi.*)

X o n i m. Xo‘p, xo‘p, boraqol. (*Yana buyum titishga kirishadi.*) Shaharda tinchlikmi? (*Shunchaki.*) Aeroportdan to‘ppa-to‘g‘ri bu yoqqa kelaverdik. Shaharda nima bor!.. O‘ttizta lozimcha... Qanchadan olingan edi?

Melisning Mustaqillik ketdideganda nimani nazarda tutyapti deb o‘ylaysiz?

M e l i s (*ichkaridan*). Shaharda shovqin, to‘polon! Eh, hammasi ketdi! Hammasi! Mustaqillik ham! Erkinlik ham! Orzu-umidlar ham! Hammasi barbod bo‘ldi! “Oq kaptar, oppoq kaptar”mish! “Kel, sevgilim”mish! Mana senga! Hammasi ostin-ustun! Ammashka! Ammash!..

X o n i m (*mashgulotiga sho‘ng‘ib ketganidan uning gapiga parvo qilmay, hardamxayollik bilan*). Shaharda shovqin, shaharda shovqin... Qanchadan olingan edi bu savil?.. Hammasi ketdi, hammasi ketdi... Ikki dollarga bittadanmi, bir dollarga ikkitadanmi?.. “Ketdi, ketdi, ke- etdi... (*Xirgoyi qiladi.*) Hammasi ketdi... Mustaqillik, erkinlik... “ketdi, ketdi, ke- etdi...” Mustaqillik... Necha dollardan edi? Ha-a, esladim, esladim... bir dollardan! Mustaqillik... bir dollar! Erkinlik... bir dollar! Hammasi bo‘lib qancha? “Ketdi, ketdi, ke-etdi...” O‘ttizta lozimcha – o‘ttiz dollar! “Ketdi, ketdi, ke-etdi...” (*Qo‘qqisdan o‘ziga kelib.*) Nima?! Mustaqillik dedimi boya? Ketdi? Voy! Qayoqqa ketadi? Voy, voy! Endi nima bo‘ladi... bular?

Sizningcha, “Mustaqillikning ketishi” nega Xonimni gangitibqo‘ydi?

Hammasi?! (*Jonholatda stol ustidagi narsalarni shipirib jomadonga tiqadi va yig'lamsirab chinqiradi.*) Domla-a! Huv domla-a! Bu yoqqa qarasangiz-chi, axir! Kuydik, ado bo'ldik!

Qayoqdandir kimningdir bo'g'iq ovozda xirgoyisi eshitiladi. Kimdir Muyassar Razzoqovanning ovozi bilan "Oq kaptar, oppoq kaptar" qo'shig'ini kuylayotir. Bir lahza talvasada qolgan Xonim apil-tapil antiqa takkursida turgan telefonga yopishadi.

Go'shakni bo'yni bilan qisib, raqam teradi.

X o n i m. Bo'sto-on! Hoy Bo'sto-on! Alyo! Al-yo! (*Go'shakni qarsillatib joyiga qo'yadi.*) He, padaringga la'nat! Sakkiz xonadonga – bitta telefon! Buyam bir kun ishlasa, bir hafta g'ing'illab turgani turgan. He, topilmay ket! Domla-a! Bormisiz, axir! (*Bahaybat jomadonini zo'rga sudrab, yon tarafga kirib ketadi.*)

BIRINCHI MANZARA

Shahar yaqinidagi chorbog' – dacha. Qo'shqavat imoratning faqat biqini ko'rinadi.

Hovli o'rtasida kattakon jimjimador chorpoya. Xontaxtaning gird-atrofi ko'rpa- ko'rpacha, yostiqlar. To'rda, bizga ko'rinib-ko'rinmay bir kishi yonboshlab yotibdi.

Uxlayapti, chamasi.

Imorat daraxtzor boqqa qaragan. Beriroqda – tepasi rangdor shifer bilan yopilgan omonat o'choqboshi. O'sha tarafda – darvozaxonadan nari xilvatroq joyda tizza bo'yi marmar qoplangan inshootning bir burchagi ko'zga chalinadi. Basseyn, ko'm-ko'k suvi mavjlanib turibdi. Darvozaxona ustidagi bejirim panjarali ko'shksimon shiyponda D o m l a miz makon qurgan. Stol-stul, choynak-piyola. Bir yonda savatdan yasalgan tebranma kursi. Domla ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib devor osha ko'cha tomondagi kim bilandir so'zlashmoqda. Qo'shni shekilli.

Q o' s h n i (*ovozi*). Yog'i chiqib qolgandir, domla? Qachon qaragam... D o m l a (*hafsalasiz*). Xay endi, ermak-da. Bekorchilikdan.

Q o' s h n i (*ovozi*). Foydasi yo'q, foydasi yo'q. Ko'rib turibsiz-ku!

D o m l a (*oldidagi yozib o'tirgan kattakon daftariga ishora qilib*). Buni birov mendan tortib olarmidi? O'zim uchun-da. O'tgan-ketganni xotirlab deganday...

Q o' s h n i (*ovozi*). So'ngra bir kun opketasiz-da, o'sha yoqqa? Sizning o'tgan-ketganlaringizni nashr qilib bo'lmas, domla!

Qo'shni nega Domlaning yozganlarini nashr qilib bo'lmaydi deyapti?

D o m l a (*parishon*). Qaydam. Shunday bo'ladi shekilli. (*Daf'atan iljayib.*) Tayyor yostiq- da. U yoqda yostiq bo'lasmish-ku... Chiqing bu yoqqa, choy quyib beraman.

Q o' s h n i (*ovozi*). Uyga boray. Sherigim keldi. Navbatchilikka. Ertaga institutda yig'in bormish.

D o m l a. Yig'in ham qilib turasizlarmi? Chatoq-ku. Qanaqa yig'in ekan?

Q o' s h n i (*ovozi*). Rostmi, yolg'onmi, akademiyaqa saylov bo'larmish, degan gap chiqib turibdi.

**akademiya –
Fanlar Akademiyasi**

D o m l a (*beixtiyor jonlanib*). Yo'g'-e? Zo'r-ku! Anchadan beri paysalga solib kelinayotuvdi o'zi...

Q o' s h n i (*ovozi*). Yana bir urinib ko'rmaysizmi, domla? Qilingan xizmatlar yetarli bo'lsa! Gard- kamiga-da!

*Akademiyaqa saylov
haqidagi xabar nega
Domlani jonlantirib qo'ydi?*

D o m l a (*ikkala qo'lini taslimona ko'tarib*). Bas endi, inim! Tavba qildik! O'zingiz aytasiz-ku, "foydasi yo'q, foydasi yo'q" deb. Shu gap-da. Bir yozuvchimidi, "Endi meni bukaman deb, sindirib qo'ymanglar tag'in" degan ekan. Yaxshi aytgan! O'zimizni qo'chqor sanamasak ham, shoxlar sinib tamom bo'lgan, uka!

Q o' s h n i (*ovozi*). Qo'y bo'pqolganmiz deng?

D o m l a. Undan ham battari! Endi yoshlar ko'rsin bu yog'ini. Mana, o'zingiz harakat qiling. Fan do'xtiri, professor!

Q o' s h n i (*ovozi*). Hazillashyapsizmi, domla? Shuncha fan do'kaylari turganda bizga yo'l bo'lsin! Foydasi yo'q, foydasi. Siz bilan bizning foydani anovi basseyndan topib turganimiz o'zi g'animat. Qo'ying! Siznikiga ham kelib turishgandir?

D o m l a (*o'ng'aysizlanib*). E, yo'g'-e... Kechamidi, uch-to'rttasi adashib kepqolgan ekan, haydab yubordim. Anovinaqa qizlar bilan kelishibdi, bor-e, dedim. Suvni nahsga botirib...

Q o' s h n i (*ovozi*). Tirikchilikning aybi yo'q, domla. Cho'milib bo'lib uch-to'rt so'm tashlab ketadi, harna-da. Siznikidan chiqib keyin menga borishdi. Suv-ku, suv, yuvib ketar... Nima qilay, uy to'la bola-baqra, yeyman-ichaman deb turibdi! Ha, kechagilarning orasida anovi akademik oshnangizning nevarasiyam bor ekan. Huv anovi, o'tgan galgi saylovda siz bilan tushgan... Mustaqil domla deysizlarmi?

*"Mustaqillikni
xususiy lashtirib olgan"
deganda Domla nimani
nazarda tutyapti?*

D o m l a (*ijirg'anib*). Mustaqulov... Muxbir deng! Qaysidir gazetani to'ldirib har

hafta maqola chiqaradi- ku. Maddoh! Mustaqillikni xususiylashtirib olgan u! O‘ziniki! Kechagi zamondagi o‘yinlarini bilarsiz?

Q o‘sh n i (*ovozi*). Qo‘yavering, domla, foydasi yo‘q. Oxiratda javobini berar!

D o m l a. Sodda bo‘lmang, ukam! Javob-pavob bermaydi – ateistlarning peshvosi u!

ateist – Xudoga
ishonmaydigan, dahriy

Q o‘sh n i (*ovozi*). Chorbog‘ingizda o‘tiraverib zamondan orqada qolibsiz, domla! Hozir oshnangiz – ma’naviyat va ma’rifatning peshvosi! Besh mahal namozni kanda qilmaydi deb eshitaman.

D o m l a (*bo‘shashib*). Hay, shunday bo‘ptimi? Mayli, iymonini bersin. Zamon shuniki bo‘lib qoldi, nachora!

Q o‘sh n i (*ovozi*). Xonim keldilarmi, domla? Kennoyimiz? Safarda edilar chog‘i? D o m l a (*istar-istamas*). Kelganday. Bittasi ivirsib yuruvdi, o‘sha bo‘lsa kerak.

Q o‘sh n i (*ovozi*). Ha, yaxshi, ko‘nglingiz endi xotirjam. Shu deyman, domla, xotin- qizlarimiz dunyoga chiqib ketdi-ya! Siz bilan biz bu yerda basseyn qo‘riqlab, jo‘xori qayirib...

D o m l a. “Erlari uyda turib, xotinlari savdo qilur”. Eshitganmisiz? Oxirzamonning alomatlaridan biri shunday emish-ku.

Q o‘sh n i (*ovozi*). Asta’furulloh deng, domla! Oxirzamonga hali ancha bor!

D o m l a. Men o‘zimni aytyapman, inim. Har bandaning oxirzamoni o‘zi bilan ekan. Mayli, yo‘ldan qolmang siz. Chaqirsa – chiqmadingiz. Ertaga biror yangilik bo‘lsa, kelganda aytib berarsiz.

Q o‘sh n i (*ovozi*). Indinga kelaman. Navbatim – indin.

D o m l a. Indingacha biz haq deb jo‘xori qayirib o‘tirar ekanmiz-da?

Q o‘sh n i (*ketayotib, hayqirgan ovozi*). Globallashuv zamonida yashayapmiz, domla! Dunyoda bir gap bo‘lsa, zum o‘tmay eshitasiz – radio bor, televizor!

D o m l a (*ko‘zoynagini peshonasidan tushirib, ishiga kirisharkan*). Mayli, inim, yaxshi boring.

Uydan yugurib chiqqan X o n i m hovli o‘rtasida bir zum to‘xtab, ko‘kragiga tuf-tuflyaydi.

So‘ngra atrofga alanglab, o‘choqboshida kuymanib yurgan A s a l x o l a ga ko‘zi tushadi.

X o n i m (*zarda bilan*). Amma! Quloqlaring tom bitganmi, nima balo? A s a l x o l a. Ha, ha, xonimjon? Men bu yoqda ekanman-da.

X o n i m (*ensasi qotib*). “Xonimjon, xonimjon”! Men sizning

xotiningiz emasman-ku, amma! Necha yildan beri aytaman-a: Roza Hasanovna, tamom!

A s a l x o l a (*tusi o'zgarib*). Hay, nima farqi bor? Xo'p, ana – Ro'za Hasan... X o n i m (*ijirg'anib*). Zahar xola! Domla qanilar deyaрман?

A s a l x o l a tumshayib, qo'lidagi kapgir bilan shiyponga ishora qiladi. D o m l a ko'zoynagini peshonasiga surib, panjaradan pastga engashadi.

D o m l a. Ha, xonim, tinchlikmi? Dunyoni buzvordingiz-ku shovqin solib! Nima gap o'zi?

X o n i m (*bo'shahibroq*). O'zingiz-chi! Boyadan beri chinqiraman... Kim bilan buncha g'o'ng'ir- g'o'ng'ir qildingiz?

D o m l a. He, qo'shni. Uyiga ketayotgan ekan. Prokurorning hovlisida turadigan-chi!

X o n i m (*bepisand*). Ha-a, anovi qorovulmi? O'sha bilan shuncha gaplashadimi odam? E, qoyilmasman sizga, domla!

D o m l a. Bilsangiz, xonim, u odam – fizika-matematika fanlari do'xtiri, professor! Xuddi eringizga o'xshagan, kerak bo'lsa! Sohasi boshqa, xolos.

*Domla nega
"Prokurorning o'zibu
koshonaga kelib
turolmaydi" deyapti?*

X o n i m. Voy-voy, shu kishi-ya?! Qo'ysangiz-chi, domla! Bir juldurvoqi-ku! Do'xtir bo'lsa, professor bo'lsa, birovning hovlisida qorovullik qilib yurarmidi?!

D o m l a. Avvalo, begona emas, tug'ishgan jiyani. Prokuror! Haftada ikki-uch bor kelib jiyanining hovlisini qo'riqlab ketsa nima qipti? Prokurorning o'zi bu koshonaga kelib turolmaydi-ku, to'g'rimi?

Qolaversa, ilm odami, qo'li kaltaroq. Buning ustiga, bola-chaqasi ko'p emish.

X o n i m. Mana, siz ham ilm odamisiz – qo'lingiz uzunmi?

D o m l a (*hazilga burib*). Mening qo'lim ham, oyog'im ham uzun! Xohlasam – Turkiyaga yetadi, xohlasam – Dehliyu Dubayga!

X o n i m. Kesatyapsiz-a? O'zingiz ham rosa kezgansiz Moskvayu Leningrad qilib!

D o m l a. Sizniyam armoningiz qolmagan, xonim! Sochiyu Qirimlar eslaridan chiqdimi? Keyin-keyin undan ham nari – Bolgariya, O'rta Yer dengizi bo'ylab sayohatlar! Mazaxo'rak bo'lganlar-da, o'shalarni xumor qilibmi, mana, uyda o'tirolmay qoldilar. O'rgangan ko'ngil...

X o n i m (*past tushib, ham qofiyasiga*) o'rtansa qo'yimas! O'zingiz oborgansiz-ku!

D o m l a. Ana shunisiga dog'man-da Bizga kelsak, bizniki ilmiy

kengash, konferentsiya yo seminar deb atalguchi edi. Yalang sayru sayohat emas!

X o n i m. Bizniki ham sayohat, ham tijorat deb ataladi! Chidaysiz-da, xo‘jayin! Chidayolmasangiz siz sho‘rlikda prokuror jiyan ham yo‘q!

D o m l a (*nochor iljayib*). Bizga unaqa dahmaza jiyanning keragi ham yo‘q, xonim afandim, o‘zingiz borsiz, yetib ortadi!

X o n i m (*haligi tahlikada bu gapning tagiga yetmay*). E, xudoga shukr-e! Shunday deb turing. Aytganday, eshitdingizmi?..

Darvozaxona tarafdani yana “Oq kaptar” qo‘shig‘i yangrayotir.

D o m l a. Eshitdim, eshitdim. Boya ham eshitganday bo‘luvdim. Shu qo‘shiqni yaxshi ko‘raman- da, xonim. Xuddi oppoq gullagan olchazorda sayr qilib yurgandek bo‘ladi odam. Sizni qo‘ltiqlab! Huv bir vaqtlardagidek! Yon-veringizda oq kaptarlar charx uradi, jannatning o‘zi! Saodat Qobulovning qo‘shig‘i...

X o n i m. Shoir bo‘pketing-e! Men boshqa gapni aytyapman, domla...

D o m l a. Quloq soling, quloq soling! (*Bosh tebratib.*) Shunday ashulalar ham bor-a dunyoda! Eh, qani mening yoshligim?!

X o n i m (*quloq tutib*). Anovi moshinadan kelayotganga o‘xshaydi. Radiosini o‘chirish esidan chiqibdi-da.

D o m l a. Iya, so‘taqo‘zingiz shu yerdami? Qachon keldilar?

X o n i m. Huv, qachon edi! Ijodga sho‘ng‘ib, moshinaning ham tovushini eshitmagandirlar- da?

D o m l a. Balki, balki. Chaqiring, o‘chirib qo‘ysin.

X o n i m. Charchab kelgan ekanmi, ichkari kirib tarrakday qotib qoldi!

D o m l a. O‘lguday urib kelgan deng! Shu ahvolda moshinaga o‘tirib ... Odam bo‘lmadi bu bola!

X o n i m. Qo‘ysangiz-chi, xo‘jayin, kim odam ekan shu zamonda!

D o m l a. Klarangiz ko‘rinmay qoldi?

X o n i m. Pastda, podvalda. Dam olyapti. Qizi bilan. Muzdekkina! Qarang, bu issiqqa chidab bo‘ladimi? Bitta sizga bilinmaydi. Hur-hur shiyponda o‘tiribsiz-da.

D o m l a. Zerikyapti-ya shu qiz? Shahri shovqinga o‘rgangan...

X o n i m (*xo‘rsinib*). E-e, gapirmang... Hoy, tushib anovining radiosini ko‘rsangiz-chi endi!

D o m l a (*sho‘xchanlik bilan*). Xo‘p bo‘ladi, xonim! Xo‘p bo‘ladi, Roza Hasanovna! Hozir-da.

D o m l a yog‘och zinapoyadan tushib keladi va shiyponning orqasida – bizga ko‘rinmay turgan moshinaning eshigini ochgani eshitiladi. Ul-bul

murvatini tekshirib chiqqan bo'lsa kerak, eshik yana qarsillab yopiladi. Bu vaqt boyagi qo'shiq ham tingan.

D o m l a (shiypon tagidagi chorqirra ustunga suyanib turgan xotining oldiga qaytib). E, ko'cha-ko'ydan kelyapti shekilli... (*O'choqboshi tarafga qarab.*) Amma! Biror narsangiz bormi? Qorin piyozning po'stlog'i bo'pketdi-ku!

A s a l x o l a. Birpasginada bo'ladi, aylanay, sabr qilasiz.

X o n i m (*ensasi qotib*). Aylanay, o'rgilay... Bu kishi – domla!

A s a l x o l a. Xo'p, xo'p, xonim... Ro'za Hasan... (*Birdan zahri qo'zib.*) O'zingiz uyga kirib andakkina damingizni olsangiz-chi, aylanay! Yo'ldan kelgan odam! Bu xotin charchamaydiyam!

*Asal xolaning nega
birdan "zahri qo'zidi"
deb o'ylaysiz?*

X o n i m. Charchab bo'pti! Zahar xola!.. (*Domlaga yuzlanib, birdan past ovozda.*) Hech gapdan xabaringiz yo'qmi, domla? Mustaqillik ketganmish-ku!

D o m l a (*beixtiyor, ajablanib*). Mustaqillik?! Qanaqa mustaqillik? Qayoqqa ketadi? Nega? O'ylab gapiryapsizmi o'zi, xonim? Alahsiramayapsizmi ishqilib?!

X o n i m (*o'zini oqlagandek*). Kim bilsin, boya o'g'lingiz shunday deb to'ng'illagandek bo'luvdi. O'zim ham yaxshi anglayolmay qoldimmi...

D o m l a (*besaranjomlikka tushib*). Esi joyidami o'zi?! Bor, uyg'ot! X o n i m. Uxlayapti bola. Turolmaydi.

D o m l a (*darg'azab*). Uyg'ot deyapman hozir!

X o n i m. Voy, voy! O'zingizni bosing, xo'jayin! Unday bo'lsa, kuyib qoladigan men-ku! Shuncha mol, sarmoya! Sizga, qaytaga, yaxshi bo'lmaydimi? Ishlaringiz yana yurishib, akademiya, saylov...

D o m l a (*xezlanib*). O'v, xotin, es-pesingni edingmi?! O'ylab gapiryapsanmi, axir? Nahotki, men... Kir, uyg'ot!

X o n i m (*daf'atan chatnab*). Uyg'otmayman! Kerak bo'lsa, kirib o'zingiz uyg'oting!

(*Yo'lni to'sib.*) Uyg'otib bo'psiz! Men bu odamni suyunib ketadimi desam...

D o m l a. Suyunib ketadi? Obbo-o! Mening, mendaqalarning ishi yurishishi uchungina kechagi zamon qaytishi kerak ekanmi? Buni xayol qilmoqning o'zi borib turgan telbalik, razillik-ku!

X o n i m. Huv birda o'zingiz ijtimoiy adolat, tenglik g'oyalari yana qaytib maydonga chiqishi mumkin, degandek bo'luvdingiz shekilli?

D o m l a (*bir zum gangib, so'ng yotig'i bilan, saboq maromida*).

Aytgandirman. Chunki bu – orzu, insoniyatning o‘lmas orzusi! Tarixiy sharoit, mavjud tuzum yo siyosat taqozosi bilan, yoki urush-to‘polonlar davrida u ma’lum muddat kun tartibida turmasligi, unutilishi ham mumkindir. Ammo odamzod bor ekan, bu ideal hech qachon eskirmaydi, yo‘q bo‘lib ketmaydi. Shu gaplarni o‘zingiz ham bilasiz-ku, xonim – fan nomzodi degan hujjatingiz bor qo‘lingizda! Loaqal, qadimgi Rim demokratiyasi, Forobiy boboning odil jamiyat haqidagi orzularini eslang!..

X o n i m. Esladik, esladik, domlai kalon! Lekin – hayot boshqa, anovi orzu-xayollar boshqa!

D o m l a (*fikridan chalg‘imay*). Yo‘q, xonim, siz gapni chalkashtiryapsiz. Mustaqillik boshqa, ozodlik tushunchasi bir boshqa, ijtimoiy adolat, tenglik g‘oyalari – boshqa! Axir, milliy mustaqil mamlakatda ham adolatsizlik, bedodlik hukm surishi mumkin-ku. Misol kerakmi sizga?.. Bilgingiz kelsa, men ijtimoiy adolat, insoniy tenglik tarafdoriman, xolos. Zinhor-bazinhor kechagi istibdodning emas! Qolaversa, odamzod muayyan bir g‘oyadan charchasa yoki ijtimoiy tabaqalashuv, haqsizlik haddan oshsa, jamiyatda muvozanat buziladi. Ana shunda islohot yo inqilob zarurati tug‘ilib, mulk qo‘ldan qo‘lga o‘tadi. Huv Oktyabr inqilobi chog‘ida shunday bo‘lgan, bilasiz.

X o n i m. Og‘zingizdan bol tomadi-ya, domla!

D o m l a (*birdan bo‘shashib, cho‘nqayib qoladi*). Robiya! Senga nima bo‘ldi? Shuncha yil birga yashab, nahotki, meni bilmasang?! Nahotki men... Attang, attang!

X o n i m (*yig‘lamsirab*). Bilganim uchun aytyapman-da! Shunday odam, shuncha mehnat qilgan olim, bugungi kunga kelib ahvolingizni qarang! Men ham kuyaman-da! Kuyganimdan...

D o m l a (*vishillab o‘rnidan qo‘zg‘aladi*). Ahvolimga nima qipti, mochaxar, og‘zingni yum-e!

X o n i m (*gezarib, “ozod Sharq ayoli” qiyofasiga kirib*). Menga baqirmang, xo‘pmi! Meni siz boqayotganingiz yo‘q! Sizning davringiz o‘tdi endi, domla! Hozir – demokratiya zamoni!

D o m l a (*quvlagudek talpinib*). He, o‘sha demokratiya-pemokratiyanga qo‘shib seni!..

O‘choqboshidan A s a l x o l a, ko‘lida kapgir, sarosimada er-xotin tomon yo‘rg‘alab keladi.

A s a l x o l a. Ibi, aylanaylar, sizlarga nima bo‘ldi? Uyat bo‘ladi-ya, domlajon! Uyat-a, xonimjon! Siz bir gapginadan qolib uyginaga kirsangiz-a!

Chorpojada yotgan mehmon – R a h m a t u l l o h J i y d a l i y bosh

ko‘tarib, bu mashmashani taajjub bilan kuzatadi.

J i y d a l i y . E, e, domullo! Ovozlaringiz baland-baland chig‘di, yangamullomizga hazil qilyapsizmi deyman?

D o m l a (*hovridan tushib, xijolatomuz, ammo zaharxanda bilan*). Yangamullongiz bizga xotin bo‘ladilar, Rahmatvoy! Siz aralashmang, bahuzur damni olavering. Siz aytgan hazilni biz ho‘ bir zamonlar chimildiqda qilganmiz, ukam!

J i y d a l i y . Xo‘p, xo‘p, domullojon, uzr. (*Keyin bamaylixotir, maroq bilan davom etadi.*) Bizga deng, domullojon, chimildiqqa kirganda kelinchakni avval bir shapati urganlar, “voy” desa – bir tepganlar. Ana so‘g‘ra o‘la-o‘lguncha bosh ko‘tarib betingizga qarasin- chi! Yo bir og‘iz so‘z aytib ko‘rsin-chi!

D o m l a. Amerikani aytyapsizmi, Rahmatvoy?

J i y d a l i y . Yo‘-o‘q, domullo, Afg‘onni, shamoliy Afg‘onni. Amrikoda kelin sizni uradi, sizni tepadi-ya! (*Kuladi.*)

D o m l a. Biz ham Amerikaday bo‘pqopmiz-da unda?

J i y d a l i y . Yo‘g‘-e, domullojon, unday demang. Xudo saqlasin! Sizlar, fikrimcha, Amriko bilan Afg‘onning o‘rtasida hozir. Mo‘tadil.

D o m l a. Mo‘tadil bo‘lgani qursin deng! (*Hamon serrayib turgan xotiniga qarab, odatdagidek yumshoqlik bilan.*) Siz kirib bunday bir radio-televizorni qo‘yib ko‘ring-chi, rostdan ham nima gap ekan?

X o n i m (*tumshayib uy tomon burilarkan*). Erkak zotining bari – bir xil: Amerikada ham, o‘sha Afg‘onida ham! Feodal!

J i y d a l i y (*xonimning ortidan*). Yangamullomiz ko‘p olimu oqila ayol-da, domullo! Baraka topsinlar.

D o m l a (*parishonlik bilan*). E, so‘ramang, Rahmatvoy! Ilmu amallarini namoyish qildilar-ku boya, ko‘rdingiz!

Domla chorpoynaning bir chetiga o‘rnashadi. Har ehtimolga deb kapgirini o‘roq misol ko‘tarib olgan A s a l x o l a o‘choqboshiga qaytib ketadi.

J i y d a l i y . Domullo, siz hali yangamullomizga hamma teng bo‘lmog‘i lozim, deganday gap qildingiz-a? Qandoqasiga teng bo‘lsin, axir? Mana, besh panja barobar emas-ku!

D o m l a. Besh panja barobar emas, to‘g‘ri. Ammo hadeb shu naqlni odamga ishqayverish ham nodurust-da, Rahmatvoy. Axir, inson deganingizning besh barmoqdan boshqa a‘zolari ham — yana bir qo‘l, ikki oyoq, yelkasida kalla, kallasida miya ham bordir! Ko‘ngli-chi, ko‘ngli, yuragi?! Besh panja deysiz, shuning qaybirini tishlamang – birday og‘riydi-ku! Demak, zohiran uzun-kaltaligiga qaramay dardi, botini bir xil

ekan-da, to‘g‘rimi?

Bandalari ham Ollohga ana shu yo‘sin bog‘langan, uning oldida ana shunday teng, barobar emasmikan? A, labbay? Eski kitoblaringizda ham yozilgan-ku!

J i y d a l i y. Lokin bu dunyoda ahvol boshqacharoq-da, domullo! Mana, masalan, man mulkdoru sarmoyador. Siz bo‘lsangiz, tenglik, barobarchilik qilaman deb, shuni olib yo‘qsillarga taqsimlab bermoqchisiz. Yo‘qsil deganingiz ro‘yi jahonni kanaday bosib ketgan, eh-he! Uni baribir to‘ydirib bo‘lmaydi, ishoning! Hov kechagi zamonda ham, o‘zingiz bilasiz, ota-bobomning bor sarvatini bir sidra shunday g‘orat qilib edilar, endi kelib yana... Insofdan emas-da bu ishingiz, domullo!

Jiydaliy “ota-bobomning sarvatini g‘orat qilgandilar” deganda nimani nazarda tutyapti?

D o m l a (*beg‘ubor kulib*). Yo‘q, yo‘q, Rahmatvoy, mol-davlatingiz o‘zingizga buyursin, ukam. Uni endi hech kim sizdan tortib ololmaydi, qo‘rqmang. Dunyo bugun sizlarning qo‘lingizga o‘tgan-ku! Mana, siz insof-insof deyapsiz. Men ham shu adlu insofni aytmoqchiman-da. Qaysidir kuni gazetda o‘qidim: Rossiyada raqibi otib o‘ldirgan bir ashaddiy kallakesarni dafn etishga uch ming odam to‘planibdi, uch ming! Tobuti yigirma besh ming dollar turarmish. Kiyib yotgan kostyumi – besh ming, oyog‘idagi poyabzali ham necha ming dollar! Ana shu tobutu kiyimbosh bilan ko‘miladi, bilsangiz. Bu yoqda bo‘lsa – hali siz aytgan kanaday son-sanoqsiz yo‘qsil bir parcha nonga zor! Ko‘ngilxushi yoki bachkana bir ermakka million-millionlab sovurib yotgan nahanglarni esa o‘zingiz mendan yaxshi bilasiz, birodar!

J i y d a l i y (*qizg‘anish bilan*). Hayf, hayf! Lokin pulu sarvat o‘ziniki bo‘lgandan keyin ixtiyori ham o‘zida bo‘ladi-da, taqsir!

D o m l a. Xo‘sh, shuncha millionni birgina odam qayoqdan, qanday qilib topibdi ekan, qani, ayting? Ha-a, balli, qing‘ir yo‘llar bilan, nayrangu firibgarlik bilan qo‘lga kiritgan! Demak – harom, harom aralashgan! Siz bo‘lsa insofdan gapirasiz! Yo insof degani faqat bechorahol yo‘qsilga tegishli matohmi? To‘g‘ri, bu nafsu manfaat dunyosida hamma bir xilda boy-badavlat bo‘lmog‘ining iloji yo‘q. Lekin xudo barchani teng qilib yaratgani haqiqat-ku! Har kimning fe‘liga yarasha bergani ham haqiqat. Deylik, sizga nasib etgani

– menda yo‘q, menda bori – sizda bo‘lmas. Oliy adolat degani mana shu emasmi?! Men boya shunday tenglik, umuman, asl mohiyat haqida gapirgan edim, durust anglamabsiz, birodar. Eshitgandirsiz, qadimda bir dono darvesh zo‘ru zo‘ravon podshohning huzuriga ikkita bosh chanog‘ini

ko'tarib kelib, qaysisi shohniki-yu qaysi biri gadoniki ekanini ajratib berishni so'ragan ekan. Podshoh harchand tikilib qaramasin – bosh chanoqlari bir xil emish!..

Derazadan X o n i m ning chiyillagani eshitiladi.

X o n i m. Na radiosi ishlaydi, na televizor o'lgur! To'k yo'q, yana o'chirib qo'yishibdi. Sahro bu, sahro! Sahroyi Kabirda ham telefon-pelefon bo'lar! Bo'stondan so'rab bilay desam, Turkiyaga ketishdan oldin sotkamni Luizaga bergan edim, yo'qotib qo'yibdi kasofat. Rahmatjon, telefoningiz yoningizdami, uka?

J i y d a l i y. Manikining quvvati o'lgan, yangamullo. Chiroq kelsa, qizitib olamiz hali, tashvish qilmang.

Shu chog' darvozaxona tagidagi mashinadan yana o'sha qo'shiq eshitiladi.

J i y d a l i y. Meliboy ukamiz bir qo'shiqni qayta-qayta yozib olgan ekanlar. Lekin ohangi ko'p musaffo-ya, domullo?

IKKINCHI MANZARA

O'sha kun, o'sha manzara. Kechga yaqin palla. Ko'shksimon shiypon. D o m l a tebranma kursida o'tiribdi. Ro'parasida – “oqqadar” shogirdi T u r s u n i y.

D o m l a. Qani, gapirsinlar, Tursuniy janoblari, olamda nima gap?

T u r s u n i y. O'sha-o'sha, ustoz. Hammasi o'zingiz bilgandek. Buyuk kelajak sari intilib yotibmiz!

D o m l a. Yashang, intiling! Shaharda tinchlikmi ishqilib?

T u r s u n i y. Tinchlik bo'lmay nima bo'lardi? Har qadamda – posbonlarimiz! Hammayoq suv quygandek... (*Taajjub aralash.*) Boya ham so'radingiz-a shu gapni, domla, tinchlikmi o'zi?

D o m l a. Men qaydan bilay, ukam? Shahardan kelgan – siz! Biz mana shu xilvatgina Astrobodda, dunyodan bexabar, haq deb o'tiribmiz-da.

Na telefon ishlaydi, na televizor.
Dashti biyobonday gap!

*Domla “xilvatgina Astrobod” deb
nimaga ishora qilyapti?*

T u r s u n i y. Unaqa demang-e, ustoz! Bog'ingiz naqd jannatning o'zi-ya! Ayniqsa, hozirgidek yoz kunlari! Mana, o'zimiz ham yugurib-yutoqib kelib o'tiribmiz-ku!

D o m l a. Siz-ku, ukam Tursuniy, bekorga kelmagandirsiz?

T u r s u n i y. Nega, ustoz? Sizni bir ko'ray dedim-da. Innakeyin, syurprizimiz ham bor

– moshinani yangiladik! Shuni bir ko'z-ko'z qilib, duongizni olib,

yuvib bermoqchi edik- da sizga.

D o m l a. E, muborak bo‘lsin, muborak bo‘lsin! Moshinangiz hali bejirimgina edi-ku, Tursuniy? Qanaqasidan oldingiz?

T u r s u n i y. “Volga” deganlarining zamoni o‘tdi endi, domla! O‘ziyam ko‘p xizmat qilgan edi.

D o m l a. Ha-a, ko‘plarga xizmat qildi, ko‘plarga...

E'tibor bering: “ko‘plarga xizmat qildi”. Domla nima demoqchi?

T u r s u n i y (*pinak buzmay*).

Rais buva – do‘stingiz tag‘in bir mardlik qildilar-da.

D o m l a. Omon bo‘lsinlar! U kishining kasblari – mardlik doim! Bizga ham ko‘p himmat ko‘rsatganlar.

T u r s u n i y. E, sizga har qanchasi oz, domla!

D o m l a. Ko‘pirmang, ukam, ko‘pirmang. Rahmat.

T u r s u n i y. Bir maslahat bilan ham keluvdim, ustoz. D o m l a. Xo‘sh, xo‘sh?

T u r s u n i y. Do‘xtirlikni boshlasammi deb turibman...

D o m l a (*oshkora taajjub bilan*).

Do‘xtirlik?! Obbo, siz-ey! Zo‘r-ku! T u r s u n i y. Bu gal ham o‘zingiz bosh bo‘lsangiz...

Ilmiy ish mavzusining ham “qulayi” bo‘ladimi?

D o m l a. Shoshmang, shoshmang. Mavzu-pavzu tayinmi o‘zi? Tasdiqlatib olganmisiz?

T u r s u n i y. Bu yog‘ini o‘zingiz tasdiqlab berasiz-da, domla! Mavzumiz shu... zamonaviyroq bo‘lsami devdim. Har jihatdan qulay-da.

D o m l a (*dangaliga*). Ya‘ni? Qaysi jihatdan?

T u r s u n i y (*qizarib-bo‘zarib*). O‘zimning ustozimsiz, domla, aytaveray: o‘smoqchiman, karyera qilmoqchiman! Dotsent atalib sho‘ltillab yuraverish ham jonga tegdi. Bugungi zamonda o‘zagidan olmasangiz, oyoq ostida qolib ketar ekansiz...

D o m l a. O‘sing, marhamat! Lekin ilmning, do‘xtirlikning nima ahamiyati bor ekan bunda?

T u r s u n i y. Har holda, anketaga fan nomzodi degandan ko‘ra fan do‘xtiri deb yozilgani zo‘r-da, domla! Lavozimga tanlanayotganda shunisiga ham qaralar ekan...

D o m l a (*o‘zini go‘llikka solib*). Obbo, Tursuniy, Tursuniy! Buni qarang-a, ilm-fan deganlari o‘sha yerda ham asqatar ekan-a, a? Xayriyat! Lekin – o‘zimi yoki quruq nommi?.. Hay, mayli, mavzudan gapiring!

T u r s u n i y. Aytdim-ku, mavzu – o‘sha... mustaqillik, mustaqillik yillarida qo‘lga kiritgan yutuqlarimiz... Yangi tarix-da!

D o m l a. Nomzodligingiz o‘n to‘qqizinchi asr tarixidan edi-ku?! (*G‘ijinibroq.*) Gap bunday, ukam: shu mavzuni tanlagan bo‘lsangiz, Mustafoulov domlani oldiga borganingiz ma‘qul. Bunaqa mavzularning piri – o‘sha odam! Buning ustiga, menga o‘xshab po‘panak bosgan bir professor emas, kimsan – akademik! O‘zingiz aytganday – har jihatdan qulay! Keyingi vaqtda davralaring, gap-gashtak ham bir emish-ku...

T u r s u n i y (*yerga qarab*). Dadam, do‘stingiz “Bu yog‘iga ham ustozingning etagidan mahkam tutasan!” deganlar.

D o m l a (*birdan bo‘shashib, mung‘ayib*). Hay, bir gapi bo‘lar. O‘ylab ko‘raylik-chi... Darvoqe, akademiya saylov e‘lon qilinar-mish, xabaringiz bordir?

*Shogirdining dadasi – Raisbuvani
eshitib Domla negabo‘shashib
qoldi?*

T u r s u n i y (*jonlanib*). Rostdanmi? Eshitmagan ekanman-ku hali. Bir kalla qilib ko‘ramizmi yana? Mana, bu yoqda biz turibmiz! D o m l a. Siz?!

T u r s u n i y. Yugur-yuguriga-da! Busiz bitarmidi unaqa ishlar?!

D o m l a (*ermakka kirishib*). Men nima qilishim kerak bo‘ladi unda, xo‘sh? T u r s u n i y. Uch-to‘rtta dolzarbroq maqola yozasiz, tamom!

D o m l a. Maqola?! Qanaqa maqola? Nega? T u r s u n i y. Mustaqillik haqida-da, domla!

D o m l a (*oshkora masxaraga o‘tib*). Xo‘p, mayli. Nima deb yozamiz, qani?

T u r s u n i y. Ustimdan kulyapsiz-a, domla? O‘zingiz bilasiz-ku hammasini! Mana, masalan: “Ajoyib zamonda yashamoqdamiz. Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz...” va hokazo.

D o m l a. Va hokazo deng? O‘qigan odam kulmaydimi? Kechagi zamonda boshqa ashulani aytardi, domlasi qurg‘ur endi bu yoqqa o‘tibdi-da, munofiq, ikkiyuzlamachi ekan, demaydimi?!

T u r s u n i y. Hammasi shunday qilyapti-ku, domla! Bir og‘iz kechirim so‘rab, boshlayverasiz-da. “Zamon shunaqa edi, nachora” deganday...

D o m l a. Kechirimni kimdan so‘raymiz, sizdanmi? T u r s u n i y (*xijolatomuz*). Xalqdan-da, ustoz.

D o m l a. Keling, shuni sizdan so‘rayqolaylik. Maylimi? Siz ham xalqning bir vakilisiz-ku! Faqat bitta sharti bor: shu maqolani siz yozib bersangiz, qalay? Biz ham o‘zlariga yozib berganmiz-a, eslaridadir? Xo‘sh?

T u r s u n i y (*yerga boqib*). Odamni yomon olasiz-da, domla!

Shu choq shiypondan pastda suv shaloplaydi – kimdir basseynga kalla tashlaydi.

Noqulay vaziyatdan qutulgan T u r s u n i y ga jon kirib, panjaradan o'sha yoqqa egiladi. T u r s u n i y (*quvnoq ohangda*). Iya, Melisboy, maza-ku! Chaqirmaysiz ham odamni... M e l i s (*suvning shaloplashi orasidan ovozi*). Ha, To'lik domla, salom! Keling, pajalista.

T u r s u n i y. Kalla qiziganmi deyman? (*Domlaga o'girilib*.) Haliyam uryaptilarmi? Dissertatsiyani tashlab qo'ydi-ya shu bola?

D o m l a. Kim bilsin, balki to'g'ri qilgandir... Unisi-ku mayli, o'ttizga borayotgan odam, uylanmayapti. Yuribdi...

T u r s u n i y (*tap tortmay*). Osiltirib deng!

D o m l a (*o'qrayib*). O'zidan so'rarsiz u yog'ini! (*Keyin ezg'in bir ko'yda*.) Tursuniy, gapni eshiting. Bundan bu yog'iga akademiklik ham, ukademiklik ham – sizlarga siylov! Bergisi kelsa, loyiq ko'rilsak, shu choqqacha berardi. Bermadimi, demak, munosib emas ekanmiz-da. O'zi shunday, biror bahona bilan bir-ikki daf'a panada qoldingizmi, galingiz o'tdimi – bo'ldi, butunlay unutilib ketarkansiz. Biz-ku biz, allomai zamon atalgani ham! Buyam bir omad, peshona-da. U yog'ini so'rasangiz, falonchi nimasiga unvon oldi degandan ko'ra, nega shu odamga berilmadi, deyilgani afzal emasmi?! Endi, yetmishga qarab ketayotgan menday odam, akademik bo'ldi nima-yu bo'lmadi nima! Anovi Chig'atoyga ko'milish martabasini aytmasa! O'lgandan keyin qayerga ko'milish- ko'milmaslik baribir emasmi? Menga desa, o't qo'yib yoqib yuborsin! Musulmon qavmidan bo'lganimiz bilan, suyak savil sho'ro zamonida qotgan, nachora! Hay, o'ligimiz ko'chada qolmas...

T u r s u n i y (*shosha-pisha*). Yo'g'-e, nima deyapsiz, domla! Sizday odamni albatta...

D o m l a (*o'zi bilan o'zi, xayolchan*). Odamgarchilik yuzasidan tobutimning bir yog'idan siz –vaqt topsangiz-da, bir yog'idan, kayfi bo'lmasa, anovi kasofat ko'tarib, biror yerga eltib tashlarsizlar. Xo'pmi? O'zimga qolsa-ku, ho'v olis Jiydalimga borib, ota-onamning yonida yotsam! Vo darig'ki!.. (*Birdan sho'xchan tus olib*.) Yo'-o'q! Bir shoirimiz aytibmidi, "lekin hali- veri o'ladigan tentak yo'q"! Nima dedingiz, Tursuniy?

T u r s u n i y. Domla-a, ko'nglingizga kelmasa, bir gap aytsam? D o m l a. Bizdayam ko'ngildan qolgan ekan-da, qarang!

T u r s u n i y. Iya, domla, nima deyapsiz! Ustozimizsiz axir, ulug' olim!

D o m l a. Shu ulug‘-pulg‘ingizni qo‘ysangiz-chi, Tursuniy! Qani, gapiring, nima demoqchisiz?

T u r s u n i y. Men shoir-poir emasman-ku, endi anovinaqa demasangiz, iltimos!

D o m l a. Hamma sohaning ham shoiri bo‘ladi, ukam. Siz o‘zingizning sohangizda shoirsiz!

T u r s u n i y. Mening soham... nima u?

D o m l a. Gapni chuvaltirmang, Tursuniy, baloginani bilib turibsiz! Ajabo, shu vaqtgacha sira malol kelmagan bir hazilimiz endi... Yoki “inomarka” mingan odam birdan o‘zgarib qoladimi?

T u r s u n i y (*o‘pkalab*). Biz ham endi yosh emasmiz-ku, domla!

D o m l a (*bu yogini hazilga burib*). Ha-a, tagingizda – “inomarka”! Fan nomzodisiz! Mana, endi do‘xtir bo‘lmoqchisiz!

Shu vaqt choy ko‘tarib X o n i m kelib qoladi.

X o n i m. Ustoz-shogird yana topishibsizlar-ku! Ko‘rinmay ketdingiz-a, Tursunboy, bizlarni unutib? Kelinni opkelmabsiz-da?

T u r s u n i y. Sizlarni unutib bo‘ladimi, yangamullo!

X o n i m (*xushlamay*). E, qo‘ying shu yangamullo-pangamulloni! Sizam anovi Rahmatjonga o‘xshab... Ular-ku endi eskicharoq. (*Domlaga yuzlanib.*) Xo‘jayin, kechga bir osh qilsakmi devdim?

D o m l a (*beixtiyor*). Ya‘ni, masalan?

X o n i m. Biz g‘alva safarlardan sog‘-salomat keldik! Nozik mehmonimiz bor – Rahmatjon. Mana, bu yoqda Tursunboy keptilar. Xullas, jamoat jam. Bugun shanba, dam olish kuni. Kim biladi, yana birov-yarim keppolar.

D o m l a. Bozorga chiqib kelish kerak edi-ku?

T u r s u n i y (*jon kirib*). Tashvish qilmang, domlajon, hammasi yest! O‘zim sizlarga bir osh yasab beray. Qo‘lbola qilib! Bo‘ptimi, kennoyi... Roza Hasanovna? (*Panjaradan hovli tomon egilib hayqiradi.*) Asal xola-a! Qozon-tovoqni tayyorlang, osh!

T u r s u n i y er-xotinning ko‘zini shamg‘alat qilib, yonidan olgan oq konvertni stol ustidagi qog‘ozlar orasiga tikib qo‘yadi-da, shaxdam o‘rnidan turib, zinapoya hatlab xovliga tushadi. Hovlida qovushmaygina chorpoyaga joy hozirloyotgan K l a r a ga duch keladi.

T u r s u n i y (*eski qarddonlar misol dali-g‘ulilik bilan*). O-o-o! Klara Setkinga salomlar! Kak jizn, dorogaya? Ne skuchayem?

Konvert ichida nimabor deb
o‘ylaysiz?

K l a r a. Iya, qirq yillik aspirantimizmi? Salom, salom.

T u r s u n i y. Kakoy aspirant! Kerak bo‘lsa – kandidat nauk, dotsent!
Yana kerak bo‘lsa

–budushiy doktor, professor!

K l a r a. Buni qarang, alomat-ku! Forslarda bir naql bor: “Az zog‘
andalib paydo shudast”. Tushudingiz-a?

T u r s u n i y (*suv yuqtirmay*). E, mening forscha orschasi bilan ishim
yo‘q! O‘zingizdan gapiring. Neva bo‘ylarini sog‘inmayptilarmi?

K l a r a. Xuddi Neva bo‘ylarida men bilan qo‘ltiqlashib yurgandek
gapirasiz-a, Tursunboy!

T u r s u n i y. Havasimiz keladi-da, Klaraxon, havasimiz!

K l a r a (*cho‘rt kesib*). Osh qilmoqchisiz shekilli, shundaymi? Nima
yordam kerak sizga?

T u r s u n i y (*xijolatomuz*). Yo‘-yo‘q, hammasini o‘zimiz yest
qilamiz! Sizlar shakarob- pakarob deganday...

T u r s u n i y o‘choqboshidan boltani olib, bizga pana bog‘ etagiga
tushib ketadi. Qars-qurs o‘tin yorayotgani eshitiladi. Imorat biqinidagi
derazadan L u i z a ning boshi ko‘rinadi.

L u i z a (*hovlida yurgan Klaraga*). Ma-a-m! Kupatsya xochu! K l a r
a. Idi iskupaysya! Cho‘milaver!

L u i z a (*tantiqlik bilan*). A tam – dyadya!

K l a r a. Nu podojdi togda. Tog‘ang seni yeb qo‘yadimi?!

Ko‘shksimon shiypon. X o n i m D o m l a ga choy quyib uzatadi.

X o n i m. Yana iskananib qolibdimi buningiz? Bir qop narsa ko‘tarib
kepti-ya: go‘shstu yog‘, arag‘u konyak!

D o m l a. Do‘xtir bo‘lmoqchilar ukajoningiz!

X o n i m (*ko‘zlari ola-kula bo‘lib*). Do‘xtir?! Voy-voy, ushlang,
yiqilib tushaman hozir! Fan do‘xtiri-ya! Yana sho‘rlik domlajoni yozib
bersalar kerak-da, a?

D o m l a (*taassuf bilan*). Kim yozib
beradi bo‘lmasa? Manovi hovli-haram,
anovi basseyn o‘z-o‘zidan bino bo‘ptimi?
Qayoqqa qaramang, rais

“Hammayoqda Rais buvaning
mo‘ylovi ko‘rinadi” deganda
Domlanimani nazarda
tutyapti?

buvaning mo‘ylovi ko‘rinadi! Turib-turib, bariga o‘t qo‘yging keladi-
ya!

X o n i m. Voy-voy, o‘zimiz-chi? O‘zimiz qarab turibmizmi?!

D o m l a (*zarda aralash*). E, xonim, sizning anovi mozorbosdi
kolgotkalaringsizdan qolgan chaqa-chuqa urvoq ham bo‘lmasdi bunga!

X o n i m (*qo‘llarini beliga qo‘yib*). Bundan chiqdi, biz faqat sayru
sayohat qilib yurgan ekanmiz-da, a?

D o m l a (*ikki qo'lini baland ko'tarib*). Bo'ldi, bo'ldi, shu yerda to'xtang! Bu jangnomaning adog'i yo'q, bilamiz!

X o n i m. Yozmaysiz, tamom! Kechagina ketingizdan "domla, domla"lab chopgan Mustafoulov ana – akademik, direktor bo'lib olib davrini surib yuribdi! Siz bo'lsangiz bu yoqda, birovlarga...

D o m l a (*ovozini pasaytirib*). Xo'sh, ayting-chi, sizga kim yozib bergan? Sizni olim qilgan kim?!

X o n i m. Menga? Meni? (*Bo'shshib.*) O'zingiz qo'ymagansiz meni! Ziyolining xotini ziyoli bo'lishi kerak deb meni sirtqi o'qishga joylagan kim? Melisginamni manovi Zahar xolangizga tashlab, meni kutubxonama-kutubxona yugurtirgan o'zingiz emasmidingiz? Topganim – mana! Qaytaga, uyda jimgina tikuv-bichuvimni qilib o'tirsam bo'larkan o'shanda. Bitta ko'ylak tikdirish necha pul hozir, bilasizmi?

D o m l a (*o'ychan*). Hayotimdagi eng katta xato shudir balki...

X o n i m (*Domlaga engashib, pichirlab*). Ja-a qo'lingiz qichiyotgan bo'lsa, ana, Bo'stonga yozib bering! Do'xtirskiy yozdirishga odam qidirib yuribdi.

Soqqasi tayyor. O'nta bermoqchi! Ko'kidan!

D o m l a (*angrayib*). Bo'stonga?! Unga nima kerak ekan ilm? Hammayog'i to'lib-toshgan, deysiz-ku!

“ko'k” – dollar

X o n i m. Nomi-chi, nomi?!

D o m l a. Nomi? (*Ensasi qotibroq.*) Quruq nomni nima qiladi? Agar shugina kerak bo'lsa, mana, kelib menikini olsin. Tep-tekin! Xudo haqqi, berroraman – bezorman o'zi!

X o n i m (*o'zinikini qo'ymay*). Bugun bo'lmasa, ertaga bir kun kerak bo'pqolarmish. Burun borida simirib qol deganday-da...

D o m l a. Ey xotin, seni ado qilgan shu Bo'ston bo'ldi aslida. “Bo'ston undoq dedi”, “Bo'ston bundoq qildi”... Bo'ston, Bo'ston... Shuning nomini eshitsam, ko'nglim ayniydigan bo'lgan, xudo haqqi. Bu yoqda – manovi, ukajoningiz!..

X o n i m. O'sha Bo'stonoy dugonam bo'lmaganda, menga biznes sirlarini o'rgatmaganida, sizni biz bu yerda ochimizdan...

D o m l a. Rozi edim! Ming bora rozi edim! (*Bezor bo'lib.*) Endi birpasgina ishimni qilay, iltimos... Hay, shoshmang, telefon ishladimi?

X o n i m. Qayoqda!

D o m l a (*birdan jonsaraklanib*). Erkatoyingiz turdi-ya uyqudan? Ha, cho'milayotuvdi boya. Chaqiring bu yoqqa! Nima deb valdiragan edi o'zi u?

X o n i m. Hozir undan hech gap ololmaysiz bari-bir! Qo'ying, yana

birpas suv o‘ynab o‘ziga kelsin, keyin so‘rarsiz. Shunchaki bir vahimadir-da. Hammayoq jimjit-ku. Bir gap bo‘lsa!..

D o m l a. Asta’furulloh deb gapiring, xonim!

X o n i m (*ketaturib*). O‘ylab ko‘ring, ey – o‘nta! Ko‘kidan-a!

D o m l a boshini changallab o‘tiribdi. Yana allaqayoqdan boyagi qo‘shiq eshitalgandek bo‘ladi.

D o m l a (*kallasini sarak-sarak qilib*). Qayoqdan kelyapti bu? Yo miyaga o‘rnashib qolganmikan?

UCHINCHI MANZARA

Bog‘ etagidagi olma soyasida – bir uchiga bolta sanchib qo‘yilgan uzun kunda ustida yonma-yon T u r s u n i y bilan R a h m a t u l l o h J i y d a l i y sigaret tutatib o‘tiradi.

Oldilarida “yarimta”, talinkada parraklangan – bodring-pomidor.

J i y d a l i y. Tursuniy ukajon, qachondan beri so‘rayman deb doim faromush qilaman-a. Bu, Tursun degich manzil qay viloyatda o‘zi?

“yarimta” – aroq

T u r s u n i y. Tursun – mening otim-ku, qanaqa manzil?! Unaqa joy borligini bilmayman men.

J i y d a l i y. Axir, sizni Tursuniy demaydilmisiz?

T u r s u n i y. Domlam shunday deydilar-da. Hazillashib. O‘zim – Tursunboy, Tursunali J i y d a l i y. E-e, shunday deng. Bilmab edim, ukajon, o‘tin, o‘tin.

T u r s u n i y (*orqaga ishora qilib*). Ana, yorib qo‘ydim, yetar.

J i y d a l i y. Yo‘q, maning aybimdan o‘ting, gunohimni o‘tin qiling, deyopman. Billsangiz, Vatandan tashqari biz o‘zbaklarning har birimizda taxallus bor. Birlarimiz – Turkistoniy, birlarimiz – Buxoriyu Andijoniy. Yana birlari – Boysuniy, G‘uzoriy va hokazo. Mani, masalan, ota-bobomiz asli Jiydali makonidan bo‘lganlari uchun, Jiydaliy deb ataydilar. Rahmatullohi Jiydaliy! Afg‘onu Saudiyoda hamma shunday deb taniydi. O‘zim ko‘rmaganman hali u yerni. Tog‘ etagida joylashgan ko‘p zebo manzil deb ta’rif etadilar. Boboyu bobokalonlarimizning vatani-da. (*Uzrxohlik asnosi u tarjimai holining sharhiga tushib ketadi.*) Biz bo‘lsak, Afg‘onistonda tavallud topdik.

Ollohning hukmi bilan. Ota-enamiz yamonning zulmidan qochib, Amudaryodan gupsarda suzib o‘tgan ekanlar, qarang! Yetti pushtimiz do‘konchiyu sarmoyador bo‘lgan-da. Boz ustiga, bobomiz Buxor madrasasini xatm qilgan nafasleri ko‘p o‘tkir mullo o‘tganlar. Yangi hukumat ismi mulloyu

gupsar – kechuvdan o‘tish uchun ishlatiladigan meshga o‘xshagan moslama

do‘kondorga dushman chiqibdi. Nima qilasiz – qochasiz-da! E, ukajon, (*kallasiga mushtlab*) bu sabil bosh nimalarni ko‘rmadi deysiz!

*Jiydaliy “yangi hukumat”
deb qaysi hukumatni
nazarda tutyapti?*

Begona yurt, g‘aribchilik, xoru zorlik! Oxiri Amriko bordik deng. Mamlakat boy! Qimirlagan jon nonsiz qolmaydi. Biz ham shularga qo‘shilib yeldik, yugurdik, sarmoya topdik. Mana, odam bo‘ldik. (*Iljayib.*) Bugun

kimsan – millioner Rahmatullohi Jiydaliy! Bu orada Vatan ozod bo‘ldi. Keldik chopib. Fobrik, dav-dastgoh olib keldik. Sex ochdik, korxonona ochdik. Sovun chiqaramiz, qandolat chiqaramiz. Endi mana shu joylardan bir vatan sotib olib, obod qilmoq niyatimiz bor, ukajon.

T u r s u n i y (*mamnun-mahliyoga o‘xshab*). Yashang! Yashang, Rahmatjon aka, qoyil!

(*Atay merovsirab.*) Nima, u yoqda, Amerikada deyman-da, uy-joy yo‘qmi?

J i y d a l i y (*gurur-qanoat bilan*). Bor! Bir emas, bir nechta! Bola-chaqamiz o‘sha yoqda. Lokin, man sizga aytsam, ukajon, O‘zbekistonday yurt dunyoda yo‘q! Jahongashta akangizning gapiga ishoning! Bu bir tayyor jannat-ku! Qarang, hamma narsa arzon, bermalolchilik! Bu joylarning safosini, mana shu orom o‘tirishimizni ayting! Amriko-da bunday bahuzur gurung qurib, chaqchaqlashib bo‘psiz! Ikki kunda xonavayron bo‘lib ketasiz! Boy mamlakat bo‘lgani bilan jahannamning o‘zginasi u! Masalan, mana shu (*qo‘lidagi sigaretni ko‘rsatib*) bir quticha tamaki u yoqda, bilasizmi, necha pul turadi? Besh dollar! Bu yerda-chi, shunga yana besh dollar qo‘shib, bir oy tirikchilik qilsangiz ham bo‘ladi.

T u r s u n i y . Bizda oylikni dollar qilib bermaydi-da, aka!

J i y d a l i y . Bu bir misoli gap-da, ukajon... Bachalardan nechta? (*Javobini kutmay.*) Sizga maslahatim: hozir, mana shu arzon zamonda ikki-uchta hovli qilib qo‘ying. Keyin borib rahmat aytasiz manga.

T u r s u n i y . Hozirdanoq sizga rahmat-u, lekin hovli dedingizmi? Ikki-uchta?!

J i y d a l i y . Ha-da! Kivartir deydi-ya sizlar-da? Mana, man o‘zim Navoiy ko‘chasidagi uylardan ikkita o‘shandog‘ini sotib olyapman. A-arzon! Biri – olti ming dollarga tushdi, biri – sakkiz yarimga. Dunyoda bundoq arzon uy-joyni topolmaysiz, birodar!

T u r s u n i y (*quvlik aralash*). UZR, Rahmatjon aka, aybga buyurmaysiz. Dollar deganlari o‘zi qanaqa matoh bo‘ladi, bir ko‘rsatmaysizmi?

J i y d a l i y (*ranjibroq*). Sizdan yoshim ulug‘, ukajon, mani mayna qilmang.

T u r s u n i y (*g‘irt qasamxo‘rlik bilan*). Xudo haqqi, ko‘rmaganman sira! Hamma “dollar, dollar” deydi...

*Tursuniyning “umrida
dollarni ko‘rmagani”ga
ishonasizmi?*

J i y d a l i y . Xo‘sh, qandoqa bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

T u r s u n i y . Huv maktab darsliklarimizda shunday bir rasm bo‘lardi: qorni semiz, shlyapali bir janob og‘zi ochiq qopning oldida hassasini o‘ynab turibdi. Qop to‘la tanga- chaqasimon narsa. Shu bo‘lsa kerak-da dollari? Rasmning tagiga “Millioner kapitalist” deb yozilgan edi...

J i y d a l i y (*astoydil qah-qahlab*). Manga o‘xsharmidi? Qarang, manda undoqa qorin ham yo‘q, asocha ham! Lekin man ham millionerman. Shundoq bo‘lganim bilan sarmoyamdan bir tanga ham sarflamayman. Tushgan foiziga tirikchilik qilaman faqat. Bo‘lmasa, qandoq millioner bo‘lasiz, ukam! Mana shu xonadonni aytaman-da, “qiynalyapmiz, qiynalyapmiz” deydilar-u, bundagi keldi-ketdi, sarf-xarajatni ko‘rib yoqa ushlaysiz!..

T u r s u n i y . Rahmatjon aka, bular bilan, yangamullomiz bilan-da, qanaqa tanishsiz o‘zi?

J i y d a l i y (*zavq bilan*). E, buning tarixi qiziq, ukajon! Bilarsiz, Amrikodan chiqqan tayyora gohida Istanbulda bir-ikki soat to‘xtab, so‘ng‘ra bu yoqqa qarab uchadi. Bular – ikki dugona tijorat qilgani borgan ekanlar. Tayyorada uchovlon bir joyda o‘tirib qolibmiz deng! Bo‘stonoy degich sheriklari bor ekan. E, alomat! Balo, balo! Turkon Xotun-a deysiz! Gapdan gap chiqib, yangamullomiz maning Jiydaliy ekanimni bildilaru apoq- chapoq topishdik-qoldik. O‘zlariyam aslan o‘sha yoqdan ekanlar-da. Mana, endi qiyomatli opa-ukamiz, qarang! Ko‘p uddaburon, fazilatli ayol, baraka topsinlar! Voqean, domullomizning o‘zlariyam Jiydalidan bo‘ladilar, bilasiz-a? Shu hisobda biz bu xonadon bilan hamvatan, hamyurt, qarindoshday bir gap... Domullomizning ham yurti ziyorat qilmaganlariga ko‘p zamon bo‘libdi. Man-ku bir musofiru muhojir, bu kishi nega tug‘ilgan vatanlariga bormadilar ekan... Ikkovlashib bir o‘tib kelamiz deb va‘dalashib qo‘yganmiz hali, xudo xohlasa!

*Turkon Xotin kim bo‘lgan?
U haqda nimalar
eshitgansiz?*

T u r s u n i y (*kuyinib*). Ustozning ishlari orqaga ketibroq qo‘ydi-da. Erta-indin akademik bo‘laman deb turganlarida birdan mustaqillik kelib qoldi...

J i y d a l i y (*taajjub bilan*). Iya, qaytaga zo‘r bo‘libdi-ku! Mustaqilligu ozodlikka nima yetsin! Endi ikki karra akadimik bo‘lsalar ham kam!

T u r s u n i y (*ensasi qotibroq*). Endi bo‘lolmaydilar. Zamon o‘zgarib ketdi-da, aka! Ustoz o‘sha zamonning odami edilar. Bo‘lganda ham eng zo‘ri, eng nomdori! Eh-he, u davrlarni bilsangiz! Manaman degan allomalari ham ustozimizning og‘izlariga qarab turardi!..

J i y d a l i y (*astoydil afsus chekib*). Chatoq, chatoq bo‘lgan ekan. Hay, bu zamonga o‘tsalar nima qiladi? Domullomizdan boshqalari o‘tgandir? Yoki ular ham chetda qolib ketdilar mi?

T u r s u n i y (*diqqati oshib*). U yog‘ini o‘zlaridan so‘rarsiz, aka!

J i y d a l i y . Lekin o‘zlari ko‘p ulug‘ odam. Avliyo, avliyo! Bir uy kitobni xatm qilib ekanlar-a, ofarin! Yangamullomiz ham so‘ylab edilar. Tag‘in deng, o‘sha kitoblarning bir qanchasini domulloning o‘zlari yozib ekanlar. Mana, endi ana shularning bari xatoga chiqibdi! Buyam bir falokat-da, ukam. Man ham deng, bundan ko‘p yillar burun Pokistonda bir do‘kon ochib edim...

Shiypon tarafdin D o m l a ning hayqirig‘i eshitiladi.

D o m l a . Qozonga o‘t qalandimi, Tursunboy?

T u r s u n i y bir hatlab o‘choqboshiga boradi-da, o‘tinga olov yoqib, joyiga qaytadi.

T u r s u n i y (hayqirib). Gurillab yotibdi, ustoz, zo‘r!

J i y d a l i y hovli bo‘ylab u yoqdan-bu yoqqa yumush qilib yurgan K l a r a ga suq bilan tikiladi.

J i y d a l i y . Bu, Kiloraxon singlimiz ko‘p barno, ko‘p xushro‘y ekanlar-a, Tursunboy! Endi ko‘rib turishim! O‘tgan safar kelganimda yo‘q edilar... Lekin tillari achchiqroq.

T u r s u n i y (*eski armon bilan*). Ey-y, yoshligida ko‘rsangiz edi bu qizni!..

J i y d a l i y . Qo‘ldan chiqarib yuborgan ekansiz-da, ukam! Otalaringiz qalin do‘st emish- ku...

T u r s u n i y . U vaqtlarda bu jonon bizni nazariga ham ilmasdi, aka! Leningradlarda o‘qib, o‘rischa gapirib!.. Buning eri – o‘ris, bilasiz-a? O‘sha yoqlarda birga o‘qib, topishib qolishgan. Ikkoviyam sharqshunos! Zamon boshqacha edi-da. O‘rismi, musulmonmi, ko‘pam ajratib o‘tirilmasdi. Ustozning o‘zlari ham ko‘proq o‘sha taraflarga tortib turardilar. Qizlariga uncha qarshilik qilmaganlar. Yana deng, kommunist edilar-da. Bir gap chiqsa, chatoq bo‘lishini o‘ylaganlar shekilli, rozilik berganlar. Lekin eri yaxshi yigit, o‘zbekka o‘xshab ketadi.

Musulmonchilikka ham o'tgan, deyishadi, kim bilsin. Har yozda er-xotin kelib-ketib yurishardi. Eshitishimcha, kuyovimiz nima bahona bilandir chet elga ketib qolganmish. Bu endi arazlab bu erda yuribdi... Baribir, asliga tortar ekan-da, aka, nima dedingiz?

J i y d a l i y. Jigar – jigar, digar – digar, deydilar-ku! Endi nima qilar ekan bular, aja-ab! Bir saroyga malika bo'lgudek alomat juvon-a! O'zi bularning bari ko'zga yaqin, istarali ekan. Tomirlari tog'dan-da! Meliboy ham... Hay, Meliboy – o'zimizning ulfat. Ismlarini o'zim qo'rganman. Bular Milismi-pilismi deyishar ekan uni. Tilim kelishmadi... Cho'milib chiqqanmikanlar, nima deysiz?.. Ana, boyagi yalla yana boshlandi!

T u r s u n i y, qulog'i ding, ko'rsatgich barmog'ini labiga bosib "tishsh!" deydi-da, ikki hatlab darvozaxonaga yetadi. Moshinaning atrofini aylanib, iskalana ketadi. Bir mahal ko'shiq tinib, moshina orqa yukxonasining qopqog'i asta ko'tariladi. Undan bir sohibjamol qushdek sakrab chiqib, u yer-bu yerining changini qoqa boshlaydi.

T u r s u n i y (esi og'gudek bo'lib). Kimsiz, singlim? Bu yerda nima qilib o'tiribsiz? Qanday kelib qoldingiz o'zi?

Q i z (*yelkasini qisib, qo'llarini yozib*). Bilmayman...

D o m l a (*shiypondan ovozi*). Ashulani kim o'chirdi, hey?..

TO'RTINCHI MANZARA

Oqshom chog'i. Hovli o'rtasidagi chorpoya. Yostig'u yakandozlar joy-joyida – ziyofatga shay. Xontaxta ustida dasturxon tuzalgan; bir chetda arag'u konyak ham terilib turibdi.

D o m l a dan boshka hamma shu yerda. Ammo hech kim chorpoyaga chiqishga oshiqmaydi. R a h m a t u l l o h J i y d a l i y bilan T u r s u n i y gina chorpoyaning qirg'og'iga omonatroq o'rnashgan.

Oldilarida – boyagi shisha, "otgan"lari seziladi. Qolganlar – X o n i m, K l a r a,

A s a l x o l a va L u i z a chorpoya panjarasiga suyangancha tizilib turishibdi. Nariroqda yalang'och badaniga kattakon sochiq tashlab olgan M e l i s yerga cho'nqayib o'tiribdi; sochlari yaltiraydi – hali ho'l.

Hammaning ko'zi bir chetda yerga qarab turgan notanish qiz – "O q k a p t a r"da.

Go'yo uni so'zsiz-unsiz muhokama kilishyapti. Zinapoyada D o m l a ko'rinadi.

D o m l a (*yaqinlasharkan*). O'h-o', jamoat jam-ku! Chiqib o'tirmaysizlarmi? (*Melisa ko'zi tushib, Jiydaliyga yuzlanadi.*) Rahmatulloh inim!

J i y d a l i y (*qo'lini ko'ksiga qo'yib o'rnidan turadi*). Labbay, domullojon! D o m l a. Farzandlardan nechov edi?

J i y d a l i y (*hozirjavoblik bilan*). Uchovgina, domullojon. Uchovi ham o'g'il. Sizga aytib edim chog'i.

D o m l a. Umrlarini bersin! Qaysi biri o'zingizga o'xshaydi? Xo'sh?

Domla nega Jiydaliyga qarab farzandlar haqida gap ochdi?

J i y d a l i y (*o'ylanib, kulimsirab*). Birining ko'zi o'xshaydi, domullojon, birining – so'zi, birining qiligi...

D o m l a. Hech bir joyi o'xshamasa, unday o'g'ilni nima qilardingiz?

J i y d a l i y (*dovdirabroq*). Hech joyi o'xshamasa... unda bizniki bo'lmaydi-da, domullo!

D o m l a. Otangizga rahmat, Rahmatulloh! (*Melisga barmoq nuqib.*) Bundan chiqadiki, mana shu yarimyalang'och o'tirgan behayo ukangiz bizga farzand emas ekan!..

X o n i m (*chiyillab*). Voy-voy!..

J i y d a l i y. Ibi, domullo, asta'furulloh desangiz-chi!

D o m l a (*bo'shashtirmay, boyagi pardada*). Bola bo'lib bu mening yo'rig'imga yurmadi sira. Ilmiy ishni chala tashlab allaqanday tomoshaxonaga o'tib ketdi. O'ttizga borayotgan odam, bo'ynida bir ting'ir-ting'ir asbob, kasb-kori – yallo! O'ttizga borayotgan odam, uylanishdan so'z ochsangiz – tirjaygani tirjaygan: keyin, keyin! Qachon? Pensiya yoshiga yetgandami?! Mana, ko'rib turibsiz, yangi qiliq chiqaribdilar bugun! O'zi o'lgudek mast, bir balolarni valdirab, ertalabdan beri hammaning ko'ngliga g'ulg'ula solib o'tiribdi...

M e l i s (*ingragandek*). Papa!..

D o m l a (*darg'azab*). He, papalaringga la'nat seni! “Mustaqillik ketdi! Ozodlik ketdi!” deb alahlarmish nuqul. Qayoqdan topding bu gapni? Gapir!

M e l i s (*alam bilan*). Ketdi! Hammasi ketdi! Mustaqillik ham, ozodlik ham!

D o m l a. Bu nima deganing, hayvon?! Esing joyidami o'zi?.. Yo'q, bu bolaga bir balo bo'пти. Aniq!

Ko'mak so'ragandek, boshqalarga o'girilgan D o m l a hamma bir tarafga qarab turganini ko'radi. Notanish qizga shundagina ko'zi tushadi uning. So'ngra hammaga bir qur savolomuz, taajjub aralash nazar tashlab chiqadi. Barcha sukutda.

D o m l a. Mehmonimizni taniyolmadim...

“O q k a p t a r”. Assalomalaykum. (*Barchaga bir-bir artistona ta'zim*)

qilib chiqadi.)

D o m l a. Keling, qizim. Kim bo‘lasiz?

“O q k a p t a r” iyak qoqib M e l i s ga ishora qiladi: o‘g‘lingizdan so‘rang!

D o m l a. Qayoqlardan so‘raymiz? Bu erga qanday kepqoldingiz? Nima deb?.. “O q k a p t a r” yana iyak qoqadi: ana, so‘rang!

T u r s u n i y (*shirakayfroq*). E, domla, uni-buni qo‘yib, to‘yni boshlayveraylik! Boya ukamizni izza qilayotuvdingiz, mana – kelin o‘z oyog‘i bilan kepti! Malades Melisvoy! Gorko!

“Oq kaptar” nega
Domlaning savoliga o‘zi
javob bermasdan Melisga
ishora qilyapti?

“O q k a p t a r” (*darvozaxona tomon ishora qilib*). Moshinada! M e l i s (*to‘ngillab*). Yukxonasida!

A s a l x o l a (*barmog‘ini chakkasiga bosib*). Ibi-i, sharm emasmi? X o n i m (*jerlib*). Shunday paytda jim tursangiz-chi, amma!

sharm – uyat

A s a l x o l a. Xo‘p, xo‘p, aylan... Ro‘za Hasan...

X o n i m (*muloyimgina*). Kimning qizi bo‘lasiz, qizim? T u r s u n i y. Endi sizniki bo‘ladilar-da, yangamullo!

K l a r a (*qo‘shiq ohangida*). Zamon, zamon, yangi-i zamon...

Klara nega bu
qo‘shiqni eslab qoldi?

L u i z a (*onasiga qarab*). A chyo, krasivaya!

Pravda, mamul? D o m l a (*Jiydaliyga*). Qani, Rahmatullohxon, siz gapiring!

J i y d a l i y. Biz nimayam derdik, taqsir? Boriga baraka... O‘zlari oyday ekanlar. Xush keptilar.

D o m l a (*horg‘in bir qoniqish bilan*). Mustaqillik, ozodlik... Gap bu yoqda ekan-da. Halitdan beri odamni tahlikaga qo‘yib... He, kasofat! Nima deymiz, unaqa mustaqillik, unaqa ozodlikning bas bo‘lgani ham ma‘qul... Hay, chiqinglar bo‘lmasa chorpoyaga. (“Oq kaptar”ga qarab.)

Melisning “Mustaqillik
ketdi” deganda nimani
nazarda tutganini
bildingizmi?

Keling, qizim... Sizni endi Ozodoy deymiz-da, manov bolaning erkini olib qo‘yibsiz- ku. (*Melisga*.) Tur endi senam. Masxaraboz! Egningga biror nima ilib kel... Amma, osh tayyormi?

A s a l x o l a. Tayyor, tayyor, aylanay. Suzaveraymi? (*U pildirab o‘choqboshi tomon yuradi*.)

D o m l a chorpoyaga chiqishdan oldin, bir nima esiga tushgandek, shimining cho‘ntagini kavlab, oq konvert oladi.

D o m l a (*u yoq-bu yoqqa alanglagan bo'lib*). Manovi kimniki? Mening stolimda yotibdi...

D o m l a ijirg'anib konvertni xontaxtaga tashlaydi. Xontaxta uzra sirg'algan konvert yerga tushib ochiladiyu ichidan dollar sochilib ketadi.

J i y d a l i y (*ko'zining paxtasi chiqqudek olayib*). Dollar-ku bu, domullo! Dollar-a! O'bol, o'bol! (*U apil-tapil yerga engashib, pulni terib konvertga joylaydi-da, X o n i m ga tutqazadi.*) Buni olib qo'ying, yangamullo! Sizlarga kerak bo'lmasa, manga berasizlar keyin! Hammayoqda bekordan-bekor suv oqib tursa, dollar yerlarga sochilib yotsa, bu mamlakat – mamlakat bo'ladimi, aytinglar! (*Keyin Tursuniyga qarab.*) Dollar deganlari mana shu, ukajon, ko'rib oling!..

T u r s u n i y (*o'zini qayoqqa qo'yarini bilmay*). O'zimiz bilgan oddiy bir qog'oz ekan-ku buyam, aka!

J i y d a l i y (*beixtiyor ma'nodor qilib*). Ha-a, ukajon, o'sha o'zingiz bilgan qog'oz!..

Hamma joy-joyini bilib chorpoyaga o'rnashadi. L u i z a "O q k a p t a r"ni qo'lidan ushlab davraga boshlab keladi. Yangi mehmon K l a r a bilan L u i z a ning o'rtasidan joy oladi.

Yo'l-yo'lakay ko'ylagini tugmalab M e l i s ko'rinadi.

Hamma jam.

D o m l a. Qani, Rahmatullohxon, biror nima deb yuboring!

J i y d a l i y (*duoga qo'l ochib*). O'zbekcha bo'lsinmi, arabchasigami? D o m l a. Farqi bor ekanmi?..

Shu mahal kutilmaganda, buzuq yotgan telefon cho'zib-cho'zib jiringlaydi. X o n i m shosha-pisha chorpoyadan tashlab, uyga yuguradi. Duoga ochilgan kaftlar tushiriladi.

X o n i m (*ichkaridan ovozi*). Bo'sto-on! Bo'ston, o'zingizmi? Ha, ha... Nima-a? Nima bo'пти?.. Alyo! Al-yo! E, padaringga la'nat! Tag'in ishlamay qoldi-ya! Uy emas bu, sahiro! Sahroyi Kabir!

Shu zamon hovlida chiroqlar porlab, ichkarida ertalab qulog'i burab qo'yilgan radioyu televizor baravariga shovqin solib gapira boshlaydi. Lahza o'tmay uydan X o n i m yugurib chiqadi.

X o n i m (*vahima bilan*). Voy, bu yoqqa kelinglar, bu yoqqa! Yana portlash! Tog'larni terrorchilar bosib ketganmish! Surxondaryodami, Qashqadaryodami – ishqilib, qaysidir daryoda! O'tgan yili Toshkentda portlatgan edi-ya! Voy, tinchlik bo'ladimi-yo'qmi bu mamlakatda, aytinglar!

A s a l x o l a laganda osh ko'tarib chorpoyaga yaqinlashadi.

A s a l x o l a (*hamma joyidan turayotganini ko'rib*). Ibi, osh-chi?

Hay, keyin eshitarsizlar shuni...

X o n i m (*jig'ibiyron*). E-ey, qo'yib turing shu oshingizni! (*Jiydaliyga intilib, yalingansimon.*) Rahmatjon! Ko'rib turibsiz, bu yurtda yashab bo'lmay qoldi. Qachon qarasang – bir g'avg'o! Olib keting bizni o'sha Amerikangizga! Jon uka, iltimos!

J i y d a l i y (*parokanda davraga garab, tantanavor*). Amrikoning eshigi butun dunyoga ochiq, birodarlar!

Hamma har yoqqa tumtaraqay bo'ladi. O'rtada lagan ko'targan A s a l x o l a yolg'iz qoladi.

A s a l x o l a. Ibi, osh-chi, osh nima bo'ladi, yaxshilar?..

P a r d a



1. Xonimning **nutqiga** e'tibor bering. Bolalikdan singdirilgan **tarbiya**, odatlantirilgan muomala-muloqot shaklini farzand ulg'ayganida o'zgartirishga urinish samara beradimi? Onaning gap-so'zlari va hatti-harakatlari o'z pand-nasihatlarini **inkor** etmaydimi?

2. Har gal takrorlanayotgan **qo'shiq** ijrochisi kim? Keyingi qismdan uning ismi va shaxsiga daxldor ma'lumotlarni aniqlang.

3. Rahmatulloh Jiydaliy qiyofasida qaysi jonzotga o'xshashlikni uchratdingiz? Uning O'zbekistonga kelishdan **asl maqsadi** nima deb o'ylaysiz?

4. Asal xola va unga berilgan nisbat o'rtasidagi **aksinchalikdan** qanday maqsad ko'zlangan?

5. Domla va uning xonadoni a'zolarining Tursuniyga **munosabatlari** qanday? Tursuniyning o'zi buni sezadimi?

6. Olg'ir shogird sa'y-harakatlari Domlaning qarashlarini **o'zgartira** oldimi?

7. Operachi qizning to'ysiz-nikohsiz Melisnikiga kelib yashay boshlashiga munosabat bildiring. Bu yerda kimni **ayblash** o'rinli bo'ladi?

IKKINCHI QISM
VASVASA yoxud AMERIKA, QAYDASAN...
BESHINCHI MANZARA

Oradan bir yil o'tgan.

Domlaning shahar kvartirasi. Kattakon mehmonxona.

Odatdagi jihozlar: stol-stul, divan, servant, yumshoq kursilar, burchakda televizor. Gilam osilgan yon taraf devorda Domla bilan Xonimning yoshlikda olingan surati. Chap tomonda dahliz, o'ng tomon – oshxona va hokazo.

To'g'rida – qator ketgan uch eshik – yotoq bo'lmalar. Eng chetdagisining eshigi qiya ochiq.

Dahlizga yaqin burchakdagi oromkursiga yastanib olgan X o n i m telefonda so'zlashayotir. Uni deyarli tanib bo'lmaydi. O'ta zamonaviy, go'yo “amerikancha” libosda. Qo'lida sigaret, kulini pastak stolchadagi g'aroyib kuldonga chertib-chertib qo'yadi.

X o n i m (*go'shakka*). Xullas, hammasi o'key!.. Ha-ha, Rahmatjonning o'zi kuzatib qo'ydi. “Jip”ida. Baraka topsin... Iye, u yog'ini o'zi pishirib, menga telefon ochadi. Shunday deb kelishdik... Hozircha qayerdanligi noma'lum. Ko'ramiz-da... Keyin gaplashamiz. Oldu tamam, jonim, bay-bay! O'pdim! (*Go'shakni joyiga qo'yib, u qiya ochiq eshikka qaray-qaray ma'ni qila boshlaydi.*) Bo'ston... Pensilvaniya degan joydan uy olganmish. Villa! Hovlisidagi gazon kompyuter bilan sug'orilarmish. Zo'r-a? O'sha yoqdagi agenti gaplashib qo'yibdi. Balo bu xotin! Yo'q joydan erli ham bo'lib oldi. To'yida ko'ruvdingiz-a ? Yoshgina, ukasiga o'xshaydi. Lekin rosa kelishgan! Allaqaysi viloyatdan ekan. O'zi namozxon. Hech qayerda ishlasmish, qarang. Ertadan kechgacha uyda o'tiradi, deydi. Shunga ham rozi bu xotin. Yakkayu yolg'iz o'g'lini uylayotib, elning ko'ziga boshini pana qilgandek bo'ldi-da. Bo'lmasa, ellikdan oshgan xotinga er nima kerak deng! To'g'rimi?.. Hay, bo'ldingizmi? Namuncha? Voy-bo'!..

Qiya ochiq eshikdan D o m l a ning ovozi eshitiladi.

D o m l a. Hozir, hozir, xonim... O'zingiz qo'ymadingiz-ku! Bu o'lgur shimi torroqmi, belni siqvordi-ya!..

Nihoyat, D o m l a ning o'zi ko'rinadi. Ammo bu kishi biz bilgan Domla emas, go'yoki ajabtovur bir keksa janob! Aji-buji rasm solingan olabayroq mayka, jun bosgan egri oyoqlarga “rosa yarashgan” kalta shim – shorti, boshda – tumshug'i bir qarichli beysbolka!

D o m l a (*qipyalang'ochdek qimtinib*). Odamni iste'foga chiqqan Santa-Klausga aylantirdingiz-qo'ydingiz-a, xonim!

X o n i m o‘rnidan turib, qo‘llari belida, boshini bir yonga solintirib sinovchan tikiladi unga.

X o n i m. O‘xshadingiz! Xuddi o‘zi! Veri gud!

D o m l a (*xavotirda*). Kimga o‘xshadim? Kimga? X o n i m. Amerikalik janoblarga-da!

D o m l a. Shu ro‘dapolarsiz qo‘ymas ekanmi Amerikasiga?

X o n i m. Siz, domlaginam, anovi sovetcha kostyum-shimu bo‘yinbog‘larga o‘rganib qolgansiz- da! Hozir butun dunyo mana shunday yuradi. Erkin dunyoning libosi bu!

Dahlizdan yugurib kirgan L u i z a bir zum hayratda qotib qoladiyu o‘zini chapdagi eshikka uradi.

L u i z a (*ichkaridan ovozi*). Mam! Smotri, dedul kak nastoyashiy kloun!

O‘sha eshikdan chiqqan K l a r a ham dong qotadi.

K l a r a (*g‘ijinib*). Dada! Yarashmabdi sizga!

D o m l a (*yerga kirgudek*). Ana, mamangdan so‘ra.

K l a r a boya Domla chiqqan xonadan tezgina bir chopon keltirib, otasining elkasiga tashlaydi.

K l a r a. Oyi, ko‘rgan odam nima deydi!

X o n i m. E, bor, bor, aralashma! Amerikani ko‘ribsanmi sen?!

Domlanning "amerikacha" kiyimi nega Xonimdan boshqa hech kimga yoqmad?

K l a r a (*qaytib xonasiga kirarkan*). Yak chizro donem – az xudro xudo ronem. (Bilganimiz bir narsagina-yu, o‘zimizni xudo chog‘laymiz.)

X o n i m. Nima deyapti bu? (*Domlaga yuzlanib*.) Boshqa tilga o‘qitsak bo‘larkan shuni. Forschani bilaman deb, chuldirganlari chuldiragan!

D o m l a yelkasidagi choponni rostakamiga kiyib, divanga cho‘kadi. X o n i m ham beixtiyor uning yonidan joy oladi.

D o m l a (*o‘ychan*). Birga borib kelsak bo‘lardi-da, kampir? X o n i m (*ensasi qotibroq*). Qayoqqa, chol? Jiydalingizgami?

D o m l a. Jiydalimizga! Harnechuk, To‘ytepaga ketayotganimiz yo‘q-ku. Dunyoning narigi chekkasi bo‘lsa – Amerika deganlari! Shu ketish bilan qachon bu yoqqa kelamizu qachon boramiz Jiydaliga! Yoshimiz ham bir joyga boryapti. Nasib qiladimi hali, yo‘qmi...

X o n i m. E, qo‘ysangiz-chi, domla! Avval boraylik, joylashaylik. Balki birdan boyib ketarmiz! Amerikada shunday emish-ku: bir go‘rlardan kelarmishu tezda boyib ketarmish odam!

D o m l a. Afsonangizni qo‘ying, xonim! Xazinasining og‘zini ochib o‘tirmagandir sizga? Jannat o‘zi qayda ekan... Har yerni qilma orzu – har yerda bordir toshu tarozu!

X o n i m (*qat’iyat bilan*). Ishoning, xo‘jayin, jannat degani xuddi o‘sha yerda! O‘zim ko‘rib keldim-ku, axir!

D o m l a (*nochor*). Mayli, mayli, ishondik. Lekin it jonivor ham biror yoqqa jo‘naganida yalog‘iga bir qayrilib qaraydi-ku! Sizu bizning ota-onamiz o‘sha yerda yotibdi. Qavm- qarindosh o‘sha yerda. Bormaganimizga necha yillar bo‘ldi. Ularni bir ziyorat qilmasdan, “Qaydasan, Amerika?” deb indamay jo‘nayversak, arvohtar chirqillab qolmaydimi? Ular ham yo‘l bermas...

X o n i m (*qat’iy*). Siz – o‘zingiz bilasiz, xo‘jayin. Men bormayman. Borolmayman. Qanday qilib ketay, ayting? Bu yoqda shuncha tashvish, yugur-yugur! Xaridorni zo‘rg‘a ko‘ndirib turibman o‘zi, qo‘ldan chiqib ketsa!.. Bu uyni tezroq gumdon qilish kerak. Rahmatjon u yoqda kutib turibdi-ya! Bir haftaga qolmasdan joy topib, xabarini yetkazmoqchi edi. U yoqlarda bizdagiga o‘xshab cho‘zib yurilmaydi. Uy kerakmi sizga? Qanaqasidan bo‘lsin? Qayerdan bo‘lsin?.. Kompyuterni bosasiz – tamom! Qolaversa, viza-miza deganday g‘avg‘olar... Olti odamning tashvishi – bir o‘zimning bo‘ynimda! Melisning ahvoli o‘zingizga ma‘lum. Ting‘ir-ting‘irdan bo‘shamaydi hech...

D o m l a. Olti kishi dedingizmi? Kimlar?

X o n i m. Kim bo‘lardi, shu... o‘zimiz! Siz, men, Melis, xotini, Klara, qizi bilan. D o m l a. Hamma ketadimi? Birdaniga-ya?

X o n i m. Voy, ha! Bu yerda qolib nima qilardi?

D o m l a. Klarangizni aytaman-da, ketarmikan? Eri nima deydi hali?

X o n i m. Baloga yo‘liqqur Viktor! O‘zlari chet elma-chet el izg‘ib yuribdilar, qizim sho‘rlik bu yerda ezilib ketdi. Ermi shu? Boradi! Balki o‘sha yoqlarda baxti ochilib...

D o m l a. Boshqalar-chi? O‘g‘lingiz, kelin...

X o n i m. Voy, hammasi jon-jon deb qanot chiqarib o‘tiribdi-ku! Amerika bo‘ladi-yu, bormaydimi?!

D o m l a (*xayolchan*). Hammasi-ku mayli-ya, shu, ammamizni norozi qilib jo‘natganimiz chatoq bo‘ldi-da, xotin! Sizning qistovingiz bilan ko‘nishga ko‘ndim-u, lekin

Ammani nima qilib norozi qilishgan debo ‘ylaysiz?

o‘sha kundan beri o‘zimga kelolmayman, to‘g‘risi! Xuddi bir joyim kamday, nimadir yetishmayotganday...

X o n i m. Amma, amma! E, qo‘ying o‘sha Zahar ammangizni!

D o m l a. Zaharmi, Asalmi, shuncha yil xizmatingizni qildi, bolalaringizga qaradi, ro‘zg‘oringizga cho‘ri edi! Shu ishimiz noinsoflik bo‘ldi, xotin. Yo‘q, nokaslik! Oxiri ko‘chaga haydaganday qildig-a! E, attang!..

X o n i m. Shuncha yil kimsasiz bir kampirni yedirdik, ichirdik deng! Endi u kishimni Amerikaga ham opketish qoluvdi! O‘zi bir qari kampir bo‘lsa! Inglizchani bilmasa!..

D o m l a (*diqqati oshib, bo‘gilgudek*). Xoni-im!

X o n i m. To‘g‘risi kerakmi? To‘g‘risi – ammangiz Amerikaga yarashmaydi, konets! D o m l a. Obbo-o!

X o n i m (*hech gap bo‘lmagandek*). Qachon ketmoqchisiz? D o m l a. Ertalardan jo‘nasammi deb turibman.

X o n i m. Pasportingiz menda-ku, vizaga berganman. Avtobus-pavtobusda borib kelarsiz? D o m l a. Hay, bir gapi bo‘lar. Uch-to‘rt kunda qaytaman.

Telefon jiringlab, X o n i m o‘sha yoqqa chopadi.

X o n i m (go‘shakka). Kim?.. E‘lon bo‘yicha? Qanaqa e‘lon?.. Ha-a, repetitorman deng? Juda yaxshi-da. Otingiz nimaydi, ukam?.. Sardormi? Gap bunday, Sardorjon! Biz Amerikaga ko‘chib ketayotuvdik... Ko‘pchilikmiz, ha. Shunga inglizchadan uch-to‘rt soat dars olmoqchi edik-da. Pulini o‘ylamang, olasiz. O‘zim-ku, kechagina keldim, besh-o‘nta so‘zini bilaman. Xello, xau ar yu, xau mach, veri gud, bay-bay... Qalay, o‘xshaydimi?.. Kechqurunlari-da... Mayli, mayli, ertadan boshlab... Ie, yo‘q, shoshmang, ertaga biz janob posolning oldiga borishimiz kerak... Ha, suhbatga. Indin bo‘laqolsin. Adresni bilasiz-a?.. Bo‘pti, kutamiz. O‘key! Bay-bay, jonim. O‘pdim...

X o n i m go‘shakni joyiga qo‘yib, “bopladam-a” degandek divan tarafga qaraydi.

D o m l a, ko‘zi yumuq, og‘zi ochiq, pinakka ketgandek. M e l i s, uning ortidan xotini – “O q k a p t a r” ko‘rinadi.

M e l i s. Iya, papashamizmi? Kultur-ku! Amerikaga tayyorgarlik!..

“O q k a p t a r” (*havas bilan termilib*). Mayechkalari chiroyli ekan. Modniy! M e l i s. Uxlab qoptilar-da...

D o m l a (*bir ko‘zini ochib, Melisga, mug‘ombirona*). Senam ketyapsanmi? Bor, bor. Mamang hammangga mana shunaqa modniy mayka, shortilar olib beradi! Koka-kola ichasan, xay-xay, bay- bay deb yurasan, maza! Jiydali Amerika!

Domlaning gaplaridan hamma hangu mang, bir-biriga qarab qoladi: cholga bir balo bo‘lmadimikan?..

OLTINCHI MANZARA

Domlaning uyi. O'sha ko'rinish. Xona o'rtasidagi uzunchoq stolning bir boshidan repetitor S a r d o r, bir boshidan L u i z a joy olgan. X o n i m o'rtada.

Ingliz tilidan saboq...

Ichkaridan elas-elas "Bu ko'ngildir, bu ko'ngil" qo'shig'ining xirgoyisi eshilib turadi. S a r d o r (*dona-dona qilib*). Vau, it iz veri ekspensiv!

X o n i m. Nima degani edi bu, Sardorjon?

S a r d o r. "Voy-bo', juda qimmat-ku bu!" Qani, takrorlang-chi. X o n i m (*tili kelishmay*). Voy-bo', itiz... beri ekspansiv!

S a r d o r (*kulib*). Mana bunday: it, iz, veri, ekspensiv (*Luizaga qarab*). Teper ti povtori. Qani, takrorlagin-chi?

L u i z a (*aynan*). Vau, it iz veri ekspensiv! S a r d o r. Otlichno! Zo'r!

X o n i m. Bu hali yosh-da, Sardorjon. Kallasi svejjiy. Ham maktabda fransuzchani o'rgangan.

S a r d o r. Opa, siz biror qog'ozga yozib olsangiz bo'larkan...

X o n i m. Voy, ana-a, shunday demaysizmi! Idi, Luizaxon, iz dedushkin kabinet listok bumagi prinesi. Moi ochki toje, qizim.

L u i z a sakrab turib, eng chetdagi eshikka kirib ketadi. Ikki varaq qog'ozu qalam va ko'zoynakni olib chiqib, buvisining oldiga qo'yadi.

X o n i m. Bu ingliz tili o'lgur rosa qiyin ekan-ku, Sardorjon? Kechadan beri to'rthagina so'zni ham yodlay olmayotibman-a! Mana bu bijildoq (*Luizaga ishora qilib*) esa sayragani sayragan! A nu-ka, qizim...

L u i z a (*Sardorga tippa-tik qarab*). Ay lav yu! X o n i m. Ana!.. Nima deyapti o'zi?

S a r d o r (*o'ngaysizlanibroq*). Sizni rosa yaxshi ko'rarkanlar!

X o n i m. Voy, menam buni yaxshi ko'raman-da. Bittayu bitta nevaram bo'lsa! Buning ustiga, Lenin... Peterburglardan kelgan! "Alaviyu" dedimi? Bizlarning yoshligimizda shunday bir qo'shiq bo'lardi, "Alaviyu, alaviyu" deb aytardi. Esizgina!

Yoshlar zimdan bir-biriga tikilib o'tiradi.

X o n i m (*birdan shovqin solib*). Hey, boshqalar qani? Bu savil qolgur inglizchasi bitta menga kerak ekan-da, a! Kla-ara! Keli-in!..

O'ng tarafdin so'mkachasini yelkasiga osib olgan bashang "O q k a p t a r" chiqib keladi. X o n i m. Iya, yo'l bo'lsin?

"O q k a p t a r". Spektaklga. Bugun "Dilorom" edi...

X o n i m. Inglizchani kim o'rganadi?! Mana, Sardorjon azza-bazza kelib o'tiribdilar... "O q k a p t a r". "Samouchitel" kitobim bor, mama.

Antrakt

paytlari o'tirib yodlayapman. X o n i m. Melisingiz qani?

“O q k a p t a r”. Klip olgani ketishgan. Toqqa. Klara opamning esa boshlari og'riyotganmish.

Shu choq telefon jiringlab qoladiyu fursatdan foydalangan “O q k a p t a r” dahliz tomon o'tib ketadi.

X o n i m (*go'shak qulog'ida*). Bo'sto-on! O'zingizmisiz, jonim? Xello, xello!.. Ha, nima bo'ldi, o'rtoqjon? Nega yig'layapsiz?.. Nima-a? Tushuntiribroq gapiring!.. Voy-y! Voy yaramas, voy iflos-ey! Rostdanmi? (*Qo'li bilan “chiqib turinglar” degandek ishora qiladi, yoshlar qanot qoqib Domlaning bo'lmasiga kirib ketishadi.*) Keyin nima qildingiz?.. Ketiga tepdingiz? Voy, melisaga berib yubormaysizmi, o'rtoq! Namozxon emish-a tag'in! Odamzodni bilib bo'lmas ekan- a, Bo'stonoy!.. Bo'lgani bo'пти, sadqai sar! O'g'lingiz bilmadimi ishqilib?.. Ha, tuzuk, tuzuk. O'zingizni qo'lga oling, jonim. Bir hisobda, shu yerdayoq qutulganingiz yaxshi bo'пти. U yoqqa borganda boshingizni qay devorga urardingiz?.. Voy eshak, voy to'ng'iz-ey!.. Mayli, jonim, ertaga o'tarman. Bafurja... Bay- bay! O'pdim... (*Go'shakni joyiga ilib, dik etib o'rnidan turadi. Tantanavorlik bilan kaftini kaftiga uradi.*) Ha-a, ana shunday bo'ladi, jonginam! O'tniki – o'tga, suvniki – suvga! Ko'zingizni yog' bosib, ja-a shishinib ketuvdingiz! Ajab bo'пти, xo'b bo'пти! Mana, endi maqtagan Pensilvaniyangizga so'ppayib bitta o'zingiz ketasiz!..

O'rtadagi eshikdan boshini peshonabog' bilan tang'ib olgan K l a r a ko'rinadi.

K l a r a (*og'rinib*). Oyi, namuncha? Birpasgina bosh qo'ygani tinchlik yo'g'-a!

X o n i m (*o'zini divanga tashlab, yonidan joy ko'rsatadi*). Bu yoqqa kel. O'tir bunday. Gap ko'p! Bo'ston opang adoyi tamom! Anovi yangi eri bor edi-ku, yosh, kelishgan? O'sha, keliniga tegishib qo'yibdi! Sharmandalik! O'zi allaqaysi bir viloyatdan ekan. U yoqda bola-chaqalariyam bormish. Bo'ston uni boyvachcha qilib “inomarka” mindirib qo'yuvdi. Hech joyda ishlamasdi. “Alfons” deydimi bunaqasini?

Erta-yu kech uyda namoz o'qib o'tiradi, deb maqtardilar

“**samouchitel**” – mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan kitob **antrakt** – teatrdagi spektakl o'rtasidagi tanaffus

Xonim va Bo'ston orasidagi asl munosabat qanday?

alfons – ayol kishining hisobidan kun ko'ruvchi erkak

boyvuchcham! O‘l bu kuningdan! Ko‘zing ko‘rmidi?!

K l a r a (*bu gaplarni aslo eshitmagandek*). Oyi,

ammashkamni sog‘inibman... Bir oldilariga borib kelsammikan? Kelin adresni biladi-ya? U yerni o‘zi topib, o‘zi gaplashib, bechora ammamni tashlab keldi-ku! O‘shandan beri ko‘zimga balodek ko‘rinadi u. Toshbag‘ir! Amma bizniki-ku! O‘zi kecha kelgan bu oyimcha nega aralashadi oilaviy ishlarga?!

X o n i m. Amma, amma! Hammangni darding – o‘sha amma! Bir sassiq kampir-da, namuncha!

K l a r a. Oyi! Nega unaqa deysiz – axir, o‘zingizning qarindoshingiz, ammingiz-ku ?!

X o n i m (*ijirg‘anib*). Qanaqa qarindosh?! Hu-uv go‘rdagi ammammi? Shunchaki chatishgan joyi bormi, yo‘qmi, uzoq bir urug‘ bo‘lsa kerak-da. Bo‘zning uchidek gap...

K l a r a. Bo‘z? Nima u?

X o n i m. Eski zamonlarda shunday bir mo‘rt, hilvillagan mato bo‘lgan. Uchidan ushlab sal tortilsa yirtilib, titilib ketgan.

K l a r a. Ammashkam unaqamaslar-ku, oyi, yirtilib, titilib ketadigan...

X o n i m. E, kim bilsin! Shu kampirning aslida kimligi esimdan ham chiqib ketgan. Balki papangga nimadir bo‘lar...

K l a r a. Amerikaga borib joylashgach, balki kelib opketarmiz, a? X o n i m. Boshingga urasanmi? U yoqda negrlar xizmat qiladi-ku!

K l a r a. Oyi! E-e!.. (*U o‘rnidan turib ketmoqchi bo‘ladi-yu, to‘xtab qoladi.*) Ie, Luizami? O‘zbekcha gapiryapti... Qiziq!

X o n i m (*qulog‘ini ding qilib*). O‘shaning ovozi! Qizing o‘zbekchani bilmasdi-ku? Yo bular inglizchani qo‘yib, o‘zbekcha o‘rganyaptimi?..

L u i z a n i n g o v o z i (*ichkaridan, uzuq-yuluq*). Nimaga... ketaman... boraman... ko‘raman...

X o n i m. G‘alati bola ekan. O‘zi hali yoshgina-yu, gap-so‘zlari biram bama’ni, og‘ir- bosiq, yoqimtoy. Otasi kattakon deputat emish. Qarang, deputatning bolasi repetitorlik qilib yursa- ya! “Sardorjon, dadangizga aytib ko‘rmaysizmi, viza masalasida bizga qarashvorsalar?” desam, “Dadam bunaqa ishlarga aralashmasalar kerag-ov”, deb qo‘yadi. Shunaqa bolalar Amerikaga borsami!..

L u i z a n i n g o v o z i (*ichkaridan*). Men... ko‘raman... seni... nimaga... yaxshi... yo‘q...

X o n i m (*qoshini chimirib*). Klara, qara-chi, bular yana bir boshqa tilga o‘tganga o‘xshaydi...

K l a r a Domlaning bo‘lmasi tomon qadam bosganida telefon cho‘zib-

cho‘zib jiringlaydi. X o n i m ildam borib go‘shakni oladi.

X o n i m. Alyo! Al-yo! Bo‘sto-on!.. Voy, Viktorjon, vi? Izvinite, pojaluyista. Da, ne uznala ya vas... Otkuda?.. Iz Peterburga? Pochemu?.. Xorosh, xorosh, seychas! Klara!.. Vot ona! Tez! Ering...

Turgan joyida qotib qolgan K l a r a bir-bir bosib telefonga yaqinlashadi-da, apparatni olib dahliz tarafga o‘tadi.

K l a r a (*dahlizdan ovozi, uzuq-yuluq forscha so‘zlar*). Xudi shumo... na, na... bovari na... fireb, fireb... go‘sh kuned... na, na... duxtarak... pazmon, pazmon... ro‘ziki du chashmi man namegiryad... ho, ho... bale... xudo hofiz...

X o n i m ikki chakkasini changallab stulga o‘tirib qoladi.

X o n i m. Yarashmoqchimi bular? Yarashsa, Klara ketadi-da Peterburgiga... Iya, Viktorniyam ko‘ndirib, Amerikaga olib ketsa-chi? O‘zi jahongashta-ku u!

K l a r a ajib bir kayfiyatda xonaga kaytib kiradi.

X o n i m. Ha? Nima deydi? Tinchlikmi? K l a r a (*o‘ychan*).

Kelmoqchi...

X o n i m (*hovliqib*). Voy, kelsin, kelsin, ayt!
Keyin hammamiz birgalikda...

Klara nega "ajib kayfiyatda" deb o‘ylaysiz?

K l a r a. Butunlay kelmoqchi u! Dunyo kezib charchabdi. Qidirganini topolmaganmish. Bizsiz yashayolmasmish... Kelib o‘zbekchani o‘rganmoqchi, shu yerda yashab qolmoqchi... Poliglot-ku u kishi, o‘nta tilni biladilar!

X o n i m. Voy-voy, o‘ris bo‘laturib-a?.. Sen-chi?.. Amerika nima bo‘ladi?

K l a r a (*holdan toygandek*). Bilmadim, oyi, bilmadim. Boshim qotib qoldi. Bunisini kutmagan edim o‘zim ham... Viktor keladigan bo‘lsa, qolsam kerak-da. Luizasi bor o‘rtada...

Shu vaqt o‘zlaricha o‘zbekcha so‘zlashib, eshikdan L u i z a bilan S a r d o r chiqadi.

X o n i m (*birdan Klaraga jahl qilib*). Qolsang qolaver sen! Mana, Luizochkam ketadi biz bilan! Ketasan-a, jonim? S nami poyedesh, da?

L u i z a (*gangib*). Chego? (*Sardorga ko‘z tashlab olib, chuchuk bir talaffuzda.*) Nima?.. Pravilno, da?

Sizningcha, Luiza nega Amerikaga ketishni xohlamayapti?

X o n i m. S nami poyedesh! V Ameriku! Ya, ti, dedul... L u i z a. Nima? Yok. Ya nikuda ne xochu.

X o n i m L u i z a ni quchoqlab oladi.

X o n i m. Poyedesh, jonim, poyedesh!

Kutilmaganda, jini qo‘zibmi, qiz buvisining quchog‘idan yulqinib chiqadi-da, allaqanday jazava ichida egnidagi kiyimlarni yechib ota boshlaydi. Hamma hangu mang.

X o n i m (*vahima aralash, Sardorga*). Nima bo‘ldi o‘zi bu qizga?

S a r d o r (*yelka qisib*). Bilmasam. O‘zbekchani o‘rgat, dedi.

O‘rgatdim. Bo‘ldi. L u i z a (*chinqirib*). Ne xochu! Yo-ok! Yo-ok!..

K l a r a. Perestan, dura!

Luizani jazavadan to‘xtatish qiyin – S a r d o r borib chiroqni o‘chiradi.

YETTINCHI MANZARA

O‘sha ko‘rinish. X o n i m, K l a r a, “Oq k a p t a r” kechki taomdan so‘ng choy ustida. M e l i s hali ishidan qaytmagan. L u i z a ichkari xonada o‘zbek tilidan saboq olayotir, goh-goh ovozlari quloqqa chalinadi.

O‘tirganlar olis Amerikadan turib “telefon ochgan” Rahmatulloh Jiydaliyning pastak stolchadagi kuchaytirgich uskunadan chiqayotgan ovoziga diqqat bilan quloq tutgan. Biz ham uning so‘nggi so‘zlarini eshitib qolamiz.

J i y d a l i y (*ovozi*). Uyning sotilgani yaxshi bo‘libdi, yangamullo... Domullomuz hali Jiydalidan qaytmagandirlar. Mayli, mayli. Kiloraxon singlimiz yaxshi yuribdilar mi? Lo‘yzaxon-chi? Man u kishiga ko‘p savg‘olar olib qo‘yganman, kelganda ko‘radilar... Hammaga mandan duoyi salom bo‘lsin, yangamullo! Sizlarga intizorman...

X o n i m (*o‘tirgan joyidan telefon tarafga talpinib*). Rahmat, rahmat, ukajon! Siz ham uyingizdagilarni so‘rab qo‘ying! Kelasi hafta biletlarimiz tayyor bo‘ladi. Xudo xohlasa, tez kunda ko‘rishamiz. Xayr! Xayr! O‘pdim...

Aloqa uzilib, telefon cho‘ziq dududlashga tushadi. “Oq k a p t a r” turib uni o‘chirib qo‘yadi.

X o n i m. Mana, uy tayyor! Endi bizning Amerikada ham uyimiz bor!.. Qanaqa joy dedi? Oklahomami? Oklahoma... Nomi muncha xunuk! Qishloq-pishlog‘imikan yo? Hozircha bo‘pturar-a, qizlar?

K l a r a. Nima farqi bor? Amerika bo‘lsa bo‘pti-da sizga!

X o n i m. Voy, anov Bo‘ston o‘lgur Pensilvaniyaga ketyapti! (*Havas bilan.*) Pensilvaniya!

“O q k a p t a r”. Nyu-Yorkning o‘zidan bo‘lmabdi-da, mamul? Esizgina. U yerda Hillari xonim senator-a!

X o n i m. Nyu-York deganlari – markaz, jonim! Propiska masalasi qiyinroq bo‘lsa kerak- da.

“O q k a p t a r” (*betoqatlik bilan*). Qachon ketarkanmiz-a, e xudo? Kaliforniyaga Gollivudning superzvezdasi Shvartsenegger gubernator bo‘larmish...

Ishdan qaytgan M e l i s kirib keladi.

M e l i s (*xotining gapini eshitgan shekilli*). Yo‘l bo‘lsin, yo‘l bo‘lsin?

X o n i m (*suyunchilab*). Rahmatjon akang telefon qildi hozir. Uy masalasi hal bo‘lganmish! (*Xushlamayroq.*) Ok... Oklahoma degan joydanmi...

M e l i s. Sizga qolsa – Filadelfiya, Florida, Virjiniya degan joylardan bo‘lsin-da, a? X o n i m. Pensilvaniya...

M e l i s. Boriga – baraka demaysizmi, mamul!

X o n i m telefonni ko‘tarib dahlizga chiqadi.

X o n i m (*ovozi*). Bo‘sto-on! O‘zingizmisiz, jonim? Xello, xello...

M e l i s dasturxon boshiga o‘tiradi. “O q k a p t a r” oshxonadan taom keltirib, uning oldiga qo‘yadi: osh bo‘lsin!

K l a r a (*tashvish bilan*). Oyim ilgari bunaqa emasdilar-a, Melis? Qandaydir g‘alatiroq bo‘lib qolgandaylarmi...

M e l i s (*ovqat yeyaturib*). Endi sezibsiz-da, opaginam! Bozorchimi, Bo‘stonchimi bo‘lganlaridan beri shunaqa...

K l a r a bilan “O q k a p t a r” nimanidir pichir-pichir qilib oshxona tomon chiqadi.

Telefonda so‘zlashib bo‘lgan X o n i m kelib M e l i s ning ro‘parasiga o‘tiradi.

M e l i s (*ovqatini yeb bo‘lgan*). Mamul, o‘sha yoqqa ketib nima qildig-a? Toshkentimizning o‘zi yaxshi emasmi?

X o n i m. Voy, endimi? Hammasi tayyor bo‘lganda-ya?! Buning gapini qarang! Dacha sotilgan bo‘lsa! Bu uyni ham erta-indin bo‘shatish kerak bo‘lsa!.. Nima deb valdirayapti o‘zi bu bola, tavba! U yoqqa borib... voy, nima qilardik... Muhabbat Shamayevalar necha- necha yil oldin ko‘chib ketgan. Hamma o‘sha yoqqa ketyapti-ku! Butun dunyo!

M e l i s. Butun dunyo borsa... sig‘armikan? Mol-matohi hammaga yetarmikan? Umuman, o‘sha yoqqa borishdan maqsad nima o‘zi? Ko‘rmoqchi edingiz – borib keldingiz, ko‘rdingiz!..

X o n i m. Maqsad? Maqsad – yaxshi yashash!

M e l i s. Nima, yomon yashayapsizmi? Masalan-da, siz o‘zingiz yomon yashayapsizmi?

X o n i m. Bundan ham yaxshi yashagim keladi! Bildingiz, Melisvoy! Bu yerda kundan-kun non qimmat bo‘lib ketyapti!..

M e l i s. U yoqda arzon ekanmi, mamul! Bu yog‘i yoshingiz ham...

X o n i m (*birdan portlab*). Gapir, gapir! Siz endi yoshingizni yashab bo‘ldingiz... Shunday demoqchimisiz? Xo‘p, shuncha yashab nima kun ko‘rdim? Umriginam senlarning tashvishingda o‘tdi! Har gal tuqqanimda to‘rttadan tishim to‘kilgan! (*Og‘zini ochib yasama tishlarini ko‘rsatadi.*) Bu yog‘iga huv Dubaydan tortib Dehliyu Istanbulargacha qatnab... Shumi hayot?! Shuning uchun tug‘ilganmidi onang, xo‘sh? Yoki yana qaytib kelamanmi bu dunyosiga? Sen kelasanmi, ayt! Yo papangmi?.. Odamlar qanday yashayotganini men ko‘rib keldim! Nima, bizning haqqimiz yo‘qmi? Bizam odam, inson farzandi! Umr bo‘yi bunday bir bemalolroq yashashni kutib o‘tdim-a! Endi yetdimmi deganingda... Rostini aytsam – shuni deb tekkanman papangga ham! “Aspirant emish, katta olim bo‘larmish!” deb ovozasini Jiydalini tutgan edi. Shunisiga uchibman men ahmoq! Raisning o‘g‘li orqamdan soyadek ergashib yurardi- ya!..

M e l i s. Shukr qiling, ena, shukr!

X o n i m (*seskangandek*). Ena?! Bu nimasi endi?

M e l i s. Jiydalingizda oyisini “ena” deydi-ku, esingizdan chiqdimi? O‘sha yoqda tug‘ilganimda, men ham Melis-pelis emas, Mengliqul yo Mamatqul bo‘larmidim balki... Klarangiz – Karomatmi, Karimami...

Xonim nega hayotidan norozi deb o‘ylaysiz? Amerikada yashasa hayotga munosabati o‘zgaradimi?

X o n i m (*sovuqqina*). Hay, mayli, mayli... Nimasiga shukr qilay, qani, ayt? Akademik bo‘ladigan odam mana shu uyini anovi Rahmatjonga ijaraga berib, o‘zi necha yil shahardan uzoq bir yaydoqlikka chiqib yashadi. Bilsang, kuni o‘tmay qolganidan qildi bu ishni! Yozganlarini moshinkalatishga ham puli yo‘q edi o‘shanda... Nimasiga shukr qilishim kerak? Papang... dadang do‘xtirlik ishini necha marta qaytadan yozganini bilasanmi?! Boshida “O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi” deb yozgan – o‘tmagan. So‘ngra “qo‘shib olinishi” deb yozdi – yana o‘tmadi. “Qo‘shib olinishining ijobiy ahamiyati” deb yozganidan keyingina ishi qabul bo‘ldi. Necha-necha martalab Moskvalarga qatnadi, eh-he! Mana, bugun endi bosib olinishining salbiy oqibatlarini yozib o‘tiribdi! Nima qilsin sho‘rlik? Yana o‘zgarib qolmasmikan deb hozirgacha qaltiragani qaltiragan. Yurak oldirgan-da. Birortasi ana o‘shalarni titkilab qolsa, yuzim shuvut bo‘ladi deb qo‘rqadi. Unvon-punvonimni opqo‘yadi deb...

M e l i s. Shuni tekshirib o‘tiradigan ahmoq bor ekanmi, ena! Tekshirsa... u zamonda hamma shunday yozgan-ku! Tekshirsa, unvondor

odam qoladimi O‘zbekistonda?! “Yoqlaysiz-chi, yoqlaysiz! Falonchidan qayeringiz kam?” deb o‘zingiz ham dadam bechorani egovlab turib olgansiz-da!..

X o n i m. To‘g‘ri-da. Qo‘ymadim! Lekin shuncha qilgan mehnati evaziga bugun nima topdi? Mana, qirq yil bo‘ladiki, er-xotin ilhaq yashaymiz: ertaga yaxshi bo‘pqolar, indinga yaxshi bo‘pqolar... Qani, qani?! Sezib turaman-da, gohida hatto anovi yaqin shogirdi Tursunboy bilan ham hurkibroq muomala qiladi dadang...

M e l i s. Yo‘g‘-e! G‘alati gaplarni gapirasiz-a, ena! Bugun endi nimadan, nimasidan qo‘rqish kerak ekan? Qo‘rqsa, ana, Vatanni sotganlar qo‘rqsin! Xalqning pulini o‘marib, ho‘-o‘v chet el bankalariga joylab yotganlar qo‘rqsin! Dadam nimadan qo‘rqadilar? Umuman, nega buncha vahima, dod-faryod qilasiz, ena? Siz aytayotgan o‘sha yaydoqlik bahonada obod bo‘ldi. Qo‘shqavat imoratu basseynlar!.. Mana, ellikka urib, anovi ustomon ukajoningizga eltib ham berdingiz!

X o n i m. Voy, osonlikcha bo‘ptimi u? Mening yurtma-yurt sarson kezganlarim-chi! Yaxshiyamki, baxtinga Rahmatjon ukam bor ekan, baraka topsin...

“Darsxona” eshigi ochilib, L u i z a bilan S a r d o r chiqadi.

S a r d o r (*Melisga*). Assalomalaykum.

L u i z a (*tatalay-tatalay*). Buvidjon... biza kuchaga chiksak xop?

X o n i m. Idi, jonim, idi. (*Melisga.*) Binoyidek o‘zbekchalab qoldi buyam, tog‘asi!

Yoshlar chiqib ketadi.

M e l i s. Kuyov ham tayyor deng jiyanchamizga? Qutlug‘ bo‘lsin!

X o n i m. Bu nima deganing? Yaxshi bola u. Otasi – deputat!

M e l i s. Ayni muddao ekan-da!

X o n i m (*o‘qrayib*). Hoy bola, bugun senga bir balo bo‘lganmi o‘zi? Gapirgan gapi zahar, ilmoqli-ya! Yo kayf-payfing bormi?

M e l i s. Kayf? Bir martagina og‘zimizga olib, tavba qilganmiz, bilasiz!.. Ena, bu Amerkangizda necha yil yashamoqchisiz o‘zi?

X o n i m. Necha yil deganing nimasi? Yashayveramiz-da. Doimiy. M e l i s. Keyin deyapman, huv keyin? Yo o‘sha yerlarda?..

X o n i m. Nafasing buncha sovug‘-a! Xudo saqlasin! (*Birdan o‘ychan.*) Qara, shunisini hech o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Hay, peshonada, xudoning aytgani bo‘lar... Nimaga so‘rayapsan buni?

M e l i s. Shu, mening oyog‘im tortmayapti-da sira... Daraxt ham bir joyda ko‘karadi, ena!

X o n i m. Ko‘karmay ketsin! Biz daraxt emasmiz-ku! Bormay

bo'psan! Ana, xotining qanot qoqib turibdi...

M e l i s. Ketsa ketaversin! Bu yil ham unvon tegmay qoldi – alamzada u. Borib Amerika Qo'shma Shtatlarida xizmat ko'rsatgan artist bo'lmoqchi shekilli. Mayli, o'zi biladi. Muhabbat Shamayeva Nyu-Yorkdamidi restoran ochgan deb eshitaman. O'sha yerda tungi mijozlarning ko'nglini ovlab yurar...

X o n i m (*achchiqlanib*). Og'zingni yum-e, sharmanda! Odam o'z xotinini ham...

M e l i s. U menga xotin emas. U sizning kelingiz! Chala akademikning kelini! Maqsadi shu ekan, mana, yetdi... Ilashib kelgan u menga! Moshinaning yukxonasida! Hanuz aqlim hayron-a: qanday qilib bu?.. Xotin bo'lsa, hozirgacha bola-pola tug'ardi – qani?! Unvon- unvon deb o'lgan buningiz! Tavba, shu savildan quruq qolganiga achchiqma-achchiq, Amerikaga jo'naydimi xotin degani?! Axir, unvonli bo'lish uchun biror sohada, aniqrog'i, biror kishiga yaxshilab xizmat ko'rsatish kerak...

X o n i m. Bas qil endi! Seni bugun jin chalgani aniq ekan! (*Bir nafas sukut saqlab.*) Boya telefonda Rahmatjon ukam senga...

M e l i s. Akam deng! U odam yetmishga qarab ketyapti, ena!

X o n i m. Voy, yosh ko'rinadi-ku? O'zi "opa-opa" deb yuradi doim...

M e l i s. Kerak bo'lsa, dadam tengi odam, mendan ham yosh ko'rinadi. Kerak bo'lsa! Boy otamga shu kerak-da!

X o n i m. Nimaga kerak ekan? Namuncha?.. M e l i s. Ena, o'zingizni go'llikka solmang!..

X o n i m. Mayli, mayli. Ishqilib, shu opaginangning boshini pana qilsami, devdim-da. Mayli, ikkinchi xotin bo'ladimi, uchinchimi... Xotini kasalmandroq ekan o'zi... Badavlat odam... Bu o'lguring esa anovi sarivoyi bilan qaytib yarashmoqchi!

M e l i s. Opamni qo'yib turing. Boy ota nevarangizga xaridor!

X o n i m (*taajjubi ortib*). Voy, kelin qilmoqchidir-da? O'g'illari uylangan-ku! Yo... birortasi ajrashibdimi?

M e l i s. O'g'lini boshiga uradimi, o'zi turganda!

X o n i m. Voy, voy, nimalarni valdirayapsan-a, Melis! Es-pesing joyidami o'zi? Bu go'dak-ku hali, endi o'n sakkizga kiradi-ya?!

M e l i s. Ukajoningizning nazarida mo'ljaldan ikki yosh o'tibdi... Ena! Bu yog'ini eshiting bo'lmasa! Men o'zimni mastlikka urib yotganman, saudiyalik oshnasi Doniyor hojiga aytgan: "Otalari o'rus ekan-u, ammo o'zlari jannati bir pari, ko'zlari ko'kimtir! Hayfki, yoshlari o'tib qolyapti-da. Erta-indin o'n sakkizga chiqsalar kerak..." Bu gapni men o'zim to'qiymanmi?!

X o n i m. Hoy, hoy, bas! Yum og‘zingni! Shundoq olijanob, pokdomon odamni sen bola...

M e l i s. Iflos, iymonsiz odam deng! Rasvo bir buzuqi deng! Oxiri jazosini oldi – sindi, korxona-porxonasi bilan qo‘shmazor bo‘ldi! Mana shu uyni sotib yaxshi qildingiz, ena, naqs bosib ketgan edi o‘zi. Eh-he, kimlarni qo‘ldan o‘tkazmadi bu erda!..

X o n i m (*o‘zini yo‘qotib qo‘ygan*). Hoy, bo‘ldi, bo‘ldi! Sen qayoqdan bilasan, axir? Tuhmatchi!

M e l i s (*shartta o‘rnidan turib*). O‘zim sherik edim desam, ishonarsiz?!

X o n i m (*telbalanib, boshiga “taqib” olgan ko‘zoynagini o‘gliga otadi*). Yo‘qol, iflos! He, basharang qursin! Bormasang borma, lekin bir mo‘min-musulmonni bunday malomat qilmagin- da, hayvon! (*Battar jazavaga tushib.*) Qol! Menga desa – hammang qol! O‘zim ketaman! Bitta o‘zim ketaman!

M e l i s (*onasining vajohatidan cho‘chib oshxona tomon chekinarkan*). U yoqlar ham siz o‘ylaganchalik jannat emasdir, ena! “Amerikada yashayman degan odam Kennedi aeroportiga borib tushgan zahoti ko‘krigidan yuragini yulib olib, oyog‘i ostida ezg‘ilay- ezg‘ilay, shundan keyingina dollar yurtiga qadam bosmog‘i kerak. Jahannam, jahannam!” derdi-ku anovi ukajoningiz! Esingizdan chiqdimi shu gaplar?

X o n i m (*esini yo‘qotib*). Boraman! Jahannam bo‘lsa ham – boraman! Yurakni olib ezg‘ilash kerak bo‘lsa, ezg‘ilayman! (*Sapchib turib deysinadi, oyogi ostida go‘yo nimanidir ezib-yanchadi.*)

SO‘NGGI MANZARA

Ship-shiydam xona. Devorlar yalang‘och. Gilam qoqilgan joyi oqarib turibdi, unda- bunda qoziqlarning o‘rni ko‘zga tashlanadi. To‘rdagi devor etagiga qatorlashtirib katta- kichik jomadonlar terib qo‘yilgan, har xil quti-qutichalar. Uy sotilgan, Amerikaga jo‘nash taraddudi.

Nomozshom pallasi. O‘rtadagi stol atrofida X o n i m bilan S a r d o r . L u i z a bir chetda kitob o‘qib o‘tiribdi. U har zamon yer ostidan Sardorga qarab-qarab qo‘yadi.

Xonimning avvalgi shashti yo‘q, so‘lg‘in, kasalnamo. Boshini savatdek qilib durra bilan tang‘ib olgan.

X o n i m (*qo‘lidagi “saboq daftari” – o‘sha bir varaq qog‘ozni tapillatib stolga uradi, qogoz uchib yerga tushadi*). Qurib ketsin inglizchasiyam! Qanaqa til ekan-a

Kembrij, Oksford –
Angliyaning eng qadimiy universitetlari, dunyoning eng nufuzli universitetlaridan sanaladi

bu, sira kallaga kirmaydi-ya! O‘zingiz biz bilan birga ketsangiz-chi, a, Sardorbek?..

S a r d o r (*Luizaga bir nazar tashlab*). Magistraturaga borish niyatim bor o‘zi... (Bir o‘ylanib olib.) Lekin gap qayerda o‘qishdagina emasdir. Ana, Kembriju Oksford diplomlarini qo‘ltiqlab bekor yurganlar qancha!

X o n i m. Mendayam uch-to‘rttasi yotibdi... hov sandiqda, mog‘orlab. Bugun, mana, ko‘rib turibsiz – opangiz biznesvumen!

S a r d o r. Zamon doim shunday bo‘lib qolavermas, opa...

(*Odatdagidek jiddiy maromda gapga kirishadi.*) U ham bamisoli bir kema. To‘fon turib chayqala boshlasa yo biron joyi teshilsa, unga qarshi chorasi ham topilar. Aks holda, ag‘darilib ketadi, g‘arq bo‘ladi-da. Xudo ko‘rsatmasin – yana Nuh payg‘ambar zamonidagi to‘fon deng! Tarixda necha bor takrorlangandir bunaqasi...

X o n i m (*taajjub bilan*). Nuh payg‘ambar, to‘fon... Buncha gapni qayoqdan bilasiz-a, Sardorjon?

S a r d o r (*ajablanib*). Kitoblarda bor-ku bu!

X o n i m. Kitob, kitob... Shuning o‘zi bilangina ish bitmas ekan-da, ukam! Ana – domlangiz, umrlari kitobning orasida o‘tgan...

K l a r a kiradi. Oyoq ostida yotgan haligi qog‘ozni olib, u yoq-bu yog‘iga qaraydi-da, orqa tomonini o‘girib o‘qiy boshlaydi. O‘qib bo‘lgach, onasiga uzatadi.

K l a r a. O‘qidingizmi? Sizga-ku. Dadamdan... (*U barmogi bilan ko‘zyoshini artib, oshxona tomon yuradi.*)

X o n i m (*hang-mang, qogozning orqa-o‘ngiga tikila-tikila, uni Sardorga tutqazadi*). Siz o‘qib bering, Sardorjon. Qurg‘ur ko‘zoynagimni sindirib qo‘yibman deng, ko‘zim o‘tmayapti... Bu mening ingliz tili qog‘ozim edi-ku, orqasiga qaramabmiz-da...

S a r d o r (*o‘qiy boshlaydi*). “Xonim... O‘chirilgan... Azizim Roza Hasan... O‘chirilgan... Bibirobiya! Men bu gaplarni senga ko‘pdan beri aytolmay kelardim. Jiyydaliga jo‘nashdan oldin xat qilib yozishni ma’qul bildim. Xotin! Men sening oldingda, farzandlarimning oldida behad aybdorman. O‘ylab ko‘rsam, umrim xatolarga to‘la ekan. Shu xatolar... o‘chirilgan... adashuvlar orqasida, bilib-bilmay, sizlarning ham hayotingizni barbod qilibman. Roza Lyuksemburgga havasan men seni – Roza, Klara Setkinga o‘xshatib qizimni – Klara, yolg‘iz o‘g‘limni esa, bilasan, o‘zim umrimni bag‘ishlagan g‘oya yo‘lboshchilarini eslab – Melis deb atadim. Shu ruhda tarbiyaladim. Balki ko‘pgina bema’niliklar shundan ham boshlangandir. Bo‘lmasa, menga kim qo‘yib ediki... O‘zim bir Jiyydalidan chiqqan Jo‘raqul bo‘lsam! Ko‘rmaganning ko‘rgani yomon

ekan, Bibirobiya!

Zamonni ayblamoq endi befoyda. Bari-bariga o‘zim aybdorman. Seni – bippa-binoyi musulima ayolni o‘zimcha zamonaviylashtirmoqchi bo‘ldim-a! Buning oqibatini bilganimda, xudo haqqi, uydan tashqariga chiqarmasdim seni!”.. O‘qiyveraymi? (*Sardor Xonimga qarab oladi. Xonim karaxt — miq etmaydi.*) “Albatta, men ham ko‘p qatori yangi zamondan xursandman, lekin oshkora riyokorlik, ta‘ma bilan uni olqishlash qo‘limdan kelmadi. Nachora, e‘tiqodimni o‘zgartirolmadim. Keksaygan chog‘imda to‘nimni almashtirishga nomus qildim chog‘i. Xatolardan iborat umrimda yana gunohga botmayin dedim- da. Qo‘y, huv dono Yalangto‘sh aytganidek, “Shu yo‘ldan keldim, shu yo‘ldan ketay!” Seni esa tutgan yo‘lingdan qaytara oladigan zot yo‘q bu dunyoda. U – o‘lgan. O‘sha – menman! Mayli, bilganingni qil! Ketsang ketaver Amerikangga! Men endi Jiydalida qolsam kerak. Otam-onamning xoku suyagi o‘sha yerda! Yetti pushtim o‘sha yerda! Bir kuni kelib qazom yetganida begona yurtlarda go‘rma-go‘r ko‘chib yurmayin, qo‘y! Bir yildan bu yog‘iga, o‘sha Amerikaga ketish vasvasasi boshlanganidan beri o‘ylayman. Endi qarorim qat‘iy – men bormayman!

Xatdagi ismlar nega o‘chirib to‘g‘rilangan deb o‘ylaysiz?

Klarang... o‘chirilgan... Komilangga ayt, iloji bo‘lsa, qizini biror musulmonga uzatsin, u yoqlarda ham topilar... Melis mendan ranjib yurmasin. Aytib qo‘y, undan norozi emasman. Uni yo‘rig‘imga solishga behuda uringan ekanman. Mayli, bilganidan qolmasin. Musiqachi bo‘lsa – bo‘lar, Jiydalidan ham shunaqasi chiqsa chiqibdi-da! Robiya, sendan iltimos, ketishlaringdan oldin bir borib anovi jafokash ammamizdan xabar olinglar, xo‘pmi? Ehtimol, keyinroq o‘zim kelib u kishini qishloqqa olib ketarman. Yana bir gap. Tursunboy ko‘rinib qolsa aytarsan. Mening umidimda bo‘lmasin. Ishini yozdirmoqchi bo‘lsa, boshqa birortasini topsin – men endi unaqa noma‘qulchilikka borolmayman. Umuman-ku, ilmni xor qilmay, o‘zga bir sohaning tizginini tutgani ma‘qul edi shu bola. Mayli, buyam mening bo‘ynimdagi bir gunoh. Boshidayoq otasining – paxta terimi mavsumida Mirzacho‘ldan topgan rais birodarimning yuzidan o‘tolmaganman... Ilojini topib pulini qaytarib bersang. Oxirgi gapim: anovi Rahmatullohdan hushyor bo‘l, Robiya! Ko‘ngli toza emas u odamning. Bilishimcha, Jiydaliga ham aloqasi kamroq. Uning vatani – boshqa... Bibirobiya! Xudo yor bo‘lsin sizlarga, xotin! Biz endi ko‘risholmasak kerak. Diydor qiyomatga qolmasa deb qo‘rqaman. Yana bir o‘ylab ko‘rarsan. Balki... Bor aybim uchun sening, jigargo‘shalarimning oldida tiz cho‘kib uzr so‘rayman! Rozi bo‘linglar! Alvido! Gunohkoring

Jo‘raqul”. Bo‘ldi...

X o n i m (*ayanchli bir holatda*). Qachon yozilgan ekan, qarang-chi? S a r d o r. Ikki ming birinchi yil to‘rtinchi sentyabr!

X o n i m. Bugun nechanchi?

S a r d o r. Bugun... o‘n birinchi edi shekilli.

X o n i m. Bir hafta!.. Bu odamdan nega shu kungacha darak yo‘q desam... Vasiyat, xuddi vasiyatnomaga o‘xshaydi, tavba! Stollariga tashlab ketgan ekanlar-da... Qaramabman ham. Luiza, manovi qog‘ozni qayerdan oluvding?..

Shu mahal eshik ko‘ng‘irog‘i jiringlab qoladi. Klara dahliz tomon o‘tib, eshikni ochadi.

K l a r a (*sevinib*). Ammashkam! Ammajonim keldilar!

K l a r a A s a l x o l a ni qo‘ltiqlab xonaga boshlab kiradi. Odatdagi salom-alik, achom- achom. Bu orada Sardor bilan Luiza asta sirg‘alib ichkari xonaga kirib ketadi.

A s a l x o l a. Kecha bir tush ko‘rib edim, ko‘nglim alag‘da bo‘lib, sizlardan xabar olgani keldim, aylanay.

X o n i m (*sipogarchilik yuzasidan*). Xush kepsiz, amma. Zerikmayapsizmi u yoqda? O‘rganishib ketgandirsiz?..

A s a l x o l a. Men hozir boshqa joydaman, Ro‘za... Robiyajon! Xuddi mana shu sizlarnikiga o‘xshagan bir uyda davru davron qilib o‘tiribman, aylanay.

X o n i m. Voy, nega?! U yer-chi? Nima bo‘ldi?

A s a l x o l a (*maroq bilan*). E, so‘ramang, aylanay, bu yog‘i qiziq bo‘pketdi! Yallachi kelinimiz,

“Yallachi kelin” ammani qayerga olib borgan?

Melisjonning ayolida, meni eltib qo‘ygan kurort joyda bir haftami, o‘n kunmi turdim-da. Hammayog‘i daraxtzor kattakon bog‘ deng! Bari

o‘zinga o‘xshagan qari-quri. O‘shalar bilan galalashib yurib edim, bir kuni yosh bir er-xotin kelib, meni uylariga olib ketdi. Kattalarim bilan gaplashgan bo‘lsa kerak-da, fahmimcha. O‘zlari olis bir yurtga poslami, nima deydi...

K l a r a. Elchidir-da, elchi!

A s a l x o l a. Ha-a, shunday bo‘lib ketayotgan ekan. Uch yilgami, to‘rt yilga. Er-xotin. Qizchalari o‘zlari bilan birga. O‘g‘illari esa bu yerda institutda o‘qiydi. O‘shanga qarab turish kerak ekan. Ham deng, uy-joyga egalik qilib. Biram yuvosh, biram batartib bolaki...

X o n i m. Qayoqqa ketishdi dedingiz? Amerikaga emasmi?

A s a l x o l a. Shunisini so‘ramabman-a, Robiyajon. Ishqilib, juda olis bir joy. Shuhratjon, o‘g‘illari-da, yanagi yil o‘qishini bitirsa, kelib bizniyam opketisharmish o‘sha yoqqa...

X o n i m (*betoqat bo‘lib*). Amma, sizlar mana, Klaraxon bilan gaplashib o‘tiringlar. Kechadan beri mening sal mazam yo‘qroq. Kirib birpas cho‘zilay (*U yotoq bo‘lmaga qarab yuradi*).

K l a r a. Amma, doim shuni so‘rayman deb yuraman: siz bizlarga qanday amma bo‘lasiz? O‘zingiz Asal xola-ku!

A s a l x o l a. Asal bo‘lmaylar ketay, bolam! Otim shunday bo‘lgani bilan, Robiyajon to‘g‘ri aytadi, o‘zim bir zahar, qatron! Peshonam undan battar sho‘ru sho‘ron!.. Ibi, shu vaqtgacha bilmasmiding, Kilarajon? Domlaning ko‘ngillariga kelmasin-u, aslida men sizlarga chin amma bo‘laman. Mana shu enang – Bibirobiya menga tus jiyan! Rahmatli bobongning kenja singlisiman-da. Dadang ham menga qarindosh, aylanay. To‘g‘ri, uzogrog‘-u, lekin xesh, chatishligimiz bor. Ona tomondan. Domla bilan xolavachcha bo‘lamizmi-yey, esimdan ham chiqqan, ishqilib, qarindosh-da-e! U yog‘ini so‘rasang, otang bilan enang ham bir-biriga begona emas... Aytganday, Domla ko‘rinmaydilar?

K l a r a. Bugun-erta kelishlari kerak. U yoqqa jo‘nash oldidan qishloqlarini bir ko‘rib kelmoqchi edilar.

A s a l x o l a. Ha-a... (*U yoq-bu yoqqa alanglab.*) Tayyor bo‘pqopsizlar o‘zi... Hay, qolganini eshit bo‘lmasa! Bu sho‘rpehona amming ikki qatla er qildi – ikkovi ham o‘ldi. Xudoyim birgina tirnoqni ham ravo ko‘rmadi-ya! (*Uzoq tin oladi.*) Enang Domladan qolishmayin dedimi, men ham olim bo‘laman, deb turib oldi. Bu yoqda Melisjon hali go‘dak, unga qaraydigan odam yo‘q. Shuytib kepqolganman-da men bu yoqlarga, bolam. Mana, endi Shuhratjonga qarab o‘tiribman, begona bo‘lsayam... Ishqilib, amming hamma zamondayam mehnati bilan kun ko‘rgan, aylanay. Qolgan bari bekor ekan... Hay, o‘zingdan gapir. Zerikmay-toriqmaygina o‘tiribsanmi?

K l a r a. O‘zim... (*alamnok jilmayadi*) tug‘ilgan vatanimda chet ellik begona bo‘li-ib o‘tiribman, ammajon. Bevatandek gap-da!

Tashqari eshikning qulfi shiqirlab, xonaga “O q k a p t a r” otilib kiradi. Rangida rang yo‘q. Asal xolani ko‘rib, voy, bu kampir yana nima qilib yuribdi degandek, taqqa to‘xtaydi.

“O q k a p t a r” (*jonholatda chinqirib*). Mamul! Mamu-ul!

Yotoq bo‘lmadan ko‘zlari qizargan X o n i m chiqib keladi. S a r d o r bilan L u i z a ham ko‘rinadi.

X o n i m. Ha, jonim, tinchlikmi? Nima bo‘ldi?

“O q k a p t a r” (*vahima bilan*). Eshitmadinglarmi? Voy, dahshat, dahshat! Amerika portlabdi! Portillab ketibdi, mamul!

X o n i m. Bu nima deganingiz? Voy, nega portlaydi Amerika? Tushuntirib gapirsangiz- chi, jonim! O‘zingizni bosib oling bunday...

“O q k a p t a r” (*o‘zini bosolmay*). Shu, portlabdi! Teatrda hammaning og‘zida shu gap! Televizordan ko‘rsatganmish!..

X o n i m. Televizor... yo‘q. Sotilgan... Rostmi shu gap o‘zi? Alahsiramayapsizmi ishqilib?

“O q k a p t a r”. Rost! Rost! O‘lgur terrorchilar portlatibdi! (*Yig‘lamsirab.*) Endi nima qilamiz-a, mamul? Qayoqqa ketamiz endi?!

K l a r a (*chimchilagandek*). Ketmaysiz. Qolasiz shu yerda.

X o n i m (*shilq etib stulga o‘tirib qoladi. Alam- iztirob bilan*). Da! Shuncha chopa-chop, shuncha taraddud! Shu-uncha xarajat! Endi nima qildim- a?! Uy-joy sotilgan, pul yo‘q...

K l a r a (*sovuqqina*). Qo‘ng‘iroq qilasiz Amerikaga! Rahmatjon aka anovi villani sotib, pulini jo‘natadi. Uy-joyimizni qaytarib olamiz. Shu!

X o n i m. Amerika... portlagan-ku! Pul qoladimi?! Pul yo‘q endi, pullarim yo‘q!.. K l a r a. Amerika katta mamlakat, oyi, katta mamlakat!

X o n i m. Yo‘q, qizim, ko‘chada qoldik, ko‘chada! Boshpanasiz, qup-quruq!.. Qayerda, qanday kun ko‘ramiz-a endi?..

A m m a (*qo‘rqa-pisa*). Bizlarnikida turib turarsizlar. Keng-mo‘lgina. Beminnat... K l a r a. Jiydali-chi?! Jiydaliga borasiz! Dadamning yonlariga...

X o n i m. Voy! U yerda... uy-joyimiz yo‘q-ku? Hamma har yoqqa to‘zg‘ib ketib, u yerdayam odam qolmagan deb eshitaman...

K l a r a. Biror vayrona topilib qolar...

X o n i m. Vayronada yashaymanmi hali, voy!

K l a r a. Hammayam koshonada yashamayapti-ku, oyi!

X o n i m (*alahlayotgandek*). Jiydali... uzo-oq! Qanday boramiz? K l a r a. Amerika yaqin ekanmi?!

X o n i m. Amerika... Amerika... portlagan... Shoshma, Bo‘ston nima qilayotgan ekan, so‘ray-chi? Iye, aytganday, uning ham eri ketib qolgan. Hamma... hammasi ketgan-a, tavba! U nima qilarkan endi?.. Vo-ey, shundoq charchadimki!.. Qayoqqa qaramang –portlov! Qayoqqa qaramang – portlov! Shularga qo‘shilib men ham portlab ketsam qaniydi!..

Shoshilib xonaga M e l i s kirib keladi. Bejo, bezovta.

M e l i s. Eshitgandirsizlar?

“O q k a p t a r” (*besabr*). Eshitdik, eshitdik. Portlabdi. Amerikada...

M e l i s. Jiydalida portladi... (*Xonim nogahon o‘ziga kelib, ko‘zini*

ochadi.) Bo‘ling tezroq, enajon, jo‘nash kerak! Jiydaliga!

X o n i m (hushyor tortib). Nima qilamiz u yerda?

M e l i s (bazo‘r o‘pkasini bosib). Eringizning janozasiga bormaysizmi?! X o n i m (vahima ichida). Nima?! Nima deyapsan?!

M e l i s. Dadam olamdan o‘tibdilar! To‘satdan! Haligina xabar keldi... Dadajon!..

(Ho‘ngrab yuboradi.)

K l a r a (ukasiga qo‘shilib). Voy, dadajoni-im!..

X o n i m (esi og‘ib qolgan). Iya, nega, qachon, qanday? Voy, sho‘rim!.. Endi nima bo‘ladi?!

M e l i s (yig‘i aralash). Bo‘linglar, bo‘linglar! Tez! Hozir Tursunboy keladi, jo‘naymiz!

Hamma yig‘i-sig‘i bilan xonalarga tarqab ketadi. Yolg‘iz A s a l x o l a qoladi. U tappa yerga o‘tirib oladi-da, beixtiyor kaftlarini bir-biriga urib go‘yanda boshlaydi.

A s a l x o l a. Hah, domlajon, domlajon-a! Bir keldingizu bir ketdingiz-a, domlajon-a! Sizday odam bormidi-ya, domlajon-a! Sizday olim bormidi-ya, domlajon-a! Bir avliyo, bir donosi siz edingiz! Bu uylarning podishosi siz edingiz! Jannatlardan ato etsin, domlajon- a!..

ENG SO‘NGGI MANZARA

O‘sha tanish bo‘m-bo‘sh xona. Ikki tomondan i k k i k i s h i kirib keladi. Bular –yoshgina er-xotin.

X o t i n. Yaxshi, menga yoqdi. (*Qator eshiklarni bir-bir ko‘rsatib.*) Mana bunisi – Zilolangizniki, unisi – Farruxbekka, huv anovi bo‘lsa... Kim yashagan bu yerda oldin? Qanaqa odamlar ekan? Amerikaga ko‘chib ketishdi, deganmidingiz?..

E r. Ke, shularning haqqiga bir duo qilib qo‘yaylik...

Er-xotin yonma-yon cho‘nqayib o‘tiradi.

E r. Auzi billohi minash shaytoni rajim, bismillohir rahmoni rahim...

P a r d a

Tomosha tugab, parda yopilganidan keyin ham tilovat sadolari eshilib turadi.

O‘ylab ko‘ring-chi, asarni “eng so‘nggi manzara”siz ham yakunlash mumkinmi??



1. Melis va Klaraning **ma'nisiz** hayotlari sababchisi kim? Ota- onami, o'zlarimi yoki jamiyat?

2. Sardor va o'zi hech qachon sahnada ko'rinmaydigan, hatto ovozi ham eshitilmaydigan Bo'ston obrazlarning asardagi **salmog'ini** belgilang.

3. O'z **nasl-nasabini** bilmaslikni qanday atash mumkin? Kattalarning Asal xola o'zlariga qaysi tomondan qarindoshligini unutishlari tasviri sizda qanday tuyg'u uyg'otdi?

4. Xonimning molparastligini tushunish mumkindir, lekin "**amerikaparast**"ligini qanday izohlasa bo'ladi? Undagi Amerikada yashash vasvasasi o'zbek xalqidagi qaysi **maqolni** yodga soladi?

5. Chet o'lkaga ketishni **istamagan** ko'ngil nolalariga e'tibor bering. U Jiydalida qolish qarorini nega yuzma-yuz aytmadi, aynan **maktubga** muhrladi?

6. Domlaning **tug'ilgan joyiga** intilishida qaysi azaliy haqiqat mujassam?

7. Domlaning maktubini ovoz chiqarib o'qib ko'ring. Maktubni Domlaning o'zi o'qiganda bu maktub qanday **ohangda** o'qilardi?

8. Nega Domla o'tmishidagi **xatolarini** kechira olmadi?



MUTOLAADAN SO'NG ...

Asarni tahlil qilamiz:

1. Aziz o'quvchi, mana **qanoatsizlik** pand berishining guvohi bo'ldingiz. Falokat sodir bo'lmaganda qahramonlarimizni begona yurtda qanday hayot kutib turgan edi deb o'ylaysiz?

2. Asar qahramonlarini **hayotiy savollarga** tinimsiz javob izlayotgan va savol berilganini ham bilmaydigan insonlar guruhiga ajrating.

3. Domla obraziga **baho** bering. Domlaning qaysi qirralari sizga ma'qul bo'ldi? Qaysilari ma'qul bo'lmadi?

4. Xonimning **ichki dunyosiga** taftish uyushtiring. Nima deb o'ylaysiz, zamonaviy ayol botinida sodda tikuvchi Robiyadagi biror xususiyatlar saqlanib qolganmikan?

5. Domla va xonim, ota-ona va farzandlar, Melis va "Oq kaptar" **munosabatlariga** baho bering. Bu munosabatlarda samimiylilikni ko'ryapsizmi? Samimiyatsiz munosabatlar qanday yakunga mahkum?

Nazariy bilimlarimizni rivojlantiramiz:

6. Sizningcha, asardagi qaysi obrazlar **dinamik** obrazlar? Bu obrazlardagi o'zgarishlar sababi nimada?
7. Asar qahramonlari **tili** ularning xarakterini qay daraja ochib bera olgan?
8. Asarning **kulminatsion** nuqtasini aniqlang. Nega aynan shu joyni kulminatsiya deb hisoblaysiz?

Yozma nutqimizni rivojlantiramiz:

9. Sizningcha qahramonlarningi **keyingi hayoti** qanday kechadi? Asarni o'zingiz tasavvur qilgandek yakunlab kichkina sahna asari yozing.

Asarning kino talqini bilan ishlaymiz:

10. "Jannat qaydadir" filmini tomosha qiling. Sizningcha, **aktyorlar** to'g'ri tanlanganmi? Siz rejissyor sifatida bu asarni sahnalashtirsangiz qaysi aktyorlarni taklif qilgan bo'lardingiz?

Hayot bilan bog'laymiz:

11. Qahramonlar taqdirida **kechagi va bugungi** kunimiz bilan bog'liq qanday mushtaraklikni kuzatdingiz?
12. Hech "**oqimga qarab suzadiganlar**" toifasidagi kimsalarga duch kelganmisiz? Ular tayanigan a'mollarni tahlil qiling.



TAKRORLAYMIZ ...

Siz bilan hozirgi davr adabiyotining ayrim namunalarini tahlil qildik. Endi bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz.

1. O'qilgan asarlar bo'yicha **ma'lumotlarni** quyidagi jadvalda umumlashtiring:

	Faxriyor she'rlari	"Maymun yetaklagan odam"	"Jannat o'zi qaydadur"
Janri			
Asosiy mavzulari			
Badiiy xususiyatlari			

Oldingi davrlarda yaratilgan asarlar bilan o‘xshash jihatlari			
Oldingi davrlarda yaratilgan asarlardan farqli jihatlari			

2. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatiga xos **yorqin xususiyatlar** klasterini tuzing.

3. So‘nggi yillarda yaratilgan **nasriy asarlarni** o‘qib-o‘rganib, quyidagi belgilariga ko‘ra ularni berilgan jadvalga qayd eting:

An‘anaviy sujet va uslubdagi asarlar	Noan‘anaviy sujet, obraz va uslubdagi voqeyiy asarlar

4. Sizningcha, bugun teatr sahnalarida ommalashayotgan dramatik asarlarni badiiy va professional jihatdan **mukammal** deb bo‘ladimi? Fikringizni biror asarni sahna varianti bilan qiyoslab asoslashga harakat qiling.

XULOSA

Adabiyot o'qitishning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadi o'quv materillarini ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida milliy tajribalarga uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi o'quvchilarga adabiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga doir yondashuvlarni rejalashtirishga chambarchas bog'liq. Zero, ayrim qahramonlarga berilgan bahoni o'quvchilar barcha adabiy qahramonlar tegishli deb bilmasliklari zarur.

So'z adabiyot o'qitishni tashkil etish va o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish masalasi xususida borar ekan, u didaktika, tarix, mantiq, tilshunoslik, san'atshunoslik kabi pedagogikaning qator tarmoqlari hamda adabiyotshunoslik ilmi yutuqlaridan foydalanish, badiiy ijod qonuniyatlariga tayangan holda ish ko'rishni taqozo etadi. Aynan shu sabablarga ko'ra so'z san'ati saboqlari adabiy ta'lim jarayoniga safarbardir.

Adabiyot darslarida so'z san'atining maqsad va vazifalari e'tiborda tutiladi. Xususan, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarni badiiy asarda zamon va makon birligi, personajlarning sujet va kompozitsiyadagi o'rni, peyzaj, portret, detallarning qahramonlar xarakteridagi takomilidagi vazifasi, yozuvchi qo'llagan tasviriy ifoda vositalari kabi nazariy tushunchalar bilan tanishtirib boradi. Bu esa, so'z san'ati hisoblangan adabiy namunalarni o'zlashtirishda san'at qonuniyatlari muhim dasturulamal bo'lishini belgilab beradi. Shu o'rinda ta'lim oluvchilarda mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan mazkur qo'llanma adabiy ta'limning muhim talablaridan sanalgan ma'naviyatni yuksaltirish va estetik did rivoji orqali barkamol shaxs tarbiyalash maqsadiga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan yaratilganligini ta'kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.// <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so‘zi. – T., 2019-yil 30-aprel. № 88 (7318).
3. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. 5-11-sinflar. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T.: 2017-yil, 14 (774)-son. 230-modda.
4. Nazar Eshonqul. Mendan “men”gacha. – T.: Akademnashr, 2014. – 512 b.
5. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. –T.: Sharq, 2008. – 400 b.
6. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. – T.: Sharq, 2013. – 320.
7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3 jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.
8. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6 jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11 jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 608 b.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 608 b.
11. Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар ва дostonлар. – T.: Шарқ, 2000. – 256 б.
12. Эркин Аъзам. Жаннат ўзи қайдадир (драматик қисса). – T.: www.ziyouz.com kutubxonasi.
13. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 1965. – 745 б.
14. Alisher Navoiy. Xamsa. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 496 b.
15. Шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Назм дурдоналари. – T.: Шарқ. 1996. – 70 б.

MUNDARIJA

Kirish	3
Xalq og‘zaki ijodi: “Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumi	5
“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidan	6
Qadimgi turkiy adabiyot va XI –XIV asrlar adabiyoti	17
Mahmud Koshg‘ariy	18
“Devoni lug‘otit turk”	19
Yusuf Xos Hojib	26
“Qutadg‘u bilig”	26
Nosiruddin Rabg‘uziy	31
“Qisasi Rabg‘uziy”	31
Takrorlaymiz ...	40
Mumtoz o‘zbek adabiyoti	41
Alisher Navoiy	41
“Saddi Iskandariy”	44
Zahiriddin Muhammad Bobur	71
Bobur g‘azallari	71
Takrorlaymiz ...	77
Rauf Parfi	78
“Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon”	80
Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti	83
Faxriyor	87
She‘rlar	89
Nazar Eshonqul	92
“Maymun yetaklagan odam”	94
Erkin A‘zam	106
“Jannat o‘zi qaydadir yoxud Jiyyalidan chiqqan Jo‘raqul”	108
Xulosa	160
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	161

SAODAT KAMBAROVA

ADABIY TA'LIMDA ZAMONAVIYLIK
tajriba va motivatsiya

Uslubiy qo'llanma

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 9.12.2021.

“Times New Roman” garniturasini. Qog'oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog'i 10,25. Adadi 100 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.